O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MIGRATSION JARAYONLARNING MAFKURALAR VA MADANIYATLARGA TA’SIRI: MUAMMO VA YECHIMLAR

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI TO‘PLAMI

6-7-noyabr 2024-yil

UO‘K 325.1:005.44(08)
BBK 60.7ya43
G 57

Globallashuv sharoitida migratsion jarayonlarning mafkuralar va madaniyatlarga ta’siri: muammo va yechimlar [Matn] / muharrirlar J.X.Karshibayev, N.Jo‘rayev, V.A.Alimasov, A.Q.Qodirov, N.A.Saidkulov. – Sirdaryo: Ziyo nashr-matbaa, 2024. -380 b.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200 qarori 9-bandida belgilangan topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyruqqa asosan o‘tkazildi.

Konferensiya materiallari to‘plamidagi maqola va tezislar tahlil hamda hisob metodlarini qo‘llash va takomillashtirish yo‘nalishida ilmiy izlanishlar olib borayotgan professor-o‘qituvchilar, ilmiy xodim-izlanuvchilar, magistrantlar hamda talabalar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

Mas’ul muharrirlar:
J.X.Karshibayev, b.f.d. professor.
N.Jo‘rayev, s.f.d. professor.
V.A.Alimasov, f.f.d. professor.
A.Q.Qodirov, f.f.d. professor.
N.A.Saidkulov, s.f.b.f.d (PhD), dotsent.

Taqrizchilar:
B.A.Talapov, f.f.d. professor.
A.I.Saitkasimov, f.f.d. professor.
A.A.Tulyaganov, y.f.d. professor.
M.X.Baratov, y.f.d. professor.

Tahririyat hay’ati:
N.Saidkulov, A.Mansurov, N.Tursinkulov, Y.Karimov, X.Yarbayev, Sh.Isaxova, D.Xolnazarova, O.Yusupaliyev, A.Asatulloyev.

ISBN 978-9910-669-44-6

© **“Globallashuv sharoitida migratsion jarayonlarning mafkuralar va madaniyatlarga ta’siri: muammo va yechimlar”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, **2024**

© “Ziyo nashr-matbaa” nashriyoti, 2024

KIRISH

Bugungi zamonaviy dunyoda juda ko‘plab muammolar mavjud bo‘lib, ularni bartaraf etish insoniyat uchun tobora dolzarblashib bormoqda. Glabol miqyosda insoniyat sonining oshib borishi ishsizlik, oziq-ovqat yetishmasligi, uy-joyga bo‘lgan ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa xalqaro miqyosda migratsion jarayonlarning jadal suratlarda rivojlanib ketishiga zamin yaratmoqda.

Migratsiya - bu murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, u jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilmasiga chuqur ta’sir ko‘rsatadi. Uning ta’siri ijobiy ham, salbiy ham bo‘lishi mumkin. Migratsiya yangi g‘oyalar, madaniyatlar va urf-odatlarni olib keladi, bu esa jamiyatni boyitadi va xilma-xil qiladi. Migrantlar ishchi kuchi bozoriga yangi energiya va ko‘nikmalar olib keladi, bu esa iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Yangi texnologiyalar va biznes g‘oyalarini olib kelishi mumkin. Bu esa jamiyatning innovatsion qobiliyatini oshiradi. Migrantlar va mahalliy aholining o‘zaro aloqasi ularning bir-birlarini tushunishini va hurmat qilishini oshiradi. Natijada, ijtimoiy hamjihatlik mustahkamlanadi.

Shu bilan birga, madaniy farqlar va til to‘siqlari tufayli migrantlar va mahalliy aholi o‘rtasida konfliktlar paydo bo‘lishi, migrantlarning ko‘p sonli kelishi jamiyatning ijtimoiy tartibini buzishi, ishchi kuchi bozoriga raqobat yaratishi mumkin. Bu mahalliy aholi uchun ishsizlik darajasini oshiradi. Migrantlarning ko‘p sonli kelishi jamiyatning resurslariga ham ta’sir qilishi mumkin.

Migratsiyaning ta’siri migrantlarning soni, ularning integratsiyasi darajasi va jamiyatning ularga bo‘lgan munosabati kabi omillarga bog‘liq. Jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish uchun migrantlarning integratsiyasini osonlashtirish, ularning malakalarini tan olish va ularga ishga joylashish imkoniyatlarini yaratish kerak.

Xalqaro migratsiya - bu nafaqat geografik harakat, balki chuqur mafkuraviy o‘zgarishlarni ham o‘z ichiga oladigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayon mafkuraviy jarayonlarga ta’sir o‘tkazmay qolmaydi. Migratsiya milliylik tushunchasini qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Migratsiya turli madaniyatlarning o‘zaro ta’sirini kuchaytiradi, yangi madaniy shakllar va identifikatsiyalarni shakllantiradi. Shu bilan birga siyosiy fikrlarni shakllantirishga ta’sir qiladi.

Migratsiya global miqyosda siyosiy va ijtimoiy muammolarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartiradi. Masalan, iqlim o‘zgarishi, qochqinlar muammosi va global terrorizm kabi masalalar migratsiya bilan bog‘liq holda ko‘riladi. Migratsiya madaniy almashinuvni tezlashtiradi. Oziq-ovqat, musiqa, san’at va moda kabi madaniy elementlar bir-biriga o‘tadi. Migratsiya qadriyatlarga bo‘lgan munosabatni o‘zgartiradi. Tolerantlik, ko‘p madaniyatlilik kabi qadriyatlar muhimroq bo‘lib qoladi. Migratsiya madaniy identifikatsiyani qayta ko‘rib chiqishga majbur qiladi. Migrantlar o‘zlarining an’anaviy madaniyatlarini saqlab qolish bilan birga, yangi madaniyat elementlarini ham qabul qilishlari mumkin. Ushbu jihatlarni hisobga olgan holda, tadqiqotlar, anjuman va konferensiyalar o‘takazish nihoyatda dolzarbdir.

Guliston davlat pedagogika institutida o‘tkazilayotgan “Globallashuv sharoitida migratsion jarayonlarning mafkuralar va madaniyatlarga ta’siri: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya soha mutaxassislarini ushbu masalani tadqiq etish, globallashuv sharoitida migratsion jarayonlar bo‘yicha muammolarni o‘rganish, olib borilayotgan yangi tadqiqotlar bilan tanishish, xorijiy tajribalarni o‘rganib, ularni amaliyotda qo‘llash, xalqaro migratsiyani shakllantirish bo‘yicha istiqboldagi islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, muammolarni zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir. Mazkur anjuman yurtimiz va chet el tadqiqotchilarining sa’y-harakatlari natijasi bo‘lib, zamonaviy dunyoda xalqaro migratsiyaning jamiyat taraqqiyotiga ta’siri, mafkuraviy jarayonlarga ta’siri, madaniyatlar o‘zgarishidagi o‘rni, migratsion jarayonlarning ijobiy va salbiy jihatlari o‘rganilib shu bo‘yicha yechim va takliflari ilgari surilgan. Ushbu anjuman materiallari migratsion jarayonlarni tadqiq etayotgan mutaxassislar malakasini oshirishga yordam beradi degan umiddamiz.

Guliston davlat pedagogika instituti
rektori J.X.KARSHIBAYEV

1-shu’ba:
MIGRATSIYANING IJTIMOIY-MADANIY JARAYON SIFATIDA JAMIYAT TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

ВЛИЯНИЕ МИГРАЦИИ КАК СОЦИОКУЛЬТУРНОГО ПРОЦЕССА НА РАЗВИТИЕ ОБЩЕСТВА

THE IMPACT OF MIGRATION AS A SOCIO-CULTURAL PROCESS ON THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

ИЧКИ МИГРАЦИЯ ВА ШАҲАР МАДАНИЯТИ: РЕТРОФАЛСАФИЙ ЁНДАШУВ

В.А.Алимасов
Фалсафа фанлари доктори, Ўзбекистон ДСМИ профессори

Аннотация: Мақолада ички миграциянинг кўринишларини, уларнинг цивилизация ва шаҳар маданиятининг шаклланишига таъсири ретрофалсафий очиб берилади. Замонавий шаҳарларнинг қишлоқ, аул, туман аҳолисининг миграциясига таъсири масалалари муҳокама қилинади.

Калит сўзлар: Ички миграция, урбанизация, шаҳар маданияти, қишлоқ турмуш тарзи, меҳнат тақсимоти.

Илмий адабиётларда “ички миграция” деганда шаҳар, қишлоқ, аул, туман аҳолисининг турар ёки иш жойини алмаштириши натижасида бир ҳудуд, бир давлат ичида силжиши назарда тутилади. Ушбу силжишлар натижасида “шаҳар ва қишлоқ”, “шаҳар маданияти” ва “қишлоқ турмуш тарзи”, “агломерация”, “урбанизация”, “шаҳарликлар ва қишлоқликлар” каби, ўзининг фалсафий-этимологик ва этнологик моҳиятига эга тушунчалар пайдо бўлган. Маданият тарихи ва этнологик тадқиқотлар кўрсатадики, кишилик жамияти аҳоли агломерацияси, маълум бир ижтимоий-жуғрофий маконда тўпланиши билан боғликдир. Ўлкамиз ҳудудларидаги илк шаҳар-давлатлар, яъни Сўғд, Бақтр, антик даврдаги Крит, Афина каби полис-шаҳарлар аҳоли агломерациясининг маҳсуллари эди. Ижтимоий меҳнат турларининг кенгайиши ва аҳамиятининг ошиши кооперацияга бўлган қизиқишни оширди, тўпланиб меҳнат қилиш, ҳамкорликда яшаш, бир бирининг тажрибасидан баҳраманд бўлиш ижтимоий тараққиёт шартига айланди (1;2;3). Меҳнат тақсимоти, касбий дифференциация эса, таниқли социолог Э.Дюркгейм фикрига кўра, “ижтимоий ҳамкорлик ва меҳнат инсоният, жамият, цивилизация” учун кучли катализатор ролини бажардики, кейинги бутун тараққиёт уларга таянади (4, С.147-152). Маданият, тафаккур, онг каби воқеликлар инсоният ҳаётига қанчалик таъсир қилган бўлса, меҳнат тақсимоти, касбий дифференциация ҳам ижтимоий тараққиётга шунчалик кучли таъсир қилган. Мазкур жараёнларда агломерация ва миграциянинг ўрни катта эди. Масалан,

эр.авв. III-II минг йилликларга тааллуқли Аргос, Кнос, Фест, Гурниа, Микен шаҳарлари йирик агломерация марказлари сифатида Крит-Микен маданиятини шакллантирган. Ғарбий Европа маданияти ва цивилизацияси ана шу Крит-Микен маданиятидан униб чиққан. Агломерация ва миграция жараёнлари шунчалик кенг эдики, уларни Италия ва Ғарбий Европа халқлари ижтимоий, иқтисодий, ҳатто сиёсий кооперациялашувининг энг муҳим босқичи эди, дейиш мумкин.

Шахснинг шаклланишига этномаданий муҳит, турмуш тарзи, қадриятлар тизими, ахлоқий императивлар, оилавий муносабатлар таъсир этади, бу аксиома. Демак, шаҳар кишиси ва қишлоқ аҳолиси ўртасида маълум бир этномаданий фарқлар бўлиши шарт. Қишлоқда шаклланган шахснинг шаҳар талабларига кўниколмай юриши одатий ҳолдир. Қишлоқда ижтимоий муносабатлар доираси чекланган, мулоқот субъектлари саноқли, меҳнат тақсимоти шаҳарникидан кескин фарқ қилади. Олимларнинг ҳисоб-китобларига кўра, бугун шаҳар кишиси бир кунда ўтган асрда қишлоқ кишиси умри бўйи мулоқотга киришган кишилар сонига тенг шахслар билан турли муносабатларга киришади. Супермаркет кассасида ўтирган қизча ёки шаҳар автобусини ҳайдовчи бир кунда ўртача туман аҳолиси сонига тенг кишиларга дуч келади, уларга хизмат қилади. Мулоқот жараёнларининг экстенсив кечиши янги-янги субъектларни ўз доирасига тортади, қишлоқ, аул ва туманлардан аҳоли оқимини оширади. Бундай кенгайишдан шаҳар ҳам, қишлоқ аҳолиси, айниқса қишлоқ ёшлари ҳам манфаатдор. Шунинг учун ҳам дунёда йирик шаҳарлар, яъни мегаполислар барпо этиш тенденцияси қарор топган. Дунё аҳолисининг 60 фоизи бугун шаҳарлада яшайди, миллионер шаҳарлар сони кейинги юз йил ичида 60 дан 704 га етган. Ўзбекистон ҳам миллионер шаҳарлар барпо этишга интилади. Тошкентдан кейин Наманган миллионер-шаҳарлар қаторига қўшилади.

Шаҳарлашиш жараёнлари агромуносабатларга, қишлоқ турмуш тарзига таъсир этмай қолмайди. Шаҳарлашиш қишлоқ ҳаётини, турмуш тарзини ютиб юборади, деган фикр баъзан учрайди. Қишлоқ ёшларининг шаҳарларга интилиши, ўқиш ва иш қидириш сабабли шаҳарга келиши одатий ҳолга айланган. Шаҳар маданияти ва урбанизацияси қишлоқ ёшларида қизиқиш уйғотиши кузатилади. Шогирдларимдан бири ўтказган социологик сўровнома натижалари кўрсатадики, респондентларнинг 72 фоизи шаҳар ҳаёти қишлоқникидан қизиқарли, завқли ва мафтункор, деб кўрсатади. Уларнинг 51 фоизи эса шаҳарда иш топиш, 49 фоизи ўқиш, касб орттириш имконлари мавжуд, деб жавоб беради. Респондентларнинг 68 фоизи келгуси ҳаётини шаҳар билан боғлаш ниятидадир. Демак, қишлоқ миграцияси шаҳар ҳаётига, маданиятига ҳам субъект, ҳам объект сифатида таъсир этади.

Қишлоқ аҳолисининг субъектлиги шаҳар ҳаётига табиатни, қўл меҳнатини севиш, қўшнилар билан аҳил яшаш, қариндошлик анъаналарини сақлаш, диахрон алоқаларга таяниш кабиларни олиб киришда намоён бўлади. Сир эмаски, шаҳар кишилари бу қадриятларга зарур эътибор беравермайди.

Қишлоқ аҳолиси шаҳардан билим, маърифат олиш, касб орттириш, интеллектуал меҳнатга, вақтдан унумли фойдаланишга, мароқли дам олиш орқали бадиий-эстетик дидини тарбиялашга ўрганади. Бу уни шаҳар маданияти объектига айлантиради.

Субъект-объект бўлиш силлиқ кечмайди. Демак, шаҳар маданияти (кишиси) билан қишлоқ маданияти (кишиси) ўртасида этномаданий тажрибалардаги фарқлар сақланиб қолади. Масалан, лаҳжалар таъсири шахснинг умри охиригача сақланади. Шаҳарга кўчиб келган қишлоқ кишиси чоп-чопларга, саҳарда ошга боришга, ўз вақтида сувга, газга тўловларни амалга оширишга, қўшнилари ўртасидаги "сан-ман"га кўниколмай юради. Қишлоққа борган шаҳар кишиси эса икки кундан кейин зерика бошлайди ёки ўчоқда овқат пиширириш, молхонани тозалашдан "исён" кўтаради. Тўғри, мазкур ўзига хосликларга инсон кўникиши мумкин, аммо реал ҳолат шаҳар ва қишлоқ маданиятида, уларга кўникишда сезиларли зиддиятлар борлигини кўрсатади.

Қишлоқ миграциясини рационал ташкил этиш давлат сиёсати билан боғлиқдир. Қишлоқни цивилизация ютуқларидан баҳраманд қилиш, янги иш ўринлари яратиш, кичик бизнесни ва маданий хизматлар кўрсатишни қўллаб-қувватлаш миграция

жараёнларигатаьсир этмай қолмайди. Қишлоқ миграциясини тўхтатиш имкони йўқ, унинг кераги ҳам йўқ. Бироқ этномаданиятдаги ранг-баранглик қишлоқ маданияти орқали эканини унутиб бўлмайди.

Адабиётлар

1.Қаранг: Пивоваров Ю.Л. Современная урбанизация. -Москва:РОУ, 1994.

2: Қаранг: Заборова Е.Н. Социологический анализ городского социального пространства. -Екатеринбург: ЕГУ, 1996.

3. Қаранг: Пугаченкова Г.А. Градостроительства и архитектура. Культура среднего Востока. -Тошкент: Фан, 1989.

4. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. -Москва: Наука, 1991.

ОЛИЙ ҚАДРИЯТ ТИЛСИМИ: ИНСОН ВА ҲАЁТ ФАЛСАФАСИ (ЧИНГИЗ АЙТМАТОВ ИЖОДИ МИСОЛИДА)

Нарзулла Жўраев
Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети профессори, сиёсий фанлар доктори.

Аннотация. Инсоният глобал аҳлоқий таназзул, қадриятлардан узоқлашиш жараёнини бошдан кечирмоқда. Худбинлик, манфаатпарастлик, инсоний фазилатларнинг йўқолиб бориши ўзини-ўзи сўндириш кайфиятини чуқурлаштирмоқда. Бу башарият тақдирига таҳдид солмоқда. Инсониятнинг минг йилликлар мобайнида тўплаган қадриятларини барбод этмоқда. Бундай умумпланетар маънавий, аҳлоқий, руҳий ўзгаришлар атоқли адиб Ч. Айтматов инсон ва ҳаёт фалсафасининг асосини ташкил этади. Ер шари ҳаммамизнинг, 8 млрд одамзотнинг ягона нажот майдони, бугуни ва истиқболи, саодати ва таназзули билан боғлиқ бўлган умуминсоний ғоя илгари сурилади.

Калит сўзлар: глобал, Ер шари, инсон, аҳлоқ, маънавият, фан-техника, цивилизация, генетика, эмбрион, космос, зурриёт, олам, табиат, исён.

Инсоният ҳаёти ривожланиб боргани сари глобал тараққиёт глобал муаммоларни ҳам келтириб чиқармоқда. Бугун бир миллат ўз миллий қобиғида тўлақонли, бахтли, саодатли яшаши мумкин бўлмай қолганлигини дунё чуқур англамоқда. Ўзаро бир-бирини тушуниш, бир-бирини англаш, бир-бирини қадрият сифатида баҳолай билиш эҳтиёжи ошиб бормоқда. Маданиятлараро мулоқотнинг қалб билан, онг билан, тафаккур билан ва қолаверса, иймону эътиқод билан боғлиқ эканлигини англаш долзарб масалага айланмоқда.[1] Ана шундай маънавий-руҳий бўҳронлар жараёнида миллати, элати, диний эътиқоди, танасининг ранги ва ақидаларидан қатъи назар умумий хонадонимиз бўлган Ер шарини асраш, унинг истиқболи олдида жавобгарликни чуқур ҳис қилиш Чингиз Айтматов ижтимоий фалсафасининг бутун мазмунига айланган. Инсон виждонини уйғотиш, унинг иймонини жонлантириш, мардлик, жасурлик, инсонпарварлик туйғуларини қўзғатиш ҳисси адиб асарларининг туб моҳиятини белгилайди. Инсон ўзининг инсон эканлигини унутмаслиги, ўзини ўзи қадрият сифатида англаши ва жамият ҳаётида ўзини қадриятга айлантира олиш орзуси Чингиз Айтматов бадиий тафаккурининг таянчи ҳисобланади.

Адабиётга маънавий-ахлоқий, маърифий-руҳий эҳтиёж нуқтаи назаридан қарасак, у ҳар бир инсон дунёқараши, ақлий салоҳияти, тафаккур тарзи бевосита ижтимоий моҳиятга эгалигини ва бу моҳият инсониятнинг бугуни ва истиқболини белгилайдиган асос эканлигини чуқур англаймиз. Чингиз Айтматов тасаввурида инсоннинг ҳар томонлама баркамол ривожланиши улкан ижтимоий-тарихий жараён. У доимий равишда ўзини ўзи

[1] Фукуяма Ф. Конец истории и последнқй человек. Аст. М.; 2004

бойитиб, ривожлантириб, такомиллаштириб борадиган тирик ҳодиса. Инсоннинг маънавий-ахлоқий, маърифий-руҳий даражаси жамият моҳиятини, тақдирини белгилайди.

Чингиз Айтматов фалсафий тафаккурининг бутун моҳиятини умуминсоний қадриятлар ташкил этади. Қирғиз болакайи ("Оқ кема")[1] ва Жамилага ("Жамила")[2] ўхшаган бева келинчак сингари оддий одамлар қалби орқали бутун инсоният – у япон бўладими, инглиз бўладими, хитой ё араб бўладими, рус ёки ўзбек бўладими, бундан қатъий назар, инсон кечинмаларини, орзулари ва армонларини, севинчлари ва ситамларини юксак маҳорат билан баён этади ва умуминсоний кечинмалар чўққисини ташкил этади. Шунинг учун Ер юзидаги саккиз миллиард одам Айтматов образларида ва ғояларида ўзини кўради.

Бундай ғоятда кенг тафаккур ва маънавий-руҳий занжир одамларни авлоддан авлодга боғлаб туради, оламни яхлитлигича англашга ва бир бутун Ер шари тақдири учун жавобгар эканлигини, масъуллигини тушунишга чақиради. Охир-оқибатда Ер шари бизнинг ҳаммамизнинг умумий хонадонимиз, нажот майдонимиз, бугунимиз ва истиқболимиз, бутун саодатимиз ва таназзулимиз билан боғлиқ бўлган муқаддас маконлигини англашимизга олиб келади. Инсонпарварлик ғояларининг узундан узоқ, мингйилликлар қаъридан бугунгача давом этиб келаётган қадриятларини ривожлантиришни, уларнинг генетик асосларини чуқур ўзлаштириш орқали тўпланган маданий қадриятлар ва ақлий тажрибаларни ишга солишимизни тақозо этади. Ч.Айтматов ғоялари ана шундай умумсайёравий моҳият касб этади.

"Сомон йўли"[3] қиссасида уруш йиллари фожеаларини ифода этилади. Асар бош қаҳрамони ёши улуғроқ Тўлғаной-она ва Она-Ер мулоқоти тарзида яратилган. Она образи айтиш мумкинки, Ер юзидаги барча аёлларнинг кечинмаларини, қалб изтиробларини, севинчларию андуҳларини ўзида мужассам этган. У тинчликни истайди, бахтли, саодатли ҳаётни қўмсайди. Зотан, хотиржам яшаш, осудалик билан турмуш кечириш инсоният орзуси! Бироқ Тўлғаной уни ҳаммадан кўра чуқурроқ тушунади, ҳаммадан кўра кенгроқ тасаввур қилади. Инсон – Она ва Она-замин ўртасидаги мулоқот, кўнгил изҳори, дарду ҳасратлар, нафрату муҳаббат муножоти фалсафий-бадиий оҳангда баён этилган. Бу мулоқотда тинчлик ва инсонпарварлик, ватанга муҳаббат, ижтимоий тараққиёт ва саодатли ҳаёт бош ғоя қилиб олинган. Тарихий тақдирнинг аянчли даврида инсон моҳияти ва унинг ижтимоий мазмуни ғоятда юксак даражада ифода этилади. Бу хаёт фалсафасини бадиий талқини эди.

Инсон буюк кашфиётлар, оламшумул ихтиролар қилиш билан бирга айни ана шу умумсайёравий тараққиётни издан чиқаришга, инсоният мингйилликлар мобайнида эришган юутуқларини барбод этиш қудратига ҳам эга. Шу билан бирга инсон баъзан шу даражада майда, тор манфаатлар қурбонига айланиб қоладики, бу ўзининг шахс сифатидаги қадриятини мутлақо англамасликдан, ўзини ўта майдалаштириб қўйганидан келиб чиқади. Дейлик, кундалик маиший ҳаётда икки қўшни бир қарич ер устида талашади. Бири "Ана шу бир қарич ер маники" деса, бошқаси "Сеникимас, меники" дейди. Ёқалашишади, юз кўрмас бўлиб кетишади. Ваҳоланки, уларнинг оёғи остида жимгина турган, инсоннинг ниҳоятда тубан, разил, пасткаш, худбин ва майдалигидан қалби зардобга тўлган Замин эса "Сенларнинг иккаланг ҳам меники" деяётганини англашмайди. Момо Ер ғоятда марҳаматли, мурувватли, мушфиқ ва меҳрибон эканлигини тасаввур ҳам қилишмайди. Чингиз Айтматов фалсафасида оддий кундалик ҳаётдаги келишмовчиликлар, зиддиятлар, қарама-қаршиликлар, ўта тор манфаатипарастлик устун келган ҳолатлар орқали инсон фожеаси ғоятда чуқур таҳлил қилинади. Тўлғаной она ва Она-Ер мулоқоти ана шу тарзда умуминсоний тафаккурнинг буюк чўққисига айланади.

Тўлғаной онанинг изтироблари кишилик жамияти тақдири, инсон моҳияти, унинг маънавий-ахлоқий олами ва мураккаб, зиддиятли феъл-атвори орқали намоён бўлади. Чингиз Айтматовнинг тафаккур дунёси, унинг буюк идеаллари Тўлғаной она кечинмаларида ўз ифодасини топган. Инсон қандай жонзот?, У қандай олам?,- деган саволга она кечинмалари

[1] Айтматов Ч. "Оқ кема". Янги аср авлоди. Т. ; 2007
[2] Айтматов Ч. "Жамила". Асарлар тўплами. Янги аср авлоди. Т. ; 2008
[3] Айтматов Ч. "Жамила". Асарлар тўплами. Янги аср авлоди. Т. ; 2008

орқали жавоб излайди. Тўлғаной она тимсолида миллати, ирқи ва мақсадларидан қатъий назар барча оналарнинг орзу-армонларини Ер шари тақдири билан боғлиқ бўлган ва инсоният истиқболи учун жавобгарликни ҳис қилган мушфиқ ва меҳрибон, эзгулик тимсоли бўлган умумбашарий Она образини яратади.

Момо-Ер – одамзотнинг онаси. Ер юзидаги саккиз миллиарддан ортиқ инсонга ризқу рўз, ҳаёт, бахт, саодат ҳадя этаётган замин кечинмалари юксак фалсафий мушоҳада тимсолига айланган мушфиқ онанинг ғамгусор, қалби яраланган, руҳияти шикаста, айни пайтда улуғвор ва маҳобатли Она тимсолидир. Фалсафий мушоҳада шу даражада чуқурлашиб, умуминсоний моҳият касб этадики, Ер шарининг, бутун мавжудоднинг ўтмиши, бугуни ва истиқболи ниҳоятда дардчил, айни пайтда баланд оптимистик кайфиятда кашф этилади. Бу Айтматов фалсафасининг ғоятда кенг қамровли космик кенгликлар тимсолидаги кўринишидир.

Жуда тез ўзгараётган дунё, тобора авж олаётган манфаатлар тўқнашуви, худбинлик ўзининг янгидан янги қирраларини намоён қилаётган мураккаб бир шароитда инсон кечинмаларини, қалб изтиробларини икки мўътабар она тимсолида кўриш мумкин. Бу умумдунёвий ва умуминсоний ҳаёт тақозоси, истиқбол олдидаги жавобгарликнинг ёркин намунаси сифатида ҳар бир одам мудроқ қалбининг уйғонишига, виждонининг покланишига олиб келади.[1] Натижада, Чингиз Айтматов фалсафаси инсон ва инсоният, одам ва олам истиқболи билан боғлиқ бўлган буюк тафаккур сифатида ўз қудратини намоён этади.

Айтиш мумкинки, Чингиз Айтматов асарларида битта яхлит ва узлуксиз тизим, маънавий-ахлоқий қарашлар илгари сурилади ва у концептуал моҳият даражасига кўтарилади. Айтматов маънавий-ахлоқий концепциясининг маънавий парадигмасида халқ оғзаки ижоди, афсоналар, асотирлар, ривоятларнинг бир неча минг йиллик анъанавий эволюцияси, унинг тадрижий ривожи ва кишилик тараққиёти жараёнларидаги ўрни катта аҳамият касб этади. У оддий ривоятлардан, афсоналардан умуминсоний мантиқ излайди ва уни муваффақиятли таҳлил қилади. Афсоналар ва ривоятларни бугунги тезкор, шиддатли жараёнларга табиий ҳолатда боғлаб, истиқболга қаратилган, мантиқий асосланган ғояларни илгари сурадики, бу адибнинг улкан фалсафий тафаккуридан, ҳаёт фалсафасини ғоятда чуқур англаган улкан имкониятидан далолат беради. Ана шундай ҳолатда Чингиз Айтматовни йирик файласуфгина эмас, айни пайтда руҳшунос, тарихчи, этнограф, демограф, физик, астроном сифатида ҳам тасаввур қилиш мумкин бўлади. Унинг ҳар қандай асарларининг асосий лейтмотиви умумпланетар моҳиятга асосланади. Тарихий, фалсафий мазмуни, ижтимоий моҳияти чуқур психологик таҳлил, маънавий-маърифий ва бадиий тафаккурнинг бетакрор ҳодисаси сифатида намоён бўлади.

Чингиз Айтматовнинг мантиқий асосларига назар ташлар эканмиз, битта буюк қадрият кўзга яққол ташланади: инсон фақат ўз шахсий ҳаётини юксак ахлоқ ва маънавият асосида кургандагина ўзини тўлақонли инсон сифатида намоён эта олади. Инсоният тараққиёти, замонавий цивилизация эса фан-техника тараққиёти билан бирга ахлоқий муносабатларни асос қилиб олмаса таназзулга учрайди. Зотан, ҳар қандай тараққиётнинг асоси – ахлоқ! Ҳар қандай цивилизация таназзулининг асоси – ахлоқсизлик!

Чингиз Айтматовнинг "Кассандра тамғаси"[2] романи жаҳон адабиётида кутилмаган воқеа бўлди. Филофей образи нафақат кишилик ҳаётини, бутун борлиқни ўзгартирувчи ва айни пайтда ҳар бир инсоннинг ўзи ҳақида ўйлашига, ўзининг кимлигини, қанақа одамлигини, нималарга қодирлигини ўйлаб кўришига, англашига, ўзига ўзи муносиб баҳо бера олиш каби ички маънавий қудратга, руҳий иродага эга бўлишга даъват этадиган афсонавий воқелик. Самовий монах Филофей бу оламнинг бутун кирдикорларини – яхшилигию ёмонлигини, эзгулигию ёвузлигини, ёруғу қоронғу томонларини фавқулодда изтироб ва кучли маънавий ирода билан очади.

Ч. Айтматов қадимги юнон мифларидан унумли фойдаланади. Дунёда жамики ёвузликлар, ёмонликлар, сотқинликлар ва мунофиқликларнинг тимсоли бўлган аёл – она

[1] Освин И. "Шестое вымирение" Яуза. М.; 2015
[2] Айтматов Ч. "Касандра тамғаси" Янги аср авлоди. Т; 2019

Кассандранинг замонавий образини яратади. Кассандра пешонасидаги тамға унинг шаъни, борлиғи, мақсадлари ва идеалларининг ёвузлик белгиси. Романда адибнинг фавқулодда катта билимга, диний ва дунёвий фанларнинг бир неча йўналишида фикрлай оладиган ва уни синтезлаштириб ягона қиёфага жойлаштира билишдек фавқулодда фалсафий-бадиий қудратга эгалиги намоён бўлади. Асар моҳиятини, илгари сурилган ғояни тўлиқ англаш учун, айтиш мумкинки, фақат адабиётни тушунишнинг ўзи камлик қилади. Бошқача қилиб айтганда фалсафа, антропология, психология, мантиқ, тарих, социология, сиёсатшунослик, жамиятшунослик, диншунослик, маданиятшунослик сингари ижтимоий фанлар қаторида табиий ва аниқ фанлар, жумладан, биология, анатомия, тиббиёт, физика, электроника ва информатика, генетика, ген муҳандислиги ва бошқа қатор фанлар ҳақидаги тасаввурларни ҳам тақозо этади.

Баён этилишича, муртак-эмбрион она қорнида икки хафталигидаёқ ташқи оламни ҳис қилди. Кишилик ҳаётидаги барча яхшилигу ёмонлик, муҳаббату нафрат, эзгулигу ёвузлик, бағрикенглик, мурувватлилик, ўзаро ҳурмат туйғулари билан бирга, сотқинлик, мунофиқлик, ҳасад, кўраолмаслик ҳисларининг ўзаро тўқнашувларини кичкина ҳужайра ҳис қила бошлайди. Ана шундай мураккаб драматик ҳолатда муртак-эмбрион "Одам бўлиб туғилсаммикан, туғилмасаммикан? Бу нобакор дунёда, инсон деган нокасу нотавон жонзот туфайли абгор бўлган, ҳиёнат, сотқинлик, мунофиқлик қуршаб олган иркин ҳаётда туғилишим, яшашим шартми?", деган иккиланишлар изтиробини чекади. Бу инсониятга қарши исён эди.

Ч. Айтматов романдаги айни ана шу мураккаб ҳолатни қуйидагича изоҳлайди: "Бу фантазиямнинг марказий ўзаги одам организмининг туғилгунига қадар ҳам фикрлаш қобилиятига эгалиги – келажакда бўладиган воқеаларга ўзининг муносабатини билдириш ва она қорнидаги ҳаётнинг дастлабки ҳафталаридаёқ фалокат сигналини узатиш қобилиятининг борлигидир. Сўнгра бу қобилият сўнади, эмбрион бўладиган воқеаларга аста-секин кўникиб боради. Шундай қилиб, пешонаси тамғали Кассандраларнинг кейин туғиладиган фарзандларининг тақдири салбий бўлади, дейилади романда". Демак, Касандралар кўпаяяпти, урчияпти. Оламни ифлослик, палидлик қамраб олаяпти.

"Одам бўлиб туғилсаммикан, туғилмасаммикан..." Ҳали одам қиёфасига кирмаган ҳужайранинг мутлақ покиза, табиий ва илоҳий томондан стерилланган оламдаги – она қорнидаги ҳаётида шунчалик изтиробга тушиши инсон қанчалар буюк ва тубан эканлигини кўрсатмайди. Инсоният келажаги инқирозга учраётганидан сигнал эмасми. Бу – бутун инсониятга қарши исён. Айтматов буюк фалсафасининг моҳияти мана қаерда очилади!

Ҳужайра ёвузлик тимсоли бўлган онасининг кирдикорларини сезиб турибди. Унинг феъл-атворини, қарашларини, хатти-ҳаракатларини ҳис қилаяпти. Наҳотки мен ҳам генетик жиҳатдан, ирсий боғлиқлик нуқтаи назаридан ёвузлик тимсоли бўлиб дунёга келсам, инсониятга фақат ёмонлик қилишдан роҳатланадиган бедаво одамга айлансам, деган афсус-надоматдан азоб чекаяпти.

Чингиз Айтматов ҳали туғилмаган, ҳали одам шаклига кирмаган эмбрион қобилиятини бир неча ҳолатларда кўради. Жумладан, фикрлаш ва тақдирини олдиндан билиш, ўз муносабатларини билдириш, яхшилик билан ёмонликни, эзгулик билан ёвузликни фарқлаш, қаршилик кўрсатиш, рад қилиш, маълумлик ва номаълумликни ажратиш ва ниҳоят вақт ўтиши билан кўникиш.

Юқоридаги ҳолатлар кўз илғамас зарранинг ўзига хос имкониятлари. Бироқ вақт ўтиши билан мавжуд вазиятга кўникиш ҳисси инсон феноменида унинг маънавий-ахлоқий оламини белгилайдиган муҳим омил ҳисобланади. Кўникиш – инсонга хос. У ҳар қандай ҳаёт шароитига мослашишга эҳтиёж сезади. Бироқ бундай кайфиятнинг икки жиҳати бор. Биринчиси, инсон мажбур бўлганидан турли қарама-қаршиликлар, зиддиятлар, мунофиқликлар оламида ўзини асраш, буюк идеалларини, олий мақсадларини рўёбга чиқариш учун кўникишни имконият деб тушунади. Бу маънавий юксак, маърифатли инсонларгагина хос бўлган олий фазилат.

Кўникишнинг иккинчи салбий жиҳати борки, бу иродасиз одамларни пассивлаштиради, уларнинг кайфиятида бефарқлик, лоқайдлик, боқимандалик, охир-оқибатда эса ҳаётдан умидсизлик иллатларини кучайтириб юборади.

Афсуски, жамиятда иккинчи тоифа одамлар қатлами кенгайиб, Инсон деган олий хилқат ҳашоратга, қурт-қумурсқага айланиб бораяпти. Улар қадриятларни кемириб, инсоний туйғуларни сўндиришмоқда. Чингиз Айтматов инсониятни, ҳаммани биринчи тоифадаги одамлар қаторида кўришни истайди.

Филофей осмондан туриб инсониятнинг ягона макони, нажот майдони Ер юзидаги фазилатлару иллатлар, яхшиликлару ёмонликлар, эзгуликлару ёвузликлар тўқнашувини кўрар экан, охир замон ҳақидаги изтиробли хулосаларга келади. Бу Чингиз Айтматовнинг Филофей образи орқали ифодалаган қалб изтиробларининг ёрқин фалсафий-руҳий ақидаси.

Ана шу тарзда одам ва олам, инсон ва табиат ўртасидаги зиддиятли муносабатлар фалсафий таҳлил этилади. Буни Чингиз Айтматов қуйидагича изоҳлайди: "Агар эмбрион-ҳомила ташқи дунёдан ҳеч қандай ахборот олмаганида ёки фақат яхши ахборот олганида туғилишга тўппа-тўғри йўл олган бўлар эди. Лекин, салбий, азоб-уқубат кутилаётгани ҳақидаги ахборотлар бундай қарорга келмасликка сабабдир. Кассандра тамғаси – ҳали она қорнида яшаб охирги замонни безовта бўлиб кутаётган эмбрионнинг ичкаридан бераётган акс садосидир. Бу эса уни табиий ҳаётга интилишини йўққа чиқаришга ундайди. Мабодо бундай салбий ўйлайдиган эмбрион охир-оқибатда туғилса, бу фақат мажбур этиш оқибатида туғилишдир. У туғилганидан сўнг мажбур этилганига жавобан ўзи куч ишлатишга мойил бўлади. Бу жуда мураккаб руҳий драматизм. Дунёдаги савдойилар, жаллодлар, жиноятчилар, ўғрилар, текинхўрлар, ишёқмаслар, зўравонлар, сталингитлерлар ёки гитлерсталинлар мана шу тарзда туғиладилар". Бу ўта мураккаб, фалсафий-психологик ҳолат. Бу биологик мавжудотнинг моҳиятига ақл орқали кириш, унинг ҳолатини ва истиқболини аниқлаш билан боғлиқ бўлган жуда катта ва айни пайтда ўта нозик тафаккурни тақозо этади. Дунёни ёвузликдан асраш мукинми? Борликни, табиатни, ягона нажот ва ҳаёт манбаи бўлган Она Заминни ёвуз кучлардан ҳимоя қилиш мумкинми? Жонзотлар орасида фақат Инсонгина энг охирги ёмонликларни қилиши мумкин. Чунки унга илоҳий ва табиий томондан ақл, тафаккур, фикрлаш имконияти берилган. У барча эзгуликлару ёвузликларни ақл билан қилади. Ана шуларни ўйлаганинг сари қалбингнинг туб-тубидан изтироб тўла нидо келади: "Ақлнинг дастидан дод!".

Одамларнинг яхши ёмонлигини олдиндан билишга фаннинг кучи етмайди. Эмбрионнинг эндигина уйғониб, "Одам бўлиб туғилсаммикан, туғилмасаммикан?" деган ҳолатида унинг келажагини башорат қилиб бўлмайди. Бунинг иложи бўлганда эди, балки ёмонларни, ёвузларни эмбрионлигидаёқ йўқ қилиш мумкин бўлар эди. Ана шунда инсоният бунчалик кулфатларни кўрмасди. Дунё ёвузликдан қутилган, эзгуликлар авж олган бўларди. Қирғинбарот урушларга чек қўйилиб, инсон ақли фақат тараққиётга, саодатли турмуш ва фаровон ҳаётга хизмат қилар эди.

Касандра-она тимсолидаги оналар ҳомиласини ҳомилалигидаёқ йўқ қилиш, олиб ташлаш мумкин. Бироқ, бу билан масала ҳал бўлди, олам гулистон дегани эмас. Масаланинг бошқа оғир маърифий-инсонпарвар томони ҳам бор: ёвуз киши ҳам одамку! У айни пайтда ҳам жиноятчи, ҳам инсон! Яъни одам жиноятчи бўлса ҳам уни яшаш ҳуқуқидан маҳрум қилишнинг ўзи жиноят. Демак, ёмонлар яхшилар билан, ёвузлар эзгулар билан абадий ёнма-ён яшайверишади. Бундай ахлоқий шароитда эзгулик тантана қилсаку нур устига аъло нур! Агар ёвузлик ғолиб келса, охир замон бўлади!

Хулоса қилиб айтганда, Чингиз Айтматов бутун моҳияти билан жаҳон маданиятининг феномени. Унинг фалсафасини, даҳолик қудратини Инсон деган буюк ва айни пайтда мубҳам олам сир-синоатларини, бутун зиддиятлари, қарама-қаршиликлари ва ғоятда улкан интеллектуал салоҳиятининг бадиий таҳлили орқали кишилик ҳаётининг истиқболидан башорат деб тушуниш мумкин. Бу маҳобатли фалсафий тафаккур глобал дунёни ва инсониятни асрашда, кишилик тараққиётида эзгуликни ҳимоя қилишда, замонавий цивилизацияни яхшилик сари буришда қудратли омил бўлиб хизмат қилаверади.

IMPACT OF MIGRATION PROCESSES ON HUMAN CAPITAL

Saidkulov Nuriddin Akramkulovich
Associate Professor of Gulistan State Pedagogical Institute

Abstract: this article is devoted to the impact of migration processes on human capital, migration of "golden heads" to foreign countries, going to study and the impact on the economy of other countries, the results of a survey of school graduates and young people. In addition, the article reveals the role and importance of education in the development of human capital.

Key words: human capital, education, youth, graduates, migration processes.

In the period of modern socio-economic development, it is impossible to build a competitive national economy without taking into account the international trends in the field of ensuring the quality of education, without taking into account effective strategic and practical measures. Although the reason is not fully understood, the quality of education in a country (including its duration) and sustainable economic growth are directly proportional to each other. Thus, quality education creates a basis for effective and continuous education of a person from the beginning to the end of his work. In addition, the level of primary education coverage among the population is a more accurate indicator of economic growth than the average literacy rate. It is difficult to define the concept of "quality of education" with a general, simple or standard expression, because it is a multifaceted and dynamic concept. Its meaning depends on who evaluates it, what criteria and indicators are used, what goals and perspectives are set, as well as the position of different social groups and participants of the educational process.

According to statistics, Uzbekistan is ranked 5th among the countries whose students study abroad. About 110,000 students are studying abroad. In the last 20 years, the number of people who went abroad to study has increased from 2.2 million to 6.39 million[1]. It can be seen from the numbers that studying abroad is increasing more and more. It is necessary to study this situation objectively. Study abroad out of interest or dissatisfaction with the education system in the country. In this regard, it will be necessary to consider the need for research institutes, "think tanks" to work, and at the same time to further improve the quality of education.

Since the 1960s, various international research methods have been developed to compare the achievements of countries. Among these methods, the most cited studies are:

• An international survey on the literacy level of the elderly population jointly conducted by the Organization for Economic Development and Cooperation and Statistics Canada;

• Tests proficiency in reading, math, and science among 15-year-olds in selected countries around the world every three years. (PISA);

• Trends in learning every 4 years, which assesses the quality of mathematics and science education of students in 49 countries, First covering 35 countries in 2001 and next covering 45 countries per year in 2006, 4th grade students , the Progress in International Reading Literacy Study, PIRLS, among school teachers and administrators;

• International Assessment of Competencies among the Elderly, implemented by the OECD since 2011 (Program of International Assessment of Adult Competencies, PIAAC);

• Knowledge Assessment Methodology (KAM) used by the World Bank Institute. Knowledge Index (KI) and Knowledge Economic Index (KEI);

• The Education sub-index of the Human Development Index used in the UNDP's Global Human Development Reports.

In recent years, Uzbekistan has been implementing many projects to become one of the developed countries. The education system is always in the center of attention of the leader of our country as one of the priority directions.

[1] https://data.uis.unesco.org/index.aspx?queryid=3807

The Ministry of Higher Education, Science and Innovation and the Ministry of Pre-School and School Education are the main bodies implementing the reforms, and in addition to the Ministry, other state bodies, international and local organizations are contributing to the implementation of the reforms.

The rapid development of the country's economy at the expense of means of income has stimulated continuous development in construction, infrastructure, banking and finance, education, health care, social security of the population, human development and other areas. In this period, more than ever, multifaceted state policy regarding education and youth is being carried out.

Along with the development of education, issues of socio-economic development of our country are being taken into account in the state programs related to education and youth. In addition to state programs, cooperation projects with international organizations are being implemented in order to increase the level of education, creating conditions for accelerating this process. One of the priority goals is to train young personnel with modern knowledge along with improving the quality of education within the framework of programs and projects.

Currently, new professions and new specialties are emerging around the world. Many of the professions that were important until now are disappearing. Some professions that existed 20 years ago no longer exist and will never exist. As we are in the period of the fourth industrial revolution, this process will continue without interruption. We are a country with a population of 38 million. Therefore, we need to create opportunities for our citizens, especially our youth, to acquire modern professions, and in the future, they should work continuously in those learned professions and it should bear fruit. Knowledge and literacy determine the prosperous future of young people. Human capital, intellectual capital, knowledge and skills become more powerful and inflexible when combined with love for the country and respect for our values. Therefore, what is required of today's youth is not to forget patriotism and our national moral values.

Human capital cannot be imagined without the knowledge and intelligence of young people. In order to develop human capital, it is necessary to direct young people to education from childhood. However, in some regions of the world, children are still not paid attention to their education, but are treated as labor force using their strength and work. However, they must first get an education and thereby contribute to the development of human capital in the future.

In May 2024, the "Institute of Macroeconomic and Territorial Studies" conducted a survey in order to study how responsibly parents approach their child's future and their participation in the educational process. 3,602 respondents from parents with different backgrounds and backgrounds took part in the survey. The result of the survey showed that 94.6% of parents talk to each other about their child's future, and 13.9% have different opinions. 97.8% of parents say that they talk with their child about his future profession and interests, and 2.2% do not talk about it at all. In addition, according to the results of the survey, 20.7% of young people are doctors, 18.2% are teachers, 15.0% are journalists, 10.5% are economists, 7.8% are IT specialists, 5.2% entrepreneur, 5.3% wanted to become a financier and 1% wanted to become a lawyer[1]. 17.1 thousand out of more than 390 thousand graduates participated in the survey on the choice of profession among the graduates of the scientific-research institute named after Abdulla Avloni. According to the results of the survey, 67 percent of the respondents said that they have clearly chosen who they want to be in the future, and 11 percent said that they want to go to work abroad. 6 percent of respondents planned to start a family. In the question directly related to the fate of the graduates, when the graduates who are planning to go abroad for work were asked why they want to leave, 37% of them said that they want to leave because they are interested in studying, but do not have the financial means[2].

At every stage of human historical development, society has developed in an integral relationship with education. Raising the young generation is one of the oldest activities. Some

[1] https://imrs.uz/archives/news/report_2024_05. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining 2024-yil may oyi faoliyatining asosiy ko'rsatgichlari

[2] https://kun.uz/uz/news/2022/06/11/sorovnoma-maktab-bitiruvchilarining-11-foizi-chet-elga-ishlashga-ketishni-rejalashtirgan

societies may not be able to mobilize sufficient resources for educational activities and institutions. But all of them implicitly recognize the central role of education in social life. The importance of education is related to many factors. For example, when children take their first steps in life, they do not know how to read, write, count, they are obviously unaware of the moral standards and cultural achievements of the society they live in. Thanks to the efforts of school teachers and family education, as well as the possibilities of mass media and the Internet in modern times, the young generation is learning to read, write, and count. For several years, he studies the surrounding environment, moral and behavioral norms. People have different levels of knowledge and skills. Therefore, the educational system actually performs the task of social sorting and has a great impact on the future socio-economic status of individuals.

References.

1. Акрамкулович, С. Н. . (2023). ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Miasto Przyszłości, 36, 455–460.

2. Саидкулов Нуриддин Акрамкулович.,. (2023). ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference, 48–53.

3. Saidkulov , N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(11), 169–174. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/23849

4. Saidkulov, N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(11), 169-174.

5. Akramkulovich Nuriddin Saidkulov. (2023). PROBLEMS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 233–241. https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-25

6. Akramkulovich, S. N. (2024). HUMAN CAPITAL AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. IQRO INDEXING, 8(1).

7. Sheraliyevich, K. O., Akramkulovich, S. N., Narzullayevich, R. N., Xazratkulovich, Y. X., Odilovich, Y. O., & Alikul o‘g‘li, S. A. (2024). The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov. NATURALISTA CAMPANO, 28(1), 1735-1740.

8. Saidkulov, N. A. (2024). THE ROLE OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITA. Academic research in educational sciences, 5(TSUE Conference 1), 66-70.

9. Akramkulovich, S. N. (2024). THEORIES OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT. Science and innovation, 3(Special Issue 24), 829-832.

МИГРАЦИЯНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА ИЖТИМОИЙ-МАДАНИЙ ЖАРАЁН СИФАТИДА ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ

Худайбердиев Мансур Закиржанович
Гулистон давлат педагогика институтути, Рақамли таълим технологиялар маркази бошлиғи

Аннотация: Мазкур мақолада Ўзбекистон ҳудудидаги миграциянинг ижтимоий-маданий жараён сифатида жамият тараққиётига таъсири таҳлил қилинган. Меҳнат миграцияси мамлакат иқтисодиётида муҳим ўрин тутиши билан бирга, ижтимоий-демографик ўзгаришларга, маданий алмашинувга ва ижтимоий интеграция муаммоларига сабаб бўлиши мумкин. Шунингдек, миграцияга оид давлат сиёсати ва унинг самарадорлиги таҳлил қилинган. Миграция жараёнларининг ижтимоий ва маданий оқибатлари жамият тараққиётига турли йўналишларда таъсир кўрсатади.

Калит сўзлар: Миграция, ижтимоий интеграция, маданий алмашинув, демографик ўзгаришлар, давлат сиёсати, меҳнат миграцияси

Кириш. Миграция ҳодисаси жамият ривожланишининг ажралмас қисми бўлиб, турли тарихий даврларда сиёсий, иқтисодий ва маданий ўзгаришларга сабаб бўлган. Айниқса, 21-асрда миграция жараёнлари глобаллашув, иқтисодий ва экологик омиллар таъсирида янада фаоллашди. Ўзбекистонда ҳам меҳнат миграцияси муҳим ижтимоий-иқтисодий жараёнга айланиб, мамлакатнинг ички ва ташқи сиёсатининг марказий йўналишларидан бири бўлиб қолмоқда.

Мазкур тадқиқотда миграциянинг ижтимоий-маданий жараён сифатида жамият тараққиётига таъсири ўрганилади. Миграция нафақат иқтисодий фойда олиб келади, балки жамиятнинг демографик таркиби, маданий алмашинув, ижтимоий структураларга ҳам кучли таъсир кўрсатади. Шунингдек, бу жараён натижасида пайдо бўладиган ижтимоий интеграция муаммолари ва уларни ечишда давлат сиёсати муҳим аҳамиятга эга эканлиги таҳлил қилинади.

Ўзбекистондаги меҳнат миграцияси жараёнлари турли соҳаларга қандай таъсир кўрсатиши ва мигрантлар ҳамда уларнинг оилалари учун ижтимоий оқибатлари қандай бўлиши мумкинлиги ушбу тадқиқотнинг асосий мавзуси ҳисобланади.

Миграциянинг Ўзбекистон ҳудудида ижтимоий-маданий жараён сифатида жамият тараққиётига таъсири.

Ўзбекистон ҳудудида миграция жараёнлари кўп асрлик тарихга эга бўлиб, бу жараёнлар миллий маданият, ижтимоий структура ва иқтисодий ривожланишга катта таъсир кўрсатган. Ҳозирги кунда ҳам миграция Ўзбекистон жамиятидаги муҳим ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлардан бири ҳисобланади. Унинг таъсири нафақат иқтисодий кўрсаткичларга, балки демография, маданият ва ижтимоий тузилмаларга ҳам катта аҳамиятга эга.

1. Меҳнат миграцияси ва иқтисодий таъсир

Ўзбекистон аҳолисининг катта қисми хорижий мамлакатларда, асосан Россия, Қозоғистон, Туркия ва бошқа давлатларда меҳнат мигрантлари сифатида ишлаб келмоқда. 2020-йилларга келиб, меҳнат миграцияси Ўзбекистон иқтисодиётида муҳим омилга айланди, чунки мигрантлар юборган пул маблағлари мамлакатнинг ички валюта захираларини тўлдиришда катта аҳамиятга эга.

Бироқ, бу жараённинг ижтимоий таъсири катта кўламли. Меҳнат мигрантлари Ўзбекистондаги оилаларнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлашда муҳим роль ўйнаса-да, оилавий муносабатларга, айниқса, болалар тарбияси ва ижтимоий тартибга салбий таъсир

кўрсатади. Ота-оналарнинг хорижда бўлиши болаларда ижтимоий қийинчиликлар ва ёлғизлик ҳиссини юзага келтириши мумкин.

2. Демографик ўзгаришлар

Меҳнат миграцияси мамлакатда аҳоли миграцияси ва демографик таркибига сезиларли таъсир кўрсатди. Айниқса, ёшлар миграцияси демографик структурани ўзгартириб, иқтисодий ривожланишга турли ёндошувларни талаб қилмоқда. Ёш мигрантлар чет элдаги меҳнат фаолияти орқали янги кўникмаларни олиб қайтиб, маҳаллий меҳнат бозоридаги рақобатни кучайтиришлари мумкин. Шу билан бирга, миграция натижасида қишлоқ ҳудудларида аҳолининг камайиши кузатилмоқда, бу эса демографик ва иқтисодий муаммоларни келтириб чиқариши мумкин.

3. Миграция ва маданий алмашинув

Ўзбекистон ҳудуди тарихан турли халқлар ва маданиятлар кесишган минтақада жойлашганлиги сабабли, турли даврларда ички ва ташқи миграция жараёнлари маданий хилма-хилликни бойитган. Ҳозирги кунда ҳам мигрантлар мамлакатга қайтиш билан турли маданий элементларни олиб киришмоқда. Россия ва Туркиядан қайтган мигрантлар чет элдаги турмуш тарзи ва маданий анъаналарини маҳаллий жамиятга киритиб, ижтимоий ўзгаришларни рағбатлантирмоқда.

Мигрантлар орқали чет эл маданиятининг ўзлаштирилиши кўп ҳолларда ижобий кўринишда намоён бўлади. Масалан, улар олиб келган янги касб-ҳунарлар, тил ва технологиялар маҳаллий меҳнат бозорини диверсификация қилиши мумкин. Бироқ, айрим ҳолларда маданий трансмиссия натижасида маҳаллий анъаналарга босим ҳам пайдо бўлиши мумкин.

4. Ижтимоий интеграция муаммолари

Миграция натижасида келиб чиққан яна бир муҳим масала — ижтимоий интеграция ва мослашиш муаммолари. Қайтиб келган мигрантлар Ўзбекистондаги ижтимоий тузилмаларга қайта мослашишда қийинчиликларга дуч келишлари мумкин. Уларнинг чет элда орттирган кўникмалари ва иш тажрибаси маҳаллий меҳнат бозорида ҳар доим ҳам қадрланмаслиги мумкин. Шунингдек, мигрантлар оиласидаги ижтимоий ҳолатлар ҳам ўзгаришларга дуч келади — миграция натижасида оилаларнинг анъанавий тузилмаси ўзгаради ва гендер муносабатлари қайта шаклланиши мумкин.

5. Давлат сиёсати ва миграциянинг бошқаруви

Ўзбекистон ҳукумати миграцияга йўналтирилган бир қатор сиёсат ва ислоҳотларни амалга оширмоқда. Хориждаги меҳнат мигрантларини қўллаб-қувватлаш, уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш ва қайтиб келганлар учун иш ўринлари яратишга қаратилган дастурлар қабул қилинмоқда. Бу сиёсатларнинг самарадорлиги миграция оқибатларини бошқаришда ҳал қилувчи аҳамиятга эга.

Хулоса

Ўзбекистондаги миграция жараёнлари ижтимоий, маданий ва иқтисодий ҳаётнинг ажралмас қисми бўлиб, улар жамиятнинг барча соҳаларига таъсир кўрсатмоқда. Меҳнат миграцияси мамлакат иқтисодиётини қўллаб-қувватлаш билан бирга, ижтимоий структура ва маданий ўзгаришларнинг манбаи ҳисобланади. Бу жараённинг ижобий ва салбий таъсирларини тўғри бошқариш ва давлат сиёсати орқали мигрантларнинг мослашув жараёнини қўллаб-қувватлаш жамиятнинг барқарор ривожланишига ёрдам беради.

Адабиётлар:

1. Абдувалиев, С. (2020). Ўзбекистонда меҳнат миграцияси: муаммолар ва истиқболлар. Тошкент: Ўзбекистон фанлар академияси нашри.

2. Давлатов, Х. (2019). Ижтимоий интеграция ва мигрантларнинг мослашуви. Меҳнат ва аҳоли бандлиги журнали, 4(2), 56-68.

3. Karimov, R. (2021). Migration in Central Asia: Socioeconomic and cultural impact on Uzbekistan. International Journal of Social Studies, 12(3), 112-125.

4. Mirov, A. & Tursunov, M. (2018). State policies on labor migration and its influence on demographic structure. Central Asian Migration Review, 5(1), 89-104.
5. Саидов, Ф. (2017). Ўзбекистонда демографик ўзгаришлар ва меҳнат миграциясининг ижтимоий оқибатлари. Иқтисодиёт ва ижтимоий фанлар журнали, 3(1), 23-38.
6. United Nations (2022). Migration and its impact on social cohesion in Uzbekistan. UN Migration Report. Retrieved from https://www.unmigration.org.
7. World Bank (2021). Labor migration trends and economic development in Uzbekistan. World Bank Publications.

MIGRATSIYA - AQLLARNING SIZIB CHIQIB KETISHI VA AQLLARNING QAYTISHI JARAYONI(MI)

Isaxova Shahlo Muxtarovna
Марказий Осиё ва Хитой ўртасидаги маданий алоқалар сиёсий, иқтисодий жараёнлар билан бевосита боғлиқ бўлган. Ушбу муносабатларнинг ривожланиши эса мавжуд савдо йўллирига, уларнинг хавфсизлигига ҳамда бу масалани ҳал қила оладиган давлатнинг тарихий саҳнага кириб келишига бевосита боғлиқдир. Мана шундай давлат милодий 26-36 йилларда ташкил топган Кушон хонлигидир[1]. Кушон давлатининг вужудга келиш арафасида Туронда мавжуд бўлган вазиятга эътибор берсак, дастлаб милоддан аввалги биринчи асрларнинг сўнгги даврларида кушонликлар (дайрузиелар/даюечжилар) қадимги хитойликларга будда дини ҳақидаги маълумотларни етказган. Кушон давлати тарих саҳнасига чиққандан сўнг, кўплаб маҳаллий будда роҳиблари, савдогарлар ва элчилар сифатида Хитойга борган ва будда сутраларини хитой тилига таржима қилишган. Унга қадар будда дини Марказий Осиёда кенг ёйилган эди. Айнан мазкур дин Кушон империяси даврида гуллаб яшнади. (Бу даврда Марказий Осиёда Ҳиндуизм, Монийлик, Маздак таълимотлари ҳам мавжуд бўлганлигини назардан қочирмаслик керак)[2]

Хитойликлар Турондан келган роҳиблар билан мулоқотда уларнинг исмини талаффуз этишида қийналишган. Шу боис, хитойликлар меҳмонларнинг исмини қисқартирган ҳолда юрти ёки мамлакатининг номини фамилия қилиб беришган. Масалан, Кангкия (Қанғ) давлатидан ҳамда Самарқанд шаҳридан борган роҳибларга канг (康), Кушон давлатидан борганларга замонавий ўқилишда чжи (支, қад. ўқ. Цие), Парфия давлати ва Бухоро шаҳридан борганларига ан (安) Ҳиндистондан борганларга чжу (竺) иероглифи фамилия сифатида ишлатишган. Бироқ чжу фамилиясини олганларнинг келиб чиқиши доим ҳам Ҳиндистондан бўлавермаган. Шу боис, хитой манбаларида Хитойда фаолият кўрсатган аксарият хорижлик роҳиб ва савдогарлар исмига қўшилган шу иероглифларни уларнинг асл маҳаллий исми деб қабул қилиш хато ҳисобланади. Бундай анъана ўша даврда хитойча ёзма манбаларида сақланиб қолган бўлиб, роҳибларнинг Марказий Осиёдаги қайси давлатдан келганини билиб олиш мумкин. Ғарб олимларининг тадқиқотларида исми канг сўзи билан бошланадиган роҳибларни сўғдиёналик (sogdian) деб қайд этилган.[3]

Қадимги Турон заминидан Хитойга бориб қолган роҳиблар ва коҳинлар албатта ўша даврда ижтимоий-сиёсий, маданий алоқаларни мустаҳкамлаш юзасидан ўз ихтиёрларига биноан боришган. Бу эса Хитой маданиятига сезиларли таъсир кўрсатган. Шу сабабдан ҳам ҳозирги кунда ҳам Хитой халқи биздан ва бизнинг аждодларимиздан шундай ҳам дин ҳам ахлоқ ҳам маданият бўлган таълимотни уларга киритганлигимиз ва ўргатганлигимиз учун миннатдор. Хитой ва Ҳинд халқлари орқали бу таълимотларнинг бошқа халқларга ҳам тарқалиши ва ўрганилиши яна бир мавзу.

Юқоридаги фикрлардан ҳам кўринадики, ҳар бир миллатнинг урф-одат ва анъаналари, ахлоқий-диний қарашлари шаклланишида бошқа халқларнинг ҳам алоҳида ўрни бор. Ва бу жараёнда мажбурий ва ихтиёрий миграциялар алоҳида ўринга эга.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Тоҳир Карим. Муқаддас Авесто изидан. Тошкент; "Чўлпон", 2000.
2. Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). Алматы, 2011.
3. Ўзбекистон – Хитой муносабатлари тарихидан. Тошкент; "Fan Ziyosi", 2022.

[1] Ходжаев А. Из истории древних тюрков (сведения древнекитайских источников). Алматы, 2011. С. 201.
[2] Ўзбекистон – Хитой муносабатлари тарихидан. Тошкент; "Fan Ziyosi", 2022. 5-б.
[3] Zürcher, E. (Erik). The Buddhist conquest of China: the spread and adaptation of Buddhism in early medieval China / by E. Zürcher ; with a foreword by Stephen F. Teiser-3d ed. Leiden, 2007.

4. Zürcher, E. (Erik). The Buddhist conquest of China: the spread and adaptation of Buddhism in early medieval China / by E. Zürcher ; with a foreword by Stephen F. Teiser-3d ed. Leiden, 2007.

XALQARO MIGRATSIYA VA ODAM SAVDOSI

Mutalif Isroilov
Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada mehnat migrantlari, migrantlar kontrabandasi va odam savdosi tushunchalari xalqaro huquq me'yorlari asosida tahlil qilingan. Migrantlar kontrabandasi va odam savdosi ikkita alohida jinoyat ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: migratsiya, mehnat migrantlari, noqonuniy, migrantlar kontrabandasi, Protokol, odam savdosi.

Bugungi kunda insoniyat tarixida kutilmagan darajada nihoyatda ko'p sonli kishilarning bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi kuzatilayotgani tufayli migratsiya bilan bog'liq masalalar dunyoning aksariyat davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari uchun ham g'oyat dolzarb hisoblanadi. Oxirgi e'lon qilingan ochiq ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, chet elda mehnat qilayotgan o'zbekistonlik migrant ishchilar soni qariyb 2,1 million kishiga yetgan. O'zbekistonlik mehnat migrantlarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasida bo'lib (62%, 1 million 300 ming kishi), keyingi o'rinlarda Qozog'istonda 223 ming (11%), Turkiya Respublikasida 113,1 ming (6%), Koreya Respublikasida 66,8 ming (3%) va boshqa mamlakatlarda 379,9 ming (18%) mehnat migrantlari qayd etilgan. Ushbu migrant ishchilarning 521,8 ming nafarini (24,6%) ayollar va 1 million 596 ming nafarini (75,4%) erkaklar tashkil etgan. Migrant ishchilarning katta qismi (52,7%) qurilish sohasida faoliyat yuritgan [9, b.6-7]. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (BKQV) huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) tomonidan 2023-yilning yanvar-avgust oylarida tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali 28,207 kishiga chet elda ishga joylashishiga ko'maklashilgan. Ularning aksariyati Rossiya Federatsiyasiga (20,450 kishi), Koreya Respublikasiga (3,184 nafar) va Buyuk Britaniyaga (1,809 nafar) mehnat faoliyatini olib borish uchun yuborilgan [9, b.7].

So'nggi vaqtlarda kam sonli O'zbekiston fuqarolariga aloqador rasmiylashtirilmagan migratsiya holatlari qayd etilgan. O'zbekiston Ichki ishlar vazirligi (IIV) mamlakatda rasmiylashtirilmagan migratsiya va odam savdosi bilan bog'liq masalalar bilan shug'ullanuvchi asosiy davlat organi hisoblanadi. O'zbekiston fuqarolari ishtirokidagi odam savdosi bilan bog'liq ma'lumotlar AQShning Odam savdosi bo'yicha yillik hisobotida (USTIP) va O'zbekiston IIV tomonidan taqdim etiluvchi hisobotlar orqali topilgan. IOM rasmiy murojaati orqali O'zbekiston IIVdan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning o'n bir oyida odam savdosining 141 ta holati qayd etilgan va 193 nafar odam savdosi qurboni aniqlangan (18 nafar erkak, 133 nafar ayol va 42 nafar 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar). O'zbekiston fuqarolari ishtirokidagi odam savdosining asosiy yo'nalishlari Turkiya Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, BAA va Hindiston bo'lgan [9, b.11-12].

Odam savdosi va migrantlar kontrabandasi murakkab hodisa bo'lib, odamlarga turli yo'llar bilan ta'sir qiladi. Va ular ba'zan bir-biriga bog'liq bo'lsa-da, turli jinoyatlar haqida gap boradi. UNODC (BMTning narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi) ta'rifiga ko'ra, odam savdosi ekspluatatsiya qilish, masalan, jinsiy ekspluatatsiya, majburiy mehnat, qullik yoki organlarni olib tashlash maqsadida odamlarni yollash, ko'chirish yoki boshpana berishni o'z ichiga oladi. Bolalar yoki kattalar, o'g'il bolalar, qizlar, erkaklar yoki ayollar kuch ishlatish bilan tahdid qilish yoki ishlatish, firibgarlik sxemalari, aldash yoki hokimiyatni suiiste'mol qilish kabi noto'g'ri vositalar orqali odam savdosining qurboni bo'lishlari mumkin. Odam savdosi bir mamlakat ichida ham, transchegaraviy asosda ham sodir bo'lishi mumkin. Shuning uchun u harakat (odamlarni

yollash, tashish, o‘tkazish, boshpana berish yoki qabul qilish), o‘ziga xos vositalar (qo‘rqitish yoki kuch ishlatish, aldash, firibgarlik, hokimiyat yoki kimningdir zaif mavqeini suiiste'mol qilish) va ekspluatatsiya maqsadi (masalan, jinsiy aloqa, ekspluatatsiya, majburiy mehnat, qullik yoki organlarni olib tashlash) bilan tavsiflanadi [7].

Ham milliy, ham transchegaraviy darajada sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan odam savdosidan farqli o‘laroq, migrantlar kontrabandasi faqat transchegaraviy darajada sodir bo‘ladigan jinoyatdir. Bu muhojirlarga moliyaviy yoki moddiy manfaatlarni qo‘lga kiritish uchun noqonuniy ravishda mamlakatga kirish yoki qolishga yordam berishdan iborat. Kontrabandachilar muhojirlarning ma'lum bir davlatga zarur huquqiy hujjatlarsiz kirish ehtiyojlari va/yoki xohishlaridan kelib chiqib, foydali biznes quradilar. Xalqaro huquq hukumatlarni muhojirlarga nisbatan emas, balki ularni kontrabanda qilish bilan shug‘ullanuvchi shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini yuklaydi. Chunki, muhojirlar (ya’ni migrantlar) asosan qonuniy migratsiya vositalariga ega bo‘lmagani uchun kontrabandaga rozi bo‘lganligi sababli, ular, to‘g‘risini aytganda, qurbonlar deb hisoblanmaydi. Biroq, kontrabandachilar tomonidan ko‘pincha noqonuniy olib kirilayotgan (kontrabanda qilinayotgan) shaxslar turli xavf-xatarlarga (xavfli dengiz transporti kabi) duchor bo‘ladilar, bu esa kontrabanda jarayonida ularni boshqa jinoyatlarga, jumladan, jiddiy inson huquqlarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Kontrabandachilar muhojirlarning ma'lum bir davlatga zarur huquqiy hujjatlarsiz kirish ehtiyojlari va/yoki xohishlaridan kelib chiqib, foydali biznes quradilar. Xalqaro huquq hukumatlarni muhojir kontrabandachilarni jinoiy javobgarlikka tortish majburiyatini yuklaydi, ammo kontrabandachilarni emas [5].

Odam savdosi bilan shug‘ullanuvchilar xavfsizlik va imkoniyatlarga juda muhtoj bo‘lganlarni o‘z maqsadlari yo‘lida nazorat qilish uchun tahdid va yolg‘ondan foydalangan holda o‘lja qilishadi. Yaxshi hayotga xavfsiz yo‘lni va'da qilganlarning talablariga rozi bo‘lganlarning ko‘pchiligi ayollar va bolalardir. Yaqinda immigratsiya qoidalarining qattiqlashishi bilan migratsiya yo‘llari ko‘pincha uzoqroq, qimmatroq va hayotga xavf tug‘diradigan bo‘ldi. Bu qattiqlashuv qonuniy migratsiya imkoniyatlarini cheklash orqali kontrabanda va odam savdosi bilan shug‘ullangan jinoyatchilarga beixtiyor yordam beradi.

Ko‘pchilik uchun "odam kontrabandasi" va "odam savdosi" atamalari bir-birining o‘rnini bosadigan bo‘lib, bu ikki tushuncha o‘rtasidagi farqning xiralashishiga olib keldi. Va shunga qaramay, nufuzli xalqaro tashkilotlar va ushbu sohadagi ekspertlar tomonidan tez-tez ta'kidlanganidek, bular ikkita alohida jinoyat hisoblanadi. Kontrabanda har doim xalqaro chegarani kesib o‘tishni o‘z ichiga oladi va kontrabandachiga mamlakatga kirish uchun pul to‘laydigan odamlar buni ixtiyoriy ravishda qiladilar. Yevropol hisob-kitoblariga ko‘ra, hujjatlarni qalbakilashtirishdan tortib huquq-tartibot idoralari xodimlariga pora berishgacha bo‘lgan xizmatlarni ko‘rsatuvchi migrant kontrabandasi tarmoqlari aylanmasi 3 milliard yevrodan 6 milliard yevrogacha bo‘lgan [3].

Odam savdosi jabrlanuvchini ekspluatatsiya qilish uchun jismoniy yoki ruhiy majburlashning qandaydir shakllarini o‘z ichiga oladi. Odam savdosi aniq inson huquqlari va shaxsiy qadr-qimmatini qo‘pol ravishda buzish hisoblanadi. BMTning Odam savdosining oldini olish, bostirish va jazolash to‘g‘risidagi Protokolining 3-moddasida ta’kidlanganidek, ekspluatatsiya tushunchasi “hech bo‘lmaganda, fohishalik va boshqa shaxslarni ekspluatatsiya qilish yoki jinsiy ekspluatatsiyaning boshqa shakllari, majburiy mehnat yoki xizmatlar, qullikni yoki organlarni olib tashlashga o‘xshash amaliyotlarni o‘z ichiga oladi"[3].

Aytish joizki, jismoniy shaxslarning mazmunan har xil va ijtimoiy xavfli bo‘lgan transchegaraviy harakatiga qarshi kurashishning huquqiy asosini BMTning tegishli rezolyutsiyalari bilan qabul qilingan ikkita Protokoli tashkil qiladi: Muhojirlarni quruqlik, dengiz va havo orqali kontrabandasiga qarshi Protokol (Migrantlar kontrabandasiga qarshi Protokol deb yuritiladi) [1] va Odamlar, ayniqsa ayollar va bolalar savdosining oldini olish, unga chek qo‘yish va jazolash to‘g‘risidagi Protokol (Odam savdosini oldini olish unga qarshi kurashish Protokoli deb yuritiladi) [2]. Ular Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi BMT konventsiyasini to‘ldiradi.

Migrantlar kontrabandasiga qarshi Protokolning 3 (a) moddasiga muvofiq, migrantlarni kontrabanda qilish deganda, bevosita yoki bilvosita har qanday moliyaviy yoki boshqa moddiy

manfaat olish maqsadida ishtirokchi-davlatga uning fuqarosi bo‘lmagan yoki uning hududida doimiy yashamaydigan har qanday shaxsning noqonuniy kirishini ta’minlash tushuniladi. Noqonuniy kirish - bu qabul qiluvchi davlatga qonuniy kirish uchun zarur bo‘lgan talablarga javob bermasdan chegaralarni kesib o‘tishdir [1]. Ya'ni, migrantlarning kontrabandasi - belgilangan talablarni buzgan holda, ma'lum bir toifadagi shaxslarga transchegaraviy harakatda haq evaziga yordam ko‘rsatishdir. Bu yerda potentsial muhojir jabrlanuvchi emas, balki "tashuvchi" ning mijozi bo‘lib, "tashuvchi" tomonidan jinoyat sodir etishiliga tashabbuskorlik qiladi.

Odam savdosining oldini olish va unga chek qo‘yish to‘g‘risidagi Protokolning 3 (a) moddasiga muvofiq, odam savdosi deb jismoniy, ruhiy va boshqa majburlash shakllari orqali odamlarni ekspluatatsiya qilish maqsadida, ularni yollash, ko‘chirish, tashish, joylashtirish yoki qabul qilish, odam o‘g‘irlash, firibgarlik, aldash, mansab vakolatini yoki zaif mavqeini suiiste’mol qilish, shaxsning roziligini olish uchun to‘lov yoki boshqa imtiyozlar ko‘rinishida pora berish yo‘li bilan sodir etilishi tushuniladi. "Odam savdosi" va "migrantlar kontrabandasi" tushunchalarini farqlashning asosiy mezoni bo‘lib oxirgi holatda transchegaraviy harakatga rozilik elementining mavjudligi hisoblanadi [4, b. 34-37; 6, b. 38]. Noqonuniy olib kirilgan shaxs oxir-oqibat o‘z yashash mamlakatini o‘zgartirishga qaror qilgan xalqaro migrant bo‘ladi.

Potentsial migrant chegarani kesib o‘tish jarayonining tashabbuskori hisoblanadi. U mezbon mamlakatni tark etishga tayyorligini bildiradi, bu borada unga yordam bera oladigan “tashuvchi”ni qidira boshlaydi va u bilan shartnoma tuzadi. Aytish mumkinki, ixtiyoriy harakat kontrabanda muhojirining muhim xususiyati bo‘lib, odam savdosi esa chegaralarni majburan o‘tib ketkazishga asoslangan. Migrant odam savdosidagi kabi jinoyat qurboni emas, balki mijoz (noqonuniy xizmatni so‘ragan) passiv rolini o‘ynaydi.

Bugungi kunda insoniyat tarixida kutilmagan darajada nihoyatda ko‘p sonli kishilarning bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi kuzatilayotgani tufayli migratsiya bilan bog‘liq masalalar dunyoning aksariyat davlatlari, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari uchun ham g‘oyat dolzarb hisoblanadi. Globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiyotidagi sakrashlar, transport imkoniyatlarining tubdan kengaygani va boshqa shu kabi omillar, shubhasiz, migratsiya oqimi ortishiga kuchli ta'sir ko‘rsatmoqda.

Globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanayotgan bir paytda transmilliy uyushgan jinoyatchilik ham tobora ko‘paymoqda. Bu illatning muttasil o‘sishida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalarning kuchayib borayotgani, yangi hamkorlik munosabatlari yuzaga kelayotgani muhim rol` o‘ynamoqda. Bunda, ayniqsa, axborot texnologiyalari ko‘magida yangidan-yangi imkoniyatlarning taqdim etilayotgani juda qo‘l kelmoqda. Buning oqibatida hozirgi globallashuv davriga xos global muammolardan biri – odam savdosi katta tashvish uyg‘otmoqda. Yaqinda Buyuk Britaniyaning “Guardian” nashri, Xalqaro mehnat tashkiloti va “Walk Free Foundation” ma'lumotlariga tayangan holda, ushbu holatga quyidagicha baho berdi. Ya'ni, hozirgi kunda sayyoramiz aholisining taxminan 40 million 300 ming nafari zamonaviy qullik iskanjasidadir [8].

O‘zbekiston Xalqaro migratsiya tashkilotining to‘laqonli a'zosi hisoblanadi. Mamlakatimiz ushbu nufuzli tashkilot odam savdosiga qarshi kurashish va uning jabrdiydalariga ko‘mak berish sohasida amalga oshirilayotgan dasturlarda ishtirok etib kelmoqda. Jahon hamjamiyati tomonidan 2018 yilning dekabrida Marokashda Migratsiya bo‘yicha global shartnoma qabul qilindi. Ushbu xalqaro hujjatni O‘zbekiston ham qo‘llab-quvvatladi.

Mamlakatimizda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloh etish yo‘lida keng qamrovli o‘zgarishlar izchillik bilan joriy etilmoqda. Jinoyatchilikka, jumladan odam savdosiga qarshi kurashish va majburiy mehnatga barham berish masalalariga ustuvor darajada e'tibor qaratilib, ushbu huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston hukumati mehnat migrantlari – mamlakatimizning xorijdagi fuqarolari himoya qilish, shuningdek, odam savodasi jabrdiydalari va ojiz migrantlarga yordam berish masalalariga tobora katta e'tibor qaratmoqda.

Adabiyotlar:

1. Протокол против ввоза мигрантов по суше, морю и воздуху (Принят в г. Нью-Йорке Резолюцией 55/25 на 62-м пленарном заседании 55-ой сессии Генеральной Ассамблей ООН от 15 ноября 2000г.) // Собрание законодательства РФ. 2004. № 40. Ст. 3882.

2. Протокол о предупреждении и пресечении торговли людьми, особенно женщинами и детьми и наказании за нее (Принят в г. Нью-Йорке Резолюцией 55/25 на 62-м пленарном заседании 55-ой сессии Генеральной Ассамблей ООН от 15 ноября 2000г.) // Собрание законодательства РФ. 2004. № 40. Ст. 3882.

3. Джарбусынова М. Миграция и торговля людьми: неразрывная связь // Сообщество безопасности, издание 3/2016. URL: https://www.osce.org/ru/magazine/315236

4. Исабеков, К. С. Правовое регулирование в соответствии с Протоколом ООН против незаконного ввоза мигрантов // Вестник Кыргызско-Российского славянского университета. 2013. Т. 13. № 5.- С. 34-37.

5. Международная миграция и развитие: Доклад Генерального секретаря ООН от 04.08.2016 г. URL: http://www.un.org/en/development/desa/population/migration/generalassembly/docs/A_71_296_R.pdf

6. Потемкина, О. Ю. Иммиграционная политика Европейского союза: проблемы и перспективы.- М. : Русский сувенир, 2010.

7. Торговля людьми и незаконный ввоз мигрантов URL: https://www.unodc.org/e4j/ru/secondary/human-trafficking-and-migrant-smuggling.html

8. Global muammolardan biri – odam savdosi katta tashvish uyg'otmoqda / http://pravacheloveka.uz/oz/news/odnoj-iz-globalnyh-problem-javljaetsja-torgovlja-ljudmi 01.11.2019

9. Migratsiya vaziyatiga oid hisobot. 2023-yil aprel-sentyabr. // B.6-7. https://dtm.iom.int/sites/g/files/tmzbdl1461/files/reports/O'zbekiston.pdf

ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА МИГРАЦИОН ЖАРАЁНЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙ-АХЛОҚИЙ МУАММОЛАРИ

Ё.Ш.Туропов
Жиззах давлат педагогика университети "Фалсафа, тарбия ва ҳуқуқ таълими" кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация:Ушбу мақолада глобаллашув давридаги миграция жараёнларининг ўзига хос хусусиятлари,уларнинг ахлоқий муҳитга таъсири тадқиқ этилган.Ҳозирги даврдаги миграцион жараёнларнинг ахлоқий моҳияти, глобаллашув давридаги миграциянинг ахлоқий муаммолари, уларнинг сабаб ва оқибатлари очиб берилган.Ўзбекистоннинг миграцион сиёсати хавфсиз, тартибли ва қонуний миграцияни таъминлашга қаратилган миграцион сиёсати каби масалалар таҳлил этилган.

Калит сўзлар: Миграция, ахлоқий муҳит, маънавий иммунитет, субмаданият, деградация, глобаллашув, хавфсиз миграция, қонуний миграция

Миграция инсоният ижтимоий ҳаётининг энг муҳим муаммоларидан бири бўлиб, у нафақат одамларнинг оддий механик ҳаракати, балки жамият ҳаётининг кўплаб жабҳаларига таъсир қилувчи мураккаб ижтимоий жараён сифатида қаралади. Миграция инсоният тарихида муҳим роль ўйнади.Бу аҳолининг янги ерларга жойлашиши, ерларнинг хўжалик жиҳатдан ўзлаштирилиши, иқтисодий ривожланиш, ишлаб чиқарувчи кучларнинг ривожланиши, ирқлар, тиллар ва халқларнинг таълим олиши ва аралашиш жараёнлари билан боғлиқ.

XX-аср давомида миграция оқимларининг интенсив кенгайиши кузатилди ва XXI-асрнинг бошларида миграция ҳодисаси барча глобал ўзгаришларнинг таркибий омилига

айланди. Дарҳақиқат, глобаллашувнинг ўзи бу жараённи сезиларли даражада кучайтирди. Бу эса миграция жараёнларини тартибга солишда иштирок этувчи халқаро субъектлар манфаатлари мувозанатига эришиш ва сақлашга ёрдам берадиган миграция сиёсатига янги ёндашувларни талаб қилди.

Ҳозирги замонда глобаллашув туфайли аҳоли миграцияси жараёнлари тобора жадаллашиб, янгича моҳият касб этмоқда. Мазкур феноменнинг таъсирида глобал ахлоқий муҳитнинг трансформацияга учраши, мигрантларнинг умумбашарий ахлоқий қадриятлар, норма ва принципларни ўзлаштириши ҳамда реципиент жамият ахлоқий муҳитига мослашувидаги қийинчиликлар, иммигрант жамиятда муҳожирларга нисбатан беқарор, бағрикенг бўлмаган муносабатнинг шаклланиши, мигрантларнинг одам савдоси, турли ақидапараст ва экстремистик гуруҳлар, «оммавий маданият»нинг зарарли таъсирларига тушиб қолиши, уларнинг индивидуализм, космополитизм, нигилизм каби зарарли иллатларнинг ташувчиси бўлиб қолаётганлиги каби ахлоқий муаммоларга ечим топиш заруратга айланиб бормоқда.

Давлатимизнинг ташқи миграцион сиёсатида муҳожир сифатида чет элда юрган юртдошларимизнинг ҳар қандай вазиятда ҳам Ўзбекистон Республикасининг фуқароси эканлигини ҳисобга олган ҳолда, мигрантларга ҳар томонлама кўмак бериш, бошқа давлатлардаги ўзбек диаспоралари билан самарали ҳамкорлик қилиш, хориждаги ватандошларимизнинг маданий, эстетик, ахлоқий эҳтиёжларини қондириш каби вазифаларга давлатнинг фуқаролар олдидаги ахлоқий мажбурияти сифатида ёндашилмоқда. Мамлакатимизнинг миграцияга оид сиёсатида ўзига хос стратегия ишлаб чиқилган бўлиб, «бу борада тақдим этилаётган стратегия асосида фуқароларнинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини, улар қаерда эканликларидан қатъий назар, ишончли ҳимоясини таъминлаш масаласи турибди» [1]. Бугунги кунда долзарб аҳамият касб этаётган ва давлатимиз раҳбари томонидан илгари сурилаётган хавфсиз, тартибли ва қонуний миграцияга оид илмий тадқиқот ишларини олиб бориш муҳим аҳамият касб этади.

Бугун миграция (лот. мигратио –бир жойдан бошқа жойга кўчиши) аҳолининг мамлакат доирасида бир жойдан бошқа жойга ёки бир мамлакатдан бошқа мамлакатга кўчиши, ёки кўчириш [2], деган маъноларда ишлатилади.

Аҳоли миграцияси (лотинча «migratio» – кўчиш) – бу аҳолининг ўз яшаш жойини ўзгартириши, инсонларнинг ҳар қандай ҳудудий ҳаракати, бир географик ҳудуддан бошқа ҳудудга кўчиши ҳисобланади[3]. Ушбу феномен мураккаб мазмунга эга бўлиб, ўзида турли даражадаги инсонларнинг барча шаклдаги ҳаракатларини бирлаштиради. Ўз навбатида аҳоли миграциясини жамият ҳаётидаги бошқа турдаги фаолият шаклларидан (масалан, социал ҳаракатдан) фарқлаш зарурияти ҳам мавжуд. Умуман олиб қараганда, кишиларнинг мамлакат ичида ёки ташқарисида яшаш жойини географик нуқтаи назардан ҳар қандай шаклда ўзгартириши, муддатидан (доимий, узоқ муддатли, мавсумий ёки қисқа муддатли) ва мақсадидан (доимий яшаш, ўқиш, ишлаш, даволаниш, саёҳат қилиш ва бошқалар) қатъий назар аҳоли миграциясининг кўриниши ҳисобланади.

Миграция жараёни ер юзининг барча ҳудудларида учрайдиган, қадимий ва мураккаб ижтимоий муносабат тури ҳисобланади. Миграция жараёни доимо минтақалар, мамлакатлар, ҳудудий бирликлар чегараларига, демографияси, аҳоли маълумоти, ёши ва бошқа тоифаларига ўз таъсирини кўрсатиб келган. Мазкур соҳада тадқиқот олиб борган О.Д.Воробёванинг таҳлилларига кўра – «миграция бу аҳолининг яшаш жойини доимий ёки вақтинчалик ўзгартириши бўлиб, ҳар қандай ҳудудий кўчиб ўтиш ижобий ёки салбий омиллар таъсирида содир бўлади»[4] . Яъни инсон ўз туғилиб ўсган, доимий яшаш жойини, қариндошлари ва танишларини шунчаки ташлаб бошқа ҳудудга кетмайди. Шахс ҳаётида содир бўладиган турли объектив ва субъектив сабаблар миграцияга олиб келади. Шу сабабдан миграциянинг кучайиши бу инсониятнинг асосий муаммоларидан бири саналиб, бу шунчаки аҳолининг оддий механик ҳаракати эмас. Миграция табиий-ижтимоий муаммолар натижасида пайдо бўладиган ва бошқа ижобий ёки салбий оқибатлар билан баҳоланадиган мураккаб жараён сифатида қаралади.

Ҳозирда дунёни ташвишга солаётган миграция муаммосининг аянчли оқибатларга сабаб бўлаётгани ҳеч биримиз учун сир эмаслигини таъкидлаш жоиз. Юқорида таъкидланганидек, миграция ўзига хос мураккаб ва зиддиятларга бой бўлган жараёндир. Мазкур ҳодиса кузатувчи ва қабул қилувчи давлатларнинг ҳар иккиси учун бир қатор ижобий жиҳатлар билан биргаликда кўпсонли муаммоларни кўндаланг қилиб қўяди. Давлат аҳолисининг нечоғли миграцион жараёнларга жалб этилганлиги, унинг оқибатларининг чуқурлашувида акс этади. Масалан, миграция натижасида муайян оиланинг моддий аҳволи яхшиланади, аммо ота-оналардан бири ёки ҳар иккисининг иштирокисиз оилани сақлаб қолиш ва фарзандлар тарбиясини тўлақонли ташкил этиш имкони камаяди. Миграция муаммосининг ўзига хослиги шундаки, у жамият ҳаётининг турли соҳаларини қамраб олади ва ўзининг кенг қамровли таъсирини намоён этади. Шунга кўра, мавжуд муаммонинг келиб чиқиши ва уни ҳал этиш борасидаги ёндашувлардан ҳеч бирини универсал деб бўлмайди. Бу борадаги оптимал йўл мавжуд ёндашувлардан комплекс тарзда фойдаланишни талаб этади.

Халқаро миграция ташкилоти берган маълумотга кўра, 1970 йилдан 2019 йилгача мигрантлар сони сайёра аҳолисининг 2,3 фоизидан 3,5 фоизигача ошиб, 84 млн.дан 271 млн.га етган[5]. 1990 йилда Ер юзидаги ҳар 35 кишидан биттаси муҳожир бўлган бўлса, бугун бу кўрсаткич 29 нафарга бир мигрантга тўғри келмоқда. Агарда бутун дунёдаги мигрантларни бир ҳудудга йиғиб, ягона давлатга бирлаштириш имконияти бўлганида эди, ушбу давлат 2019 йил якунига кўра аҳоли сони бўйича дунёда Хитой, Ҳиндистон, АҚШ, Индонезиядан кейин бешинчи ўринни эгаллаган бўларди[6]. Ҳаттоки мигрантлар ҳаёлий давлати аҳолисининг сони бўйича тез орада Индонезиядан ўтиб кетишини ҳам тахмин қилиш мумкин бўлар эди. Бу рақамлар миграциянинг янада глобаллашиб, кўлами ортиб бораётганлигидан далолат бериб турибди. Кўламнинг кескин ортиб бориши эса миграциянинг замонавий тенденциялари шаклланиши олиб келди.Глобал иқтисодий муносабатларнинг глобаллашуви билан глобал миграцион жараёнлар бир-бири билан ўзаро боғлиқдир.

Аҳоли миграция бугунги кунга келиб бир қатор ахлоқий муаммоларни ҳам юзага келтирмоқда. Бу эса ўз навбатида ушбу муаммолар оқибатида глобал ва минтақавий даражада ахлоқий муҳитнинг трансформациясига олиб келади. Бундай ахлоқий муаммолар қаторига ривожланаётган давлатлардан интеллектуал қобилиятли инсонларнинг ривожланган мамлакатларга оммавий равишда кўчиши, турли омиллар туфайли мажбурий миграциянинг юзага келиши, нолегал миграциянинг ошиб бориши, халқаро жиноятчиларнинг, хусусан жангариларининг миграцияси, одам савдоси кабилар киритиш мумкин. Уларнинг барчаси у ёки бу шаклда миграциянинг намоён бўлиши ҳисобланади.Миграция феноменининг ахлоққа таъсири жамиятдаги ахлоқий қадриятлар тизимида намоён бўлмоқда.

Миграцион жараёнларнинг трансчегаравий характери оқибатида турли конкрет жамиятлардаги ахлоқий муносабатлардаги аномал ҳолатларни, шахслар ва субмаданиятлар ахлоқидаги деградациянинг механик қоришувни кўришимиз мумкин.

Аҳоли миграцияси феномени глобал ахлоқий муҳитнинг трансформациясига ҳам бевосита, ҳам билвосита таъсир этувчи омил ҳисобланади. Мазкур омил миграциянинг ахлоқий муҳитга таъсири бир бири билан изчил боғлиқ бўлган қуйидаги уч жиҳатга эга:

1) миграциянинг иммигрант мамлакатлар ёки жамиятлар ахлоқий муҳитига таъсири, давлатларнинг иммиграцион сиёсатининг ахлоқий моҳияти;

2) аҳоли миграциясининг эмигрант давлат ёки жамият ахлоқий муҳитига таъсири ҳамда ушбу таъсирнинг ижобий ва салбий жиҳатлари;

3) миграция жараёнининг муҳожирлар, муҳожирлар жамоаси, диаспорасининг ҳаётига, уларнинг ахлоқий қиёфасига таъсири, мигрантлар жамоасининг ахлоқий қадриятлар тизимидаги ўзгаришлар.

Миграциянинг бу хусусиятига мос равишда ушбу жараённинг барча ахлоқий нормалари, тамойиллари, идеаллари, қоидаларини ўзида жамлаган миграция ахлоқи ҳам

доимий равишда турли омиллар, ижтимоий, сиёсий жараёнлар таъсирида трансформацияга учраб боради.

Мигрантларнинг ижтимоий муҳитга адаптациясида маргиналлашув, трайбализм, стигматизм, ксенофобия (мигрантофобия), дискриминация, расизм, ҳатто экстремистик зўравонлик каби ижтимоий ахлоқий муаммолар вужудга келиши мумкин. Ушбу муаммолар оғир ахлоқий оқибатларга олиб келиб, адаптацияни мигрантлар учун оғриқли, мураккаб, хавфли жараёнга айлантиради.

Демак, миграция эмигрант мамлакатнинг ахлоқий муҳитига ҳам бевосита, ҳам билвосита таъсир қилади. Одатда, миграциянинг эмигрант давлат ва жамият ахлоқий муҳитига таъсирини бағрикенглик ахлоқи, фикрлар хилма-хиллигининг қарор топиши билан боғлиқ ижобий ва мавжуд ахлоқий қадриятлар тизимининг емирилиши билан алоқадор салбий маънода тушуниш мумкин. «Оммавий маданият»нинг тарқалиши, ахлоққа зид иллатларнинг оммалашуви, ахлоқий муҳитга миграциянинг салбий таъсирининг олдини олиш учун мигрантларда миллий ва умуминсоний ахлоқий қадриятларга асосланган «маънавий иммунитет» мавжуд бўлиши талаб қилинади.

Ўзбекистонда аҳоли миграциясининг ижтимоий ахлоқий муҳит, ахлоқий қадриятлар тизимидаги трансформацион жараёнларга таъсир кўрсатаётганлигини жамиятимиз ҳаётида турли кўринишдаги ғайриахлоқий, зарарли таҳдидларнинг пайдо бўлаётганлиги, "оммавий маданият"нинг миллий ахлоқий қадриятларимизга зид бўлган турли кўринишларининг кириб келаётганлиги, оилавий муносабатлардаги ўзгаришлар, оиланинг миллий ахлоқий қиёфаси, унинг муқаддаслигига муносабат ўзгараётганлиги каби жараёнларда кузатишимиз мумкин. Иккинчи томондан олиб қараганда эса, аҳолининг бошқа давлатга, бегона ахлоқий муҳитга кўчишига ўзи яшаётган жамиятдаги ахлоқий қадриятлар тизимида мавжуд бўлган муаммолар, ўзгаришлар сабаб бўлиши ҳам мумкин.

Хулоса қилиб айтганда, аҳоли миграцияси тарихан инсоният популяциясининг зарурий шарти бўлган бўлиб, у глобаллашув даврида кўп қиррали глобал моҳият касб этмоқда. Аҳоли миграцияси жараёни миграция ахлоқи ва миграцион сиёсатнинг таъсирлашувини тақозо этади. Бу ўз навбатида мигрантларда миллий ўзликни ва тарихий хотира, маънавий тарбия ва мафкуравий иммунитет, интеллектуал салоҳият ва ватанпарварлик туйғуларини бугунги замон руҳига мос равишда шакллантиришни тақозо этади.

Адабиётлар:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – Б. 446.

2.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. А.Мадвалиев таҳрири остида. –Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 589-бет.

3.Богомолова Ю.А., Острецова А.В.. Миграционные тенденции населения Российской Федерации // Инновационная наука. – М., 2016. – no. 1-1 (13). – С. 151-153.

4. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной миграционной политики. Аналитический сборник. 2003. - №9 (202). –С. 32.

5. World Migration Report 2018 (https://publications.iom.int/system/files/pdf/wmr_2018_en.pdf) International Organization for Migration. – P. 15

6. Allahyarova T. The decline of liberal political philosophy as one of the reasons of crisis of migration and multiculturalism in western society // Philosophy and life. – Tashkent, 2018. – № 1/2 (1). – P. 13.

MIGRATSIYANING URBANIZATSIYA JARAYONIGA TA’SIRI

A. Mamatqulov
Andijon davlat unversiteti o‘qituvchisi

Anotatsiya: Ushbu maqolada “Migratsiya” tushunchasi, migratsiya to‘g‘risidagi dastlabki ilmiy ta’riflar, bugungi kunda migratsiya jarayonlarida amalga oshirilayotgan yurtimizdagi islohotlar va migratsiya jarayonining urbanizatsiyaga ta’siri masalalari berilgan.

Kalit so‘zlar: demografiya, migratsiya,integrallashuv, transmilliy, tendensiya, urbanizatsiya, muhojir, madaniy, estetik, axloq, texnika va texnologiya.

Bugungi kunda globallashuv tufayli texnika va texnologiyaning ortib borishi, turli mamlakatlarda ishlab chiqarishning ortishi, ish o‘rinlarning ayrim davlatlarda yetishmasligi tufayli aholi migratsiyasi jarayonlari tobora jadallashib, yangicha mohiyat kasb etmoqda. Shu bilan birgalikda aholi migratsiyasi jarayonlari bevosita demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, manaviy-marifiy va oilaviy munosabatlarga ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Migratsiya (lotincha migratio) –ko‘chaman, joyni o‘zgartiraman ma’nosiga ega bo‘lib, joyni o‘zgartirish, ko‘chirish demakdir. Biroq, "joyni almashtirish" va "ko‘chirish" tushunchalari o‘xshash bo‘lmasdan, turli ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. “Migratsiya” tushunchasinining o‘zi tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. “Migratsiya” to‘g‘risidagi dastlabki ilmiy ta’rifni Ye.Ravenshteynning tadqiqotlarida ko‘rish mumkin. Bu ilmiy tadqiqot ishlari olim tomonidan 1885 -1889 yillarda amalga oshirilgan. Olim migratsiya jarayonini tadqiq qilish jarayonida migratsiyaning 11 ta qonunini shakllantirdi. Shuni ta’kidlash joizki, Y. Ravenshteyn “migratsiya” tushunchasi ta’rifini oddiy tushuntirib, uni “odamning o‘z yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o‘zgartirishi” deb qaradi.

Uning fikricha, bu “uzluksiz jarayon” bo‘lib, to‘rtta asosiy omillar guruhining o‘zaro ta’sirini taqozo etadi. Bular: a) migrantning avvalgi yashagan joyi (mamlakati)da ta’sir qiluvchi; b) migrantning ko‘chish bosqichida ta’sir qiluvchi; v) migrantning ko‘chib o‘tgan joyi (mamlakati)da ta’sir qiluvchi; g) shaxsiy xarakterdagi omillar.

Shaxsiy xarakterdagi omillar deganda, eng avvalo, shaxsning afzalliklari tizimi, uning demografik xususiyatlari yig‘indisi va boshqalar tushuniladi[1]. Jahon davlatlarida migratsiya jarayonining ortishi immigrant va emmigrant mamlakatlar uchun iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va etnik muammolarni yuzaga keltirmoqda. Zamonaviy migratsiya shakllari natijasida yuzaga kelayotgan muammolar bilan ishlashning yangicha usullari paydo bo‘lmoqda. «Migratsiya global muammo bo‘lib, global yondashuvlar va global yechimlarni talab qiladi. Migrantlarning xavfsizligi va qadr-qimmati asrash va ularning oila a’zolarini huquqlarini himoya qilish muhim»[2].

Migrantlar sonining ortib borishi bugungi kunda rivojlangan davlatlar tomonidan olib borilayotgan siyosiy jarayonlar, ularga qo‘llanilayotgan cheklovlar kundan-kunga ortib bormoqda.

Yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish, madaniyatlararo integrallashuv, transmilliy xususiyatlarni yuzaga kelishi, qadriyatlar to‘qnashuvi, oilaviy munosabatlarga nisbatan ta’sir kuchayishi, oila insititutini mustahkamlash, oilaviy va shaxs qadriyatlarini saqlab qolish uchun bir qancha mexanizmini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga urbanizatsiya jarayoniga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Jahon mamlakatlarida urbanizatsiya serqirra jarayon sifatida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga muhim ta’sir ko‘rsatib, aholi uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida uzoq muddatni ko‘zlovchi loyihalar hayotga joriy qilinmoqda. Urbanizatsiya jarayonlari murakkab va serqirra jaryondir. Ushbu jarayon turli mintaqa va davrlarda turlicha kechishi ushbu muammoni tahlil qilishda ko‘plab yo‘nalish va yondashuvlarni vujudga keltirdi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, urbanizatsiya va shahar hayotini o‘rganilishini bir nechta guruhga ajratish mumkin.

[1] Ionsev V.A. MGU, 1999. S.16
[2] https://www.un.org/ru/global-issues/migration

Dastlabki guruhga qadimgi dunyo faylasuflari ilgari surgan fikrlarni keltirib o'tish mumkin. Aflotun o'zining "Qonunlar "asarida shahar hayotiga oid fikrlarini bildirgan. Arastu esa insonni shahar mavjudoti sifatida ta'riflab, shaharni bir biriga o'xshamaydigan, turli-tuman odamlar yig'indisi sifatida ta'riflagan. Qadimgi dunyo tarixchilaridan Fukidit qadimgi shaharlarning joylashuvi haqida o'z fikrlarini bildirib o'tgan. "Qadimgi shaharlar suv havzalaridan ancha ichkarida bunyod etilgan bo'lib, buni asosiy sababi turli talon tarojlardan saqlanish uchun amalga oshirilgan"[1]. Qadimgi davrlarda shaharlar ko'pincha qaroqchi kemalar tomonidan hujumlarga uchrab turgan. O'rta asrlarda esa Rimning tanazzulidan ta'sirlangan xristian ilohiyotchisi A.Avgustin o'zining "Ilohiy shahar" asarida ikki ko'rinishdagi shahar — Ilohiy shahar va Gunohlar shahri o'rtasidag kurashni ta'riflab, inson yashayotgan shahar tanazzulga yuz tutib, barham topishi, ilohiy shahar esa abadiy mavjud bo'lishi haqida aytib o'tgan. A.Avgustin o'z qarashlarida shahar taraqqiyotini inson ma'naviy darajasi bilan bog'lagan.

O'rta asr Sharq falsafasi vakillaridan Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida shahar taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi asosiy omil sifatida inson ma'naviyati masalalarini ko'rsatib o'tgan. "Insoniy jamiyatning turlari haqida va fozil jamiyat haqida, fozil shahar nima degani, u qanday idora qilinadi, uning bo'laklarining tartibi qanday"[2] kabi savollarga javob berib, ideal jamiyat haqida ta'kidlagan. Farobiy fikriga ko'ra, har qanday shaharning, jamiyatning taraqqiyoti va odil boshqaruv va fozil jamiyat uyg'unligiga asoslanadi. Bundan tashqari Forobiy fozil shaharning ziddi bo'lgan shaharlar haqida ham to'xtalib o'tgan. Shundan kelib chiqqan holda migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari bevosita birbiriga ta'sir ko'rsatadi. Ya'niy aholi migratsiyasi aholining muhim muammolaridan biri bo'lib, unda kishilarning oddiy mexanik ko'chish harakati deb emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy hayotning ko'p tomonlarini qamragan murakkab ijtimoiy jarayon sifatida qaraladi. Aholi migratsiyasi aholini joylashishi, yerni xo'jalik jihatdan o'zlashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rivojlantirish, irqlar, tillar va xalqlarning paydo bo'lishi va aralashib ketish jarayonlari bilan bog'liq. Qishloq aholisi hisobiga shaharlarda yashovchi aholining to'xtovsiz o'sib borish tendensiyasi ham mavjud. Qishloqlarda yashash sharoitining shaharlarga nisbatan ma'lum darajada noqulayligi, uning ayniqsa yoshlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatlardan to'la qondira olmasligi bu tendensiyaga sabab bo'ladi. Urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi natijasida shahar aholisi soni ortib boradi. Bu jarayon aholining tabiiy ko'payishi va migratsiya hisobiga sodir bo'ladi. Aholini uy-joy bilan ta'minlash, infrastruktura obyektlarini joylashtirish muammosi paydo bo'ladi. Shaharlar o'zining geografik joylashuvi, iqlimi, aholining tarkibiga ko'ra o'ziga xos jihatlarga egaligidan kelib chiqib, yangi me'moriy yechimlar ishlab chiqiladi. Har bir shahar o'ziga xos arxitekturaga ega. Shaharlar rivojlanishidagi zamonaviy me'moriy yechimlardan biri yashil zonalar, landshaft dizaynlari tashkil qilish hisoblanadi.

Urbanizatsiya jarayonlarini takomillashtirish to'g'risidagi Prezident farmonida aholining kam va o'rta daromadli qismlarining ham manfaatlari hisobga olinishi taqsinga loyiq.

Migratsiya jarayonlarini ma'muriy tartibga solish tizimni takomillashtirish orqali aholini qishloqdan shaharga erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratilishi urbanizatsiya jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yirik shaharlarda aholi farovonligini ta'minlash, iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga shaharlar aholisini bandligini ta'minlashga erishish mumkin. Bu sohada olib borilayotgan ishlarga qaramasdan, hozirgi kunda ham ko'plab muammolar ko'zga tashlanmoqda.

Shahar aholisining ko'payishi, shaharlarda faoliyat yuritayotgan ijtimoiy sohalar sog'liqni saqlash, maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi obyektlariga qo'shimcha yuklamalar keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga, tasdiqlangan shahar bosh rejalari talablariga rioya qilinmaslik yoki bunday rejalarning umuman mavjud emasligi, yirik korxonalarni barpo etishda uning ijtimoiy va ekologik oqibatlarining e'tiborga olinmasligi sanoat rivojlanishining tizimli muammolaridan sanaladi.

---

[1] Фукидид. История. Историки античности. М. "Правда". Г. 1989, Стр. 208 . https://simposium.ru/ru/book/export/html/14465

[2] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. Иккинчи нашр. "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашрёти. Тошкент.: 2012. Б. 7.

Shaharlar taraqqiyotida migratsiya jarayonlarining ahamiyati katta. Shuni inobatga olgan holda, mamlakatimizda migratsiya jarayonlarini tartibga solishning yangi mexanizmlari ishlab chiqildi. Aholining erkin harakatlanishi uchun shart-sharoitlar yaratildi. Qo'shni mamlakatlar bilan do'stona aloqalarning tiklanishi ham ushbu jarayonga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shaharlardagi iqtisodiy va sanoat resurslaridan foydalanishning takomillashuvi, yangi ishchi o'rinlarining yaratilishi, xorijiy kompaniyalarning millliy bozorlarga kirib kelishi, savdo-sotiq munosabatlarining rivojlanishi aholi bandligini ta'minlash ishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xalq farovonligining oshib borishiga zamin yaratdi.

Bundan tashqari hozirgi kunda dunyoning ko'plab yirik shaharlari atrofida xarobazorlar paydo bo'layotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sabablaridan biri shaharga ko'chib kelayotgan migrant aholining katta qismi shahar hayotiga qo'shilib keta olmayotganligi natijasidir.

Shunday jarayonlarni inobatga olgan holda mamlakatimizda davlatimiz va davlat raxbari tomonidan so'ngi yillarda mehnat migranti sifatida xorijiy mamlakatlarda o'z faoliyatini olib borayotgan fuqarolarning oila-a'zolariga iqtisodiy, ijtimoiy yordam ko'rsatish, ularni ish bilan ta'minlash, ta'lim olishi, tibbiy xizmatlardan foydalanishi bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar ishlab chiqib ular uchun amaliy yordamlar ko'rsatilmoqda. Dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida migratsiya jarayonlarining axloqiy oqibatlari, migrantlarning insoniy huquqlari, immigrant ya'ni migrantlarni qabul qiluvchi davlat bilan migrantlar o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslarini o'rganishga doir tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Migratsiya jarayonining emigrant ya'ni migrantlarni yetkazib beruvchi mamlakatlar, migrantlar jamoalari hamda global axloqiy muhit taraqqiyotiga ta'siri, migratsiyaning global, mintaqaviy va milliy xususiyatlari, davlatlarning migrasion siyosatining axloqiy mezonlari, mehnat migrantlariga nisbatan sodir etilayotgan axloqqa zid munosabatlar ortib bormoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda migratsiyaning jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy-axloqiy muhit barqarorligiga ta'sirini tadqiq etish, undan resurs sifatida oqilona foydalanish hamda uning salbiy oqibatlarining oldini olish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlatimizning tashqi migrasion siyosatida muhojir sifatida chet elda yurgan yurtdoshlarimizning har qanday vaziyatda ham O'zbekiston Respublikasining fuqarosi ekanligini hisobga olgan holda, migrantlarga har tomonlama ko'mak berish, boshqa davlatlardagi o'zbek diasporalari bilan samarali hamkorlik qilish, xorijdagi vatandoshlarimizning madaniy, estetik, axloqiy ehtiyojlarini qondirish kabi vazifalarga davlatning fuqarolar oldidagi axloqiy majburiyati sifatida yondashilmoqda. Mamlakatimizning migratsiyaga oid siyosatida o'ziga xos strategiya ishlab chiqilgan bo'lib, «bu borada taqdim etilayotgan strategiya asosida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, ular qayerda ekanliklaridan qat'iy nazar, ishonchli himoyasini ta'minlash masalasi olib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. Ikkinchi nashr. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashryoti. Toshkent.: 2012. B. 7.

2. Xolmirzaev N.N. Urbanizatsiya muammolarini bartaraf etish yuzasidan hayotiy takliflar // Экономика и социум. 2024. №2-1.

3. Yusupov X.B. O'zbekiston respublikasida urbanizatsiyalashgan hududlarini guruhlashtirish masalalari.

4. Alimov S.K. Migratsiya jarayoni zamonaviy tendensiyalarining falsafiy tahlili.

O‘ZBEKISTONDA OILA VA OILA-NIKOH MUNOSABATLARIGA MIGRATSIYANING TASIRI

I.M.Xo‘jageldiyev
Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti,“Ijtimoiy fanlar va jismoniy tarbiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Hozirgi davrda oilaning holati va rivojlanishiga, oila – nikoh munosabatlariga, aholining oilaviy tarkibiga migratsiya jarayonlari bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ta’kidlash joizki migratsiyaning ijtimoiy demografik nuqtai nazardan salbiy oqibatlari borgan sari yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat migratsiyasi oilada avvaldan shakllangan yaxshi munosabatlarga putur yetkazib, keyinchalik oila, nikoh munosabatlarining va respublikadagi demokratik holatning yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Bunday muammolar davlat hamda ma’muriy tashkiliy tuzilmalar jamoat tashkilotlari e’tiborini kuchaytirishni talab etadi.

Kalit so‘zlar: Oila, nikoh, migratsiya, yoshlar, BMT, mehnat migratsiyasi, mehnat bozori.

Aholi migratsiyasi – murakkab ijtimoyi – iqtisodiy hodisa bo‘lib, kishilar va jamiyat hayot faoliyatining juda ko‘p tomonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Insoniyatning taraqqiyoti boshlangan davirdan to hozirgi kunga qadar kishilar bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yuradilar, yani migratsiya jarayonlarida ishtirok etadilar. Qadimda urishlar, ocharchilik, yangi yerlarni o‘zlashtirish va boshqalar migratsiyaga sabab bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda kishilar ishlash yoki o‘qish uchun oilaviy sharoit taqozasi bilan yoki o‘z hayotini yaxshilash umidida bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib o‘tadilar.

BMT assambleyasining 1990 yil 18 – apreldagi evaliyutsiyasi bilan qabul qilingan mehnat migrantlari va ularning oilalarini barcha huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida konvensiyaga muvofiq “mehnat migranti” iborasi “o‘z fuqorasi bo‘lmagan mamlakatta pul to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan, shug‘ullaniyotgan yoki shug‘ullangan shaxsni ifodalaydi”[1].

Hozirgi kunda migratsiyaning asosiy oqimi mehnat migrantlaridan tashkil topadi, ya’ni kishilar o‘z muqim yashash joylarini tark etib, boshqa joylarga yashash uchin yo‘l oladilar. Bir tomondan , jahonda kechayotgan glaballashuv jarayonlari, iqtisodiotlari internasiyonallashuvi ikkinchi tomondan mamlakatlarning iqtisodiy va demografik rivojlanishidagi tafovutlar xalqlar migratsiya jarayonlari miqiyoslarini oshib ketishiga olib keldi.

O‘zbekiston aholisi ham migratsiya jarayonlarida doimo ishtirok etib kelgan. Respublika tadqiqoqchilari va xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilgan sotsologik so‘rovnomalar natijalari O‘zbekiston fuqarolari boshqa mamlakatlarga doyim yashash uchun ketishini hohlamasliklarini, ular o‘z vatanparvarlik yashash, lekin vaqti-vaqti bilan boshqa yurtlarga borib pul ishlab kelishini afzal bilishadi. Bir necha yil avval Gellob tadqiqotlatlar xizmat muttaxassislari tomonidan sobiq ittifoqning10 ta davlatida jamoatchilik fikri o‘rganilganida, 6% O‘zbekistonliklar o‘z davlatidan butinlay ketish niyatini bildirishgan (Belarusiyada – 20%, Maldiviyadan – 36%, Armanistondan – 39%) shu bilan birga so‘rovda ishtirok etgan 24% O‘zbekistonliklar ishlagani chet elga borish istagini bildirishgan[2].

Tatqiqotlarda keltirilishicha, O‘zbekistonda 1989 yilda yalpi migratsiya hajmida 897,4 kishini tashkil qilgan. Ushbu yillar davomida Respublika bo‘yicha 11428,7 ming kishi migratsiya jarayonida ishtirok etti. Shundan 4862,9 ming kishi mamlakatka ko‘chib kelish jarayonida , 6565,8 ming kishi ko‘chib ketish jarayonida qatnashganlar hisoblanadi[3].

Migrantlarni yuboriyotgan mamlakatlar uchun mehnat migratsiyasi katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Mehnat migrantlari tomonidan jo‘natiliyotgan pul o‘tkazmalari iqtisodiy o‘sish va aholining turmish darajasini oshirishda muhim ahmiyatga ega. 2016 yilda Rassiyadan O‘zbekistonga o‘tkizilgan pul o‘tkazmalari miqdori 2.7 miliard dollorni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich 2013 yilda 3.5 milliard dollor bolgan edi[4].

Pul o‘tkazmalarining ma’lum bir qismi farzandlarning ta’limi va oilaviy tadbirkorligini qo‘shib hisoblaganda ularning rivojlanishi uchun sarflanadi. Lekin mehnat migratsiyasining ommoviy tus olishi ma’lum ma’noda salbiy ijtimoy geograpfik oqibatlarga olib keladi.

Migratsiya jarayonlarida asosan yosh va o‘rta yoshdagi aholi ishtirok etadi. Ularning aksariyati oilaliy bo‘lib daramad topish maqsadida chet ellarga oilasini 1 yokida 2 yilga, ba’zi hollarda undan ko‘proq vaqtga tark etadi. Oilaning 1 yoki 1 nechta a’zosining uzoq vaqtga uydan ketishi shakillangan oilaviy munosabatlarni izdan chiqaradi. Migrantlar orasida o‘tkazilgan tatqiqotlar (2015 yilda) Mehnat migrantlarining 35 – 40% oila a’zolari bilan kam muloqat qilishligini , 10 – 15% esa aloqosi yoqligini aytgan bo‘lsa, migrantlarning har 4 tadan 1 tasini oiladan ko‘p vaqt uzoqda bo‘lish oilaviy muomolarni keltirib chiqarishni, yaxshi munosabatlarga salbiy ta’sir o‘tkazishini takidlaydi[5]. Migrantlarni qabul qilayotgan mamlakatlarda erkak migrantlar ko‘pincha yangi oila quradilar[6]. Bularning barchasi oilani buzilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida bolalarning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilasi bilan birga ishlash uchun xorijga ketgan taqdirda farzandlarning o‘qishi va ta’lim olish bilan bog‘liq muammolar yuzaga keladi. Migratsiya jarayonlari o‘zbek oilalarida an’anaviy qadriyatlar yo‘qolib borish xavfini yuzaga keltiradi[7]. Oila ilmiy – amaliy markazi tomonidan FHDYO va sud organlarida ayollar tomonidan ajralish uchun berilgan davo arizalarni o‘rganilgan 4,6 % ayollar erlarini chet elga pul topish uchun ketib oilasidan xabar olmay qo‘yganligi sabab qilib ko‘rsatganlar. Buning natijasida qaynona va kelin o‘rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganligi bois ayolni turmush o‘rtog‘i oylab qiziqmay qo‘ygan yoki borgan joyida uylangan yoki aksincha erini kutishni xohlamagan ayol boshqa oila qurishni niyat qilgan.

Jarayonlarida ishtirok etayotgan kishilarning ko‘pchiligi sog‘ligi yomonlashganligi ularning ayrimlari turli yuqumli kasalliklar bilan yurtlariga qaytayotganlik holatlari uchramoqda[8]. Noqulay talabga javob bermaydigan sanitar gigiyenik sharoitlarga yashab ishlaganliklari ayrim hollarda joylardagi politsiya va ma’muriy idoralar xodimlari tomonidan taqibga uchraganliklari sabab ularning ruhiyatlariga muammolar paydo bo‘lmoqda. Juda ko‘p migrantlarning mehnat sohasidagi, jumladan ish haqi va mehnat sharoitlaridagi huquqlarning buzilish holatlari kuzatilmoqda.

Migrantlarning ko‘pchiligi xorijga ishlash uchun oilasi bilan birga ketadi. Bu ma’lum monoda oilaviy muammolarni hal qiladi. Lekin bolalarning o‘qishi va tarbiyasida bir qator qiyinchiliklar ham paydo qiladi. Rossiyalik olimlarning tadqiqotlari natijalariga ko‘ra migrantlarning farzandlarini ta’lim olish imkoniyatlari chegaralangan. MDH mamlakatlarida ota – onalari bilan kelgan minglab bolalar maktab va bog‘chaga bormaydi[9]. Migrantlarning bolalari rus tilini yaxshi bilmaganligi sababli ularni maktabga olishni istashmaydi. Agar maktabga borgan taqdirda ham o‘qish va ko‘nikmalarda bir qator muammolar kelib chiqadi[10]. Rus tilini tayyorlov sinflari 3 foizdan 12 foizgacha O‘zbekistonlik bolalar jalb qilingan. Markaziy osiyo mamlakatlaridan borgan migrantlar bolalarning ko‘pchiligi maktabga qatnashmaydi ish faoliyatini o‘smirligidan boshlaydi yoki o‘zidan kichik yoshdagi ukalariga qarab o‘tiradi[11].

XXIasr boshlariga kelib dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro ta’siri shu qadar kuchayib ketdiki, bu jarayondan to‘la ihotalanib olgan birorta ham davlat yo‘q, deb to‘la ishonch bilan aytish mumkin. Hattoki, xalqaro tashkilotlardan uzoqroq turishga intilayotgan, ularga a’zo bo‘lishni istamayotgan mamlakatlar ham bu jarayondan mutlaqo chetda emas. Globallashuv shunday jarayonki, undan chetda turaman, degan mamlakatlar uning ta’siriga ko‘proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g‘ayriixtiyoriy ta’sir esa ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida "global", "globalizatsiya", "globallashuv" tushunchalari keng qo'llanilmoqda. Ularning umumiy xususiyatlari umuminsoniy, umumplanetar voqelikda namoyon bo'lgani uchun ko'pchilik atama, tushuncha qo'llab o'tirmaydi. Globallashuv alohida atama, tushuncha ekani aksioma sifatida talqin qilinadi[1].

Jahonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning globallashuvi dunyodagi barcha davlatlar rivojlanishiga jumladan, xalqaro migratsiyaning ahamiyati sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Dunyo miqyosida demografik o'sish, bandlik va ishchi kuchiga bo'lgan talab, migrantlar miqdorining ko'payishiga va migratsiya ko'lamining kengayishida asosiy rolni o'ynamoqda.

Biz migratsiya harakatining qaysi turlari haqida so'z yuritmaylik migratsion jarayonlarning barchasida birlamchi ehtiyojlarga (tirikchilikka) bo'lgan iqtisodiy ehtiyoj bilan uzviy bog'liqligi ifodalanib, ya'ni iqtisod migratsiyasi birinchi navbatda mehnat migratsiyasini tashkil etadi.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, "sayyoramizda xalqaro migrantlar soni 281 million kishini ularning aksariyati mehnat muhojirlari tashkil etib, 1990 yilga nisbatan 119 millionga oshgan"[2]. Bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarda tashqi migratsiyani demografik o'sishida va ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida migratsiyani boshqarishga xizmat qilmoqda.

«Mamlakatimizda har yili 600-700 ming aholi mehnat bozoriga kirib keladi. Qariyb 200 ming kishining bandligini tashqi mehnat migratsiyasi orqali ta'minlashga to'g'ri kelmoqda. Qayerda mehnat migratsiyasi to'g'ri tashkil etilgan bo'lsa bandlik, oilalar daromadi, malakali mutaxassislar ko'paygan»[3].

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, respublikamizda 70-80 ming nafar yoshlar oliy o'quv yurtini tamomlamoqda, lekin mutaxassisligi bo'yicha ish o'rinlarni yetarli emasligi, nisbatan ish haqini pastligi, mehnat bozorini torligi oliy ma'lumotli yoshlarni xorijiy mamlakatlarda ish izlashiga sabab bo'ladi. Mashhur iqtisodchi, ham faylasuf tadqiqotchi Adam Smit "Mehnatsevarlik har qanday insoniy xususiyatlarda bo'lganidek, rag'batning miqdoriga qarab o'sib boradi. Shu bois, yuqori ish haqi berish orqali biz hamisha tashabbuskor, tirishqoq, fahm-farosatli kishilarni istaganimizcha topa olamiz. Past ish haqi bilan esa bunga erishib bo'lmaydi»[4]. Shu o'rinda migratsiyaning shakllanishi insoniyat paydo bo'lgandan to bugungi kungacha davom etib kelayotgan jarayon hisoblanadi. Unda insonlar o'zining doimiy istiqomat qilib turgan joyidan ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, geografik tomondan qulay bo'lgan joylarga ko'chib o'tishi, o'zlarining turmush tarzini munosib ravishda o'zgartirishga intilishini ko'rishimiz mumkin. Bugungi kunda ham aynan mana shundek migratsion jarayonlarning globallashuv tendensiyasini ortib borayotganini guvohi bo'lmoqdamiz. Demak, mamlakatimizning barcha hududlarida aholi migratsiyasi jarayonini ortishi turli xil ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy omillar ta'sirida shakllanmoqda.

Dunyoning barcha mamlakatlari xalqaro migratsiyaning faol ishtirokchisi sifatida harakatlanadi. Bugungi kunda xalqaro migratsiya keng ko'lamli, murakkab, global, dinamik va ta'sirchan jarayon hisoblanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlari bir paytning o'zida ham donor, ham ratsipient davlat sifatida gavdalanadi. Asosan mehnat migrantlarining boradigan va tranzit bo'lgan mamlakatlarda migratsiya bilan bog'liq muammolar va yangi imkoniyatlar mavjudligi bilan izohlanadi.

Zamonaviy mamlakatlarda migratsiya siyosatining milliy va xalqaro miqyosda shakllanishida ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy barqarorligi darajasi dolzarb muammo hisoblanadi. Ushbu sohaning dolzarbligini aniqlashda migratsiya siyosatini makro darajada ilmiy yondashuvlar asosida o'rganishni talab etmoqda. Migratsiya siyosatining nomukammalligi (noaniqligi) uning salbiy oqibatlarini kuchaytiradi, jumladan:

- noqonuniy migratsiyaning ko'payishi;

[1] Globallashuv asoslari. O'quv qo'llanma. Samarqand: – "SamDCHTI" nashriyoti, 2023. – 6 bet.

[2] Доклад о миграции в мире 2022, Международная организация по миграции ISBN 978-92-9068-078-7 (PDF) https://publications.iom.int/books/world-migration-report-2022 Дата загрузки 1 декабря 2021 г.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 17 avgustda Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash masalalari muhokamasiga bag'ishlangan videoslektor yig'ilishidagi ma'ruzasi. https://president.uz/uz/lists/view/3780

[4] https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/falsafa/adam-smitning-korinmas-qo'li/

- migrantlarning nokonstruktiv iqtisodiy faoliyati;
- iqtisodiy betartiblikning kuchayishi;
- ijtimoiy zo‘riqishning kuchayishi;
- millatlararo, etnik nizolar, konfessiyalararo va boshqa nizolar xavfini oshirish;
- jinoyatchilikning shakllanishi kabi holatlarni kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtda Yevropa Ittifoqida ko‘plab mojarolarning kuchayishi oqibatida migratsiya siyosatini davlat va jamiyat hayotiga salbiy ta’siridan himoyalash uchun aniq tizimli, mukammal davlat siyosatini yuritishni talab etadi[1].

Shuningdek, mamlakat aholisining mehnat muhojirlarini eng muammoli vaziyatlardan yana biri noqonuniy migratsiyaning ko‘plab mamlakatlarda keng tus olganligidir. Buning asosiy sabablari quyidagilar:

Mamlakat mehnat bozori potensialini kattaligi, mehnatga haq to‘lash tizimining adolatli bo‘lmaganligi;

Yosh va malakali kadrlar uchun munosib ish haqiga ega bo‘lgan ish joylarining yetarli tashkil etilmaganligi va kadrlar mehnatiga to‘lanilayotgan ish haqi qoniqarsizligi;

Mehnat migratsiyasiga ehtiyoj sezadigan rivojlangan mamlakatlar bilan bitim, kelishuv yoki memorandumlar imzolanmaganligi;

Bunday kelishuvlar faqat qisman Rossiya Federatsiyasi va Janubiy Koreya Respublikasi bilan tuzilgan kelishuv barqaror amal qilgan bo‘lsada, Rossiya Federatsiyasi bilan tuzilgan mehnat migrantlariga oid hujjatni imzolanganligiga qaramasdan to‘liq amal qilinmayotganligi;

Hanuzgacha rivojlangan mamlakatlar hamda bugungi kunda migrantlarning asosiy qismi intilayotgan AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bilan migratsiya bo‘yicha kelishuvlarning mavjud emasligi kabi omillar nolegal mehnat migratsiyasini o‘sib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda, mehnat migratsiyasi zamonaviy voqelik uchun odatiy jarayon hisoblangan bo‘lsada, uning ayrim holatlaridagi muammoning jiddiyligi ortmoqda. Aslida migrantlar uchun psixologik shaxs uchun qiyin kechadigan jarayon sanalib, chunki u og‘ir ichki tajribalar bilan birga keladi, avvalo, mehnat muhojiri hayotining mutlaqo yangi muhiti va sharoitlariga moslashishi, o‘sha muhitda yashab mehnat qilishi kabi harakatlar bilan bog‘liqdir. Bu esa, o‘z navbatida, ratsipient mamlakatining tub aholisi mehnat muhojirlarga nisbatan diskriminatsiya va salbiy munosabatda bo‘lishi bilan birga shaxslararo nizolarga ham ta’sir qilishi mumkin.

Demak, yangi stimullarga muvofiq migratsion harakatda shaxsning o‘zgaruvchan muhitidan kelib chiqib shaxlar munosabatidagi stereotiplar, shaxsning xulq-atvor komponentini o‘zgartirishi uni moslashuvchanligidagi faol harakatni o‘z ichiga oladi.

Shaxsning sotsial moslashuvi[2] - bu shaxsning yangi yashash muhitga moslashish jarayoni hisoblanadi. Ijtimoiy moslashuv yangi ijtimoiy sharoitga ijtimoiy jarayonlarga moslashishni, shaxsning psixologik xarakterdagi muammolarni ustida ishlashi yangi muhitga moslashishda, yaqin atrof-muhit bilan aloqa o‘rnatish, qadriyatlar va yangi madaniyatga xos bo‘lgan an’analar asosida yashashni o‘rganish kabi xususiyatlarni talab etadi.

Migrantlarda asosan quyidagi omillar yangi muhitga moslashishlarida turli xil sharoitlar ta’sirida biroz qiyinchilikga sabab bo‘ladi:

-iqlim sharoitidagi farq

-madaniyati va qadriyatlari

-munosabatlari

-ijtimoiy hayot muhitidagi farqlar

-mamlakatning tili, etnik va diniy qarashlardagi farqlar aholini yangi shaxslararo aloqalarni o‘rnatishida, ko‘plab moddiy va kundalik muammolarga uchraganda o‘zlari yengish kerak bo‘lgan og‘ir stressli vaziyatlardan biri deb qaraladi.

---

[1] N.A.Imomova. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’siri. Monografiya.Toshkent. 2024. 148-bet

[2] Qomus info. Onlayn ensiklopediya. https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-moslashuv-uz/

Ushbu jarayonning murakkabligini anglagan T.G. Stefanenko ijtimoiy moslashishni shaxs va sotsial muhitning o‘zaro ta’siri natijasi deb izohlaydi, bu esa shaxs va guruhlarning o‘zaro munosabatlari ularning maqsadlariga ko‘ra muhojirlarning qadr qimmatini belgilab beradi.

Mamlakatimizda ayni paytda qayd etish joiz bo‘lgan muammolardan biri-ming yillar davomida davom etib kelayotgan milliy qadriyatlarning migratsiya natijasida o‘zgarishlarga uchrayotgani va insonlar psixologiyasidagi assimilyatsiya va marginallik xususiyatlarini shakillanishi holatlarini mavjudligi bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda ruhiy holat ta’sirini yuqoriligi migrantlar yaqinlariga qoldirgan farzandlar misolida kurishimiz mumkin. Migratsiya ta’siriga tushib qolgan bolalar tarbiyasiga ta’sirida kuzatilayotgan o‘zgarishlar va ulardagi begonalashuv holatini ortib borishi kelajak avlodni ruhan tetik bo‘lib kamol topishiga o‘z ta’siri mavjudligi ehtimoli borligini ko‘rsatadi. Bunda asosan, ota-onasi mavsumiy yoki vaqtinchalik migratsiyani amalga oshirib, bobo-buvisi yoki boshqa qarindoshlari qaramog‘ida qolgan bolalarning tarbiyasida yuz beradigan o‘zgarishlar. Bunday bolalarda tarbiya usullarining bir tekis bo‘lmasligi kuzatilib, ularning ruhiyatida ham, ijtimoiy xatti-harakatida ham turli hil o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yana shunday holatlardan, ota-onasi bilan birgalikda migratsiya holatini boshidan kechirgan bolalarda kuzatiladi. Ularning bolalarini yoshi qancha katta bo‘lsa, yangi muhitga ko‘nikish darajasi ham shuncha qiyin bo‘lishini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, tashqi mehnat migratsiyasini amalga oshirgan migrantlarning farzandlari xorijiy mamlakatlar qadriyatlari ta’siri ostida ulg‘ayadi. Eng avvalo, ona tilining yo‘qolishi eng fojeali holat hisoblanadi. Ona tilidan mahrum bo‘lish yoki uni unitishi holati bolalar tarbiyasida alohida iz qoldiradi. Xususan, millat qadriyatlaridan biri kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatish kabi fazilatlarni yo‘qolishi, sharmu hayoli bo‘lish, oilaviy qadriyatlarni saqlab qolishga e’tiborsizlik milliy tarbiyani izdan chiqarishi mumkin[1].

Demak, G‘arb “ommaviy madaniyati”, ilm-fanni, dunyoqarashi bilan boshqa xalqlar olami, boyliklari, ilmi o‘rtasida ma’lum bir farqlar, ziddiyatlar bor. Ammo taraqqiyparvar kuchlar, ayniqsa ilm-fan ahli Sharq va G‘arb sivilizatsiyasini uyg‘unlashtirish yo‘lidan borish lozim. Globallashuvning ijobiy maqsadi ham ana shundadir.

Migratsiya sohasidagi globallashuv tagida turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, maishiy omillar yotadi. Demokratiya ustuvor bo‘lgan, inson erkinliklari ta’minlangan, farovon mamlakatlarga ko‘chish jarayoni XX asr oxiri XXI asr boshlarida avj oldi, bu asosan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi hududlarida ko‘proq kuzatildi. Bugun Yevropaga o‘rta hisobda har yili 4 milliondan ziyod, AQSHga va Janubiy Amerika davlatlariga taxminan 1,5 million kishi ko‘chib boradi. Ilmiy-texnika sohasidagi globallashuv ishlab chiqarishga ilm-fan yutuqlarini joriy etish, madaniy-maishiy xizmat turlarini kengaytirish, insonga ko‘proq bo‘sh vaqt qoldirishning umumsayyoraviy miqyosda an’anaga, tartibga aylanayotganida ko‘zga tashlanadi.

Ilm-fan yutuqlari insonni og‘ir qo‘l mehnatidan xalos qilib, ko‘proq samarali va daromadli mehnat bilan shug‘ullanishga imkon bermoqda. Globallashuvning bu jihati zamonaviy hayot tarziga endi oshno bo‘layotgan xalqlarni o‘ziga jalb etayotgani sir emas. Badiiy-estetika sohasidagi globallashuv modern, postmodern, syurrealizm, abstraktsionizm, dinamizm, impressionizm, pop-artxeppening, shlyager, avangard, giperrealizm, inkrustatsiya, kordebalet kabi turli san’at oqimlarining ommalashayotganida ko‘rinadi. Bu san’at turlarida “erkin ijod” tamoyiliga amal qilish musavvir, artist, bastakor, badiiy ijodga intilayotgan har bir kishi diqqatini tortmay qolmaydi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori. PQ-4829-son 15.09.2020.

2. Bekmurodov M.B. Harakatlar strategiyasi: jadal ijtimoiy psixologik taraqqiyot va yangilanish modeli. “PSIXOLOGIYa” ilmiy jurnali, №2, 2017. 2-12 betlar.

3. Globallashuv asoslari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand: – “SamDCHTI” nashriyoti, 2023. – 6 bet.

[1] N.A.Imomova. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’siri. Monografiya.Toshkent. 2024. 151-bet

4. N.A.Imomova. O‘zbekistonda mehnat migratsiyasining ijtimoiy transformatsiyalashuvi jarayonlariga ta’siri. Monografiya.Toshkent. 2024. 148-151-bet

GLABALLASHUV SHAROITIDA MIGRATSIYANING JAMIYAT HAYOTIGA TA’SIRI

Y.B.Qodirova
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada glaballashuv sharoitida dunyo bo‘ylab migratsion jarayonlarning jamiyat hayotiga ijobiy va salbiy ta’siri natijasida oila, jamiyat miqyosida bir qator tadqiqot natijalari havola etiladi. Maqolada ishchi kuchining xalqaro migratsiyasi, ya’ni mehnatga layoqatli aholini ish qidirib bir mamlakatdan boshqa bir mamlakatlarga ko‘chib yurishi natijasida odamlarning katta-katta guruhlari bilan bog‘liq voqea-hodisalar natijasida ko‘chib o‘tgan hududiga o‘z ijtimoiy-axloqiy qarashlari bilan ta’siri haqida bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, shaxslararo munosabatlar, globallashuv, moslashish, shaxs, inqiroz, mehnat migratsiyasi, madaniyat, immigrant, psixologik salomatlik, farovonlik, oila, integratsiya.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoiti dunyoda migratsiya jarayonlarini tobora keskinlashtirmoqda. Jahon maydonida ro‘y berayotgan voqea-hodisalar, jumladan aholining sonining o‘sish sur’ati, turli mintaqalardagi siyosiy inqiroz va harbiy nizolarning vujudga kelishi, ayrim davlatlarda ro‘y berayotgan tabiiy va texnogen xususiyatdagi ofatlar, global pandemiya sharoiti, rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o‘rinlarining yetishmasligi, ish haqining insonlar kundalik ehtiyojini qondirish darajasidan pastligi, yoshlar orasidagi ishsizlikning yuqoriligicha qolayotgani kabi omillar sabab bo‘lmoqda.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda dunyoning turli mamlakatlarida yashayotgan migrantlar soni 281 milliondan oshgan. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda 2,5 millionga yaqin fuqaro mehnat migratsiyasida bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda mamlakatimizdan xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirgan mehnat migrantlari soni 1,5 mln nafardan ziyod kishi (1540938 nafar) ni tashkil etgan. 2023- yilning 8 oyi davomida 28 ming 207 nafar O‘zbekiston fuqarosi xorijiy davlatlarga manzilli va tashkillashtirilgan tartibda ishga joylashtirilgan. Xususan, ularning eng ko‘pi Rossiya, Janubiy Karea va Buyuk Britaniyaga ketgan. Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonini huquqiy ta’minlash, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatdan chiqib ketayotgan fuqarolarimizni xorijda ishga joylashtirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligini ta’minlash, xorijdan mehnat faoliyatini amalga oshirib qaytgan fuqarolarni reintegratsiya qilish va bandligini ta’minlash, shuningdek, ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilish kabi vazifalarni samarali tashkil etishni taqozo qiladi.

Hozirgi kunda migratsion jarayonlarda ishtirok etayotganlarning soni keskin oshib borayotganini kuzatar ekanmiz, yaqin kelajakda ularning soni yanada ortishi bashorat qilinayotgani bejiz emas. Migratsiya ko‘lami kengayishiga kambag‘allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik va tushkunlikka tushish, turli xil nizolar, urushlar tufayli notinchlik, qo‘rquv kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Migrantlar o‘z tabiatiga ko‘ra jamiyatning ishbilarmon va harakatchan a’zolari hisoblanadi. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, migratsiya iqtisodiy o‘sishga, millatlarning assimilyatsiyalashuviga, marginal madaniyatlar boyishiga olib kelgan. Migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning muhim muammolari mavjudligini ham inobatga olish zarur. Aksariyat hollarda migrantlar ekspluatatsiya qilinib, ularning huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning joylashgan mamlakatlari madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ularni qabul qilayotgan davlatlar tub aholisini ish joyidan mahrum etadi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini

shakllantiradi. Ushbu va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra, migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, siyosiy-sotsiologik jihatdan ham o‘rganish talab qilinadi.

Asosiy qism. Mamlakatimizda, statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yilning yanvar–dekabr oylarida 275,1 mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti 7,9 promilleni tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan 2,0 promillega oshgani kuzatilgan (2020-yilning yanvar–dekabr oylarida 5,9 promille bo‘lgan). Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda 2021-yilda ko‘chib ketish koeffitsiyenti qariyb 3 baravarga pasaygan. 2000–2020-yillarda O‘zbekistondan 1 107 854 nafar fuqaro xorijiy davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketgan.

2023-yilning yanvar-sentabr oylari davomida O‘zbekistonga doimiy yashash maqsadida 2,262 nafar xalqaro migrant kelgan. O‘zbekistonga kelgan xalqaro migrantlarning aksariyati Rossiya Federatsiyasi fuqarolari (38.9%, 880 kishi), undan keyingi o‘rinlarda Qozog‘iston (24.5%, 554 kishi), Tojikiston (10.5%, 238 kishi), Qirg‘iziston (5,1%, 116 kishi), Turkmaniston (1.6%, 37 kishi) va boshqa mamlakatlar (19.4%, 437 kishi) fuqarolari bo‘lgan. Ko‘chib kelgan migrantlarning yoshiga ko‘ra, ularning 82.8 foizi mehnatga layoqatli yoshda, 9.4 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kichik (18 yoshdan kichik) va 7.8 foizi mehnatga layoqatli yoshdan kattalar bo‘lgan (O‘zStat, 2023-yil).[1]

Yuqorida keltirilgan raqamlar va fikrlardan migratsiya jarayoni nafaqat ish topish yuzasidan boshqa davlatga yoki shaharga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan shaxslarga, balki ularning farzandlari, yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular istiqomat qilayotgan muhitga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, migratsion munosabatlarning nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki ijtimoiy, ma’naviy, psixologik tabiatini o‘rganish hamda mazkur jarayonning bugungi kun oilalaridagi barqarorlik, farovonlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Migratsion jarayonlarni boshqarishda ushbu jarayonlarning asosiy yo`nalishlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasining 5 ta yo`nalishini ajratib ko`rsatish mumkin:

1) Rivojlanayotgan davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;
2) Sanoati rivojlangan davlatlar doirasidagi migratsiya;
3) Rivojlanayotgan davlatlar orasidagi migratsiya;
4) Sobiq sotsialistik davlatlardan sanoati rivojlangan davlatlarga migratsiya;
5) Ilmiy xodimlar, malakali mutaxassislarning sanoati rivojlangan davlatlardan rivojlanayotgan davlatlarga migratsiyasi.

Statistik ma`lumotlariga qaraganda, Evropa aholisi 2050 yilga borib, 128 mln.ga kamayadi, bunda Italiya – 16 mln., Germaniya – 23 mln., Rossiya – 33 mln. kishisini yo`qotadi. Eng ahamiyatlisi, Evropa umumiy aholisining 10% igina evropalik ildizga taqaladi. Migratsiya dunyoning barcha qismidagi odamlar orasida keng tarqalgan hodisa bo‘lib, dunyodagi deyarli 7 kishidan 1 nafari xalqaro yoki ichki migrantdir. Xalqaro migratsiya bo‘yicha global komissiyaning yaqinda e’lon qilgan hisobotiga ko‘ra, bugungi kunda xalqaro miqyosda 200 millionga yaqin muhojir bor, ularning qariyb 60 foizi rivojlangan mamlakatlarda, qolgan 40 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda migratsiya shu qadar xilma-xil bo‘lib ketdiki, migratsiyani o‘rganish mashhur sohalardan biriga aylandi.

EI hududida migratsion oqimni va o`zga madaniyatdagilar hamjamiyatini tartibga solish bo`yicha muayyan ishlar ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Evropaning deyarli barcha davlatlari OAVlarida va siyosiy debatlarda ushbu mavzu tez-tez ko`tarilmoqda.

Germaniya immigratsiya siyosati o`ziga xos maxsus qoida va an`analardan kelib chiqqan bo`lib, u ko`pgina Evropa davlatlarida qiziqish uyg`otdi.

Agarda 1973 yilda 3,9 mln. (GFR) xorijlik yashagan bo`lsa, 30 yildan so`ng bu ko`rsatkich, ya`ni 2002 yilda 7,3 mln.ni tashkil qildi. Germaniyalik muhojirlarning ko`pchiligi “uchinchi davlat” kishilari bo`lib, ular etnomadaniy nuqtai nazardan, ko`pgina muammolarni keltirib chiqaradi.

[1] file:///C:/Users/ASUS/Desktop/O‘zbekiston_—_Migratsiya_vaziyatiga_oid_hisobot_—_2023_yil_aprel.pdf

2000 yil 1 yanvardan kuchga kirgan "Fuqarolik to`g`risida"gi qonuniga ko`ra, 2000 yilgacha muhojirlardan tug`ilgan bolalar bevosita nemis fuqaroligini qo`lga kiritadi. Balog`at yoshiga etguncha (18 yosh) ular ota-onalarining fuqaroligini saqlab turadilar, lekin 23 yoshgacha fuqarolikni aniq tanlashlari talab etiladi. Fuqarolik olishga ishsizlik nafaqasini oluvchilar, sudlanganlar da`vogarlik qila olmaydilar. SHuningdek, nemis tilini o`rganish bo`yicha test olish majburiy qilib qo`yildi. Umumiy hisobda 2000-2004 yillar oralig`ida 191107 ta muhojirlarning farzandlari nemis fuqaroligini qo`lga kiritishdi. Ularning ko`pchiligini etnik turklar tashkil qiladi.

Migratsiya aholi harakati bo‘lib, uning uzunligi, tarkibi va sabablaridan qat'i nazar, odamlarning har qanday harakatini qamrab oladi. Migratsiya qochqinlar, ko‘chirilganlar, iqtisodiy muhojirlar va boshqa maqsadlarda, shu jumladan, oilalarni birlashtirish uchun ko‘chib o‘tayotgan shaxslarning migratsiyasini o‘z ichiga oladi.

Mehnat migratsiyasi migratsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Mehnat migratsiyasi odamning o‘zini ish bilan ta'minlash maqsadida o‘z uyidan yangi joyga ko‘chishini anglatadi. Garchi mehnat migratsiyasi ichki yoki tashqi bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, tashqi yoki xalqaro mehnat migratsiyasi ichki mehnat migratsiyasidan ko‘p bo‘lgani uchun bugungi kunda e'tiborni tortmoqda. Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar ko‘chada yig‘im-terim kabi oddiy mehnatdan tortib, kompyuter dasturlashgacha bo‘lgan ishlar bilan shug‘ullanmoqda. Birgalikda ularning soni sayyoramizdagi aholi soni bo‘yicha beshinchi o‘rindagi mamlakatga teng bo‘ladi.

Migratsion jarayonlarni tahlil etishda, undagi muhim muammoviy masalalarning ham mavjudligini inobatga olish zarur bo`ladi. Ma`lumki, harakat faoliyati mobaynida aksariyat migrantlar ekspluatatsiya qilinadi va ularning huquqlari poymol qilinadi; aksariyat holatlarda o`zlari yo`nalish olgan manzil mamlakatlar madaniyati va turmush tarziga nisbatan integratsiyalashuv qiyin kechishi mumkin; migrantlarni qabul qilayotgan davlatlarning malakali va zarur hisoblangan kadrlariga nisbatan arzon ishchi kuchi sifatida raqobatbardosh bo`lib, ularni ish joylaridan mahrum etishi mumkin. Mana shu va boshqa ko`plab sabablarga ko`ra migratsiya holatin har tomonlama, jumladan sotsiologik o`rganish muhim mavzu hisoblanadi.

Mazkur migratsiyaning hajmidan tashqari yana bir muhim tomoni, ijtimoiy-siyosiy tomoni ham borki, u hozirgi vaqtda ham evropalik hisoblangan amerikaliklarning asosan kelib chiqishi afrikalik bo`lgan qullarning avlodlariga nisbatan qaysidir darajada ta`sir kuchiga ega ekanligidir. SHunday bo`lsa-da, AQSHga quldorlikning tugatilishidan so`ng ham Xitoy, Hindiston va Yaponiyadan juda ko`plab odamlar shartnoma asosida ko`chishdi va bu jarayon hali ham davom etmoqda. Masalan, oxirgi statistik ma`lumotlarga ko`ra ushbu mamlakatga faqat Hindistonning o`zidan 1,5 million odam ko`chib kelgan. Hindistonlik migrantlar dunyo miqyosida o`zining intellektual salohiyati tufayli komp`yuter dasturlari ustasi sifatida tanilgan bo`lsa-da, biroq ularning Amerikadagi faoliyati Evropa mamlakatlari fuqarolariga tegishli plantatsiyalarda ishlash bilan bog`liqdir.

So‘nggi paytlarda migratsiyani millatlararo va etnik-diniy nizolarni o‘rganish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Millatlararo va harbiy mojarolarning kuchayishi qochqinlar va ichki ko‘chirilganlar sonining ko‘payishiga olib keladi. Shuning uchun bu guruhlar ko‘plab ilmiy ishlarning obyektiga aylanadi. G.U.Soldatova va L.A.Shaygerov Rossiyadagi majburiy muhojirlarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi bo‘yicha ko‘p yillik tadqiqotlar olib borgan. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning metodologik asosi sotsial-madaniy yondashuv bo‘lib, u akkulturatsiya nazariyasi, ijtimoiy o‘ziga xoslik tushunchasi, millatlararo keskinlik va nizolar tushunchasi, etnopsixologik tadqiqotlar, g‘arbiy madaniyatlararo psixologiyadagi vaziyatlar va shu kabi boshqa tushunchalarga asoslanadi. Ularning ilmiy izlanishlarida majburiy migrantlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boshdan kechirgan jarohatlari va stressni yengishning o‘ziga xos xususiyatlari, qabul qiluvchi jamiyat bilan munosabatlarning tabiati va boshqalar batafsil bayon etilgan.

Hozirgi davrda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi migratsiya oqimlarini boshqarish muammosi mamlakatlar iqtisodiy xavfsizligini shakllantirishning ahamiyatli omillaridan biriga aylanmoqda. CHunki migratsiya (xususan, mehnat migratsiyasi) so`nggi vaqtlarda mintaqaning

qator mamlakatlari uchun tahdidli xususiyat kasb etmoqda. Mintaqadagi migratsiya nafaqat o`zining misli ko`rilmagan ulkan miqyosi, balki aksariyat hollarda asosan faqatgina bir mamlakatga – Rossiyaga yo`nalganligi bilan xarakterlidir. VMF ma`lumotlariga ko`ra, Rossiya imigratsiya ko`lamiga ko`ra, kattaligi jihatidan ikkinchi o`rinda turadi. Bu esa, Markaziy Osiyo mintaqasining deyarli barcha mamlakatlarini RF siyosiy va iqtisodiy manfaatlariga bevosita bog`lab qo`yadi.

Xulosa. Migratsion jarayonlarning oilaviy barqarorlik darajasiga ta'siri farzandlar va ota-ona munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yaqin insonlarining boladan uzoqlashishi nafaqat uning ruhiy holatiga, balki o'qishi, turmush tarzi, shuningdek jismoniy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Yoshligida bola oddiy hissiyotlarni boshdan kechiradi. Yoshi ulg'aygani sayin u asta-sekin murakkab narsalarga duch keladi va ularni og'zaki bo'lmagan vositalar yordamida ifodalaydi. Ulg'ayish bilan ko'pincha his-tuyg'ularni ifoda etishni, hissiyotlarni nazorat qilishni va cheklashni, ularning sabablariga bo'ysunishni istamaslik boshlanadi. Hissiy beqarorlik bolaga dunyoni yetarlicha idrok etishga, o'z pozitsiyasini, dunyo bilan munosabatlar modelini shakllantirishga imkon bermaydigan buzilishlardir. Bunday muammolar odatda bolaning shaxsiy mojarolari fonida paydo bo'ladi. Ota-onaning farzanddan uzoqda bo'lishi undagi hissiy beqarorlik ko'rsatkichining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, o'smirlik davrida bu holat xarakter aksentuatsiyasini keltirib chiqarib, bola shaxsida atrof-olamga nisbatan negativ fikrlar paydo bo'lishini tezlashtiradi. Kuzatishlarimiz natijasida har bir migrant oila farzandlariga ota-onasining, yaqinlarining xorijda ekanligi o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaganini ko'rishimiz mumkin. Migrant oilalar farzandlarining hayotida qo'rquv, tashvish, tushkunlik mavjud. Ushbu davrning uzoq muddatli tajribasi ko'pincha salbiy xulq-atvor reaksiyalariga olib keladi. Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqqan holda, mamlakatdan chiqib ketayotgan ishchi kuchi oqimining iqtisodiy zarari o`ta katta, degan uzil-kesil xulosaga kelish mumkin. Migratsiya natijasida mintaqa mamlakatlarining eng malakali mehnat zahiralari qatlamlarining yo`qotilishi mlliy iqtisodiyotlarning uzoq muddatli jonlanish istiqbollariga putur etkazadi va ham ichki, ham xorijiy investitsiyalarning mehnat talab qiluvchi sohalarga kiritilishini kamaytirib yuboradi. Mehnat migratsiyasining hozirgi kundagi jarayonlari, agar qisqa muddat nazaridan qaraladigan bo`lsa, iqtisodiyotga pul va mahsulot zahiralarining sezilarli darajada jamlanishi hamda mamlakat tashqarisida yaratiladigan so`ngra esa, mintaqa mamlakatlariga olib kelinadigan, import qilinadigan qadriyatlarga ta`sir ko`rsatadi.

Adabiyotlar:

1. Otajonov A.A. O'zbekistonda mehnat migratsiyasi sohasida kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirishga doir ayrim masalalar // Yurist axborotnomasi– Вестник юриста – Lawyer herald. – № 1. (2022) – Б. 116–121.

2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Ma'sul muharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001 y.

3. Хрусталева Н.С. Психология миграционных процессов // Психология кризисных и экстремальных ситуаций: психическая травматизация и ее последствия. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2014. – С. 325–349.

4. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. Ma'sul moharrir Q. Nazarov. Toshkent 2001 y.

5. Zuberi D., Ptashnick M. In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada // International Migration. 2012. – Vol. 50. – № 1. – P. 60–93.

6. https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo'mita-yangiliklar/17361-demografik-holat-2021-yil-yanvar dekabr.

GLOBAL MIGRATSIYA JARAYONINING TRANSMILLIYLASHTIRISH MADANIYAT MODELI BO'YICHA KECHISH TENDENSIYALARI

N.N. Achilova
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Milliy g'oya va falsafa kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada global migratsiya jarayonlarining "transmilliylashtirish madaniyat modeli" bo'yicha kechishining tendension xarakteri ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilinib, ularning nazariy va amaliy yechimlari haqida bahs talab fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, transmilliy,migratsiya, aholi va mehnat migratsiyasi, madaniyat, differensial, integral, gorizontal, vertikal, jamiyat, sintetik falsafa.

Globallashuv jamiyat moddiy va ma'naviy hayotining barcha jabhalarini qamrab olgan ko'p qirrali jarayon sifatida o'zini namoyon qilmoqda. Shu sababli uning mohiyat-mazmunini ochish, keltirib chiqaruvchi foydali va zararli oqibatlarini baholash, kelajakdagi ta'qdirini bashorat qilish borasida turli soha olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Natijada faylasuflar globallashuv masalasini umumplanatar hodisa sifatida tendensiyali xarakterga ega ekanligini e'tirof etmoqdalar.

Globallashuv nima, degan savolga olimlar tomonidan xilma xil keng va tor ma'noda ta'riflar berilgan va tavsiflangan. Shulardan biri professorlar J.Y.Yaxshilikov va N.E.Muhammadiyevlarning yozishicha: "Globallashuv falsafiy ma'noda – bu jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy sohada o'zaro yaqinlashuvi, yangicha sifatiy birlashuvi natijasida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarning tez sur'atlar bilan bir mamlakat doirasidan chiqib, umumplanetar miqyosga ega bo'lishidir" [1.B.268.]. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda, biz masalaning aholi migratsiyasi jarayonida, ya'ni ko'chib ketganlar va ko'chib kelganlarning qanday sharoitlarda, omillar asosida ma'naviy-madaniy jihatdan, aniqroq qilib aytganda "madaniyat moduli" bo'yicha integrallashuv va differensiallashuvi masalalariga e'tibor qaratmoqchimiz.

Xo'sh, migratsiya va uning mohiyati nimalarda ifodalanadi? Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Migratsiya jarayoni, ayniqsa, uning asosiy qismini tashkil etuvchi mehnat migratsiyasi jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ma'lum hudud, mamlakat, mintaqa ijtimoiy hayotiga o'zining ijobiy, salbiy, kerak bo'lsa, siyosiy ta'sirini o'tkazadi"[2.B.363.],-degan edi. Zero, shunday ekan migratsiya nima, u qanday fenomen degan savol tug'iladi? Bu savolga "O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Migratsiya [lotincha migratio-(aholining) bir joydan boshqa joyga ko'chishi] – aholining mamlakat doirasida bir joydan boshqa joyga yoki bir mamlakatdan boshqa mamlakatga ko'chishi yoki ko'chirishi"[3.B.588-589.],- degan ta'rif berilgan. Ushbu ta'rifdan kelib chiqqan holda "aholi migratsiyasi"(hayvonlar ham migratsiya jarayonlarini boshdan kechiradilar- N.N.A.) tushunchasiga ikki xil, ya'ni tor va keng ma'noda ta'rif berish mumkin. Demak, migratsiya tor ma'noda – bu aholining yashab turgan joyini qancha muddatga bo'lishidan qat'iy nazar boshqa hududga ko'chib o'tishi bilan yakun topadigan jarayon, keng ma'noda esa ko'chivchilar ko'lami, qayta migratsiyalashuvi, uni keltirib chiqaruvchi sabablar, ko'chivchilarning ko'chib borgan joydagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa muhit turlari bilan bo'ladigan integratsion yoki diferensiallashgan madaniy munosabatlari tizimidir. Migratsiya masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib brogan. O.D. Vorobyova: "Migratsiya bu aholining yashash joyini doimiy yoki vaqtinchalik o'zgartirishi bo'lib, har qanday hududiy ko'chib o'tish ijobiy yoki salbiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi"[4.B.35.],- degan xulosaga keladi. Darhaqiqat, hech bir odam o'zining tug'ilgan joyini, do'stlarini, mahalladoshlarini, mamlakatini tashlab ma'naviy-madaniy, axloqiy va estetik qadriyatlarigan voz kechib boshqa joylarga biron bir obyektiv yoki subyektiv sabablarsiz ko'chib ketmaydi. Demak, migratsiya shunchaki aholining oddiy mexanik harakati emas, balki xalqlar bilan birga madaniy birliklar, aniqrog'i har bir oila, elat, millat va xalqlarning urf odatlar, udumlar, qadriyatlar, til va diniy qoidalarni o'z ichiga qamrab

oladigan xatti-harakatlar tizimidir. Aslini olganda migratsiya jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlarining mahsuli, hosilasidir.

XXI asrda globallashuv - bu dunyoning yaxlitligi va o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlashga qaratilgan jarayon bo‘lib, uning moddiy-texnologik tamaddun darajasida kechayotgan barcha o‘zgarishlari jamiyatning ijtimoiy-tashkiliy, g‘oyaviy-mafkuraviy va ma’naviy-madaniy darajasida aks etar ekan, u albatta, har bir insonning hayoti va ichki dunyosiga ta’sir qilishi tabiiydir.

Global migratsiya jarayonining “transmilliylashtirish madaniyat moduli” bo‘yicha kechish tendetsiyalarilariga e’tiborni qaratadigan bo‘lsak, birinchidan, globallashuv va migratsiyaning chiziqli bo‘lmagan sintez qonunlariga muvofiq rivojlanayotgan jarayon sifatida ta’sirining ko‘p vektorli ekanligini ko‘ramiz. Ular moddiy va ma’naviy qadriyatlarga asoslangan inson hayotiy yo‘nalishlarning barcha turlarini, shu jumladan turli xil madaniyatlarga mansub odamlarning ma’naviy qiyofasi va turmush tarzini ham qamrab oladi. Shunga qaramay, zamonaviy va an’anaviy tarzda shakllanib rivojlanayotgan tamaddunning falsafiy paradigmalari faqat globallashuv jarayoni bilan belgilanadi. Aksincha, bordi-yu mavjud ijtimoiy tizimga ichki va tashqi bosim qanchalik katta bo‘lsa, turli madaniyatlarda o‘z-o‘zini tashkil etish salohiyatining namoyon bo‘lishi, dunyo tamaddunining xilma-xilligini saqlab qolish istagi ham shunchalik faol bo‘ladi. Demak, mazkur tendensiyalarning bir vaqtning o‘zida rivojlanishi - integratsiya va differensiatsiyalashgan holatda "gorizontal" shaklda namoyon bo‘lib, "vertikal" tarzda universallashuv jarayonlari orqali dunyoning butun xilma-xilligini tushunib yetish va uni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bunday vaqtinchalik fazoviy munosabatlarni bog‘laydigan qadr-qiymatga asoslangan hayotiy tendensiyalar ijtimoiy-madaniy qarama-qarshiliklarning kuchayishiga olib kelishi ham mumkin.

Ikkinchidan, globallashuv va migratsiya sinergetik, ya’ni chiziqli bo‘lmagan tarzda harakat qiladi. Aytaylik, Sharq va G‘arb, Shimol va Janub mamlakatlari, ularning murakkab munosabatlar tizimidagi ishtiroki madaniyatlar, o‘z qadr-qimmati va suverenitetining zaiflashishini istisno qilgan holda, ayni vaqtda jahondagi turli xalqlarning o‘zaro bog‘liqligini tushunishni ham kuchaytiradi. Bu ular o‘rtasida beqarorlikni yengish senariylaridan biri bo‘lib, zamonaviy dunyoning dinamik muvozanatga erishishga keng yo‘l ochib beradi.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida migratsiya masalasi ko‘chivchilar o‘rtasida etnomadaniy o‘ziga xoslik va etnomadaniy xilma-xillikning o‘zaro bog‘liqligini belgilab berishiga imkoniyat yaratib beradi. Ertami-kechmi, barcha xalqlar va madaniyatlar geosiyosiy va geoiqtisodiy o‘zgarishlarning bosimini boshdan kechirayotgan global axborot texnologiyalari oqimiga qo‘shilishga majbur bo‘ladi. Shu bilan birga, ular o‘zlarining umumiy ijtimoiy va tamadduniy xususiyatlarini hamda mahalliy madaniy o‘ziga xosligini saqlab qolishga intilib, o‘zlarining ritmini va global jarayonlarga kirish usullarini rivojlantiradilar. Demak, globallashuv sharoitida migratsiyaning birlashish va standartlashtirish tendensiyalari bosimini pasaytirish, etnik madaniyatlarning o‘ziga xosligini saqlab qolish bilan yaqinligini bartaraf etish imkoniyati ko‘p jihatdan ochiqlik va innovatsion faoliyatning o‘sishi sharoitida moslashish strategiyasining samaradorligi bilan belgilanadi. Bunda migratsiya tufayli integratsiyalashgan har bir millat madaniyatiga mos bo‘lgan dunyoqarashining o‘ziga xosligini tan olish va madaniy ahamiyatini inkor etmaslik zarur bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida aholining keng miqyosda migratsiya jarayonlariga jalb etilishi qadriyatlar yangi ko‘lamini shakllanishiga, ta’lim-tarbiya tizimining ochiqligi va transmilliylashtirilishiga, iqtisodiy bo‘lmagan motivlar ahamiyatining oshirishi ba’zi mamlakatlarda nisbatan sekin kechishi, boshqalarida esa tezlashib borishi jahondagi ijtimoiy-madaniy dinamikaning hal qiluvchi omiliga aylandi. Bunda, bir tomondan, texnologiyalarni o‘ta tez takomillashtirish, ishlab chiqarishni demassifikatsiya va dematerializatsiya qilish jarayonini tezlashtirishga e’tibor kuchaymoqda, natijada esa bunda inson resurslarining ahamiyati ortib bormoqda. Boshqa tomondan, globallashuv jarayonining kuchli nochiziqligining ko‘rsatkichlari sifatida modernizatsiyaning turli sur’atlari zamonaviy dunyoni tamaddun va ijtimoiy mezonlarga ko‘ra taqsimlashga yordam bermoqda. Masalan, migratsiya, qashshoqlik, kasalliklar, savodsizlik, diniy ekstremizm, terrorizm global muammolarni hal qilishni talab qilmoqda.

Globallashuv va migratsiya jarayonlarining hozirgi bosqichining o‘ziga xos xususiyati aniq strategik maqsadlarga erishish uchun turli xil iqtisodiy va geosiyosiy birlashmalar, vaqtinchalik koalitsiyalar va uzoq muddatli ittifoqlarni shakllantirishga qaratilmoqda. Bunda barcha moddiy va ma’naviy ne’matlarni transmilliylashtirish va xalqarolashtirish foyda va imtiyozlar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan holda, jamiyatning madaniy hayotida etnomilliy madaniyatlar uchun salbiy oqibatlar nuqtayi nazaridan baholanadigan “ommaviy madaniyat”ni joriy qilishga urinmoqdalar.

Shunday qilib bugungi kunda har bir davlat va umuman insoniyat globallashuvning qaysi modelini rivojlantirish to‘g‘risida qaror qabul qilish vaqti keldi. Bunda bir biriga muqobil bo‘lgan variantlar - "bozor modeliga ko‘ra" globallashuv va " transmilliylashtirish madaniyat modeli”ga ko‘ra globallashuv turli maqsadlarni ko‘zlab, ma’lum xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shunday qilib, " transmilliylashtirish madaniyat modeli”ga ko‘ra global migratsiya jarayonining asosiy maqsadi millati va yashash joyidan qat’iy nazar, odamlarga bilim va madaniyatga teng huquq berish orqali, ularning madaniy rivojlanishi va moddiy farovonligining o‘sishiga hissa qo‘shish, ayni vaqtda iqtisodiy o‘sish sharoitlar bilan ta’minlanadidagan umumiy ahamiyatga molik bo‘lgan madaniy makonni yaratishdan iborat. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, madaniyatda inson huquqlarini to‘liq amalga oshirish orqali iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi, iqtisodiy rivojlanish esa turli madaniyatlarning konfiguratsiyasini soddalashtirish va "moslashtirish"ga olib kelmaydi. Bilaks, madaniyatning jamiyatdagi rolini oshirishga, an’analarni saqlab qolish uchun madaniy muhitni faol yangilashga sharoitlarni yaxshilashga yordam beradi, iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydigan innovatsion komponentlarni faollashtiradi.

Global migratsiya jarayonining “transmilliylashtirish madaniyat moduli bo‘yicha” kechish tendetsiyalarini aniqlashda tadqiqotchilar tomonidan aniqlanayotgan quyidagi holatlarning: a)modernistik badiiy madaniyat namunalari (shu jumladan ommaviy va elita; masalan, mavhum rasm yoki atonal musiqa), geografik joylashuviga (kelib chiqish joyiga) qaramay, dasturiy jihatdan milliy bo‘lmagan (kosmopolit) madaniy ishlanmalar; b)global ommaviy madaniyatga odamlarni umumiy matnlar va g‘oyalar, taniqli asarlar bilan birlashtirgan tizimi yaratish; v)bir necha darajalarda standartlashtirilgan mahsulotlar manbai bo‘lmish umumlashtirilgan insoniy qadriyatlar va manfaatlar, yagona semantik nutq va boshqalar sifatida ishlaydigan mintaqaviy, milliy va mahalliy madaniyatlarning parchalaridan tashkil topadigan sintetik madaniyat falsafasini ishlab chiqish; g) yangi gibridlar(duragaylar) - "daos madaniyati" (S. Xantington) va "intelektual ziyolilarning klub madaniyati"[5.B.8.] kabi global madaniyat namunalari yaratishga bo‘lgan urinishlarini mantiqiy jihatdan tushunib yetishga e’tiborni qaratish kerak bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda transmilliylashtirish “madaniy tamaddun” hodisasiga aylanib, fan, ta’lim, madaniyat va san’at sohalarida xalqarolashtirish jarayonlarini chuqurlashtirmoqda. Bularga: milliy madaniyatlar makonini nafaqat sifatli ijtimoiy-iqtisodiy, balki geosiyosiy o‘zgarishlarga qaratilgan zamonaviy dunyoning integratsiya tendensiyalariga javob beradigan yangi qiymat va semantik tarkib bilan to‘ldirish jarayoni; transmilliy madaniyatning yangi turini, bir xillik va harakatchanlik bilan ajralib turadigan madaniy qatlamni shakllantirish, u asta-sekin milliy madaniyatlarda o‘sib borayotgan segmentni qamrab olish va ularning yaxlitligini o‘zgartirish; media maydonlarini yaratish va madaniy muhitni, shu jumladan audiovizual aloqaning turli shakllarini interaktiv o‘zaro ta’sirga qadar virtualizatsiya qilish orqali har bir madaniyatning axborot-kommunikatsiya maydonini kengaytirish; madaniy ahamiyatga molik bo‘lgan tovarlar va xizmatlarning xalqaro almashinuvini kengaytirish jarayoni, madaniy hayotni tashkil etishning yangi shakllarini birlashtirish; o‘zaro ta’sir jarayonlariga (davlat ma’muriy tuzilmalari vositachiligisiz) nafaqat milliy madaniyatlarni, balki mintaqalar va jamoalar madaniyatini jalb etish tug‘ilish va alohida fuqarolar, xalqaro madaniy hayotni faollashtirish; transmilliy ta’lim va fan tizimlari faoliyatini kengaytirish, ijtimoiylashtirish va professionallashtirishning belgilangan shakllarini o‘zgartirish; shaxsning madaniy o‘zgarish jarayonlariga ruhiy moslashishini, ijtimoiy harakatchanlikni ta’minlaydigan va globallashayotgan dunyoda ijtimoiy-madaniy o‘ziga xoslikning yangi turlarining asosiy tavsiflovchisi bo‘lib xizmat qiladigan shaxsiy madaniyatning yangi turini shakllantirish jarayonini kiritish mumkin.Ushbu xususiyatlarga asoslanib, transmilliylashtirish haqida gapirganda, faqat

biron bir mamlakat yoki turli jamoalarning gomogenizatsiya (yunoncha –gomogemes- bir xillik, bir tartiblilik) ga qaratilgan boshqaruv ta'sirini tan olish yoki rad etish haqiqati bilan bir xillik madaniy makonni yaratish bilan cheklanib bo'lmaydi.

Transmilliylashtirish har bir inson uchun erkinlik va madaniy makonni individuallashtirish illyuziyasini yaratadi. Shuning uchun ham bu jarayon ancha murakkab bo'lib migrantlar uning tuzog'iga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishi, yetti o'lchab bir kesishi maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy-madaniy makonni transmilliylashtirish zamonaviy madaniyatning mozaik konfiguratsiyasini kuchaytiradi. Uning ana shu mozaikligi turli xil millat madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro ta'siri natijasida migrantlar hayotining keskin o'zgarib ketishiga, ya'ni o'zligini yaxshi anglashi yoki uni asta-sekin unitishlariga olib kelishi mumkin.

Yangilanayotgan O'zbekistonda global migratsiya jarayonining " transmilliylashtirish madaniyat moduli" bo'yicha kechishi, ularning milliy manfaatlarimizga, milliy qadriyatlarimizga mos kelmaydigan tomonlarini inkor qilgan holda, o'zligimizni chuqur anglash orqali transmilliy maydonda harakat qilishimish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar:

1. Яхшиликов Ж.Я.,Муҳаммадиев Н.Э. Миллий ғоя-тараққиёт стратегияси. Монография. – Тошкент."Фан",2017. - Б.268.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.Тўлдирилган иккинчи нашри.- Тошкент"Ўзбекистон" нашриёти,2022. - Б.363.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.III. – Т.:"Ўзбекистон миллий энциклопедияси"Давлат илмий нашриёти,2006. - Б.588-589.
4. Воробьёва О.Д. Миграционные процессы населения: вопросы теории и государственной политики. //Проблемы правового регулирования миграционных процессов на территории Российской Федерации. / Аналитический сборник Совета Федерации ФС России-2003- № 9(202) –С. 35
5. Бергер П.Л. Культурная динамика глобализации// Многоликая глобализация:Культурное разнообразие в современном мире / Под.ред. П.Бергара и С. Хантингтона. М., 2004. – С. 8.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА МАДАНИЯТЛАР ТАЪСИРИ

Ибрагимов Солижон Эргашович
ҚаршМИИ катта ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада глобаллашув жараёнида маданиятлар алмашишига олиб келиши ва айни пайтда, Ғарб оламида юзага келган "оммавий маданият"нинг мамлакатимизга кириб келиши ва ёшлар тарбиясига хатарли тахдиди хамда ёшларимизда мафкуравий иммунитетни шакллантириш хақида сўз боради.

Калит сўзлар: глобал маданият, ўзликни англаш, "Оммавий маданият", ахборот хуружи, мафкуравий иммунитет, ахлоқий бузуқлик, индивидуализм, эгоцентризм.

Бугунги кунда халқаро майдонда турли сиёсий кучлар ўзининг миллий ва стратегик режаларига эришиш учун "Эркинлик ва демократияни олға силжитиш" ниқоби остида амалга ошираётган, узоқни кўзлаган сиёсатнинг асл моҳияти ва мақсадларини ўз вақтида сезиш, англаш катта аҳамият касб этишини, қудратли давлатлар томонидан муайян давлатларга, ер ости, ер усти бойликларига эга бўлган ҳудудларга нисбатан олиб борилаётган ғаразли сиёсати ўша ердаги тинч ҳаётни издан чиқараётганлиги сир эмас.

Бутун жаҳонда глобаллашув жараёнларининг кучайиб бориши билан Ер юзида тинчлик-барқарорликни сақлаш, аҳоли фаровонлиги, унинг муносиб турмуш даражаси,

ижтимоий-иқтисодий тараққиётни таъминлаш, умумбашарий муаммолар билан биргаликда, миллий маданият, санъат ва урф-одатларни сақлаб қолишдек масалалар ҳам кун тартибига чиқмоқда. Глобаллашув жараёни билан боғлиқ зиддиятлар, маънавият ва маданият соҳасида яққол намоён бўлмоқда. "Шу жиҳатдан глобаллашувга бутун дунёни қамраб олган маданий инқилоб деб таъриф бериш ҳам мумкин" [1,5].

Халқимизнинг маънавий оламини бундай таҳдидлардан асраш, ўта мураккаб бир замонда халқаро майдонда содир бўлаётган жараёнларнинг туб моҳиятига етиб бориш, улар ҳақида холис ва мустақил фикрга эга бўлиш бугунги куннинг долзарб вазифаларидандир.

Глобаллашувнинг салбий жиҳатлари асосида миллий маданиятлар ва қадриятларнинг емирилиши, инсонларнинг миллий идеалларини ўзгариши, ѐшлар тарбияси билан боғлиқ салбий ҳолатлар, анъанавий жамиятларда яшаѐтган аҳоли ўртасида, хусусан кўп миллатли таркибга эга аҳоли ўртасида миллий, диний, ғоявий негизда қарама-қаршиликларни юзага келмоқда. Зеро, «...ҳозирги вақтда дунѐнинг турли минтақаларида маданиятлараро ва динлараро кескинлик кучайиб бормоқда, миллатчилик, диний муросасизлик бош кўтармоқда. Бу иллатлар давлатни емириб, жамиятни парчалаб, радикал гуруҳ ва оқимлар учун мафкура базасига айланмоқда,-деб таъкидлайди Ш.Мирзиѐев, -ана шундай мураккаб вазиятда мамлакатимизда турли миллат ва динга мансуб инсонлар ўртасида дўстлик ва ҳамжиҳатликни янада мустаҳкамлаш биз учун борган сари муҳим аҳамият касб этмоқда[2]». Шу боис, ҳар бир мамлакат ўзининг ички сиѐсатида жамият аъзоларида маданиятлараро мулоқот кўникмаларини шакллантириш борасидаги тарғибот ишларини кенгайтиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда

Глобаллашувнинг натижалари (ижобий жиҳатлари) ва оқибатлари (салбий жиҳатлари) миллий маданият ва маънавият, миллий қадриятлар тизимига таъсир этиши табиий. Ҳозирда глобаллашув шароитида юзага келаётган универсаллашув, бир томондан, барча миллатлар учун тараққиётнинг бир хил қолипларини тақозо этса¸ иккинчи томондан, ана шу жараёнлар таъсирида миллий ўзликни англаш, анъанавийлик ва миллий ўзакларга қайтишга интилишни кучайтирмоқда. Миллий ўзликни англаш масаласи миллат билан боғлиқ муаммоларнинг негизи ҳисобланади.

Миллий ўзликни англаш миллат шаклланишининг асосий шартларидан бири бўлиб, у ўзга миллатлар ва уларнинг маданиятини инкор этиш ҳисобига эмас, аксинча, уларга ҳурмат билан қараш, ўзини бошқа миллатлар маданияти ва маънавиятига таққослаш, уларнинг илғор томонларидан ўрнак олиш ва уларни ўзлаштириш орқали ўзига хослиги ва менталитетини сақлаб қолиш демакдир. "Бинобарин, биз давлатимиз келажагини ўз қобиғимизга ўралиб қолган ҳолда эмас, балки умумбашарий ва демократик қадриятларни чуқур ўзлаштирган ҳолда тасаввур этамиз. Биз истиқболимизни тараққий топган мамлакатлар тажрибасидан фойдаланиб, давлат ва жамият бошқарувини эркинлаштириш, инсон ҳуқуқ ва эркинликларини, фикрлар ранг-баранглигини ўз ҳаётимизга янада кенгроқ жорий қилишда кўрамиз. Биз бутун маърифатли дунё, халқаро ҳамжамият билан тинч-тотув, эркин ва фаровон ҳаёт кечириш, ўзаро манфаатли ҳамкорлик қилиш тарафдоримиз" [3.114].

Миллий ўзликни англаш масаласининг марказида миллий маданият муаммоси туради. Миллат ва миллий маданият идентификацияси маданиятлараро мулоқотсиз ва диалогсиз амалга ошмайди. Маданиятлараро диалог давомида миллий маданият ўзини англайди, унда ўзини бошқа маданиятлар билан солиштириш, баҳолаш ва қайта баҳолаш имкони туғилади.

Mohir harbiy sarkarda atoqli davlat arbobi Amir Temur o'z hayotini Vatan ozodligi xalqining farovonligi, yurt obodligi uchun sarflagani ma'lum. Uning davrida nafaqat go'zal bog'lar bunyod qilindi, madrasalar va masjidlar qurildi, mamlakatimiz ma'naviy sohasida o'zgarishlar ro'y berdi va milliy davlatchilik shakllandi, balki xalqimiz ma'naviyati yuksalib, uning taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan muhim tadbirlar amalga oshirildi. Ayni shu davrda madaniyat va ilm-fanga nihoyatda katta e'tibor qaratildi, Temur o'z saroyida olimu fuzalo va ilohiyot ilmi arboblari bo'lgan Xoja Afzal, Jalol Xokiy, Mavlono Xorazmiy, Mavlono Munshiy va boshqalar ilm-fan va badiiy ijod bilan shug'ullandilar. Amir Temur davrida Samarqand Sharqning eng go'zal shahriga aylandi va bu haqda ispan sayyohi R.G.Klavixo ham uning tarovati to'g'risida qoyil qolgan va bu haqda o'z esdaliklarida alohida qayd etgan edi. Temur nafaqat Hindiston, Xitoy, arab mamlakatlari bilan aloqalarning kuchayishi, balki dunyoning boshqa xalqlari va davlatlari bilan tashqi munosabatlar o'rnatishga katta e'tibor berdi. Bu o'z navbatida xalqning iqtisodiy tafakkurini o'stirdi va ma'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasi uchun moddiy asoslarni yuzaga keltirdi. Shu bilan birga, Temur va temuriylar davrida islom dini va tasavvuf ta'limoti katta mavqega erishdi va asosiy mafkura sifatida markazlashgan davlatning ijtimoiy-falsafiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Islom dini iqtisod, madaniyat va ilm-fan sohasidagi maqsad-vazifalarni amalga oshirishda Temur va uning vorislari uchun tayanch mafkura, xalq falsafiy madaniyatini shakllantirishning g'oyaviy asosiga aylandi va uning ta'limoti keng quloch yoydi. Sohibqiron naqshbandlik tariqatining yirik shayxlari bo'lmish Sayyid Amir Kulol, Shayx Abu Bakr Tayobodiy, Mir Sayyid Barakalarni o'zining pirlari sifatida hurmat qilgan, ularning o'gitlari va maslahatlarini qadrlaganlar [3]. Ushbu allomalar ham mamlakatdagi salbiy illatlarni yo'qotish, turli janjal va nizolarni bartaraf qilish, el-yurt orasida haqiqat va adolat o'rnatishda Temurga yordam berganlar, uning faoliyatiga ko'maklashganlar. Yurt obodligi, xalq tafakkuri o'sishi, ma'naviy hayot yuksalishi uchun ushbu zotlarning xizmati katta bo'lgan. Shohruh, Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur Mirzo kabi temuriyzodalar ham Sohibqiron Temur boshlab bergan va jamiyat ma'naviy hayoti dinamikasida muhim ahamiyatga molik ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, ilm-fanning ko'p sohalarida yuksalishga erishishga harakat qildilar. Bu borada matematika, astronomiya bilan birga tarix, adabiyot, mantiq, falsafa, axloqshunoslik va boshqalarga ham alohida e'tibor berildi, badiiy adabiyot va she'riyat rivojlanib, jahondagi eng ilg'or adabiy muhit shakllandi. Aynan o'sha davrda"Gul va Navro'z" muallifi Lutfiy (1366-1465), "Behro'z va Bahrom" kitobini yozgan Binoiy (1453-1512), "Tazkirat ush-shuaro" ("Shoirlar haqida tazkira")muallifi Davlatshoh Samarqandiy**,** "Yusuf va Zulayho", "Mahzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") kitoblari muallifi Durbek (XIV-XUasrlar), Hofiz Xorazmiy (XIV-XUasrlar), Ismat Buxoriy (1365-1436), Atoiy (XV asr) va boshqalarningasarlarida bunday ma'naviy yuksalish yaqqol namoyon bo'lgan edi, deyish mumkin.

Xalqimiz ma'naviy hayoti o'zgarishlar dinamikasining o'sha davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy va falsafiy asoslari milliy davlatchilikning tiklanishi, markazlashgan davlat tashkil topishi, moddiy

farovonlik ortishi bilan birga ilm-fan rivoji, inson aql-zakovatining yuksak namunalarini ko‘rsatgan qomusiy olimlar yetishib chiqqanligi va ularning o‘lmas asarlari yaratgani bilan belgilanadi. Aynan mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tilgani ushbu asoslarining eng muhim poydevori bo‘lgani aniq, albatta. Chunki bunday ijtimoiy-falsafiy taraqqiyot va uning ta’sirida ro‘y bergan ma’naviy yuksalish natijasida yurtimiz sarhadlari obod bo‘lib bordi, mamlakatda tinchlik o‘rnatildi, aholining hayoti farovonlashdi. Bu tahlitda amalga oshirilgan tub islohotlar va yangilanishlarning samaradorligiga erishilgani tufayli madaniy-ma’rifiy sohalar va ma’naviy hayotda tub o‘zgarishlar ro‘y bergani Amir Temur boshlab bergan temuriylar davri Renessansining eng asosiy xususiyatlaridan biridir.

Bularning barchasi , millatparvar Amir Temur va temuriylarning xalqimiz ma’naviy taraqqiyoti uchun falsafiy-iqtisodiy asoslarni yaratgani bilan birga, o‘sha davrda odamlarning ruhiyati, ma’naviyati, kelajakka ishonch tuyg‘ularini o‘sib borishi uchun zamin hozirlaganini yaqqol ko‘rsatadi. Ana shuning uchun ham xalqimiz o‘sha davrdagi ma’naviy yuksalish, hayotdagi o‘zgarishlar, ozod va mustaqil rivojlanish zamoniga o‘zini boshlab borgan Sohibqiron Temur nomini asarlar osha ardoqlab kelmoqda. Toshkent, Samarqand, Shahrisabzda unga qo‘yilgan haykallar, uning nomidagi ordenning mavjudligi, ulug‘ bobomizga hurmat ramzi bo‘lgan nomlar va unga atalgan asarlar, Shohruh, Ulug‘bek, Alisher, Bobur kabi ismlarni haligacha farzandlarmizga qo‘yilishi buning yaqqol isbotidir [8].

Shu bilan birga, bunda buyuk sohibqiron amalga oshirgan bunyodkorlik ishlari va o‘sha davrdagi ulug‘ siyomolarning ezgu amallaridan ma’naviy qarzdorlik, ular merosiga mos bo‘lish, endilikda bu buyuk zotlar ishini munosib davom ettirish kabilar bugungi jamiyat ma’naviy hayoti uchun nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘layotganini alohida ta’kidlash lozim. Aslida, ma’naviy hayot o‘zgarishlar dinamikasini ijtimoiy-falsafiy jarayonlar tadriji va ta’siriga nisbatan tahlilidan kelib chiqadigan eng asosiy xulosalaridan biri ham ana shundadir.

Bu esa, o‘z navbatida, istiqlolga erishish va mustaqil taraqqiyot imkoniyatiga ega bo‘lishning ma’naviy hayot o‘zgarishlari va dinamikasi uchun nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz, mustamlakachilik avvalo, bosqinchilik, irqchilik, kalonializm, imperalizm, buyuk davlatchilik iddaosi, buyuk millatchilik shovenizmi kabi turli xil ko‘rinishlarda namoyon bo‘lganini ko‘ramiz. Ular ayrim jihatlariga ko‘ra, bir-biridan farq qilsa-da, mohiyatan bir xil – bosqinchilik, zulm va zo‘ravonlik kabi hatti-harakatlarni turlicha izohlashlardan iborat. Afsuski, insoniylikka xilof bo‘lgan, bashariyatning kelajagiga, uning hamjihat yashashiga xavf soladigan bunday mafkura shakllari dunyoning turli burchaklarida hozir ham mudhish qiyofasini namoyon qilmoqda [4].

Mustamlakachilik va bosqinchiliklardan azob ko‘rmagan istibdod domiga tushmagan, uning zaxmatlaridan ezilmagan xalqlar tarixda juda ko‘plab topiladi. Bizning xalqimiz ham o‘tmishda ana shunday mustamlakachilik iskanjasiga bir necha bor tushgan. Gohida tez orada istiqlolga erishib, o‘z taraqqiyot yo‘liga tushib olgan, gohida esauzoq vaqt cho‘zilgan istibdod va istilolar xalqimiz taraqqiyotini sekinlashtirgan. Bunday istilolarning mudhish oqibatlari uning tarixiy xotirasida va ma’naviy hayotida o‘chmas asoratlar qoldirib, o‘sha davrlardagi jamiyat ma’naviy hayoti dinamikasini izdan chiqargan. Shunisi diqqatga sazovorki, bunday ayanchli oqibatlar va zaxmatli zamonlar qancha davom etishidan qat’iy nazar, xalqimiz qaddini rostlayvergan va oxir-oqibat o‘z mustaqilligi, milliy davlatchiligini qayta tiklashga erishgan. Bu esa, jamiyat ma’naviy hayoti dinamikasida o‘ziga xos tarzda aks etgan, u o‘sib borgan va har gal yangi taraqqiyot bosqichiga kirgan.

Shu ma’noda, xalqimiz ma’naviyatining o‘tmishdagi genezisi va dinamikasida Markaziy Osiyoning qoq o‘rtasida shakllangan hayot tarzi, azaliy qadriyatlar va g‘oyalar bugungi kunda ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Vatanimiz sarhadlarida shakllangan zardo‘shtiylik, uning bosh kitobi — “Avesto”, Moniy ta’limoti, “Moniy yozuvi”, mazdakiylik harakati kabilarning ham bunday ezgu ijtimoiy-falsafiy jarayonlarda o‘z shrni va ahamiyati bor, albatta. Vatan ozodligi yo‘lida jon fido etgan Muqanna boshchiligidagi harakat nafaqat O‘rta Osiyoda, balki jahonning boshqa o‘lkalarida ham aks-sado bergan. Vatanimiz hududida o‘sha davrda shakllangan va rivojlangan boy madaniyat, milliy qadriyatlar, ijtimoiy-falsafiy g‘oyalar va yuksak axloqiy xalqimiz ma’naviy hayoti o‘zgarishlar dinamikasi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

Bugungi mamlakatimizda ia'naviy hayot o'zgarishlar dinamikasi bilan bog'liq jarayonlar xalqimizning ezgu qadriyatlarga tayanib dunyo sivilizatsiyasiga qo'shayotgan betakror hissasini,istiqlol yo'lidagi erishilayotgan yutuqlar sifatida tushunilishi bejiz emas. Ushbu tushuncha bugungi kunda yurtimizni jahon mamlakatlari qatoridan munosib o'rin egallashi, bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati barpo etish, xalqimizning moddiy va ma'naviy salohiyatini mustahkamlash, O'zbekistonning shon-shuhratini dunyoga yoyishga keng imkoniyatlar yaratuvchi eng asosiy omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajagimizning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. – T.: "O'zbekiston", 2018. -64 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. – T.: "O'zbekiston", 2019.
4. Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: "Шарқ", 2004.

O'ZBEK FALSAFASI RIVOJIDA TASAVVUF TA'LIMOTINING O'RNI

Ismoilov Sobirjon
GulDU dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek falsafasi, O'zbekiston falsafasi, mustaqillik falsafasi, milliy falsafa va o'zbek falsafasi rivojida tasavvuf ta'limotining o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: falsafa, O'zbekiston, mustaqillik, milliy falsafa, o'zbek falsafasi rivoji, tasavvuf talimoti.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda "O'zbek falsafasi" (S.Shermuxamedov, Q.Nazarov), "O'zbekiston falsafasi" (B.To'raev, Sh.Xaitov), "Mustaqillik falsafasi" (A.Jalolov), "Milliy falsafa" (Q.Nazarov) deb atalib kelinayotgan tom ma'nodagi milliy falsafa shakllandi. Bu tushuncha-iboralarni shakli har xil bo'lsada mohiyat ular bir, uyg'un mazmunni ifodalaydi. Umumiy holda esa o'zbek falsafasi degan tushunchani o'zida aks ettiradi va ifodalaydi.

"O'zbek falsafasi" tushunchasi xalqimizning falsafiy tafakkuri, ongi va dunyoqarashining rivojlanish bosqichlari, tushuncha va kategoriyalari, ma'naviy tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi[1].

O'zbekiston falsafasi Sharq falsafasining tarkibiy qismiga kiruvchi va o'zbek xalqining o'ziga xos bo'lgan tafakkur tarzining ifodasidir[2].

Mustaqillik falsafasi – jahon hamjamiyatida o'z o'rniga, hur millatlar orasida o'z ovoziga ega bo'lishiga azmu qaror qilgan mustaqillik O'zbekiston[3] falsafasidir.

Milliy falsafa-muayyan millatning tabiiy-tarixiy rivojlanish jarayonida vujudga kelgan, moddiy va ma'naviy hayot ta'sirida takomillashib va boyib boradigan milliy ruh va mental xususiyatlar, madaniy me'ros, milliy til va muomala, amaliy faoliyat va o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladigan milliy dunyoqarash va tafakkur tarzi, ularga xos falsafiy tushuncha[4].

[1] Назаров К. Ўзбек фалсафаси. -Т.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти,, 2013. 9-бет.
[2] Тўраев Б. Фалсафа тарихининг қискача баёни. // "Имом ал-Бухорий сабоқлари" журнали. 2010 йил № 2 сон, 136-бет.
[3] Жалолов А. Ўзбекистон: мустақиллик, маънавият, мафкура. -Т.: Ўзбекистон, 1994. 60-бет.
[4] Назаров К. Жаҳон фалсафий қомуси. Биринчи китоб. А-Н. -Т.: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2022. 808-бет.

Jahon falsafasi tarixidagi falsafiy maktablarni atalishi va nomlariga nazar solganimizda, ularni uch nom bilan yuritilganligini ko'rish mumkin:

birinchi, xind, xitoy, yunon, arab, nemis, rus falsafa maktablari,

ikkinchi, ioniya, (Ksenafon, Anaksagor, Fales), Milet (Fales), Efes (Geraklit), Eley (Ksenafon), Likey (Aristotel), Kren (Aristipp), Marburg (German Kogen), Baden (Vindelband) falsafa maktablari,

uchinchi, pifagorchilar (Pifagor), epikurchilar (Epikur), kiniklar (Antisfen), stoiklar (Zenon), neoplatonizm (Plotin), elido-eretrik (Fedon), ma'rifatparvarlar maktabi kabi. Shu ma'noda talqin etsak bizning milliy falsafa maktabimizni: o'zbek falsafa maktabi, O'zbekiston falsafasi yoki Ibrohim Mo'minov falsafa maktabi deb nomlashga to'liq haqlimiz.

Milliy mustaqillik mafkurasini shakllantirish va komil insonni tarbiyalash borasida xalqimizning ma'naviy, falsafiy, shu jumladan tasavvufiy merosning alohida ahamiyati bor.

Jahon xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida yurtimiz alohida o'rin tutadi. To hozirgacha O'zbekiston Sharq va G'arb mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha yo'nalish va sohalari, jumladan, ijtimoiy-falsafiy fikrlar taraqqiyotida o'zining sezilarli izini qoldirib kelgan. Bu jarayon mustaqillik davrida ham davom ettirildi.

Milliy falsafiy merosimizning muhim qismini tasavvuf ta'limoti va qadriyatlari, shu jumladan aynan bizning Vatanimiz - Turkistonda shakllanib, endilikda butun dunyoga tarqalgan, jahon ilm-fani, madaniyati, umuminsoniy qadriyatlari taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan, uch buyuk tasavvufiy tariqatlar: yassaviya, kubroviya va xojagon-naqshbandiya tariqatlari tashkil etadi va bu qaysi bir jihatdan o'zbek falsafasining nazariy asoslaridan biridir. Ushbu jarayonni zamonaviy-falsafiy qarashlar nuqtai nazardan tadqiq etish ham ilmiy, ham ijtimoiy-amaliy ahamiyatga egadir. Mamlakatimiz o'zining mustaqil taraqqiyot yo'lidan borar ekan, umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligini rasman e'lon qilgan.

O'zbekistonda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati bunyod etilayotgan hozirgi jarayonda, insonni barcha imkoniyatlarini namoyon qilishga, o'zligini anglashga sharoit yaratilgan. Bu borada o'zbek falsafasining nazariy asoslaridan biri bo'lgan tasavvuf ta'limotida, bir qator g'oya, nazariya va tajribalar mavjud.

Tasavvuf ta'limotining o'zbek falsafasi shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni mavzusi yuzasidan bir qator olimlarimiz I.Mo'minov, V.Zohidovlar sho'ro davrida va O.Fayzullaev, R.Nosirov, H.Aliqulov, R.Shodiev, G.Navro'zova va boshqalar mustaqillik davrida tadqiqotlar olib borgan.

Tasavvuf va falsafaning o'ta murakkab hodisa ekanligi, ayni paytda, uni o'rganuvchi fanlar o'rtasida umumiylik va yakdillikning yo'qligi tadqiqotchilar oldiga bir qator vazifalarni qo'yadi-ki, bu olimlarimizdan tasavvuf va falsafaning ob'ektini o'rganuvchi barcha fanlarning tadqiqot darajalari, usullari, qoida va vositalarini, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik holatlarini chuqur tahlil qilishni va shu asosda, umumiy xulosaga kelishni talab qildi. Bu borada, O'zbekiston olimlari tasavvuf va falsafa muammolarini har tomonlama kompleks o'rganish, tasavvuf va falsafaning madaniyat tizimida tutgan o'rni kabi masalalar borasida ko'pgina maqola, risola va monografiyalar chop etishgan hamda dissertatsiyalar himoya qilishgan.

Yuqoridagi tadqiqotlarni tasavvuf va milliy o'zbek falsafasi haqidagi bir butun bilimlar tizimini yaratishga qaratilgan harakatlar sifatida ko'rsatish mumkin. Bu borada o'tgan asrning 50-70 yillaridayoq o'zbek faylasufi I.M.Mo'minov va boshqa bir guruh tadqiqotchilarning ishlarida o'zida barcha ijtimoiy fanlardagi mavjud ilg'or yutuqlarni birlashtiruvchi, alohida fan tarmog'i sifatida shakllanishi mumkin bo'lgan, milliy falsafa nazariyasini yaratish zarurligi va hozirgi fan taraqqiyoti, yaqin kelajakda, albatta, shu maqsadga erishishi muqarrar ekanligi haqidagi fikrni ilgari surganliklari ahamiyatga molikdir.

Bundan tashqari, tasavvuf va o'zbek falsafasi aloqadorlik ob'ektiga kompleks yondashish metodologiyasi buyicha tadqiqot olib borgan zabardast olimlarimizdan biri akademik S.Shermuxamedovning fikricha, tasavvuf va o'zbek falsafasi aloqadorlik nazariyasi bir butun tizim bo'lib, uni, shartli ravishda, ikki qismga bo'lish mumkin. Ushbu nazariyaning birinchi qismi tasavvuf ob'ektini o'rganish qoida va usullari, tushuncha va kategoriyalari, nazariyaning funktsiyasi

va shakllanish tarixi kabi masalalarni o‘z ichiga olsa, ikkinchi qismi milliy falsafa haqidagi bilimlar tasnifiga doir empirik, maxsus ilmiy, sotsiologik va falsafiy qarashlarni qamrab oladi.

Tasavvuf va o‘zbek falsafasi aloqadorlik ob’ektini har tomonlama kompleks o‘rganishga qaratilgan, insonshunoslik, deb nomlanuvchi yaxlit bir butun nazariyani yaratishda ham umummetodologik masalalarni to‘g‘ri hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon xalqlari falsafiy tafakkuri taraqqiyotida olamshumul ahamiyatga molik g‘oya va ta’limotlar Er kurrasidagi aksariyat xalqlarni va hududlarni qamrab oladi. O‘shanday vazifani mamlakatimiz ijtimoiy-falsafiy ta’limotlar tarixida tasavvuf ta’limoti va falsafasi bajargan hamda milliy falsafamizning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo‘lgan. Shu ma’noda Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari: yassaviya, kubroviya va xojagon-naqshbandiyani o‘zbek falsafasining tarkibiy qismi va g‘oyaviy-nazariy asosi deyishga haqlimiz.

Istiqlol davrida falsafa tarixi, uning takomil bosqichlari, alloma bobolarimizning falsafiy merosi bilan bog‘liq muhim masalalarga O.Fayzullaev, M.Xayrullaev, H.Aliqulov, U.Uvatov, B.Turaev, R.Nosirov, M.Qodirov, A.Sharipov, A.Zohidov, G.Navro‘zova, Sh.Madaevalarning asarlari va tadqiqotlari bag‘ishlangan. Bu mavzuda uzoq yillar davomida O‘z FA Falsafa va huquq instituti “Falsafa tarixi” bo‘limi va O‘zMUning shu yo‘nalishdagi kafedrasi mutaxassislari tadqiqotlar olib borganlar. Shu bilan birga ayni paytda 300-400 nafar faylasuf olimlari o‘zbek falsafasi taraqqiyotiga munosib ulushlarini qo‘shib kelayotgan bir chog‘da, ularning ma’lum qismi tasavvuf falsafasi muammolarini o‘rganishda jonbozlik ko‘rsatishmoqda.

Falsafiy g‘oyalar va ta’limotlarning insoniyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masalalar hamma davrlarda bo‘lgani kabi, hozir ham dolzarbligini saqlab qolmoqda. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning tub burilish davrlarida, xususan istiqlol tufayli xalqimiz hayotida ro‘y berayotgan bugungi tub o‘zgarishlar jarayonida falsafa tarixining asl mazmun-mohiyatini va ahamiyatini chuqur bilish, uning usul va g‘oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tasavvuf ta’limotining falsafa tarixida o‘ziga xos va mos o‘rni borki, buni baholi qudrat yoritishga harakat qildik va quyidagi xulosalarga keldik:

-falsafa, falsafa tarixi va falsafiy tafakkur insoniyat hayotida etakchi o‘rin tutuvchi, o‘ziga xos hodisalardan biridir;

- tasaffufiy merosda falsafaning inson kamolotida o‘rni beqiyos ekanligini ta’kidlab o‘tilgan;

-falsafa tarixida nafaqat ilmiy-madaniy markazlardan, balki yurtimizdan etishib chiqqan, jumladan 300-400 нафар falsafa fanlari doktorlari, professorlar va ularning zamondoshlarining ham o‘ziga xos va mos o‘rinlari bor.

-ko‘pchillik ta’limotlarga xos bo‘lgan gumanistik meros va unga yondashuv tasavvuf ta’limoti va falsafa tarixi o‘rtasidagi dialektik aloqadorlikka ham xos jihatdir.

Demak, o‘zbek falsafasi rivojida tasavvuf ta’limotining o‘rni, mazmun-mohiyati, ahamiyati umuminsoniy mazmun kasb etib bashariyat falsafiy merosidan ayricha emas.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jalolov A. O‘zbekiston: mustaqillik, ma’naviyat, mafkura. -T.: O‘zbekiston, 1994.
2. Nazarov Q.O‘zbek falsafasi. -T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti,, 2013.
3. Nazarov Q. Jahon falsafiy qomusi. Birinchi kitob. A-N. –T.: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti, 2022.
4. To‘raev B. Falsafa tarixining qisqacha bayoni. G‘G‘ “Imom al-Buxoriy saboqlari” jurnali. 2010 yil № 2 son.

MANIPULYATSIYAGA QARSHI KURASHISHNING MANTIQIY USULLARI

Toshov Xurshid Ilxomovich
O‘zbekiston Milliy universiteti, Falsafa va mantiq kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mantiqiy xiylalar tasnifi. Tezisni almashtirish. Tezisni noaniqligi. Tezisni toraytirish yoki kengaytirish. Tezis ma’no yukini yumshatish yoki og‘irlashtirish. Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi farq. Argument sifatida qo‘llaniladigan mantiqiy hiylalar. Stereotiplar. Sog‘lom fikr. Dogmalar orqali argumentlash. Isbotsiz baholash. Yolg‘on avtoritetga tayanish.

Kalit so‘zlar: Mantiqiy xiyla, tezis, argument, nazariya, amaliyot.

Falsafa fani doirasida “mantiqiy xiyla” atamasining bir ma’noli, aniq tarifi mavjud emas. Odatda mantiqiy xiyla deb, bahs yoki, muzokaralar jarayonida qo‘llaniladigan o‘ziga xos usul nazarda tutiladi. U retorik doirada raqibni chalkashtirishga qaratilgan, bahs olib borishning mantiqiy usuli sanaladi.

Yuqoridagi tarifdan kelib chiqib, manipulyatsiya va mantiqiy xiylani o‘zaro farqlash mumkin. O‘z mohiyatiga ko‘ra, manipulyatsiya insoning emotsiyasiga qaratiladi. Mantiqiy xiyla esa, ratsional axamiyat kasb etadi. U aql idrok bilan bog‘liq bo‘lganligi sabab, uni aniqlash, qarshi kurash oson kechadi. Manipulyatsiyadan farqli tarzda, mantiqiy xiyla inson ruhiyatini muvozanatdan chiqarmaydi, uning xis tuyg‘ularini nishonga olmaydi. Shu bois mantiqiy xiylalarga qarshi kurashish vaqtida, tanqidiy tafakkur qilish qobliyati saqlanib qoladi. Quyda shaxsiy hayotda, ish faoliyati vaqtida, shaxslar aro munosabatlarda keng qo‘llaniladigan mantiqiy xiylalarni tahlil etamiz. Ushbu mantiqiy xiylalar muzokaralar mavzusi, argumentlash, dialog olib borish usuli sifatida namoyon bo‘ladi.

Ularni shartli ravishda besh tipga tasniflash mumkin:

1. Tezis bilan bog‘liq mantiqiy xiylalar. Mazkur tipdagi mantiqiy xiylalar muxokama etilayotgan mavzu predmetiga taluqli bo‘ladi;

2. Argument sifatida qo‘llaniluvchi mantiqiy xiylalar. Ular odatda, noo‘rin muloxaza shaklida dalil yoki, isbot o‘rnida keltiriladi;

3. Retorik mantiqiy xiylalar. Ular aytilayotgan muloxazaga mantiqiy yuk berish bilan bog‘liq bo‘ladi;

4. Sabab oqibat bog‘liqligiga oid mantiqiy xiylalar. Unga ko‘ra, mantiq qonunlari atay buziladi yoki noo‘rin qiyosva xulosalar keltiriladi.

5. Xulq atvor yoki shakl mantiqiy xiylalari. Mazkur tipdagi mantiqiy xiylalar raqib tomoning xulq-atvori bilan bog‘liq bo‘ladi. Biroq, ular manipulyatsiyadan farqli tarzda, insoning his-tuyg‘ularini kamsitishni nazarda tutmaydi [1, - c. 254].

Yuqorida keltirilgan tasnif 30 turdagi mantiqiy xiylalarni o‘z ichiga oladi. Quyda ularning mazmun mohiyati, misollari hamda qarshi kurash usullariga e’tibor qaratamiz.

Tezisni almashtirish.

Tezisni almashtirish xiylasi, retorik mantiqiy xiylalarning eng keng tarqalgan turi sanaladi. Unga ko‘ra, Berilgan savolga javob bermaslik hamda raqib tomonidan bildiriladigan munosabat va tanqitdan qochish maqsadida, bahs mavzusi atay o‘zgartiriladi. Bu usul asosan retorik bahslarda argument keltirish va dalilashga imkon bo‘lmagan xollarda qo‘llaniladi.

Misol uchun.

“Nima uchun sizning bo‘limingizda birinchi kvartal yakunlariga ko‘ra, past ko‘rsatgich qayd etilgan? Buni izohlab bera olasizmi?”

“Siz haqsiz. G‘oyat o‘rinli savol berdingiz. Biz birinchi navbatda, samaradarlik ko‘rsatgichiga diqqat qaratmog‘imiz shart. Chunki bu bizning bosh maqsadimiz. Shu shuning uchun ham biz

yaqinda bo‘limimizdagi pi tizimini yangiladik. To‘g‘ri bu tezda samara bermasligi mumkin. Biroq bu o‘z natijasini albatta ko‘rsatadi. “.

Tezisni almashtirish usuli, buferlash hamda tezislarni almashtirish kabi ikki qismdan iborat. Unga ko‘ra, manipulyator tezislarni sezdirmay almashtirish maqsadida, o‘ziga xos bufer yaratadi. Bu yuqorida keltirilgan misoldagi xushomad ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. “siz xaqsiz” “G‘oyat to‘g‘ri savol berdingiz”.

Shuningdek, mazkur usulni aksariyat kishilar anglamagan avtomatik tarzda ham, qo‘llaydi. Ayniqsa, maktab, oliy ta’lim doirasidagi imtixon jarayonlari bunga misol bo‘la oladi.

Qarshi kurash usullari

Tezislarni almashtirish mantiqiy xiylasiga qarshi kurashda raqibning diqqatini dastlabki mavzuga qaratish nazarda tutiladi.

“Iltimos, mavzudan chetlashmang. Siz bo‘limning ko‘rsatgichlari nima uchun past natija qayd etganligini tushuntiring”.

Tezisning noaniqligi

Mantiq qonunlarining birinchisi – ayniyat qonuniga ko‘ra, tezis aniq, ravshan, bir ma’noga ega bo‘lishi shart. Ushbu tarifdan kelib chiqqan xolda, bahslashishdan avval barcha tomonlar mavzu predmeti haqida bir xil tushunchaga ega ekanligi talab etiladi.

Masalan, hamma uchun tanish bo‘lgan “marketing”atamasini olib qaraylik. Kimdir uni tovar va xizmatlarning reklamasi sifatida tushunadi. Ayrimlar esa, marketing aktivligini nazarda tutadi. Boshqa bir kishilar brend hamda piar texnalogiyasini marketing deb biladi...

Xuddi shu sabab ayrim manipulyatorlar insonlarni chalg‘itish maqsadida, atamalarni noaniq, mavhum holda ifodalaydi. Chunki, ana shu mavhumlik sabab, dialogni o‘zlarining foydasi tomonga burish oson kechadi. Aksariyat hollarda ushbu manipulyatorlarning ssenariy rejasi quydagicha namoyon bo‘ladi [1, - c. 256].

“Darhaqiqat, bir tomondan qaraganda hammasi to‘g‘ri, biroq, ikkinchi nuqtaiy nazar ham mavjud...”

Qarshi kurash usullari

Tilshunoslik soxasida polisemiya atamasi mavjud. Mazkur atama so‘zlarning ko‘p ma’noli ekanligini anglatadi. Bazi xollarda professional tilshunoslar ham ayrim isteloxlarning aniq ma’nosini ko‘rsata olmaydilar. Ushbu muloxazadan kelib chiqqan xolda, bahs, muxokama vaqtida noaniq ko‘p ma’noli so‘zlarni har ikki tomon birday tushinayotganligini bilish lozim. Agar qarshi tomon so‘zomollik bilan so‘zlarning mohiyatini ochiqlamay, ularni mavxum ifodalasa, tushuncha va atamalarni aniqlashtirishni talab etish kerak.

“Keling, bahslashishdan avval marketing deganda, nimani tushunishni aniqlashtirib olaylik”.

Tezisni kengaytirish va toraytirish

Tezis hamda muhokama predmetiga oid mantiqiy xiylalar xilma xil. Yuqorida keltirib o‘tilgan ikki tur kabi tezisni kengaytirish va toraytirish mantiqiy xiylasi keng tarqalgan usullardan biri sanaladi. Boz ustiga agar uni qo‘llovchi manipulyator tajribali bo‘lsa, u yana ham, kuchli ta’sirga ega bo‘ladi. Mazkur mantiqiy xiylaning mohiyati shundaki, manipulyator bahs jarayonida o‘z foydasini ko‘zlab tezis tematikasini gox toraytiradi, gox kengaytiradi [2, - c. 211]. Ko‘pincha, manipulyator rad etish oson bo‘lishi uchun qarshi tomoning tezisini kengaytiradi, pozitsiyasini himoya qilish uchun esa, aksincha, o‘z tezisini toraytiradi. Masalan:

Dastlabki tezis: “Siz bo‘limingizga berilayotgan barcha loyihalarni chipakka chiqarayapsiz”.

Tezisni toraytirish: “Siz meni noto‘g‘ri tushundingiz. Men xodimlarning motivatsiyasini ko‘tarishga qaratilgan so‘ngi loyxani aytayapman. Siz uni mutloq yo‘qqa chiqardingiz”.

Dastlabki tezis: “Men ishtirok etgan, shaxsning rivojlanishiga qaratilgan trening pul sarflashga arzimaydi”.

Tezisni kengaytirish: “Shaxs rivojlanishiga qaratilgan barcha treninglar pul sarflashga arzimaydi”.

Dastlabki tezis: “Men badiy adabiyotni yaxshi tushunaman”.

Tezisni toraytirish: “Yana takrorlab aytaman, men zamonaviy adabiyotni yaxshi tushunaman”.

Dastlabki tezis: "Afsuski, milliy teleradiokompaniyada uzatilayotgan ko'rsatuvlar toboro sifatsiz bo'lib bormoqda".

Tezisni kengaytirish: "Siz televizorda ko'rishga arzugulik ko'rsatuv qolmadi demoqchimisiz?"

Tezisni toraytirish va kengaytirish mantiqiy xinlasini payqash bir oz murakkab. Chunki, tezislarni almashtirish usulidan farqli ravishda, unda mavzu o'zgarmaydi. Shu sabab manipulyator o'z maqsadiga ko'ra tezislarni transformatsiya qiladi.

Quyda tezisni kengaytirish va toraytirish bilan birga ularning mazmun moxiyatini og'irlashtiruvchi xamda yengilashtiruvchi mantiqiy xilalarga misollarni keltirib o'tamiz. Masalan:

Dastlabki tezis: "U butun boshli budjetni talon taroj qilib bo'ldi".

Tezisni yumshatish: "Men yillik hisobotni topshirilmaganligini nazarda tutyapman. Hisobot hujjatlarini topshirilmaganligi sabab, buxgalteriyada muammo yuzaga kelmoqda".

Dastlabki tezis: "Nazarimda, bu filmning rejissori tajribali emas".

Tezisni og'irlashtirish: "Bu filmdan rejisorning g'oyat istedotsizligi ko'rinib turibdi".

Qarshi kurash usullari

Mazkur mantiqiy xiylaga qarshi kurash usuli dastlabki tezisni doimiy nazorat qilishni talab etadi. Bahs da'vomida, manipulyator dastlabki tezisni toraytirib, kengaytirib, og'irlashtirib va aksincha yengilashtirmayotganligiga e'tibor qaratish lozim. Tajribali muzokarachilar ayrim hollarda, dastlabki tezisni nazorat qilish uchun, hatto ovoz yozib oluvchi texnalogiyalardan foydalanadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Непряхин Н. Я манипулирую тобой: Методы противодействия скрытому влиянию / Никита Непряхин. – М.: Альпина Паблишер, 2018. – 414с.
2. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием. — М.: Изд-во: Эксмо, 2005. – 832 с.

IJTIMOIY JARAYON SIFATIDA MODERNIZATSIYANING TARIXIY-SIVILIZATSION MODELLARI

Tunis Nurkosimovich Xojiev
O'zbekiston Milliy universiteti, Huquqiy fanlar kafedrasi dotsenti
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy rivojlanishga oid modernizatsiya nazariyalarining tarixiy-sivilizatsion modellari tahlil qilingan. Jumladan, ijtimoiy rivojlanishning modernizatsion nazariyasiga oid kategorial apparat uning tarixiy-siyosiy, metodologik jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, modernizatsion yondashuvga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida shakllangan modellarning xususiyatlari ochib berilgan. Bunda ijtimoiy munosabatlar, xususan, jamiyat hayotining ma'naviy sohasi yuqorida aytib o'tilgan fenomenlar transformatsiyasiga ko'ra determinlashuvi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: modernizatsiya, ijtimoiy rivojlanish, modernizatsiya modellari, quvib yetuvchi modernizatsiya modeli, kechikkan modernizatsiya.

Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha kam rivojlangan yoki qashshoq mamlakatlari o'z jamiyatlarini rivojlantirish, aholining turmush darajasini oshirish orqali dunyoning rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishga harakat qilishmoqda. Bunday davlatlar rivojlanish uchun o'z jamiyatlarida ilg'or davlatlar tomonidan erishilgan yutuqlardan foydalanish yoki ularning taraqqiyot modellarini o'zlarining rivojlanish yo'nalishlari sifatida belgilamoqdalar. Ushbu jarayonda esa ko'pincha ijtimoiy rivojlanish to'g'risidagi konsepsiyalarga murojaat qilinadi.

Ijtimoiy rivojlanishga oid zamonaviy konsepsiyalar —jamiyatning rivojlanishi va taraqqiyotini turli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatlardan tushuntirib beruvchi nazariyalar va yondashuvlar majmuasidir. Ushbu konsepsiyalar ijtimoiy o'zgarishlarni o'rganish va jamiyatlarning taraqqiyoti jarayonlarini tushuntirishga harakat qiladigan ko'plab nazariyalarga o'ziga qamrab oladi. Ijtimoiy rivojlanishning zamonaviy konsepsiyalari sifatida barqaror rivojlanish, modernizatsiya, globallashuv, dunyo-tizimi, postindustrial jamiyat, ijtimoiy kapital nazariyalarni tadqiq etiladi. Quyida ushbu nazariyalarga ta'rif berib o'tamiz:

1. Barqaror rivojlanish nazariyasi - ushbu yondashuvda ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik omillar birgalikda ko'rib chiqilib, barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari kelajak avlodlarning ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini cheklamagan holda hozirgi mavjud ehtiyojlarni qondirishni o'z ichiga oladi.

2. Modernizatsiya nazariyalari - industrial va post-industrial jamiyatlarning shakllanishini tushuntirishga qaratilgan nazariya bo'lib, har bir jamiyat rivojlanish jarayonida an'anaviy jamiyatdan zamonaviy, industrial jamiyatga o'tadi.

3. Globallashuv nazariyasi. Ushbu konsepsiya dunyoda ijtimoiy va iqtisodiy aloqalarning tobora kengayishi, texnologiyalar, axborot va madaniyatning global darajada tarqalishini tushuntiradi. Globallashuv natijasida jamiyatlar o'rtasidagi chegaralar yo'qolib, tarixan yangi turdagi ijtimoiy tuzilmalar yuzaga keladi.

4. Dunyo-tizimi nazariyasi. Immanuel Vallerstein tomonidan ishlab chiqilgan ushbu nazariya butun dunyoni iqtisodiy va siyosiy jihatdan bir tizim sifatida ko'rib chiqadi. Unda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar tahlil qilinadi va markaziy (rivojlangan), yarim-periferik va periferik (rivojlanayotgan) davlatlar tushunchalari qo'llaniladi.

5. Postindustrial jamiyat nazariyasi. Mazkur konsepsiyaga ko'ra, zamonaviy jamiyatlar industrial bosqichdan xizmatlar va axborot texnologiyalariga asoslangan jamiyatga o'tadi. Ushbu nazariya iqtisodiyotdagi mehnat tuzilmasi va texnologik taraqqiyotning ijtimoiy tuzilmalarga ta'sirini o'rganadi.

6. Ijtimoiy kapital nazariyasi. Bu nazariya ijtimoiy tarmoqlar, ishonch va o'zaro hamkorlik ijtimoiy rivojlanishga qanday ta'sir qilishini tushuntiradi. Ijtimoiy kapitalning yuqori darajada bo'lishi jamiyatlar uchun ijtimoiy resurslar va imkoniyatlarni yaxshilash imkonini beradi.

Zamonaviy ijtimoiy rivojlanish konsepsiyalari turli xildagi ijtimoiy jarayonlarni har tomonlama ko'rib chiqiib, ularni tushuntirish uchun global, milliy va mahalliy darajalarda yondashuvlarni birlashtiradi[1].

Ushbu maqolada biz ijtimoiy rivojlanishga oid modernizatsiya nazariyalari organik va noorganik modellarini tahli qilamiz. Ijtimoiy jarayon sifatidagi modernizatsiyaning tarixiy-sivilizatsion belgisiga ko'ra organik va noorganik modellarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Organik (spontan, birlamchi) modernizatsiya. AQSh, G'arbiy Yevropa va Avstraliyaga xos bo'lgan mumtoz xaotik modernizatsiya modeli. Uning evolyusiyasi davomida mustamlakachilik, erkin tadbirkorlik davri, burjua inqilobi, spesifik sinfiy ziddiyatlar, protestant etikasi, diniy urushlar o'z izlarini qoldirgan. Uni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy, madaniy asoslar ko'rinishidagi omillar ko'magida organik va sinxronlik kuchiga tayanib, takomillashgan organik model sifatida tavsiflash mumkin.

Iqtisodiy sohada dastlabki kapitalistik munosabatlarning paydo bo'lishi va texnik taraqqiyot bozor munosabatlarining faol sub'ekti hamda demokratiyaning ijtimoiy asosi sifatidagi o'rta sinfning tezlik bilan shakllanishiga olib keldi. Bu davrda birja savdosi va aksionarlik kompaniyalari vujudga keldi. Xususiy mulkchilik institutlarining taraqqiyoti va huquqiy jihatdan mustahkamlanishi jarayonini klassik modeldagi iqtisodiy modernizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida ko'rsatish mumkin. Rim huquqini utilizatsiya qilgan holda uning qismi bo'lgan xususiy mulkchilik huquqi davlat huquqi maqomiga erishib, bunda ustuvor ahamiyat kasb etuvchi inson huquqlari qonuniy tus oldi. O'z navbatida xususiy mulkchilik institutlari fuqarolik

[1] Рубанов А.В. Социальное развитие: традиции и современные подходы к изучению. Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология. С-49-59.

jamiyati shakllanishining asosi sifatida xizmat qilib, davlatning fuqaro shaxsiy va ijtimoiy xayotiga aralashuvini muayyan ma'noda chekladi. Xususiy mulkchilikning rivoji siyosiy tizimni shakllantirgan sotsial manfaatlar xilma-xilligi bilan belgilanadi. U hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sudga bo'linishi hamda ko'ppartiyaviylik, shuningdek, konstitutsiyaviylik singarilarga tayangan holda plyuralistik va vakillik shaklida rivojlandi. Protestantlik etikasining sof foyda g'oyasi asosidagi reformatsiya orqali mustahkamlangan yuqori darajadagi savodxonlik shaxs mustaqilligini kuchaytirdi.

XIV - XIX asrlar oralig'ida kechgan modernizatsiya o'zining bosqichma-bosqichlilik, tadrijiylik, nisbiy barqarorlik xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy hayotning barcha sohalarini sinxron ravishda isloh qilish vaziyatni barqarorlashtiruvchi omillarni talab qilar edi. Bunga bozor turli sinfiy-ijtimoiy ziddiyatlarga sabab bo'luvchi keskin mulkiy farqlanuvchi qatlamlarni keltirib chiqargan murakkab vaziyatda yanada zarurat ortdi. Mustamlakalardan kirib kelgan va aholi o'rtasida taqsimlangan o'ta yuqori daromadlar yuzaga keltirgan ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qiluvchi tizimlar barqarorlikning ana shunday omili sifatida namoyon bo'ldi. Murosa va taraqqiyot madaniyatini shakllantirshga qodir madaniy an'analarning rivoji va din, ayniqsa, protestantlik o'ta darajada differensiallashgan jamiyatlarda muvozanatni saqlashga intiluvchi element bo'lib xizmat qiladi.

2) Noorganik (quvib yetuvchi, ikkilamchi) modeli. U Yaponiya, Rossiya, Turkiya, Braziliya, Argentina, bolqon davlatlariga xos bo'lib, ularda modernizatsiya jarayoni XVIII – XIX asrlarda boshlangan. Bu mamlakatlarda modernizatsiya taraqqiy etgan bozor, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat mavjud bo'lmagan bir sharoitda boshlandi. Bu jarayonda hokimiyat avtoritar harakter kasb etdi. Iqtisodiy asoslarning yetilmaganligi siyosiy omillar orqali muvozanatga solinib, kompensatsiyalandi. Byurokratlashish, islohotlarning amalga oshirilishida izchillikning yo'qligi, bosqichlardan sakrash orqali o'tish va shunga ko'ra ortga qaytuvchi harakat-regressning ro'y berishi singari hatarlar mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan davlat va uning yetakchisi bu modeldagi modernizatsiya jarayonlarida ro'y beruvchi o'zgarishlarning bosh generatori bo'lib xizmat qiladi. Modernizatsiyani amalga oshirish uchun asoslarning yetarli emasligi bunday mamlakatlar oldiga o'ziga xos islohotlar mantig'i va strategiyasini ishlab chiqish talabini qo'yadi. Ispaniya va Portugaliya kabi Yevropa mamlakatlarining kechikkan modernizatsiyaga oid tajribalari tahlili mazkur modelga xos quydagi qonuniyatni keltirib chiqaradi1.

Birinchidan, davlat institutlarining shakllanishi, konstitutsiya moddalarining o'zgarishi, milliy davlatchilik qurilishining asosiy tamoyillari aniqlanishi sinagri fundamental siyosiy muammolar hal qilinadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy masalalar biroz keyinroq jamiyatidagi siyosiy masalalarning yechimlariga kelinganidan so'ng hal qilinadi.

Uchinchidan, modernizatsiyani amalga oshirish tezligining sur'atlari va uning bosqichma-bosqichligi avtoritar rejim tomonidan tartibga solinadi.

To'rtinchidan, resurslarning avtoritar rejim qo'lida jamlanishi turli tarixiy davrlarda erishilishi kerak bo'lgan vazifalarni bir varakayiga hal qilish imkonini berar edi. Masalan, jamiyat hayotining barcha sohalarida informatsion texnologiyalardan foydalanishga o'tish, parlament demokratiyasini yaratish, huquqiy davlat qurish kabi jarayonlar birgalikda olib boriladi.

Shunday qilib modernizatsiya ijtimoiy hayotning siyosiy, iqtisodiy, demografik, sotsial va madaniy sohalarida amal qiluvchi turli xil yo'nalishga ega, ko'p qatlamli, xilma-xil darajada amal qiluvchi jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Modernizatsiyaning ko'plab tur va modellarga ega ekanligi uni amalga oshirishda qo'llanilgan mexanizmlarga bog'liq bo'lib konkret tarixiy davr va hududda ro'y berganligi bilan belgilanadi. G'arbiy Yevropa mamlakatlariga xos bo'lgan birlamchi yoki organik modernizatsiya tarixiy xronologik jihatdan birinchi sanoat inqilobi davriga mos kelib, o'zining madaniy an'analari va obrazlariga asoslangan holda evolyusion yo'l bilan amalga oshgan. Organik modernizatsiya yo'lidan borgan mamlakatlarni quvib yetuvchi (endogen-ekzogen, ekzogen modernizatsiya)

[1] Василика М.А. Политология. Ростов-на-Дону. «Феникс». 2004 с. 449.

modernizatsiya yo‘lidan borgan mamlakatlar bilan solishtirganda mazkur davlatlardagi modernizatsiya jarayonlarida siyosiy omilning roli katta bo‘lib, tezlashgan modernizatsiya amalga oshirilgan hududlarda an’anaviy ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzilmalarning zamonaviysiga transformatsiyalashuvi uchun yetarlicha qulay shart-sharoit mavjud bo‘lmaganligi tufayli ko‘p xollarda davlat modernizatsiya tashabbuskori va tashkilotchisi vazifasini bajargan.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. Рубанов А.В. Социалное развитие: традиции и современные подходы к изучснению. Журнал Белорусского государственного университета. Философия. Психология. С-49-59.
2. Василика М.А. Политология. Ростов-на-Дону. «Феникс». 2004 с. 449.

BUZG‘UNCHI G‘OYALAR VA INSON BUZG‘UNCHILIGINING AYRIM JIHATLARI

Abduxoliq Tashanov
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti dotsenti, f.f.n.

Annotatsiya. Maqolada buzg‘unchi g‘oyalarning shakllari va inson buzg‘unchiligining chegaralari o‘rganili, unda buzg‘unchi ichki xatti-harakatlar, intrapersonal sohada destruktivlik, shaxslararo buzg‘unchi xatti-harakatlar va buzg‘unchi metapersonal xatti-harakatlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: buzg‘unchilik, buzg‘unchi g‘oyalar, inson buzg‘unchiligi, ichki xatti-harakatlar, buzg‘unchi metapersonal xatti-harakatlar

Darhaqiqat, so‘nggi o‘n yilliklarda dunyoda ijtimoiy xavfli siyosiy, diniy, millatchilik va boshqa guruhbozlikka asoslangan buzg‘unchi g‘oyalarning faollashuvi kuzatilmoqda. Ularning maqsadi jamiyat bilan mutlaqo mafkuraviy qarama-qarshilikka asoslangani holda o‘zi vujudga kelgan mintaqalar uchungina emas, balki butun dunyo uchun jiddiy tahdidlarni tug‘dirmoqda. Turli dunyoqarashga tizimlar o‘rtasidagi nazariy kurashdan boshqa mafkura tashuvchilarini jismonan qirib tashlash orqali kurashga va raqiblarini repressiya qilishga o‘tish fenomeni aynan buzg‘unchi mafkuralar bilan uzviy bog‘liq. Ayni paytda milliy g‘oya va mafkuramiz hamjihatlik va milliy taraqqiyot yo‘lini belgilab beruvchi qarashlar, qadriyatlarga asoslandi va milliy traqqiyotga tahdid soluvchi turli buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurashda asosiy qurol hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, mafkuraviy kurashlar sharoitida buzg‘unchi g‘oyalarning mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari, zamonaviy xususiyatlarini o‘rganish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Buzg‘unchi mafkura – jamiyat taraqqiyotining hozirgi sharoitlarida ob’ektiv zaruriy bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga xizmat qiladigan mafkura bo‘lib, u nazariyalar, qarashlar, me’yorlar, qadriyatlar va ularni jamiyatda tarqatish usullaridan iborat tizim sifatida muayyan ijtimoiy guruhning manfaatlarini ifodalaydi. Nisbatan buzg‘unchi yoki buzg‘unchi mafkura deganda, keng ma’noda, shunday mafkuralar tushuniladiki, ular mavjud ijtimoiy munosabatlarning buzilishiga xizmat qiladi. Mutlaq buzg‘unchi yoki tor ma’nodagi mafkuralar deganda, har qanday ijtimoiy aloqalar va institutlarning buzilishiga xizmat qiladigan, umuman jamiyatning rivojlanishi, hatto, yashashiga imkon qoldirmaydigan mafkuralar tushuniladi. “Ular insonparvarlik tamoyiliga zid bo‘lgan, jamiyatni tarafkashlarga ajratib, bo‘lib tashlaydigan, bir millatni boshqasidan ustun quyadigan, oliy irq da’vosida boshqa xalqlarni qirg‘in qilishga chaqiradigan buzg‘unchi g‘oyalardir. Diniy aqidaparastlik va jangari irqchilik (rasizm), buyuk davlatchilik shovinizmi va ashaddiy (agressiv) millatchilik, fashizm va bolshevizm mafkuralari ana shunday vayronkor g‘oyalar tizimini tashkil etadi[1].

[1] Назаров К. Ғоялар фалсафаси. –Тошкент: Akademiya, 2011. –Б.113.

Shuningdek, buzg‘unchi mafkura minoritar ijtimoiy guruhlarning noto‘g‘ri ifodalangan manfaatlariga asoslanadi va ushbu manfaatlarni butun jamiyat uchun qo‘llab bo‘lmaydigan usullarda amalga oshirishni nazariy jihatdan asoslaydi. Buzg‘unchi mafkuralarning quyidagi tasnifini keltirish mumkin bo‘lib, ular “buzg‘unchi mafkura” atamasini keng va tor ijtimoiy-falsafiy ma’nolarda ta’riflash, ulardan buzg‘unchi mafkuralar asosiy tamoyillarni, qarashlarni, aqidalarni, ramzlar va tushunchalarni olishi mumkin bo‘lgan eng asosiy manbalarni – ya’ni, asosiy dunyoqarash oqimlarini ajratish, buzg‘unchilikning ta’siri va tajovuz yo‘nalishining xarakterini aniqlash, buzg‘unchi harakat ob’ekti va manfaatlarini amalga oshirishning asosiy doirasini aniqlash hamda globallashuv jarayonlari doirasida mafkuraning o‘rnini belgilash.

Odatda, buzg‘unchi mafkuralarning keng rivojlanishi va unga muvofiq tashkilotlarning faollashishi postindustrial dunyodagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashuvi, zamonaviy texnologik inqilob sharoitlarida ommaviy axborot-kommunikatsiya vositalari sohasidagi muammolarning avj olishi bilan izohlanadi. Buzg‘unchi mafkuralarning ham sub’ekt sifatida, ham ob’ekt sifatida asosini marginal guruhlar tashkil qiladi. Shuningdek, hozirgi vaqtda dunyoning mafkuraviy manzarasida turli vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan tajovuzkor millatchilik, neofashizm, terrorchlik, diniy ekstremizm kabi siyosiy kuchlar va oqimlar faoliyati ham jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Darhaqiqat, bunday g‘ayriinsoniy, buzg‘unchi g‘oyalar xalqlar boshiga so‘ngsiz kulfatlar keltirib, insoniyatning tinchligi osoyishtaligini buzib, odamlar boshiga turli balolar yog‘dirmoqda.

Zamonaviy ilm-fan uchun oila, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sharoitida odamlarning zo‘ravonlik xatti-harakatlarini o‘rganish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Ko‘payib borayotgan tadqiqotlar ijtimoiy nizolar, maishiy buzg‘unchiliklarning sabablarini to‘liqroq ochib berish va zamonaviy dunyoda zo‘ravonlik ustidan nazoratni kuchaytirish imkoniyatini ochib beradi. Shu bilan birga, ushbu sohadagi tadqiqotlar soni ortib borishi salbiy o‘zaro ta’sir amaliyoti va ularning fanda kontseptualizatsiyasi o‘rtasidagi tafovutni ham kuchaytirmoqda, bu ko‘pincha zo‘ravonlik harakatlarining maqsadlari, vositalari va natijalari o‘rtasidagi noaniq munosabat tufayli yuzaga keladi. Masalan, qasoskor, hasadgo‘y, dushmanlik xulq-atvori tajovuzkor qatorlar nuqtai nazaridan aniqlanadi. Qasos, hasad yoki dushmanlikka tayyorlikni o‘lchash uchun tadqiqotchilar odamning tajovuzkorlik o‘lchovini baholaydilar[1]. Binobarin, tajovuz, agar umumlashtiruvchi bo‘lmasa, salbiy xulq-atvor hodisalari bilan bog‘liq tushunchadir.

Qarama-qarshilikning ikkinchi tomoni dushmanona munosabatda bo‘lmagan ijtimoiy xatti-harakatlarning zararli oqibatlarini tushuntirishda paydo bo‘ladi. Ko‘pincha tajovuzkor bo‘lmagan xatti-harakatlar tajovuzkor xatti-harakatlar bilan taqqoslanadigan shaxslararo munosabatlarga zarar etkazadi. Yangi turmush qurganlarning rashklari oilaning buzilishiga olib keladi, ota-onalarning himoya xulq-atvori bolaning shaxsiyati va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Mehnat faoliyati sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xodimlar o‘rtasidagi g‘iybat, ularning oilaviy yoki do‘stona munosabatlarini suiiste’mol qilishlari, rahbariyatga bo‘ysunmasliklari korxona va tashkilotlarning mehnat unumdorligiga jiddiy ta’sir qiladi.

Buzg‘unchi xatti-harakatlarning namoyon bo‘lish kontekstini o‘rganishda biz buzg‘unchi xatti-harakatni ijtimoiy ob’ektlarni yo‘q qilish orqali o‘zgartiradigan inson faoliyati turi sifatida belgilaymiz. Bu halokatli ko‘rinish salbiy hodisalar doirasini cheklaydi, ammo ruhiy sog‘lom odamlarning buzg‘unchi xatti-harakatlarini hal qilishga imkon beradi. Klinik amaliyotda xulq-atvor buzilishlari deb nomlanuvchi destruktiv xulq-atvorning ongsiz, spontan va reaktiv shakllariga e’tibor berilmaydi (conduct disorder)[2]. Boshqa tomondan, buzg‘unchilikning bunday ta’rifi destruktivlikning xilma-xil va ko‘p sifatli shakllarini bir necha sohalarga ajratadi, bu esa empirik o‘rganish uchun ochiq bo‘lgan destruktiv xatti-harakatlar maqsadining kognitiv tasavvurlarini asos sifatida saqlaydi.

Tadqiqotda turli miqyos va sifatdagi ijtimoiy ob’ektlarga nisbatan insonning buzg‘unchi xulq-atvorining ko‘rinishlari umumlashtiriladi. Buning uchun buzg‘unchi xulq-atvorning turli shakllari

[1] Мальцева О.А. Профилактика жестокости и агрессивности в подростковой среде и способы ее преодоления // Тюменский государственный университет. 2009. № 7. С. 51-54.
[2] Bartlett R., Holditch-Davis D., Belyea M. Problem behaviors in adolescents. PediatrNurs. 2007. N 33(1). P. 13-18.

tahlilning uchta yo‘nalishi kontekstida ko‘rib chiqish mumkin: 1) intrapersonal (o‘ziga va o‘z tanasiga bo‘lgan munosabat), 2) shaxslararo (shaxslararo munosabatlar) va 3) metapersonal (shaxsning ijtimoiy tuzilmalarda o‘zini tutishi). Shuni ta’kidlash kerakki, yuqoridagi belgilar keng ma’noda talqin qilingan va uchta turdagi munosabatlarni maksimal darajada farqlash uchun kiritilgan: o‘ziga, boshqa odamlarga va jamiyatga.

Buzg‘unchi ichki xatti-harakatlar. Intrapersonal sohada destruktivlik o‘z-o‘zini yo‘q qilish va o‘z-o‘ziga zarar etkazish (maqsadli o‘z-o‘ziga shikast etkazish) bilan ifodalanadi; o‘z-o‘zini o‘zgartirish (tananing o‘zgarishi, ruhiy holat va boshqalar). Bu harakatlar ularga tegishli motivlar bilan izohlanadi. Ammo o‘z-o‘zini yo‘q qilish motivlari har doim ham buzg‘unchi xatti-harakatlar bilan bog‘liq emas va aksincha, ochiqchasiga buzg‘unchi xarakterdagi harakatlar sub’ektga zarar etkazishni anglatmaydi. Bunga qo‘shimcha ravishda, psixologik jihatdan sog‘lom odamlarda o‘z-o‘ziga zarar etkazish amaliyoti keng ko‘lamli namoyon va dinamikaga ega, shuning uchun ular boshqalarga faqat diqqat bilan kuzatiladi. Shunday qilib, buzg‘unchilik nafaqat o‘z joniga qasd qilish, balki o‘z-o‘zini yo‘q qilish va o‘z-o‘ziga zarar etkazish harakatlarida ham namoyon bo‘ladi[1].

O‘z-o‘zini mag‘lub etish, qiyinchiliklarga taslim bo‘lish, insonning hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini e’tiborsiz qoldirishi (o‘z-o‘ziga kasal yuqtirish, gigiena qoidalariga e’tibor bermaslik, psixofaol moddalarni iste’mol qilish), xavfli xatti-harakatlar (texnik vositalar bilan xavfsiz ishlash qoidalarini e’tiborsiz bo‘lish, yuqori tezlikda haydash). Va nihoyat, o‘z-o‘ziga zarar etkazishning ijtimoiy jihatlari izolyatsiyaga, ijtimoiy mavqeini pasaytirishga qaratilgan (boshqalar bilan muloqot qilishdan qochish, ommaviy o‘zini-o‘zi ayblash va o‘zini tanqid qilish orqali).

Shaxs ichidagi buzg‘unchi amaliyotlarning xilma-xilligi ular ko‘plab omillar bilan bog‘liqligi bilan izohlanadi: jins, yosh, shaxsning ijtimoiy muhiti va boshqalar. Masalan, ayollar ko‘pincha o‘z-o‘ziga zarar etkazishning passiv va izolyatsiya qilingan shakli sifatida o‘zlariga zarar etkazishadi. O‘z-o‘zini yo‘q qilishning faol va kombinatsiyalangan shakllariga moyil bo‘lgan erkaklar esa tez va qoidasiz haydash va xavfli ishlarni bajarish paytida spirtli ichimliklarni iste’mol qilish kabilarda ko‘rinadi. Yoshlarning o‘ziga ko‘rsatadigan buzg‘unchi salbiy ta’sirida tengdoshlari, shuningdek kattalar ta’siri ostida sodir bo‘lishi kuzatiladi[2].

Insoning o‘ziga nisbatan buzg‘unchi g‘oyalarni qo‘llashi ijtimoiy muhitga bog‘liq: jamiyat yoki muayyan guruh buzg‘unchi xatti-harakatlarni tezlashtirishi yoki sekinlashtirishi mumkin. O‘z-o‘ziga zarar etkazish, o‘z-o‘zini o‘zgartirishlar (tatuirovka, pirsing) giyohvand moddalarni suiiste’mol qilish, jinsi, tana tuzilishi, figurasi, ko‘z, burun, tishlar, teri, soch shaklining o‘zgarishi va boshqalar. O‘z tanasini o‘zgartirish, “mukammallik va narsisistik motivlar, o‘zini yaxshilash, o‘zini va boshqalarni mamnun qilish istagidan kelib chiqadi[3].Aytilganlarni umumlashtirib, buzg‘unchi ichki xatti-harakatlar insonning o‘ziga zarar etkazishi va o‘zini o‘zi o‘zgartiruvchi harakatlarida namoyon bo‘lishini ta’kidlash mumkin. Motiv va maqsadlari bilan farqlanib, ular jismoniy va ruhiy salomatlikka halokatli ta’sir ko‘rsatadi, shaxslararo va ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni murakkablashtiradi.

Shaxslararo buzg‘unchi xatti-harakatlar. Insonning boshqalarga ta’sirining asosiy shakli bu muloqotdir. Muloqot vositasi - bu nutq faoliyati, ya’ni gaplarni yaratish va idrok etishning faol, maqsadli jarayoni. J.Ostinning ta’kidlashicha, bayonot (nutq akti) doimo ta’sir qiladi - tushunilgan xabar qabul qiluvchining fikr va his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi va uning harakatlarida aks etadi.

Buzg‘unchi metapersonal xatti-harakatlar. Ushbu munosabatlar sohasini tahlil qilish ijtimoiy konstruktivizm va ijtimoiy interaktsionizm g‘oyalariga asoslanadi, bu nuqtai nazardan zamonaviy jamiyat turli miqyosdagi ijtimoiy hamjamiyatlar tomonidan shakllantirilgan kichik guruhlardan ijtimoiy institutlargacha yuqori darajada tabaqalashtirilgan ijtimoiy tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. Shaxs ularning bir qismi sifatida, ba’zilarida o‘z ijtimoiy roli bilan harakat qiladi.

---

[1] Feldman M.D. The challenge of self-mutilation: A review //Comprehensive Psychiatry. 1988. N 29. P. 252-269.

[2] Brookmeyer K.A., Fanti K.A., Henrich C.C. Schools, parents, and youth violence: A multilevel, ecological analysis. Journal of Clinical Child and Adolescent Psychology. 2006. № 35 (4). P. 504-514.

[3] Соколова Е.Т., Баранская Л.Т. Клинико–психологические основания эффективности эстетической хирургии // Социальная и клиническая психиатрия. 2007. № 3. С. 26-37.

Odamlarning metapersonal buzg‘unchi xatti-harakati ijtimoiy rollarni amalga oshirish bilan bog‘liq. Insonning munosabatlariga va unga berilgan ijtimoiy rolga yo‘naltirilgan buzg‘unchi xatti-harakatlarning ikki turi mavjud: 1) ijtimoiy rolni inkor etish, rad etish; 2) haddan tashqari qabul qilish, o‘zining ijtimoiy roli bilan birlashish. Ijtimoiy roldan voz kechish insonning ijtimoiy tuzilishga nisbatan antisosyal, disfunksional va samarasiz harakatlarida namoyon bo‘ladi. Buzg‘unchi faoliyatning markaziy nuqtasi uning ijtimoiy rolni bajarishni istamasligi: mehnat, tarbiyaviy, mansabdor, jazoni o‘tash va boshqalar. Har bir rol kontekstida buzg‘unchi xatti-harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Masalan, o‘quvchining buzg‘unchi xatti-harakati o‘quv jarayonini buzishga qaratilgan bo‘lib, maktab qoidalariga rioya qilmaslik va o‘qituvchilar va boshqa o‘quvchilarga jismoniy va psixologik ta’sir ko‘rsatadigan maktab mulkini yo‘q qilish bilan birga keladi.[1].

Guruhdan tashqarida buzg‘unchi xatti-harakatlar boshqa ijtimoiy guruhlarga qaratilgan bo‘lib, ularning vakillariga nisbatan nafrat va dushmanlik tuyg‘ulari bilan ajralib turadi[2]. Bundan tashqari, guruh a’zolari tashqaridan tahdidlarni qabul qilganda, mudofaa-tajovuzkor xatti-harakatlar ularning guruh bilan identifikatsiya qilish darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mutanosib ravishda kuchayadi[3].

Xullas, buzg‘unchi metapersonal xatti-harakatlar ijtimoiy munosabatlar sharoitida yuzaga keladi va shaxsning ijtimoiy tuzilishdagi rolini qabul qilish yoki inkor etish oqibatlaridan kelib chiqadi. So‘nggi yillarda mahalliy va xorijiy falsafa fanida destruktiv xulq-atvorni o‘rganish faollashdi. Shu sababli, destruktiv xatti-harakatlar to‘g‘risida allaqachon to‘plangan bilimlarni birlashtirish, buzg‘unchilikning yaxlit tushunchasini shakllantirish va destruktiv xatti-harakatlarni tegishli va bog‘liq tushunchalardan farqlash muammosi dolzarbdir.

JAMIYAT BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

N.Saidkulov
Guliston davlat pedagogika instituti dotsenti

Annotatsiya: ushbu maqola barqarorlik, jamiyat barqarorlgi va unga ta’sir e’tuvchi omillarga bag‘ishlangan. Umuman olganda, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘llari, dunyo hamjamiyati va xalqaro maydondagi o‘rnimizni mustahkamlash. erishgan yutuqlarimiz bilan birga tezkorlik bilan istiqbolda hal qilishimiz kerak bo‘lgan muhim masalalar haqida ham so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: barqarorlik, jamiyat barqarorligi, “Ozodlik”, “Tenglik” va “Birdamlik”

Barqarolik, tinchlik hayot uchun eng muhim jihat ekan, jamiyat, davlat xavfsizligi siyosatida xalq fikri, orzu-intilishini inobatga olishi zarur. Hukumat bu siyosatni belgilashda xavfsizlik bilan bog‘liq hech bir omilga bee’tibor bo‘la olmaydi. Demak, xalq saylagan vakillar hukumat va xavfsizlik sektori va jamiyat barqarorligini ta’minlash bilan yaqindan ishlashi zarur. Biroq, bir maqsad yo‘lida harakat qilinsa-da, ularning vazifasi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Bugungi globallashuv jarayonlari butun insoniyat, yer yuzidagi barcha xalqlar va millatlar taraqqiyoti uchun, ayniqsa, mustaqil hayotga endigina kirib kelayotgan yosh avlod uchun misli ko‘rilmagan imkoniyatlar yaratib berayotganini hech kim inkor eta olmaydi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik masalalarga oid 2030-yilga qadar barqaror rivojlanishning o‘ziga xos harakatlar rejasi tasdiqlangani ma’lum. Ushbu barqaror rivojlanish maqsadlari inson hayoti, yashash tarzi va turmush darajasini yaxshilashga

[1] Newman K.S. Rampage: the social roots of school shootings. NewYork: BasicBooks, 2004. 431 p.
[2] Антонова Ю.А., Веснина Л.Е., Ворошилова М.Б. и др. Экстремистский текст и деструктивная личность. Екатеринбург: Уральский государственный педагогический университет, 2014. С. 213-252.
[3] Nesdale D., Milliner E., Duffy A., Griffiths J.A. Group membership, group norms, empathy, and young children’s intentions to aggress // Aggressive Behavior. 2009. N 35. P. 244-258.

qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Barqaror rivojlanish maqsadlarini O‘zbekistonda amalga oshirish davri mamlakatda 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakatlar strategiyasi, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda 2023-2030-yillarga mo‘ljallangan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi asosida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarga mos keladi.

Harakatlar strategiyasining 5 ta yo‘nalishi, Taraqqiyot strategiyasining 7 ta yo‘nalishi va “O‘zbekiston-2030” strategiyasining 5 ta yo‘nalishi global maqsadlar bilan hamohangligi xalqaro hamjamiyat tomonidan keng e’tirof etilgan. Bu borada mamlakatimiz har doim xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga o‘zining sodiqligini namoyon etib kelgan.

O‘zbekiston Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ham o‘zining qat’iy tarafdor ekanligini bir necha marotaba ma’lum qilgan. Eng asosiysi, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida muhim tashabbuslarni ilgari surgan.

2018-yilda Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. Bunda 17 ta global maqsadlarning 16 tasi qabul qilingan. 2018-yilda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha 125 ta indikator, ya’ni maqsadli ko‘rsatkichlar qabul qilingan bo‘lsa, bugunga kelib, ularning soni 200 dan ortdi.

Parlament tomonidan har bitta vazifa va indikatorlar alohida nazoratga olinib, Parlament komissiyasining majlislarida ushbu maqsadli ko‘rsatkichlar bo‘yicha erishilgan natijalar muhokama qilib borilmoqda.

Prezidentimiz ilk marotaba BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida minbarda turib, davlat tilida nutq so‘zladi va xalqaro hamjamiyat oldiga tezkorlik bilan hal etilishi lozim bo‘lgan muhim masalalarni, takliflarni va tashabbuslarni ilgari surdi.

Prezidentimizning shu va boshqa tashabbuslari parlament, hukumat, fuqarolik jamiyati institutlari, ekspert-olimlar, biznes hamda OAV vakillari tomonidan keng muhokama qilindi. Muhokamalardan so‘ng, Oliy Majlis palatalari tomonidan Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda parlamentlararo global hamkorlik mavzusida xalqaro forum o‘tkazish taklifini bildirildi. Bu taklif qo‘llab-quvvatlandi va 2021-yil davlat dasturida o‘z aksini topdi.

Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda bevosita butun dunyo mamlakatlari parlamentlari sa’y-harakatini birlashtirish va hamkorlik aloqalarini muvofiqlashtirishga qaratilgan bu darajadagi juda katta tadbir hali birorta mamlakatda o‘tkazilmagan.

Birinchi bo‘lib, O‘zbekiston ushbu tashabbus bilan chiqdi. Barcha parlamentlar O‘zbekistonning ushbu tashabbusini qo‘llab-quvvatladi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida juda ko‘plab ishlar qilindi, tashkiliy-huquqiy asoslar mustahkamlandi.

Bu borada Hukumat tomonidan olib borilayotgan barcha ishlarni muvofiqlashtirish maqsadida Bosh vazir o‘rinbosari rahbarligida Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzildi. Hukumat tomonidan olib borilayotgan ishlar ustidan parlament nazoratini ta’minlash maqsadida ikki palata rahbarligida Parlament komissiyasi tuzildi.

Mamlakatimizda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish borasida olib borilayotgan islohotlar xalqaro reyting tashkilotlari tomonidan ham baholanib kelinmoqda. Xususan, Germaniyaning Bertelsman jamg‘armasi tomonidan olib boriladigan Barqaror rivojlanish maqsadlari reytingida 193 ta mamlakat orasida O‘zbekiston 66-o‘rinni egallagan.

Umuman olganda, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida amalga oshirgan ishlarimiz juda ko‘p. Endi bularning barchasini dunyo hamjamiyatiga ko‘rsatishimiz, xalqaro maydondagi o‘rnimizni mustahkamlashimiz zarur. Albatta, erishgan yutuqlarimiz bilan birga tezkorlik bilan istiqbolda hal qilishimiz kerak bo‘lgan muhim masalalar ham bor. Barqaror rivojlanish sohasida mamlakatimizda erishilgan yutuqlar hamda tashabbuslar dunyo hamjamiyati bilan muhokama qilinib, targ‘ib etiladi va shu orqali O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imiji mustahkamlanadi. Darhaqiqat, tarixdan ma’lumki, mamlakat barqarorligni ta’minlanishi, uning xalqaro maydondagi mavqeini, o‘rnini belgilab beradi. Shu bois, XX asrda inson hayoti uchun muhim ahamiyatga ega muhim iqtisodiy, madaniy, fan va texnika yutuqlaridan daromad olish bilan birga, sanoatlashtirish va urbanizatsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-psixologik tanazzul va inson hayotiga global ijtimoiy-ekologik muammolarni keltirib

chiqardi. Xuddi o‘sha payt yunon-rim, yahudiy-xristian qadriyatlari asosida shakllangan G‘arb sivilizatsiyasining so‘nggi 500 yili sayyoraviy darajaga chiqdi. Boshqa madaniyatlarning yillik hukmronligi va “G‘arblashuv” jarayoni natijasida sivilizatsiyalarning gomogenlashuvi, standartlashish va yo‘q bo‘lib ketish xavfi ham yuzaga keldi. Bu XX asrda geosiyosiy darajadagi mafkuralar o‘rtasidagi madaniyatlararo va sivilizatsiyalararo to‘qnashuvlarga olib keldi. Shunday qilib, turli xil to‘qnashuvlar madaniyatlar va sivilizatsiyalarning teng huquqli hamkorligi va ularning tinch-totuv yashashiga to‘sqinlik qildi. Buzg‘unchi tendensiyalar, butun dunyodagi olimlar va iqtisodiy sohalardagi siyosatchilar - insoniyatni ushbu tahdidlardan himoya qilish nazariyalarini izlashga harakat qildi. Natijada, etnos va millatlar hamda madaniyat va sivilizatsiyalarning tinch-totuv rivojlanishini ta’minlash maqsadida “Barqaror rivojlanish”, “Inson Taraqqiyot konsepsiyasi”, “Bizning umumiy kelajagimiz”, “XXI asr kun tartibi” kabi dastur va tushunchalar, nazariya va qarashlar shakllandi. “Bu barcha dastur va tushunchalarning asosiy tamoyili sayyorada inson hayotining davom etishini ta’minlash, ijtimoiy-ekologik vaziyatni yaxshilash, madaniyatlar va sivilizatsiyalarning birgalikda yashashi, hamkorligi va o‘zaro muloqotini tashkil etish, manfaatlar muvozanati va kuchlar muvozanatiga asoslangan ko‘p qutbli sivilizatsiyalarning tinch-totuv rivijlanishiga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari “Ozodlik”, “Tenglik” va “Birdamlik” g‘oyalarini amalga oshirish va sayyoraviy axloq sifatida qabul qilish kun tartibiga qo‘yildi. XXI asrda qurilayotgan “Bizning umumiy kelajagimiz” – “Dunyo birdamlik bilan yaratilgan” madaniyat formulasiga asoslangan va sivilizatsiyalarning uyg‘un birligi rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda[1]”. Darhaqiqat, insoniyatning birdan-bir maqsadi “Ozodlik”, “Tenglik” va “Birdamlik” g‘oyalari asosida birlashish va o‘sha birlik yo‘lida barcha hayrli say-harakatlarni safarbar etish va o‘zidan keyingi avlod uchun munosib meros qoldirish eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina barqaror rivojlanish, barqaror taraqqiyot ta’minlanishiga xizmat qilishi mumkin.

Dunyoda, jamiyatda barqorорlikni ta’minlashga avvalo barcha ma’suldir. Barcha insonlar jamiyat barqarorligini ta’minlash uchun birdek kurashsa, birdek qayg‘ursa haqiqatdan reallikda barqarorlik ta’minlanishiga zamin yaratilgan bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Акрамкулович, С. Н. . (2023). ЖАМИЯТ ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ЁШЛАР СИЁСИЙ МАДАНИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Miasto Przyszłości, 36, 455–460.

2. Саидкулов Нуриддин Акрамкулович.,. (2023). ЖАМИЯТ БАРҚАРОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ. Actual Problems in Higher Education in the Era of Globalization: International Scientific and Practical Conference, 48–53.

3. Saidkulov , N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(11), 169–174. извлечено от https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/23849

4. Saidkulov, N. (2023). INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISHNING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(11), 169-174.

5. Akramkulovich Nuriddin Saidkulov. (2023). PROBLEMS OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT IN ENSURING THE STABILITY OF SOCIETY. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 3(11), 233–241. https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume03Issue11-25

6. Akramkulovich, S. N. (2024). HUMAN CAPITAL AND ITS ROLE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY. IQRO INDEXING, 8(1).

7. Sheraliyevich, K. O., Akramkulovich, S. N., Narzullayevich, R. N., Xazratkulovich, Y. X., Odilovich, Y. O., & Alikul o‘g‘li, S. A. (2024). The Role of Studying the History of Irrigated

[1] Hüseynov S. Davamlı insan inkişafının strateji istiqamətləri. Bakı, “Adiloğlu” nəşriyyatı, 2003, 264. səh. s.25.

Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov. NATURALISTA CAMPANO, 28(1), 1735-1740.

8. Saidkulov, N. A. (2024). THE ROLE OF THE EDUCATIONAL SYSTEM IN THE DEVELOPMENT OF HUMAN CAPITA. Academic research in educational sciences, 5(TSUE Conference 1), 66-70.

9. Akramkulovich, S. N. (2024). THEORIES OF HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT. Science and innovation, 3(Special Issue 24), 829-832.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONNI BUNYOD ETISHDA DEMOKRATIK ISLOHOTLARNING SIYOSIY MODERNIZATSIYALASHUVI

E. E. Kurbanov
Guliston davlat pedagogika instituti "Tarix va san'atshunoslik" kafedrasi mudiri, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada XX asr globallashuv jarayoni jadallashuvi natijasida demokratiyaning yangi modellari namoyon bo'lishi va an'anaviy demokratiya asoslari orqali siyosiy modernizatsiyani amalga oshirishni imkoni yo'qligi haqidagi ilmiy fikrlar yuritilgan. Bundan tashqari yurtimizda demokratik jarayonlarning demokratlashuvi natijasida jamiyat islohotlarga bo'lgan "ishonch"i ortganligi, fuqarolarda siyosiy iroda va fuqarolik salohiyati shakllanishi chinakam Yangi O'zbekistonni bunyod etishning ijtimoiy-siyosiy natijasi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, yangi zamon, koolloboral, zamonaviy demokratiya, inson qadri, ulug' millatchilik, Yangi O'zbekiston g'oyasi.

Globallashuv jarayonlari zamon shiddatini tezlashtirdi. Yangi dunyo tartiboti shakllanib ulgurmagan va ushbu shakllanish davrining davom etish muddati hozircha noaniq bo'lib turgan davrga qadam qo'ydik. Yangi zamon deb atalayotgan davr mohiyatan dunyo xalqlarini ko'pgina muammolardan xalos qila olmadi, balki murakkab ziddiyatlar va chigal vaziyatlar ko'payib bormoqda. "Bugun xalqaro siyosiy vaziyatga baho berishda salbiy, dramatik qarashlar ustuvorlik qilmoqda. Ularga ko'ra, ba'zan hozirgi dunyoning nihoyatda qo'rqinchli ko'rinishlari tasvirlanmoqda. Jumladan, bular dunyoning yangi davrga qadam qo'yayotganligi va bu davrda hujumkor millatchilikning yetakchilik qilishi, xalqaro maydonda formal va noformal qoidalarga rioya qilishdan voz kechilishi, noaniqlikning kuchayishi, umumiy tarzda xalqaro munosabatlarda o'yin qoidalaridan voz kechilishi[1]" mavjud munosabatlarni yangitdan qurishga va amalda bo'lgan demokratik tartibotlarni qaytadan ko'rib chiqishga undamoqda. XX asr oxiri va XXI asr chorrahasida dunyoda ro'y bergan jiddiy o'zgarishlar dunyo bo'ylab globallashuv jarayonlari intensivligining nihoyatda ortib borishi, xalqaro munosabatlar tizimida mavjud bo'lib turgan murakkabliklar demokratiya va demokratlashuv borasidagi yondashuvlar va qarashlarning jiddiy o'zgarib ketishiga sabab bo'lmoqda. Bugungi kunga kelib yangi zamonaviy demokratiya asoslarini eskirgan, mavjud an'anaviy usullar bilan barpo qilish imkoniyatlari tugab bo'lganligi demokratiya nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi jahonning nufuzli olimlari, siyosatchilari tomonidan alohida e'tirof qilinmoqda. Mamlakatlarning demokratiyaga yalpi o'tishini bashorat qilgan "tranzitologiya" nazariyasi g'oyalari o'z salohiyatini tugatganligi, shu bilan birga, ushbu yondashuv bo'yicha ilgari surilgan g'oyalar ko'p hollarda o'zini oqlamaganligi bugungi kunda hech kimga sir emas.

[1] Барановский В. Новый миропорядок: Преодоления строго или его трансформация // Мировая экономика и международные отношения. 2019.№5. – С.7.

Bugungi zamonning talablari va ehtiyojlaridan kelib chiqib, jamiyat hayotida yangicha samarali demokratiyaning kontseptual asoslarini yanada takomillashtirish, odamlarning yashashi uchun barqaror taraqqiyoti, uning manfaatlarining ustuvorligini kafolatlaydigan demokratiyaning samarali va natijador modeli tamoyillarini shakllantirish, bunda demokratiya suverenitetini ishonchli ravishda saqlanib turishiga erishish, demokratiyaning zamonaviy institutlarini shakllantirish va imkoniyatlarini kengaytirish kabi masalalar olimlarning diqqat markazida turibdi.

Ta’kidlash joizki, hozirgi davrning dolzarb talablariga mos keluvchi demokratiyaning g‘oyalari va uni institutsional asoslarining nazariy talqinlarini ishlab chiqish yetakchi vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Keng qamrovli demokratik yangilanishlarni amalga oshirish va jadal islohotlar ko‘lamini innovatsion siyosat asosida yuksaltirish orqali Yangi O‘zbekistonni barpo qilish jarayonlari izchil amalga oshirilayotgan mamlakatimizda eng zamonaviy va samarali demokratiya asoslarini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda demokratiya g‘oyasini, qadriyatlarini hamda demokratik munosabatlarni chuqur konsolidatsiyalashuvi qaror topishi bilan bog‘liq jarayonlarni keng ko‘lamli ravishda tadqiq qilish, undagi yetakchi tendentsiyalar, qonuniyatlarni ilmiy talqinlarini ko‘rsatib berish, dastlab Harakatlar strategiyasi zaminida, keyinchalik Yangi O‘zbekiston – taraqqiyot strategiyasi dasturi doirasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli siyosiy islohotlar doirasida izchil demokratik taraqqiyot jarayonlarining kontseptual asoslarini tahlil qilish, ayni paytda jahon miqyosida demokratiya g‘oyasi va imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilgari surilayotgan nazariy xulosalar va g‘oyalar dinamikasini qiyosiy tahlil qilish asosida ulardagi ratsional jihatlarni aniqlash ham nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekistonda demokratik taraqqiyotning milliy tiklanishdan – milliy yuksalish jarayoniga o‘tilishi boshlangani zamonaviy davlat siyosati asoslarini yanada takomillashtirish va amalga oshirishi uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘ldi.

2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi doirasida o‘tgan davrda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul[1] qilingani buning yorqin tasdig‘idir.

Mamlakatimizning yangi demokratik qiyofasi shakllanishiga davlatimiz rahbari tashabbusi bilan amalga oshirilgan bir qator tizimiy o‘zgarishlar xizmat qildi. Bular qatorida quyidagilarni alohida qayd etish mumkin:

- inson huquqlarini ta’minlash borasidagi ijobiy ishlar;
- davlat hokimiyati organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini kuchaytirilishi va faoliyati ochiqligi ta’minlanishi;
- ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy-siyosiy mavzularda faolligi oshganligi hamda aholi va davlat organlari o‘rtasidagi muloqotda fuqarolik jamiyati institutlarining roli ortib borishi va hokazolar.

Endilikda, jamiyatimizda demokratik taraqqiyot rivojlanishi uchun eng maqbul qoidalarni o‘z ichiga olgan “Yangi O‘zbekiston” davlat siyosati kontseptsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj vujudga keldi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan Yangi O‘zbekistonni bunyod etish g‘oyasi xalqimizning orzu-intilishlarini birlashtiribgina qolmay, balki taraqqiyot strategiyasi va inson qadrini oshirish yo‘lida qilinayotgan barcha rejalarning kontseptual tagzaminini tashkil etmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, inson qadri – fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag‘allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilanishida, aholini yangi ish o‘rinlari va kafolatli daromad, malakali tibbiy davolanish va ta’lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta’minlashida sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishi demakdir.

Professor M.Bekmurodov fikricha, jamiyatda moddiy farovonlik va ma’naviy-axloqiy tamoyillar ustuvorligi ta’minlangan holdagina odamlarning o‘zaro totuvligi hamda mehr-oqibat

[1] 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони / https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf

muhitini mustahkamlash imkoniyati yuzaga keladi. Qashshoqlik, axloqsizlik hukmron bo‘lgan jamoa va jamiyatlarda totuvlikka o‘rin bo‘lmaydi[1]. Bundan kelib chiqadiki, Yangi O‘zbekiston g‘oyasi, bir tomondan, ijtimoiy ko‘makka muhtoj qatlamning hajmini qisqartirish, ikkinchi tomondan, ma’naviy-axloqiy va intellektual salohiyatga, avvalo umuminsoniy qadriyatlarga asoslanadi. Shu jihatdan, ushbu g‘oya o‘zida mamlakatimizda odamlarni rozi qilish, milliy totuvlikni mustahkamlash, inson qadr-qimmatini yuksaltirish orqali barqaror taraqqiyotni kafolatli ta’minlanishiga doir amaliy harakatlar strategiyasini mujassam etadi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 16-avgust kuni “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharririning savollariga javob berar ekan, mamlakatimizning erkin demokratik davlat va iqtisodiy farovon jamiyat barpo etish bo‘yicha tanlagan islohotlar yo‘li o‘zgarmasligini yana bir bor tasdiqladi[2]. Mazkur intervyuda ilgari nafaqat ilmiy jamoatchilik vakillari va ekspertlar, balki davlat rahbarining o‘zi tomonidan aytilmagan bir qator fikrlar alohida tilga olingan. Prezidentimiz tomonidan mustaqillikning 30 yili davomida erishilgan fundamental natijalar tahlili asosida yangi “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasiga aniq ta’rif berilgani yurtimizda yangi siyosiy davr boshlanganidan darak berdi. Jumladan, yurtboshimiz o‘z intervyusida mustaqillikning 30 yilida erishilgan uchta asosiy natijani alohida ajratib ko‘rsatdi. **Birinchidan,** bu 1991-yil 31-avgustda qo‘lga kiritilgan davlat mustaqilligidir. **Ikkinchidan,** “Tom ma’nodagi konstitutsiyaviy davlat barpo etildi”. **Uchinchidan,** qadimiy tarix, boy madaniy meros, milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlar tiklandi.

Yuqorida zikr etilgan jihatlar O‘zbekistonning kelajak istiqbolini belgilab beradigan uchta asosiy fundamental natijalar bo‘lib, “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etish kontseptsiyasi aynan shu uchta asosiy yutuqdan kelib chiqadi, degan xulosa qilish mumkin.

Bizningcha, “Yangi O‘zbekiston” kontseptsiyasi yagona maqsad – xalq farovonligi va zamonaviy rivojlangan davlatlar darajasiga yetish yo‘lida xalq va hukumatning birlashtiruvchi g‘oyasiga aylanishi mumkin bo‘lgan ezgu milliy g‘oyadir. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, demokratik islohotlarning hayotbaxshligi va natijadorligi, avvalo qonun chiqaruvchi hokimiyat institutlarining bu jarayondagi faol ishtiroki bilan belgilanmoqda. Jumladan, ijro mexanizmlariga ega demokratik qonunlarni qabul qilish, ularning ijrosida, parlament vakolatiga kiruvchi boshqa sohalarda hukumat va mansabdor shaxslar faoliyatini samarali nazorat qilish hamda hisobotini tinglash kabi funktsiyalarni bajarishi normal demokratik qoidalarga kiradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida nafaqat yuksak iqtisodiy natijalarga, balki aholi qatlamlarini bir-biriga yaqinlashtirish, farovon turmush darajasiga erishish ham mujassam, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Professor M.Bekmurodovning ta’kidlashicha, “odamlarni o‘zaro birlashuvi, avvalambor ularni birlashtirish davlatimizning o‘ziga xos boshqaruv uslubi va ustuvor siyosatiga aylandi. Endi esa mamlakatimizda ijtimoiy holat tubdan o‘zgardi. Prezidentimizning o‘zi “birlashish – bog‘lanish – yuksalish” formulasini mamlakatimizni jadal taraqqiy ettirish strategiyasining asosiy tamoyili sifatida hayotga joriy etmoqda”.[3] Darhaqiqat, 2017-yildan boshlangan milliy taraqqiyotning yangi davri davlat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarning ijtimoiy tabiatini o‘zgaptirib yubordi. Yangi O‘zbekiston mamlakatimizda inson qadrini ulug‘lash g‘oyasi jamiyat manfaatlarida umumlashadigan va davlat siyosatini belgilab beradigan demokratik davlatchilikning muhim davrini o‘zida aks ettirmoqda.

---

[1] Бекмуродов М. Инсон қадрини англатиш фани ёхуд жадал тараққиёт барометри ҳақида // “Янги Ўзбекистон” газетасининг 2022 йил, 10 март сони

[2] “Янги Ўзбекистон демократик ўзгаришлар, кенг имкониятлар ва амалий ишлар мамлакатига айланмоқда” Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Миромонович Мирзиёевнинг “Янги Ўзбекистон” газетаси бош муҳаррири Салим Дониёровнинг саволларига жавоблари. 16.08.2021. https://yuz.uz/news/yangiozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda

[3] Мансур Бекмуродов. Инсон қадрини англатиш фани ёхуд жадал тараққиёт барометри ҳақида // “Янги Ўзбекистон” газетасининг 2022 йил, 10 март сони №50

Yangi O‘zbekiston kontseptsiyasi yillar davomida avvalgi ma’muriyat tomonidan amalda bo‘lgan “davlat – jamiyat – shaxs” tamoyili o‘rnida “inson – jamiyat – davlat[1]” tamoyili ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

Shu jihatdan olib qaraganda, Yangi O‘zbekistonni barpo etish–milliy taraqqiyot yo‘limizning yangi bosqichi debochasi. Ushbu demokratik jarayon, qanchalik murakkab bo‘lmasin, O‘zbekiston jamiyatining tinch, erkin hayot va farovon jamiyat barpo etish borasidagi intilishlarini amalga oshirishga qaratilgan.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. 16.08.2021. https://yuz.uz/news/yangiozbekiston-demokratik-ozgarishlar-keng-imkoniyatlar-va-amaliy-ishlar-mamlakatiga-aylanmoqda

2. 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni / https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf

3. Барановский В. Новый миропорядок: Преодоления строго или его трансформация // Мировая экономика и международные отношения. 2019.№5.

4. Bekmurodov M. Inson qadrini anglatish fani yoxud jadal taraqqiyot barometri haqida // “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2022 yil, 10 mart soni

5. Saidov A. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi — inson qadrini ulug‘lagan Xalqchil bosh dastur. 28.01.2022. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh dastur

МИРЗАЧЎЛНИНГ ТАРИХИЙ-ДЕМОГРАФИК МАНЗАРАСИ ВА ЭТНОЭКОЛОГИК МУАММОЛАРИ

Мирзалиев У. Б.
Гулистон давлат педагогика институти доценти, тарих фанлари буйича фалсафа доктори

Аннотация:Мақолада Советлар даврида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши ва ундаги тарихий-демографик жараёнлар,шунингдек этноэкологик муаммолари таҳлил қилинган ва унга тавсифлар берилган.

Калит сўзлар: Мирзачўл, кўчириш сиёсати ,аҳоли, Сирдарё, Жиззах, шўрланиш, миллат, демография,этноэкологик,пахта,ирригация,канал,кассалик, сизот суви.

Мирзачўл бир миллион гектардан ортик майдонни эгаллаб, жанубда Туркистон тоғ тизмаси, жануби-ғарбда Нурота тоғлари, ғарбда Болатоғ ва Писталитоғ, шимоли-ғарбда Қизилқум чўли, шарқ ва шимоли-шарқда Сирдарё билан чегараланган. Турон пасттекислиги ва унинг тоғ этагида жойлашган чекка қисми - Мирзачўл сизот сувлари табиий оқиб чиқмайдиган чўллар қаторига киради. Тоғлардан текислик томон ётқизиқ конуслари, тоғ этагидаги қия текисликлар ва дарё водийси бўйлаб сизот сувлари (шунингдек, минераллашган тузларнинг грунт сувлари) оқиб келади. Мирзачўлнинг табиий сув оқиши етарли эмас: сизот сувлари асосан тупроқдан ва ўсимликлардан буғланишга сарф бўлади [1:Б.16.].

[1] Саидов А. Янги Ўзбекистон Тараққиёт стратегияси — инсон қадрини улуғлаган Халқчил бош дастур. 28.01.2022. https://yuz.uz/news/yangi-ozbekiston-taraqqiyot-strategiyasi--inson-qadrini-uluglagan-xalqchil-bosh dastur

Мирзачўлга жанубда Туркистон тоғ тизмасидан Босмадонсой, Каттасой, Шаҳристон, Зоминсув ва Сангзор дарёлари, ғарбда Нурота тизма тоғидан бир қанча сой, жилғалар қадимда серёғин йилларда оқиб тушган, чўл суғорилмасдан аввал қанча сув келган бўлса, шунча сув сарф бўлган ва сизот сувларининг чуқурлиги деярли ўзгармай турган. Ер ости сувлари ва ер ости қобиғининг шўр қатлами суғоришдан олдин анча чуқурликда жойлашгани учун сезилмаган эди[2:Б.9]. Мирзачўл ер ости сувлари бу ерга сув чиқарилишидан олдин минераллашган бўлиб, Мирзачўлнинг марказий қисмида 20 метрдан ортиқ чуқурликда, теварак-атрофида 15-20 метр, Жетисой, Сардоба, Арнасойда 5-7,5 метр, Шўрўзак массивида 2,2-5 метргача чуқурликда жойлашганди. Мирзачўлнинг жазирама иссиғи туфайли ўзлаштирилиши даврида йиллик ёғингарчилик миқдори умумий буғланадиган сувни 6% ни ташкил этган.

XIX аср охирида америкалик тадбиркорларнинг қутқуси ва пахтага бўлган талаб туфайли чор Россияси Мирзачўлга русийзабон аҳолини кўчириб, чўлни ўзлаштиришга катта эътибор берди ва Мирзачўлнинг шимоли-шарқий қисмини ўзлаштириш бошланиб кетди. 1872-йилда муҳандис Н.Ульяновнинг проектига кўра, дастлабки "Кауфман" канали қазилди, 1883-1885 йилларда князь К.Романовнинг маблағи ҳисобига Искандар ариғини қазиш ишлари олиб борилди, 1885-йилда Бекободдан Еттисойга қараб Бухоро ариғи, сўнгра Бекободдан Сардобага томон Кеназ ариғи қазилди. 1893-йил Николай I номидаги канал қурилиши билан Мирзачўлнинг деярли марказига сув етиб борди. Аммо чор Россияси ўз мақсадига эриша олмади[3:Б.108]. Хоразм ариғи, Ўринбойариқ ва бошқаларнинг қазилиши ниҳоясига етказилмади. Муҳандислик ҳисоб-китобларидаги хатоликларга кўра каналларга етарлича сув чиқмади, оқар сувлар дамбаларни бузиб, атроф-муҳитга зарар етди, сувдан хўжасизларча фойдаланиш туфайли режалаштирилган ҳудуд ўзлаштирилмади.

1915-1917-йилларда мисли кўрилмаган қурғоқчилик бўлди, 1920-1940 йиллардаги Арктика исиши даври инсоният тарихида оғир оқибатларга сабаб бўлди, ижтимоий-сиёсий туркумдаги ўзгаришлар: биринчи жаҳон уруши, октябрь тўнтариши, фуқаролар уруши ва истиқлолчилик ҳаракати, «ҳарбий коммунизм» сиёсати туфайли унинг оқибатлари 1923-йилгача давом этди[4:Б.195-197], очлик авж олди, Мирзачўлнинг суғорма деҳқончилик ҳудудларидаги қаҳатчилик, ботқоқ қамишзорлардан чиққан безгак эпидемияси ва ернинг қайта шўрланиши билан ҳамоҳанглик касб этди. Г.К.Ризенкампф Алексеевск қўрғонида 70% ер шўрланганлиги, оммавий безгак эпидемияси туфайли нафақат алоҳида хуторлар, балки кўплаб қўрғонларнинг аҳолиси кўчиб кетганлиги, шимоли-шарқий ирригацион тизимларга путур етганлигини қайд этганди[5:С.83]. Мирзачўлга кўчирилган рус аҳолисининг кўпчилик қисми бошқа ҳудудларга кўчиб кета бошлади, иммигрантларнинг ўтроқлашуви юз бермади[6:Б.217-218].Безгак эпидемиясидан ишчиларнинг 80-90 % гача азоб чекишаётган эдилар, натижада ўлкадаги ирригация-мелиорация қурилиш ишлари орқага кетаётган эди. 1919, 1920 ва 1921 йилларда Спасск қўрғони аҳолисининг 10 %и безгак хуружидан вафот этган[7:С.309].

1920 йилда Мирзачўлга Москвадан безгак эпидемиясини ўрганиш учун бир қанча олимлардан иборат комиссия юборилди. Профессор В.Ф.Булаевскийнинг эслашича, Сирдарё станциясида уларни ҳеч ким қарши олмаган, битта телефонист бўлиб, у ҳам безгак хуружидан азоб тортиб ётган. Экспедиция аъзоларига қишлоқ кенгаши от берган, лекин ҳамма касаллиги туфайли йўлбошловчи бера олмаган. Сирдарё туманидаги Охунбобоев, Малик ва бошқа хўжаликларнинг қўрғонлари безгакдан ҳувиллаб ётган...[8:С.4].

1920 йил серёғин келди, ўлкамизда кучли сув тошқинлари, сел оқимлари бўлиб, Мирзачўлдаги ирригацион иншоотлар ҳам анча зарар кўрдилар. Табиий офат талофатлари 1923 йилда анча бартараф этилиб, ирригация ишлари яхшиланди.

1921 йилда безгак хуружига қарши кураш мақсадида мирзачўлликлар учун Ўра-тепа шаҳрида сиҳатгоҳ ташкил этилди. 1923 йилда овул ва қишлоқларда безгак эпидемиясини тугатиш учун санитар "учликлар" тузилди. Безгакка қарши кураш оммавий суратда авж олиши билан эпидемиянинг аста-секин камая бориши қуйида кўришимиз мумкин[9:С.76].

Амбулаторияга касалларнинг келиши:	**1923 йил.**	**1925 йил.**
Умумий қабул қилинган касаллар	3777 нафар	2413 нафар
Безгак хуружи билан касалланганлар	1650 нафар	612 нафар
Бошқа касалларга нисбатан % ҳисобида	43,7	25,3

1914-1919 йиллар давомида суғорилган 95 минг гектар ернинг 60 минг гектари, яъни 2/3 қисми ташландиқ ҳолатга келиб қолди, фақатгина 35 минг гектар ер суғорилиб, деҳқончилик қилинар эди. 1913-1915 йилларда воҳада биринчи йирик мелиорация тармоғи - Шўрўзак зовури (63 км. узунликда) қурилди. 1919 йилда мелиорация ширкатлари тузилиб, 20-йилларнинг бошларида уларнинг фаолияти анча кенгайди. 1900 йилда Мирзачўл тажриба даласи ташкил этилди. Мирзачўлда суғориладиган ерларнинг қайта шўр босишини Н.А.Димо (1906 й.) ва М.М.Бушуев (1908 й.) аниқладилар ва унга алоҳида эътибор бердилар. Улар шоли экишнинг, бостириб суғоришнинг оқибатларини асослаб беришди, алмашлаб экиш қонуниятларини ишлаб чиқдилар ва коллектор-дренажлар системаси зарурлигини исбот қилдилар. Агрономлар С.В.Понятовский, Р.Р.Шредер, Н.Н.Александров, ирригатор А.И.Крюченко каби мутахассислардан иборат комиссия 1906-йилнинг сентябрида 6 далали алмашлаб экишни тавсия этган[10:С.91].М.М.Бушуев пахта ҳосилдорлигини оширишнинг асосий шарти - алмашлаб экишни тўғри ташкил этишда, дея беда ва бир йиллик донли экинларни пахта билан алмашлаб экиб, тажриба станцияси далаларида жорий қилган. Лекин, пахтачилик бўйича Россиянинг Мирзачўлдаги инструктори Салин 1913-йилдаги ҳисоботида қўл меҳнатига асосланганлиги учун "бедачилик кейинги икки йил ичида фойдасиз соҳа бўлиб қолгани, ўзини-ўзи оқламаётганлиги ва келгусида кенгайтирилмаслиги"[11:С.139-140] тўғрисида фикр юритади. Деҳқон хўжаликларининг даромадлари пахтачиликни кенгайтиришда, деб баҳолади. Шу даврдан Мирзачўлда пахта монокультураси ташкил топа бошлади.

1915-1917-йиллардаги қурғоқчилик оқибатида Мирзачўл аҳолисининг таркиби маҳаллий миллат вакиллари ҳисобига кўпайди. Ёлланма ишчилар асосан қўшни Ўра-тепа ва Зомин волостларидан, Жиззах уезди, Урсатьевск станцияси, Қўқон уездларидан келишганди[12:С.245]. 1918-йилда қишлоқ аҳолиси 53831 киши бўлиб, шундан 45604 киши маҳаллий миллат вакиллари ва 8227 киши русийзабон аҳоли эди[13:С.25]. 1917-1923 йиллардаги очарчилик оғир оқибатларга олиб келди, Туркистонда даҳшатли ўлат, терлама, цинг (зангила) касалликлари оммавий тарқалди. Фарғона водийсида 1 миллион киши, Самарқанд вилояти Жиззах уездининг 70% аҳолиси, Самарқанд уездида эса 70 минг киши очарчиликдан ҳалок бўлган. Т.Рискулов очарчилик республика аҳолисининг ярмини, таҳминан 2,5 миллион кишини ўз домига тортганлигини ёзган эди[14:Б.77]. Очлик, қаҳатчилик туфайли янги ерларни ўзлаштиришда европаликлар билан биргаликда маҳаллий аҳоли, Фарғона водийси ва Ўра-тепа, Зомин атрофларидан кўчиб келган кишилар иштирок эта бошладилар, 1923-йилга келиб бутун Мирзачўл аҳолисининг 54% ни туб миллатлар ташкил этди[15:Б.82-83]. Собиқ Иттифоқ даврида Мирзачўлни ўзлаштирилиши экстенсив характер касб этиб, юқоридаги хатоликлар оқибатларига эътибор берилмади, аҳолини янги ерларга жойлаштириш ва ердан, сувдан фойдаланиш тартибсиз равишда олиб борилди, агротехник илғор тажрибалар кенг тадбиқ этилмади, оқибатда XX асрнинг ўрталарида аҳоли ўртасида хавфли касалликлар ва ўлим даражаси яна ортди, ернинг шўрланиши кучайиб борди[16:Б.12-16-17].

Собиқ Иттифоқ даврида Осиёнинг эпидемиологик хасталикларига чидамсиз рус иммигрантлари ўрнига меҳнат ресурсларини тўлдириш мақсадида маҳаллий миллатлар Мирзачўлга ноанъанавий усулларда жалб этила борди. Боёвут туманидаги Ғаллакор, 1-Боёвут, 3-Боёвут СФУларида истиқомат қиладиган бухороликлар, самарқандликлар, Чоржўйлик туркманлар қулоқлаштирилиб, мажбуран кўчирилган.

1920-1940 йиллардаги Арктика исиши даврида иккинчи даҳшатли очлик 1931-1933 йилларда юз берди, қурғоқчиликдан зарар кўрган қишлоқларнинг аҳолиси оммавий равишда мажбуран кўчирилди, очликдан зарар кўрган кўплаб маҳаллий халқ Мирзачўлга келишди. Фарғона, Сурхондарё, Қашқадарё, Зарафшон водийларидан аҳоли кўчирилди. 1928-1929 йилларда 2600, 1929-1930 йилларда 7600 хўжалик кўчирилган. Шунингдек, 30-йилларда Туркистон тоғ тизмаси ён бағридаги Самарқанд вилояти лалмикор қишлоқлари аҳолиси Мирзачўлга мажбуран кўчирилди. 1931-1932 йилларда ернинг ботқоқланиши туфайли безгак касали авж олди. Мелиоратив тадбирлар кенг амалга амалга оширилганига қарамай, 1936-йилда Мирзачўлда 53% қишлоқларнинг ер майдонлари ботқоқланган ва қуритишни талаб қиларди.

Иккинчи жаҳон уруши арафаси ва уруш йилларида Совет давлати пахта етиштиришни ошириш мақсадида бир бутун халқ пешонасига "сотқин", "хоин" каби тамғаларни босиб, кўчирувчилик сиёсатини юритганди[17:Б.25-27], корейслар, Қрим татарлари, месхети туркlари, шунингдек, уруш асирлари каби турли диаспоралар Мирзачўлга ўзлари учун мутлақо нотаниш бўлган ландшафтга кўчирилдилар.

1939 йилда янги 110 минг гектар ерни мелиоратив тадбирларсиз ўзлаштирилиши туфайли сизот сувлари кўтарилиб, шўрланган ерлар янада кўпайган.[18:С.9] 1939, 1940, 1941-1942 йилларда партов ерларни ўзлаштириш мақсадида шоли экиш сурати ошиб борди, уруш туфайли мелиорация ва ирригация ишлари тўхтаб қолди, оқибатда ер ботқоқланиб, ўтмишдаги даҳшатли воқеалар такрорланди.

1948-йилда Фарход ГЭСи ишга тушиши билан 1947-1948 йилларда қурилган Боёвут каналига сув очилди, Дўстлик каналининг суви кўпайди ва қўшимча 40 минг гектар ерни ўзлаштириш имкони туғилди. Собик Иттифоқнинг Мирзачўлни ўзлаштиришда маданийлаштирилган кўчириш сиёсатининг кўриниши бўлмиш "комсомол йўлланмаси" билан юбориш, меҳнат ресурслари билан узвий таъминлаш дастури шаклланди. 1949-йил январида бир гуруҳ андижонлик ёшлар оиласи билан Мирзачўлда ишлаш ташаббуси билан чиқдилар[19:С.50-51].Андижон ёшларининг ташаббусини Тошкент, Қашқадарё, Фарғона ва бошқа вилоятлар ёшлари қўллаб чиқдилар. Маданийлаштирилган кўчириш сиёсати узлуксиз XX асрнинг 80-йиллари ўрталарига қадар давом этди ва асосан маҳаллий аҳоли пахтачиликка ихтисослашган хўжаликларга ўрнашди.

1956-йилда Запорожье, Смоленск, Курган, Киев ва бошқа шаҳарларнинг ФЗО мактабларини 12 минг битирувчиси Мирзачўлда ишлаш ташаббускори бўлдилар[20:С.64].Русийзабон аҳоли асосан саноат ишлаб чиқаришига жалб этилди.

XX асрнинг 50-йиллари охиригача янги ерларни ўзлаштиришда академик Т.Д.Лисенко, профессор В.А.Шаумян каби антидренаж назариясини ёқловчиларнинг ғоялари устувор бўлиб, мелиорация қурилиши иккинчи даражали ҳисобланган, лойиҳалардан мелиоратив қурилишлар чиқариб ташланган.

50-йилларнинг ўрталарига келиб, Мирзачўлнинг эски сув чиқарилган ҳудудининг шимоли-ғарбий қисмида аҳоли ўтроқлашиб, ўзлаштирилди, 1960-йил 25 декабрида Жанубий Мирзачўл каналига сув очилиши билан ўзлаштиришда янги давр бошланди. Мирзачўлнинг ўзлаштиришнинг янги принципларига кўра инсон омили учун комплекс тадбирларни қамраб олди. Суғориш, коллектор-дренаж тармоқлари, гидроиншоотлар қуриш, йўл, энергия таъминоти, ичимлик суви, газлаштириш ихотазорларга яхши уйлар, маиший хизмат кўрсатиш, маданият, таълим, соғлиқни сақлаш объектлари қуришга эътибор берилди. 1950-йилларнинг ўрталарида бошланган Мирзачўлни ўзлаштириш жараёни 70-йилларнинг иккинчи ярмига келиб якунланди[21:Б.269]. Асосий эътибор Жиззах чўлини ўзлаштиришга қаратилди, 1963-йилда Сирдарё, ўн йилдан сўнг Жиззах вилоятлари ташкил этилди, Мирзачўл ўрнида Сирдарё воҳаси шаклланди.

Маданийлаштирилган кўчириш оқибатида Мирзачўлга келган маҳаллий аҳоли вакиллари кўп ҳолатларда халқимизга хос этнопсихологияда бўлиб, "барибир ота юртимга қайтиб кетаман", деган фикрда эдилар. Албатта, уларнинг ўрнашишлари, Мирзачўлда деҳқончилик маданиятининг сир-асрорларини ўрганишлари даврида, ҳукмрон мафкура

шароитида экстенсив хўжалик юритиш оқибатида, ер-сувни эъзозлашдан йироқ бўлиб, юқоридаги хатоликлар такрорланди, суғориладиган ерларнинг миқдори қанча кўп бўлса, ундан шунчалик хўжасизларча, бепарволарча фойдаланилди, бостириб суғориш, шоличилик ва ҳоказолар туфайли воҳа ерлари шўрланиб борди. Шунингдек, ирригацион иншоотлар қурилишидаги хатоликлар, мелиоратив иншоотларнинг етарли эмаслиги ва сифатсизлиги туфайли ўзлаштирилган ерларнинг мелиоратив ҳолати ёмонлашди. Бу ўринда шуни қайд этмоқ жоизки, кўчирилган маҳаллий миллат вакилларининг ҳам, диаспораларнинг ҳам Мирзачўлга келгунга қадар анъанавий хўжалик юритиш асосларида деҳқончилик маданиятидан хабардор бўлса ҳам, мутлақо бошқа бир географик табиий муҳитда эди. Масалан, Туркистон тоғ тизмаси адирларидан кўчирилган аҳолининг хўжалик ҳаётида чорвачилик етакчи ўрин тутиб, лалмикор деҳқончилик билан ҳам шуғулланишган. Турли этнос вакиллари Мирзачўлда мажбурий ўрнашдилар ва табиат билан муносабатда яшаб қолиш учун курашдилар.

Суғорма деҳқончиликдаги қўпол хатолар катта иқтисодий ва маънавий зиён келтирди. Йилига деярли 80-100 минг гектар янги ер ўзлаштирилиб, фойдаланишга топширилган, лекин шу билан бир вақтда турли сабабларга кўра, 60-80 минг гектар ер яроқсиз ҳолга келган. Масалан, 1966-1984 йилларда 390 минг гектар суғориладиган майдон оборотдан чиққан[22:Б.41].1984-йил Жиззах вилоятининг Зарбдор ноҳиясида ҳар гектар ердан олинган пахта ҳосили 7 центнердан ошмади. Бунга Жиззах вилоятидаги 25% коллекторларнинг умуман ишдан чиққанлиги, ёпиқ ва тик дренажларнинг 1/3 қисми ишламаганлиги сабаб бўлди[23:Б.271].Шунингдек, воҳа ерларига оби-тоби етилганда ишлов берилмаслиги, ишлов беришда балонли тракторлардан кенг фойдаланиш оқибатида экин унадиган маданий қатламдан пасти зичлашиб борди, табиий ёғинлар ва қуйилган сувнинг сизилиши заифлашди, вегетацион давр қисқарди.

Мирзачўлнинг ўзлаштирилган ерларига азот, фосфор, кимёвий ўғитларни солиб, пахта ҳосилдорлигини ошириш тажрибалари 1906-1912 йиллардаёқ бошланган[24]. 1929-1930 йиллардаги олиб борилган тажрибаларга кўра, ерга қанча кўп кимёвий ўғит солинса (азот – 240 кг), пахта ҳосилдорлиги шунча ортиши исботини топган[25:С.40].1960-йилларда Иттифоқ раҳбарияти томонидан пахтачиликда кимёвий моддалар кенг қўлланила бошланди. Хусусан, иқтисодий ривожланган мамлакатларда бир гектар ерга ўрта ҳисобда кўпи билан 100 кг минерал ўғит сарфланса, Ўзбекистонда бу миқдор гектар ҳисобига 268 кг.ни ташкил этди[26:Б.17]. Ўз ўрнида Сирдарё воҳаси ерлари ҳам оммавий равишда бузилди, яроқсиз ерлар миқдори ошди, дори «емасдан» ва «ичмасдан» ҳосил бермасликка ўрганиб қолди. Ҳар бир гектар экин майдонига минерал ўғит солиш ҳам ошиб борди. Масалан, агар 1980-йилда бир гектар экин майдонига 149 кг азот, 85,6 кг фосфат, 28,5 кг калий солинган бўлса, 1987-йилда бу рақам мос равишда 166,8; 92,4; 46,4 бўлди[27:Б.281]. Мазкур минерал ўғитларнинг маълум қисминигина ўсимликлар юта олади. Азотнинг қолган қисми ҳавога чиқиб кетади, лекин фосфорнинг ўлик захираси юз йилларга етарлик. 60-йилларнинг 2-ярмида авиация ёрдамида бажариладиган кимёвий ишлар ҳажми 34,3%га кўпайган[28:С.26]. 80-йилларда жаҳонда бир гектар ерга 300 г. пестицидлар солинган бўлса, Ўзбекистонда 54 кг.ни ташкил этиб, қўлланилиш нормасидан 180 баробар кўп эди. Пахта экиладиган майдонларга турли хил гербицидлар, заҳарли кимёвий моддалар билан ишлов берилганлити оқибатида хавфли касалликлар ва ўлим даражасининг ортиши юз берди. Кўплаб агроном олимлар, собиқ дала бригадирлари, механизатор, сувчиларнинг ўртача умр ёшига етмаслиги, фожеали тақдирлари пахтачиликда кимёвий моддалар қўлланилиши билан ифодаланади.

Ирригацион иншоотлар, сув омборлари ва гидроузелларнинг қурилиши жараёнида мелиоратив иншоотларнинг етарли эмаслиги туфайли фақатгина суғориладиган ерлар эмас, балки шаҳар, посёлка, қишлоқларнинг аҳволи ёмонлашди. Ҳозирги пайтда ўнлаб шаҳарларда ер ости сувлари юзага яқинлиги туфайли дарахтлар қуриб қолмоқда, биноларнинг пойдевори ишдан чиқаяпти, атроф-муҳит ёмонлашмоқда[29:Б.272].

Бу ҳол Сирдарё вилоятининг Боёвут шаҳарчаси, Янгиер ва Гулистон шаҳарлари қиёфасида яққол намоён бўлмоқда.

Иккинчи минг йиллик бошларида сизот сувларининг йиллик ўртача жойлашиш чуқурлиги Сирдарё вилояти хўжаликлари бўйича 172 см.ни, Жиззах вилояти хўжаликлари бўйича 219 см.ни ташкил қилди.

Бунда Жиззах вилояти хўжаликларида сизот сувлари сатҳининг Сирдарё вилояти хўжаликларига нисбатан анча пастда жойлашиши бу ердаги геоморфологик шароит ва рельефни сизот сувларининг оқимини яхши таъминлашида, деб билаш мумкин[30:Б.48].

Бугунги кунда Сирдарё вилояти ерларининг 90%и шўрланган[31:Б.9] бўлиб, ер ости сизот сувлари турғунлиги 1-2 метр чуқурликда жойлашган.

Академик тупроқшунос олимлар Ж.Ахмедов, Қ.Мирзажонов, С.Азимбаев ва тадқиқотчи С.Исаевлар "таркибида 2-2,5 г/л туз тутган ерлар сизот сувлари сатҳини 1,5 метрдан пастга тушириши ҳозирги сув танқислиги шароитида кони зарар", деб ҳисоблашади. Сизоб сувлари минерализацияси кам бўлганда 1-1,5 метр, кўп бўлганда 2-2,5 метр да сақлаш тавсия этилмоқда[32:Б.6-7].

XX асрнинг 2-ярмида қуёш активлигининг ошиши, глобал исиш, «катта қурғоқчилик»ларнинг тез-тез бўлиб туриши натижасида Ер шарида чўллар майдони йилига 6 миллион гектарга кенгаймоқда[33:Б.187].

Собиқ Иттифоқда Мирзачўлни ўзлаштирилиши тажрибалари, Марказий Осиё Республикаларида пахта етиштиришнинг оммалаштирилиши, янги ерларни ўзлаштирилиши, шунингдек, Сирдарё ва Амударё ўзанларида сув омборлари, гидроэлектростанциялар қурилиши, саноатда сувдан кенг фойдаланилиши оқибатида Орол муаммоси пайдо бўлди. Сирдарё ва Амударё сувларидан назоратсиз фойдаланиш оқибатида 1961-1970 йиллар оралиғида Орол денгизига ҳар йили 42,9 кубокилометр сув қуйилган бўлса, 1981-1984 йилларда 4,2 кубокилометрга тушиб қолди[34:Б.56]. Глобал исиш натижасида Орол қуриб борди. Минг йиллик бошларига келиб, ҳавзасида 35 миллион аҳоли истиқомат қиладиган денгиз қурий бошлади. Орол фожеаси минтақавий муаммодан умумбашарий фожеа даражасига кўтарилди[35:Б.193]. Илгари ер юзидаги энг йирик ички сув ҳавзаларидан бири бўлган Орол денгизининг ҳажми бугунги кунда 13 баробар, майдони 7 баробар қисқарди, сув сатҳи 26 метр пасайди. Денгизнинг қуриб қолган тубида 5 миллион гектардан зиёд майдонни эгаллаган янги Оролқум чўли пайдо бўлди[36].

Бутун жаҳонда деҳқончилик маданияти бугунги кунда ерларнинг шўрланиши, чўлланиши муаммоси билан биргаликда «кислотали ёмғирлар»дан, тупроқ эрозиясидан азият чекмоқда. Бугунги кунда Ер юзасининг 31 миллион гектар қисми «кислотали ёмғирлар»дан зарарланган ва буғланган. Тупроқ эрозияси туфайли экин майдонининг 26 миллион гектарида ҳар йили ҳосилдорлик пасайиб бормоқда[37:Б.186-187].

Фойдаланилган адабиётлар:

1)Р.Эгамбердиев, А.Раззоқов. Ўзбекистонда қўриқ ерларини суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. Т. «Фан».1984. –Б.16.

2)Қ.Абдураззоқов. Шўр ерларни ўзлаштириш усуллари. Т. «Ўзбекистон». 1973.-Б.9.

3)С.Дониёров, З.Мадрахимова. Мирзачўл воҳаси ва уни ўзлаштириш тарихидан. «Ўзбекистон тарихини ўқитишнинг долзарб муаммолари» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари тўплами. Гулистон. 2010 . –Б.85-86.

.4) Х.Қобилов. Совет ҳукуматининг талончилик сиёсати ва унга қарши миллий-истиқлолчилик харакатлари. Ўзбекистонда моддий маданият ва этномаданий жараёнлар» мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Термиз. 2010. –Б.195-197.

5)Г.К. Ризенкампф. К новому проекту орошения Голодной степи. Ч. 1, Л., 1930 .-С. 83

6)«Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари: тарих ва хозирги замон» мавзуидаги халкаро илмий-амалий анжуман материаллари.Т. 2007.-Б.217-218.

7)Н.К.Ярошевич. Сельское хозяйство и ирригация Средней Азии. Том III, часть I. Т. 1925.-С. 309.

8)Л.Берсудский, П.Кивелов. Так меняется облик Голодной степи. Т. 1956 .-С.4.

9)Э.Х.Хожиев. История орошения и освоения Голодной степи. 1917-1970 гг. .Т. “Фан”.М.1987.-С. 76.

10)Голодная степь. 1867-1917. История края в документах. М. «Наука».1981.-С.91.

11)Ўша жойда. –С.139-140 .

12)Н.К.Ярошевич. Сельское хозяйство и ирригация Средней Азии. Том 111, часть I. Т. 1925 .-С. 245.

13)Э.Х.Хожиев. История орошения и освоения Голодной степи. 1917-1970 гг. .Т. «Фан». 1987. –С.25.

14)Қ.Ражабов, М.Ҳайдаров. Туркистон тарихи. Т. «Университет». 2002.-Б. 77.

15)Р.Эгамбердиев, А.Раззоқов. Ўзбекистонда қўриқ ерларини суғориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. Т. «Фан». 1984.-Б. 82-83.

16)З.Х.Аширбоева. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Автореферат, т.ф.н. Т. 2008 .-Б. 12-16-17.

17)С.Бадриддинов. Корейслар Ўзбекистонга қандай қилиб келиб қолган? «Тарихий хотира - маънавият асоси» мавзусидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари. III. Бухоро. 2010 .-Б. 25-27.

18)Ж.Я.Батькаев. Удобрение хлопчатника в условиях Голодной степи. Т. “Фан". 1978. –С. 9.

19)А.Абдунабиев. Борьба за увеличение земель. Т. «Ўзбекистан». 1966. –С.50-51.

20)А.Абдунабиев. Борьба за увеличение земель. Т. «Ўзбекистан». 1966. –С.64.

21)Г.Г.Холлиев. Ўзбекистонда ирригация ва мелиорация сохасида амалга оширилган ишлар. «Ўзбекистон тарихидан илмий мақолалар тўплами». 1 -сон. Т. «Тафаккур». 2009. –Б.269.

22)Р.Эгамбердиев, А.Раззоков. Ўзбекистонда қўриқ ерларини сугориш, ўзлаштириш ва мелиорациялаш тарихи. Т. «Фан». 1984 .-Б. 41.

23)Г.Г.Холлиев. Ўзбекистонда ирригация ва мелиорация соҳасида амалга оширилган ишлар. «Ўзбекистон тарихидан илмий мақолалар тўплами». 1-сон. Т. «Тафаккур». 2009.-Б. 271.

24) Н.Н.Балашев, Я.И.Чуманов. Материалы по изучению эффективности удобрений. В сб. «Вопросы удобрения». Выпуск №1. Самарканд. 1929.

25)Ж.Я.Батькаев. Удобрение хлопчатника в условиях Голодной степи. Т. “Фан". 1978. –С. 40.

26)З.Х.Аширбоева. XIX аср охири - XX аср ўрталарида Мирзачўлнинг ўзлаштирилиши. Автореферат, т.ф.н. Т. 2008 .-Б. 17.

27)Народное хозяйство Узбекской ССР в 1990 . –С.281.

28)Н.Обламуродов. Развитие аграрного производства Узбекистана в 1971-1990 гг. Опыт, уроки и проблемы. Автореферат, дисс. Д.и.н. Т. 1994.-С. 26.

29)Г.Г.Холлиев. Ўзбекистонда ирригация ва мелиорация сохасида амалга оширилган ишлар. «Ўзбекистон тарихидан илмий мақолалар тўплами». 1 -сон. Т. «Тафаккур». 2009. –Б.272.

30)Х.Номозов, С.Тошпўлатов, С.Рўзметов. Мирзачўл ҳудуди сугориладиган тупроқларининг мелиоратив ҳолати ва унумдорлигини ошириш йўллари. Т. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси». 2004. –Б.48.

31)О.Ш.Олтмишев. Тупроқ унумдорлигини сақлаш ва тиклашда мелиоратив тадбирларни амалга оширишнинг мавжуд муаммолари ҳамда ечимлари. «Мирзачўл воҳаси тупроклари унумдорлигини ошириш муаммолари ва вазифалари» мавзуидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Гулистон. 2003.-Б. 9.

32)Ж.Ахмедов, К.Мирзажонов, С.Азимбаев ва С.Исаев. Тупрок мелиорацияси - мўл ва сифатли ҳосил гарови. «Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги». № 2. 2009 .-Б. 6-7.

33)Ф.Пармонов. Саноат ва экологик ўзгаришлар: ер ва ичимлик суви муаммоси. «Фалсафа ва ижтимоий тараккиёт»мавзусидаги илмий конференция материаллари. II қисм. Т. «Ўзбекистон файласуфлари илмий жамияти нашриёти». 2008. –Б.187.

34)А.А.Голованов. «Белое золото» в черном овале. Ўзбекистон тарихидан илмий маколалар тўплами. 1-сон. «Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари». Т. «Тафаккур». 2009.-Б. 56.

35)И.А.Каримов. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. 7-том. Т. «Ўзбекистон». 1999. –Б.193.

36)Трансчегаравий экологик муаммолар: ривожланиш йўлидаги ечимлар. «Ишонч» газетаси. 2010 йил 18 ноябрь. №137 (2862).

37)Ф.Пармонов. Саноат ва экологик ўзгаришлар: ер ва ичимлик суви муаммоси. «Фалсафа ва ижтимоий тараққиёт» мавзусидаги илмий конференция материаллари. II қисм. Т. «Ўзбекистон файласуфлари илмий жамияти». 2008. –Б.186-187.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI

Alibekov Davron Abdurakibovich
O'zMU Jizzax filiali dotsenti, falsafa doktori (PhD)
Yuldashev Sheryigit Ergashevich
O'zMU Jizzax filiali katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Jamiyat taraqqiyotida ta'lim tizimining ahamiyati va o'rni juda ham beqiyosdir. Ta'lim tizimiga zamonaviy va innovatsion yondashuvni amalga oshirmay turib jamiyatni rivojlanishtirish murakkab jarayondir. Ushbu maqolada ta'lim tizimida innovatsion yondashuv, innovatsion faoliyat, innovatsion salohiyat, innovatsion infrastruktura va modernizatsiyasiga asoslangan strategik ahamiyatining nazariy jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, modernizatsiya, ta'lim, faoliyat, salohiyat, infrastruktura, yondashuv, strategiya, tendensiya, globallashuv, texnologiya, jamiyat, tafakkur.

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirish jarayoni o'zida ijtimoiy rivojlanishning sifat bosqichiga olib chiqadigan, o'ziga xos ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlarni vujudga keltiradigan murakkab, bir butun va dinamik faoliyatini qamrab oladi. Ta'limdagi innovatsion o'zgarishlar – bu tizimli yangicha texnologiyalar, axborotlashtirish va yangiliklarni yaratish va joriy etish, tizimni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan jarayonlar orqali inson salohiyatini yuksaltirish va pirovardida jamiyat sohalarida muhim sifatiy o'zgarishlar yasash demakdir.

Shuningdek, ta'lim sohasida innovatsion o'zgarishlar uning barcha tizimlari faoliyatida ish jarayonini yangicha asoslar bilan o'zgartirish orqali keng qamrovli modernizatsiya qilishdir. Bu jarayonda ta'lim sohasi tizimlari faoliyatining samaradorligi oshadi, pirovardida ta'lim sohasi yangi rivojlanish bosqichiga o'tib, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu tendensiya bugungi globallashuv bilan bog'liq raqobatga asoslagan sharoitda davrida jamiyat hayotining barcha tizimlari bilan aloqador holda kunda ta'limning barcha sohalarini modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirishga katta ehtiyoj hosil qilmoqda.

Jamiyatimizda ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va bu orqali ijtimoiy taraqqiyotni qo'llab-quvvatlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuning bilan birgalikda ilm-fan sohasini ham innovatsion faoliyatini ta'minlash borasida keng qamrovli faoliyat kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "Ta'lim va fan sohasini rivojlantirishda ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish" [1] ko'zda tutilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimi ijtimoiy muhit shart-sharoitlariga bog'liq ravishda, jamiyat va inson ehtiyojlarining kundan kunga kengayib borayotgan sharoitida transformatsiyalashgan jamiyat va unda vujudga kelayotgan muhim qonuniyatlar insoniyat hayot tarziga goh salbiy, goh ijobiy holatda ta'sir o'tkazmoqda. Bu jarayonda ta'lim tizimi oldida shunday muammolarni yechishga qaratilgan vazifalar paydo bo'lmoqdaki, bu esa, ta'lim tizimini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish bilan aloqador dolzarb jarayonlarni ijtimoiy hayotda ro'yobga chiqarish bilan bog'liq bo'lib qolmoqda. Axborotlashgan jamiyatda yoshlarning global axborot tizimi bilan bemalol tillasha olish, axborot madaniyatini shakllantirish, zamonaviy tamaddun maksadlari va muddaolariga javob bera olishga oid innovatsion qobiliyatlarini shakllantirish muhim vazifaga aylandi.

Globallashuv jarayonlarining bugungi taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, jamiyatlarni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish sharoitida jiddiy texnik-texnologik raqobat muhiti yuzaga kelmoqda. Fuqarolar ayniqsa, yoshlarning zamonaviy innovatsion an'analarni egallashi va ularga javob bera olish ko'nikmalarini shakllantirishda ma'lum muammolar vujudga kelmoqda. Shu boisdan ham axborotlashgan jamiyatda yoshlar innovatsion dunyoqarashini tezkor va mukammal asosda shakllantirish va rivojlantirish masalalarini ilmiy asosda tahlil etib, muhim xulosalar, zaruriy metodik tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb mohiyat kasb etmoqda.

Har tomonlama bilimlarni egallagan, innovatsion tafakkurga ega bo'lgan yoshlar mamlakatimiz ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotining asosiy strategik zahiralari bo'lib hisoblanadi, ularning ishtirokisiz jamiyatni rivojlantirishning imkoniyati yo'q. Jamiyatni modernizatsiya qilish yo'lida birmuncha murakkab, keng qamrovli vazifalarni hal etishda katta yoshdagi kadrlar bilan bir qatorda yoshlar ham muhim ijtimoiy kuch sifatida ishtirok etadi, uning salmog'ini ta'minlashga ko'maklashadi. Jamiyatimizda tarixan shakllangan ilm va ma'rifatga e'tibor, ijtimoiy hayotda ta'lim va tarbiyaning farovon jamiyat qurishning asosiy manbai bo'lib kelganligi yoshlarning bilim olish bilan bog'liq muhim qadriyatlarini shakllanishiga muhim zamin bo'lib hisoblanadi.

"Innovatsiya" jamiyat hayotining hamma tizimlarida, insonga taalluqli bo'lgan faoliyatining barcha sohalarida uchraydi. Ilmiy izlanishlarning natijasi, darajasi, ko'lami va va ishlab chiqarishdagi amaliyotidan kelib chiqib, innovatsiyalar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga o'zining juda katta hissasini qo'shadi. Innovatsiyalar esa, yangi bilimlar, innovatsiyalarning yaratilishi, uni hayotga joriy etilishi va samara darajasini ifoda qilish ketma-ketligida namoyon bo'ladi. Bu esa, yangicha sharoitda inson hayotiy faoliyati uchun zamonaviy ko'lamdagi shart-sharoitlarni yaratilishiga xizmat qiladi.

Olimlarning ta'kidlashicha, "Innovatsiya deb, ko'p qirrali jamiyat hayotining u yoki bu sohasini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan ilg'or g'oyalar, ular asosida yaratilgan ilmiy-amaliy ishlanmalarni ilm-fanlarning so'ngi yutug'i, texnika va texnologiyalarning yangi ixtirosi sifatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayotida qo'llanilishiga aytiladi"[2] degan ta'rif berilgan. Demak, innovatsiya inson tafakkuri va salohiyati orqali jamiyatning ma'lum sohasiga kiritilgan yangilik, kashfiyot va ixtirodir.

Innovatsiyalar o'zining ko'lami, darajasi va hayotiy ifodasi bo'yicha:

- doimiy davom etadigan jarayon;
- yangi amaliyot uchun texnologik kashfiyot;
- inson faoliyatining to'laqonli mahsuli;
- jamiyat va inson faravonligi uchun qaraligan faoliyat;
- ishlab chiqarish yoki ijtimoiy faoliyatni yangi sifat darajasi;
- ilmiy jarayon va amaliy faoliyatning uyg'unligini ifodalaydigan fenomen.

R.Gimush, F.Matmurodovlarning fikricha, "Innovatsiya – boshqaruv ob'ektini o'zlashtirish hamda iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa turdagi samara olish maqsadida yangiliklar joriy qilishning yakuniy natijasi"[3]. Shuningdek, olimlar innovatsiyalarning ijtimoiy soha bilan bog'liq jihatlarini kishilar mehnat shart-sharoitlarini yaxshilash, tibbiyot, ta'lim-tarbiya, madaniyat va ma'rifat muammolarini yechish bilan bog'liq jarayonlarga qaratilganligini ham ta'kidlaganlar. Demak, olimlar innovatsiyalarning ijtimoiy hayot bilan bog'liq xususiyatlarini,

ijtimoiy sohani turli tizimlarini rivojlanishiga ta'sir etadigan, o'z dolzarbligini yo'qotmaydigan muhim jarayon ekanligini e'tirof etganlar.

Rossiyalik olim N.Emirov innovatsiyaga oid tushunchalarni innovatsion jarayonlar va faoliyatga xizmat qiladigan innovatsion salohiyat, innovatsion soha, innovatsion infratuzilma kabi kategoriyalarni qo'llash bilan to'ldirib yoritishga harakat qiladi.

"Innovatsion salohiyat" - (davlat, mintaqa, sohalar, tashkilotlar) - innovatsion faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, moddiy, moliyaviy, intellektual, ilmiy-texnik va boshqa resurslarni o'z ichiga olgan turli xildagi resurslarning yig'indisidir;

"Innovatsion soha" - innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni o'ziga maqsad qilib olgan innovatsion mahsulotni ishlab chiqaruvchilar va innovatsiyalar natijalarini iste'mol qiluvchilar faoliyati sohalaridir;

"Innovatsion infratuzilma" – innovatsion faoliyatni amalga oshirishni ta'minlovchi tashkilotlar (innovatsion-texnologik markazlar, texnologik inkubatorlar, texnoparklar, o'quv-ishlab chiqarish markazlari va boshqa ixtisoslashtirilgan tashkilotlar) [4].

Ta'lim tizimini ham innnovatsion rivojlantirish uning sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi, uning zamonaviy rivojlanishiga o'zgacha mazmun bag'ishlaydi. Innovatsiyalar ta'limni o'zini-o'zi rivojlantirish, yuqori darajada va sifatli bilim olish orqali samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayonining tabiiy asosda, ya'ni har qanday byurokratiya, buyruqbozlik va korrupsiya kabi ichki va tashqi salbiy ta'sirlardan xoli asosda mavjud bo'lish omillari uning samarali, zamonaviy va innovatsion asosda rivojlanishga bo'lgan shart-sharoitlarini ta'minlab beradi. Ta'lim jarayonini innovatsion asosda rivojlanishi uning jamiyatga yanada ijtimoiylashuvi, madaniy-ma'rifiy xarakter kasb etishi, yangiliklar va islohotlarni amalga oshirishda ilg'or soha sifatida mavjud bo'lishi kabi ijtimoiy qadriyatlarni o'zida mujassam etishiga sharoit yaratadi.

Innovatsiya natijasida ta'limning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy islohotlarga mos holda o'zini-o'zi tashkil etuvchi soha sifatida maqomi va darajasi oshadi. Innvatsiyalar ta'lim tizimini har bir bosqichi va bo'g'iniga kirib borib, uning jamiyat rivoji uchun muhim yangiliklar yaratish borasidagi mazmunini mustahkamlaydi. Innovatsion jarayonlar tashkil etilib borgan sari ta'lim sohasida ishtirok etuvchi barcha sub'ektlarning yangiliklar yaratishga qaratilgan faolligi va moyilligi oshib boradi. Shunday qilib, "Ta'limda innovatsiyalar ta'lim jarayoniga yangiliklar kiritish, ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun uning texnologiyalari va mazmuniga o'zgartirish kiritish tushuniladi"[5].

Ta'lim tizimida innvatsion faoliyat deganda unda yangiliklar borasida g'oyalarni vujudga kelishi, ularni yaratish borasidagi jarayonlarni borishi, ularni o'zlashtirish, foydalanish va tarqatishga qaratilgan kompleks faoliyatdir. Ta'lim tizimida yaratiladigan innovatsiyalarning mazmun va mohiyatini uning turlari, maqsad va vazifalari, metodologik ta'minoti, ilmiyligi, faoliyat xarakteri, faoliyat turlari, joriy etilish ko'lami, natijadorligi, yangilik ko'lami, ijobiy oqibatlari, miqdor ko'rsatkichlari, sifat va samaradorligi kabi omillariga ko'ra baholash mumkin.

Ta'lim tizimida innovatsiyalarning yaratilishi, uning samaradorligi va amaliyotga joriy etilishi ko'lami uning ilmiy ishlanishining har tomonlama puxtaligi va loyihaning mukammaligi bilan bog'liq. Ta'limda innovatsion jarayonlarning joriy etishda quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- o'zgarishlar ko'lamiga qarab ehtiyojlarni aniqlash;
- mavjud vaziyatni tahlil etish va axborotlar to'plash;
- yaratiladigan yangilik bo'yicha dastlabki tanlov yoki uni mustaqil ishlab chiqish;
- yangilikni amaliyotga joriy etish (o'zlashtirish) bo'yicha qaror qabul qilish;
- yangiliklarni joriy etish bo'yicha ehtimoliy samarani prognoz qilish va amaliyotgan joriy etish jarayoni;
- yangiliklarni ta'lim amaliyotining kundagik jarayonlari va qo'shimcha ta'limda, ta'limning turli tuzilmalarda uzoq vaqt foydalanish.

Ta'lim tizimini rivojlantirishda innovatsion omilning ustivorligini tashkil etilishini ijtimoiy tavakkalchilik (risk) jarayoniga ham o'xshab ketadi, chunki, innovatsion ta'lim oddiy ta'limning muqobili hisoblanib, jamiyatda sobiq ta'limiy qadriyatlarni ko'pgina ko'rinishlarini siqib chiqaradi.

Natijada ta'lim tizimida birqancha davr sinov muddati bo'lib, eskilik va yangilik o'rtasida qarama-qarshiliklar kuzatilishi mumkin. Bu davrda ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning zamonaviy qarashlari, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirishi va yangiliklarni qabul qilish darajasining yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, ta'lim tizimi xodimlarining ham innovatsion dunyoqarashining mukammalligi ta'limni modernizatsiya qilishning muhim elementi hisoblanadi. Bu jarayonni samarali ta'minlash uchun ta'lim tizimida tuzilmaviy, tizimli va funksional darajadagi o'zgarishlarni ta'minlash maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonda ta'lim ishtirokchilarining kasbiy mahorati, zamonaviy axborotlar va ma'lumotlar bilan ta'minlanganligi, psixologik va pedagogik tayyorgarligi va qayta tayyorgarligi kabi omillar muhim rol o'ynaydi. Mazkur o'zgarishlar ta'limni tubdan isloh qilish va qaytadan tashkil etish bilan bog'liq vazifalar bilan bog'lanib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

2. Yaxshilikov J., Muhammadiev N. Milliy g'oya: O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. - Toshkent, "Cho'lpon", 2018. –B. 549.

3. Gimush R., Matmurodov F. Innovatsion menejment. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti, 2008. –B. 14.

4. Emirov N. Faktor innovatsionnoy deyatelnosti v sotsialnoy sfere. www.m-economy.ru/art.php.

5. Rapasevich Ye. Bolshaya sovremennaya ensiklopediya. – Minsk, Sovremennoe slovo, 2005. -S. 198.

6. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6

7. Alibekov D. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ //Журнал музыки и искусства. – 2021. – Т. 2. – №. 2.

8. Farsakhanova, Dilafruz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." Архив Научных Публикаций JSPI (2020).

9. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." Журнал музыки и искусства 2.1 (2021).

JAMIYAT SOTSIAL STRATIFIKATSIYASINI O'RGANISHDA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING O'RNI

Xudoyberdiyeva Anorabonu Hayotovna
Ichki ishlar Akademiyasi "Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Bugungi kunda dunyodagi barcha millat va elatlarning asosiy maqsadi – tinch-totuv yashab, farovon hayot kechirishdir. Millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik tamoyillari esa mana shu orzularni ro'yobga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy stratifikatsiya va millatlararo hamjihatlik g'oyalari mohiyati, mazmuni va shakli tubdan o'zgardi. Mazkur maqolada mamlakatimizda ijtimoiy stratifikatsiyaning mohiyati va uni o'rganishning ahamiyatini tahlil qilish orqali yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy tarbiyasiga bo'lgan ta'sirni ijtimoiy gumanitar fanlar oldida turgan vazifalardan biri ekanligini tahlil qilib beradi.

Kalit so'zlar: Demokratiya, insonparvarlik, ijtimoiy hamkorlik, ijtimoiy stratifikatsiya, millatlararo hamjihatlik, qatlam, sinf, shaxs.

Hozirgi ijtimoiy–iqtisodiy davr xususiyatlari, bozor munosabatlariga o‘tish jarayonida, dunyodagi barcha millat va elatlarning asosiy maqsadi – tinch-totuv yashab, farovon hayot kechirishdir. Millatlararo hamjihatlik, ijtimoiy hamkorlik tamoyillari esa mana shu orzularni ro‘yobga chiqarish uchun xizmat qiladi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy hamkorlik va millatlararo hamjihatlik g‘oyalari mohiyati, mazmuni va shakli tubdan o‘zgardi.Chunki bu sharoit millatlar, elatlar, ijtimoiy guruh va davlatlar munosabatlarida tadbirkorlik, ishlab chiqarish munosabatlari, xalqaro huquq, demokratiya va insonparvarlik qoidalariga rioya qilishni birinchi o‘ringa qo‘yadi.

Har bir millatning taraqqiy etishi jamiyatimiz uchun nihoyatda katta yutuq bag‘ishlaydi, iqtisodiy aloqalarni kengaytiradi, chuqur va samimiy o‘zaro hurmat paydo qiladi, xalqlar do‘stligini mustahkamlaydi. Millatlarning bir-biriga yaqinlashuvi orqasida har bir millat gullab yashnaydi, har bir millat gullab yashnashi orqasida xalqlar bir-biriga yaqinlashadi – globallashuv sharoitida ijtimoiy hamkorlik taraqqiyoti dialektikasi ana shunday tartibda rivojlanadi. Insoniyat tabiiy muvozanat buzilishi holatidan faqatgina har qanday siyosiy, mintaqaviy, irqiy, milliy, diniy va boshqa manfaatlarini keyinga surib, mushtarak umuminsoniy manfaatlar tevaragida jipslashish, zudlik bilan ta’sirli choralar qo‘llash orqaligina qutulishi mumkin.

Ijtimoiy stratifikatsiya ham mana shunday tushunchalardan biri bo‘lib, jamiyatda insonlarning malum bir tabaqa va sinflarga bo‘linish jarayonlari va uning kelgusidagi ijtimoiy oqibatlarini o‘rganish masalasi ijtimoiy fanlar, jumladan, falsafa, sotsiologiya fanlari oldida ko‘ndalang vazifa bo‘lib turibdi. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari tog‘risida”gi 5975-son farmoni, “Ijtimoiy sheriklik tog‘risida”gi qonunlarining qabul qilinishi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlari va ijtimoiy hamkorlik masalalarini ilmiy asosda o‘rganish zaruratini ko‘rsatmoqda.[1] Shuningdek, G‘arb falsafasidagi ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasini tahlil qilish, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida ushbu ijtimoiy–iqtisodiy voqelikni chuqur idrok etish hamda istiqbolni rejalashtirishning ilg‘or yo‘nalishlarining nazariy-kontseptual asoslarini yaratishga asos bo‘ladi..

Ijtimoiy tengsizlikni tushuntirish uchun G‘arb falsafasida ijtimoiy stratifikatsiya atamasi ishlatiladi. Ijtimoiy stratifikatsiya ijtimoiy qatlamni tartibga solishni va muayyan bir mezon (hokimiyat, boylik, kasbiy, sulolaviy va h.) ga ko‘ra tabaqalash, tasniflashni anglatadi.[2]

Jamiyat tarkibida sinflar, ijtimoiy guruhlarning bo‘lishi, turli xil tabaqalar tuzish, millat va toifalarga ajratish hamda shu orqali boshqarish tajribasi insoniyat tarixidan ma’lum. Qadim Turonda aholi urug‘-qabilaviy kelib chiqishi, kasbiy mansubligi, diniy e’tiqodiy qarashlari, sulolaviy kelib chiqishiga qarab tasnif etilgan. Bu esa har bir ijtimoiy guruhning ijtimoiy-siyosiy o‘rni va rolini obyektiv belgilashga, ulardan samarali foydalanishga va siyosiy boshqarishga imkon bergan.

Jamiyatning rivojlanishi bilan birga uni o‘rganish tamoyillari ham o‘zgarib boradi. Stratifikatsiya kishilar orasidagi ma’lum ijtimoiy tafovut iyerarxik ko‘ri-nishda bo‘lishini bildiradi. Ma’lumki, odamlar bir-biridan ko‘p jihatlari bilan farq qiladilar, lekin bu tafovutlarning hammasi ham jamiyat a’zolari o‘rtasida tengsizlikni keltirib chiqarmaydi. Tengsizlik eng umumiy ko‘rinishda moddiy va ma’naviy resurslardan bir xilda foydalana ololmaslikni ko‘rsatadi.[3]

Ijtimoiy stratifikatsiya masalasini tahlil qilishni ayrim olingan bir shaxsni boshqa kishilar davrasidagi o‘rnini o‘rganmasdan boshlash kerak. Har qanday odam jamiyatda ko‘plab mavqelarga ega bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida talabani olib ko‘ramiz: talaba, yosh yigit, o‘g‘il, sportchi. Bu mavqelarning har biri odamning o‘zi uchun qandaydir bir ahamiyatga ega.Atrofdagilar ham ularni aniq individga nisbatan turlicha baholashlari mumkin. Yaxshi sportchini ijtimoiy jihatdan atrofdagilar xuddi shu mavqeyiga ko‘ra baholaydilar. Uning talaba va kimningdir o‘g‘li ekanligi va boshqalar, atrofdagilar uchun ahamiyatli emas.

Stratifikatsiya nazariyasida doimo tenglik – tengsizlik muammosi mu-hokama etiladi. Tenglik tushunchasini quyidagicha tasnif etish mumkin:

- shaxslar tengligi;
- imkoniyatlar tengligi;

- yashash uchun sharoitlar tengligi;
- natijalar tengligi.

Shunga muvofiq ravishda tengsizlikni:

a)shaxslar tengsizligi;

b) imkoniyatlar tengsizligi;

v) yashash sharoitlari tengsizligi;

g) natijalar tengsizligi ko‘rinishida tasniflaymiz.

Amaliyotda sotsiologlar daromadlar va farovonlikning taqsimlanishiga, ta’limning davomiyligi va sifatidagi tafovutga, hokimiyat strukturasida siyosiy hayotda ishtirok etishga, mulk egasi bo‘lishiga katta e’tibor beradilar.[4]

Stratalarni va ijtimoiy hamkorlikni o‘rganishi xalqimiz tarkibidagi rang-baranglikni aniqlash imkonini beradi. Xalqimiz o‘z stratalarini himoya qilib kelgan. Bu himoya nafaqat qavmlar, shakllangan kasb va ijtimoiy guruhlar mavqeyini muhofaza etish tarzida, balki axloqiy yondashuvlar tizimini, turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odat va an’analarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham namoyon bo‘lib kelgan. Masalan, o‘zbek xalqi butun yaxlitligicha erkaklar va ayollar stratasiga bo‘linadi. O‘zbek ayollari o‘zbek erkaklaridan bir makon va bir zamonda istiqomat qilishlaridan qat’iy nazar, turmush tarzi, faoliyat yo‘nalishlari, estetik qarashlari va urf-odatlarga ko‘ra ma’lum darajada ajralib turadilarlar.

Jamiyatdagi ijtimoiy stratalar mohiyatini o‘rganish, pirovard natijada “turli qarash va fikrga ega bo‘lgan ijtimoiy qatlamlar, siyosiy kuch va harakatlarning o‘ziga xos orzu-intilishlarini uyg‘unlashtiruvchi g‘oya — Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, barcha yurtdoshlarimiz uchun muqaddas maqsadga aylanishiga” nazariy jihatdan ko‘mak beradi.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish,davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish,mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlarni amalga oshirish maqsadida so‘nggi yillarda Respublikada ayollarni, yoshlarni ish bilan bandligini ta’minlash, ularning ishlashi ta’lim olishi uchun munosib sharoitlarini yaratib berish masalasiga, e’tibor kun sayin oshib bormoqda.

Bugungi kunda sotsial mobillik, ya’ni alohida shaxs yoki guruhlarning jamiyat ijtimoiy tarkibidagi o‘rnini, mavqeini o‘zgartirishga qaratilgan harakatlar ham tezlashib va murakkablashib bormoqda. Sotsial mobillik o‘z navbatida ijtimoiy rivojlanish qonunlarining amal qilish bilan bog‘lanib ayrim shaxs va guruhlar ijtimoiy mavqeining quyi va yuqori tomonga qarab o‘zgarib borishini tezlashtirmoqda. O‘zbekistondagi demokratlashtirish islohotlari sotsial mobillik uchun imkoniyatni oshirmoqda. Demokratiyaga asoslangan mamlakatimizda jamiyatning tabaqalashtirilgan to‘siqlari olib tashlanib, ijtimoiy erkinlik uchun keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Bizning fikrimizcha, stratifikatsion jarayonlar va ijtimoiy hamkorlikning ijtimoiy taraqqiyotdagi o‘rni, uning mohiyatini belgilovchi omillarni aniqlash, taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishda yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muammolarning optimal yechimini topishga oid ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston mustaqillikni qo‘lga kiritgan datlabki kunlardan boshlab, milliy g‘oya va mafkura, mustaqillik g‘oyalarini aholining keng qatlamlari ongiga singdirish, ta’lim, madaniyat, san’at, ma’naviy-ma’rifiy ishlar targ‘iboti masalalariga alohida e’tibor qaratish, yuksak ma’naviyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashni davlat siyosati yo‘nalishlarining biri sifatida ahamiyat berib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, jamiyat sotsial strukturasini tahlil qilish va bu orqali yoshlarning iqtisodiy-ijtimoiy tarbiyasiga bo‘lgan ta’sirni o‘rganish ijtimoiy gumanitar fanlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hayotining barcha epizodlarida inson boshqa odamlar bilan bog‘liq. Biror kishi boshqa shaxslar bilan hamkorlikda, qo‘shma tadbirlarda ishtirok etishi kerak. Boshqa odamlar bilan bir qator o‘zaro munosabatlardan so‘ng muayyan munosabatlarga kirishadi. Bu munosabatlar esa shaxs jamiyatning bir qismi ekanligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Lex.uz qonun hujjatlari elektron bazasi.
2. Falsafa izohli lug‘at. Toshkent 2008 yil 40 b.
3. Sotsiologiya darslik. M.Qirg‘izboyev Toshkent 2017 yil 160 b.
4. Jamiyat falsafasi. J. Tulenov Toshkent 2001 yil 24 b.

ГЛОБАЛЛАШУВ ЖАРАЁНИДА ИҚТИДОРЛИ ЁШЛАРНИНГ ИЖТИМОИЙЛАШУВИ МУАММОЛАРИ: АХБОРОТЛАР ТАЪСИРИ ВА ҲИМОЯЛАНИШ МЕХАНИЗМЛАРИ

Кенжаев Шавкатжон Хусанович
ГулДУ доценти

Тарихда шундй жумлаларга кўзингиз тушади. “Мен уйимнинг дарвоза ва эшикларини маҳкам беркитиб ўтира олмайман. Чунки унга тоза ҳаво кириб туриши керак. Ва шу баробарида эшик ва деразаларимдан кираётган ҳаво довул бўлиб, хонадонимни ағдар-тўнтар қилиб, ўзимни йиқитиб ташлашини ҳам хоҳламайман”. Махатма Ганди Инсонларда ақлнинг жадал ўсиши, иқтидорнинг таркиб топиб бориши умр давомида тизимли ривожланиб борувчи психик жараён бўлиб, инсонга бир ва бир неча фаолият соҳаларида юқори натижаларга эришиш имконини беради. Иқтидорлиликнинг ушбу ифодаси у ҳақдаги аввалги тасаввурлардан чекиниб, иқтидорлиликни ижобий сифатлар тизимида қабул қилишни тақазо этади. Бу ўринда интеграция жараёни, яни бир бутун яхлитлик бошқа янги хусусиятлар билан ажралиб туриши назарда тутилмоқда. Иқтидорли ўқувчилар билан ишлаш тажрибамизга таяниб айта оламизки, ёркин иқтидорлилик ёки талант субъектнинг “ички” интеграция жараёни тезкорлиги, унинг қизиқишлар кўлами кенглигига бевосита боғлиқ. Бу эса ўз навбатида боланинг ахборот олиш эҳтиёжини янада оширади.

Ушбу ахборотларни бола интеллектуал мулк сифатида тасниф эта олиши, ўз қизиқиш доираси асосида салбий ахборот хуружидан ижобийларини ажрата олиши керак. Бизга маълумки, иқтидорли ўқувчиларнинг ўз имкониятларидан келиб чиққан ҳолда қизиқишлар доираси жуда кенг. Боланинг қизиқиши ва мақсадли эркинлигини чегаралаш, унга эътиборсизлик кўрсатиш иқтидорнинг сўнишига олиб келади. Аксинча, боланинг шахсий фаолияти кўламини кенгайтиришга имкон бериш ундаги иқтидорни янада фаоллаштиради, янги-янги нишоналар куртак бера бошлайди. Айни вақтда, уларга бериладиган ахборот тизими имкониятларини миллий манфаатларни ҳимоялаш ва ривожлантириш, шунингдек, глобал ахборот маконида давлатнинг манфаатларини амалга ошириш ва ўз билим савиясини ривожлантириш учун қулай шароит яратиш йўлида фойдаланишга ўргатиш жуда муҳим ҳисобланади. Шу билан бирга уларни турли ахборот таҳдидларидан ҳимоялаш ҳам муҳим аҳамият касб этади.

Ахборот таҳдиди шундай бир универсал характерга эгаки, унинг барча бошқа соҳаларга жиддий салбий таъсир қилиш имконияти бор: шахс дунёқарашига, жамият барқарорлигига, давлат тинчлигига, жамоатчилик фикрини чалғитишга ва охир оқибатда ҳар бир мамлакатнинг маънавий, сиёсий, иқтисодий, маданий юксалишига ҳам. Ахборот таҳдидларга қарши курашнинг самарали йўлларидан бири – мамлакат ўзини - ўзи ахборот билан таъминлаши зарур. Албатта, бундай ахборот тўлиқ, сифатли ва ҳаққоний бўлиши шарт, акс ҳолда ёшлар янада хорижий манбаларга мурожаат этадилар ва бунга ҳеч ким тўскинлик қилолмайди. Мана шундай тўлиқ ахборотларни ва ёшлар учун муҳим манбааларни давлатимизнинг иқтидорли ёшлари яратадилар. Шу ўринда айтиб ўтишимиз керакки, давлатимиз томонидан ҳам бу борада эътиборга молик ишлар амалга оширилмоқда.

Тарихимизга назар ташлайдиган бўлсак, энг билимга бой, илмий нуқтаи назардан асосланган ахборотлар манбаини буюк иқтидор эгалари, қомусий олимларимиз бизгача

етказиб беришган. Шу нуқтаи назардан тарихимиз илм-фан, дин, санъат соҳасида юртимизда етишиб чиққан алломалар бутун дунёга донг таратганидан гувоҳлик беради. Абу Наср Форобий жаҳон фалсафаси ривожига сезиларли ҳисса қўшган бўлса, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино, Замахшарий, Хоразмий, Мирзо Улуғбек сингари алломаларимиз жаҳон фанини янги поғоналарга кўтаришди. Исмоил Бухороий, Ат Термизий, Мотуридий, Абдуҳолиқ Ғиждувоний, Баҳовуддин Нақшбандий, Нажмиддин Кубро, Аҳмад Яссавийлар эса ҳадис, калом, фикҳ илмлари ва тасаввуфда порлоқ юлдузлар ҳисобланишади. Амир Темур ва Мирзо Бобурнинг ҳарбий санъати нақадар юксаклигини бутун жаҳон эътироф этган. Бундан кўринадики, буюк аждодларимиз ҳам ўз замонасида жуда катта иқтидор соҳиблари бўлишган.

Ахборот турли ижтимоий қатламлар, профессионал ва миллий гуруҳлар вакилларига ҳар хил таъсир қилиш баробарида уни суистеъмол қилиш амалиёти турли гуруҳларда бир-биридан кескин фарқ қилиши мумкин. Бу энг аввало, ахборот манбаи минимал (телевидение, радио), айримларда эса кенг (интернет, янги телекоммуникациялар тизими) бўлиши мумкин. Шу нуқтаи назардан мутахассислар фикрига кўра, бугунги кунда жамиятда айнан ахборотни олиш, унга йўл топиш соҳасида кескин бўлиниш, табақалашув содир бўлмоқда. Бу борада иқтидорли ёшлар ўзининг ҳаракатчанлиги ва янгиликка интилувчанлиги ҳамда ўз вақт ресурсига эгалиги туфайли юқори даражада коммуникатив фаоллик кўрсатишади. Бошқа гуруҳларда эса, нисбатан пассивлик кузатилади.

Коммуникатив фаолликнинг юқори даражаси иқтидорли ёшларда маълумот ва ахборотларга бўлган эҳтиёжни икки карра оширади. Уларга хос бундай хусусиятлар салбий оқибатларни ҳам келтириб чиқариши мумкин. Шунинг учун, ёшлар олдида ахборот танлаш имконияти шу қадар юқорики, унинг талабини қондира олмайдиган маълумотлар бир зумда қимматини йўқотиши аниқ. Шу нуқтаи назардан қараганда, ҳозирги даврда ахборот истеъмоли аввалгилардан тубдан фарқ қилади. Шубҳасиз, зарур ахборотларга эга бўлиш давр талаби. Бироқ, бугунги кунда, шахс, ижтимоий гуруҳ, миллат, жамият ва давлатнинг ўзи ҳақида ахборотларни тарқатиши ҳам муҳим аҳамият касб этади. Инсон учун ахборот – энг таъсирчан воситадир, чунки унинг онги бор.

Мантиқий исбот, қолаверса, ахборот етказишнинг энг оддий усуллари шу қадар катта кучга эгаки, унга ҳеч ким ҳеч нарсани қарши қўя олмайди. Инсоннинг табиати шундай яратилганки, у ахборотни қабул қилмасдан, уни тушунишга ҳаракат қилмасдан яшолмайди. Айниқса иқтидорли ўқувчилар бунга кўпроқ эҳтиёж сезадилар. Шу нуқтаи назардан улар маълумотни кўради, эшитади, ўқийди ва энг муҳими, доимо, узлуксиз равишда, кечаю-кундуз унга етиб борадиган ахборотнинг таъсирида яшайди. Шунинг учун ахборот ёрдамида кимгадир руҳий таъсир қилмоқчи бўлганларга ўша одамнинг психологияси кўмаклашади. Шу нуқтаи назардан уларни зарурларини олиш, сақлаш ва узатиш тизимини тўғри йўлга қўйиш керак. Чунки ахборот хуружи психологик томондан иқтидорли ёшларнинг дунёқараши, фикри, мотивлари, хулқ-атвори стереотиплари, қадриятларини йўналтиришнинг усуллари, воситалари ва шакллари мажмуасидир.

SUVNI HUQUQIY MUHOFAZA QILISH MASALALARI

Jamshid Suvonqulov
Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda suv resursini huquqiy muhofaza qilish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Suv, tabiat, ekologik muammo, yashil makon, mahalla.

O'zbekistonda ekologik xavf-xatarlarga qarshi kurashish davlat ichki va tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, bu borada strategik vazifalar belgilangan. Bunday vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 oktyabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5863-sonli Farmonida o'z aksini topgan. O'z navbatida ekologik qonunchilik izchillik bilan takomillashtirilmoqda.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekistonda ekologik muammolarni hal etish borasidagi chora-tadbirlar yildan yilga yangicha sifat va mazmun kasb etmoqda. Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan bir qator umummiliy loyihalar[1] ("Yashil makon", "Yashil yillik" va h.k.) atrof muhitni nafaqat muhofaza qilish, balki uning tabora zaiflashib borayotgan tabiiyligini kuchaytirishga qaratilgan. Asosiy maqsad insonlarning hayotini "yashil makon"larda kechishini hamda ular yashash joylarining tabiiy jozibador bo'lishligini taminlashdan iborat.
Ilgarilari ekologik muammolar bilan shug'ullanish faqat davlat siyosati, deb qaralgan bo'lsa, mustaqillik yillarida, ayniqsa Yangi O'zbekistonning rivojlanishi sharoitida, ular bilan shug'ullanish uchun fuqarolarga hamda fuqarolik jamiyatining barcha institutlariga bu borada keng imkoniyatlar ochib berilgan.

Ana shunday dolzarb ekologik muammolaridan biri suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining ishtirokiga oid ekologik muammolardir.

Jahon resurslari instituti prognoziga ko'ra, yaqin kelajakda suv tanqisligi muammosi kuchayib, yangi hududlarni qamrab oladi. Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar bo'lib-urbanizasiya va iqtisodiy rivojlanishning tezlashishi, aholi sonining ko''ayishi va iqlim o'zgarishidir. Hisobotda aytilishicha, 2040 yilga borib dunyoning 44 ta davlati suv tanqisligining "juda yuqori" yoki "yuqori" darajasiga duch keladi. Hozirgi 'aytda jami 470 million kishi suv taqchilligi keskinlashgan mintaqalarda, 2,4 milliard kishi esa suv tozalash qurilmalari va drenaj tizimi orzuligicha qolayotgan o'lkalarda yashaydi. Sifatli ichimlik suvi yetishmasligidan jahonda yiliga o'n millionga yaqin kishi kasallanib, nobud bo'lmoqda[2].

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishga oid ekologik muammolarni hal etish, uning xatarli ekologik tahsiriga qarshi kurashish har bir davlatda, shuningdek O'zbekistonda ham davlat tashkilotlariga, nodavlat notijorat tashkilotlarga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga muhim mashuliyatli vazifalarni yuklaydi.

Shu borada nodavlat notijorat tuzilmalarining ichida fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining suvdan foydalanish va muhofaza qilishdagi ishtiroki alohida ahamiyatga ega ekanligini tahkidlash lozim. Mahlumki, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga binoan, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig'ini atrof muhitni muhofaza qilish masalalari bilan shug'ullanadi[3]. Shu o'rinda, mahalla tuzilmalarining suvdan foydalanish va muhofaza qilishdagi faoliyatini o'rganish, uning samarali ekologik faoliyat yuritish mexanizmini shakllantirish, tahlil qilish va shu asoslarda uni rivojlantirish masalalari bo'yicha fikr va xulosalar berish dolzarb muammolardandir.

---

[1]Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг экологик муаммоларга бағишланган видеоселектор йиғилишидаги нутки, 2022 йил 2 февраль // https://president.uz/uz/lists/view/4955
[2]Dunyoda chuchuk suv tanqisligi. https://hordiq.uz/2021/11/15/dunyoda-chuchuk-suv-tanqisligi/
[3] www.lex.uz .

Muammoning dolzarbligi shundaki, **birinchidan,** suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtirokiga oid huquqiy munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy normalar qonun hujjatlarida aniq ifodalanmagan. **Ikkinchidan,** suvdan foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ekologik faoliyati hozirgi kunga qadar huquqshunos olimlar tomonidan yetarlicha tadqiq etilmagan. **Uchinchidan,** suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faol ishtirokining tahminlanishi atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanilish va ekologik xavfsizlikni tahminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, ushbu muammoni maxsus o‘rganish, hal etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan tegishli hududda suvdan foydalanish va muhofaza qilishda ishtirok etish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish bo‘yicha tadbirlarni amalga oshirishda jamoat birlashmalari, jamoalar va fuqarolar ishtirok etishi belgilangan[1].

Demak, bu sohadagi ekologik faoliyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ham ishtirok etadi.

Suvdan foydalanish va muhofaza qilishda fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ishtiroki quyidagilarda namoyon bo‘lishi mumkin:

Birinchidan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z hududidagi yuridik shaxslarning shu sohadagi ekologik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi;

Ushbu faoliyat qonun hujjatlarida quyidagicha mustahkamlangan. “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 16-moddasiga ko‘ra, mahalla fuqarolar yig‘ini qonunlarga rioya etilishi hamda boshqa qonun hujjatlari va o‘z qarorlari, shuningdek shaharcha, qishloq va ovul fuqarolar yig‘inining qarorlari ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi.[2]

Ikkinchidan, yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarining faoliyat sohasiga kiruvchi masalalar, jumladan suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan hisobotini eshitadilar;

Bunday ekologik faoliyat “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 11-moddasida belgilangan bo‘lib, uning talablariga ko‘ra, shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig‘ini va shahardagi mahalla fuqarolar yig‘ini yilning har choragida tuman, shahar va viloyat hokimliklari rahbarlarining fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyati sohasiga kiruvchi masalalar yuzasidan hisobotlarini eshitadi. Fuqarolar yig‘inlarining hisobotlar to‘g‘risidagi bayonnomalari tegishli viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklariga yuboriladi, ular bu bayonnomalarning hisobini yuritadilar, fuqarolarning murojaatlari bajarilishini nazorat qiladilar.[3]

Uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi talablariga ko‘ra, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari atrof muhitni muhofaza qilish va obodonlashtirish masalalari yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadi.[4] Bundan ko‘rinadiki, suvdan oqilona foydalanish va muhofaza qilish masalalari yuzasidan mahalla tuzilmalarining o‘z vakolatlari doirasida tegishli hududda joylashgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar rahbarlarining hisobotlarini eshitadilar hamda ushbu hisobotlar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qiladi.

To‘rtinchidan, Fuqarolar yig‘inining raisi (oqsoqoli) fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida qonunda belgilangan tartibda tegishli organlarga taqdimnomalar kiritadi[5]. Demak, suvdan oqilona foydalanish va

---

[1] Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 йил, 50-51-сон, 512-модда.
[2] www.lex.uz
[3] Ўша жойда.
[4] Ўша жойда.
[5] Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари тўғрисида” ги Қонуннинг

muhofaza qilish jarayonida jismoniy va yuridik shaxslarning noqonuniy xatti - harakatlari ustidan mahalla tuzilmalarining raislari o‘z huquqlarini himoya qilish va yetkazilgan zararlarni qoplash to‘g‘risida tegishli davlat organlariga taqdimnomalar kiritib, mahalliy aholining buzilgan huquq va manfaatlarini himoya qilishlari mumkin. Bunday ekologik faoliyatda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari ishtiroki tahminlanadi.

Beshinchidan, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlari o‘z hududida suvdan foydalanish va muhofaza qilish yuzasidan tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda jamoat ekologik ekspertiza o‘tkazilishini tashkil qilish va uning amalga oshirilishidagi munosabatlarda ishtirok etadi.

Bunday holatda, “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasiga asosan, jamoat ekologik ekspertizasi ekologik asoslanishi taqozo etiladigan har qanday faoliyat sohasida nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning tashabbusi bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamoat ekologik ekspertizasini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish taqiqlanadi[1]. Mazkur qonunga binoan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari davlat ekologik ekspertizasi o‘tkazilganligidan qathi nazar, jamoat ekologik ekspertizasi o‘tkazilishi orqali tegishli xulosalar olishi mumkin.

Bunda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faol ishtirokining tahminlanishi mavjud ekologik muammolarning bartaraf qilinishiga yordam beradigan muhim omillardan biri bo‘lishi mumkin.

GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MUOMALA MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MA’NAVIY-AXLOQIY IMPERATIVLARNING O‘RNI

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti, f.f.fd.(PhD), dotsent.
Aslonova Farangiz Akmal qizi
Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muomala madaniyati psixologik asoslari mavzusi bayon etilgan va muloqotning shaxs hayotidagi roli, vazifasi, oilada farzand tarbiyasi, oilaviy muhitda shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyoji kabi masalalar yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Muomala madaniyati, muloqat, oila, ilaviy munosabatlar, tarbiyaviy muhit, umuminsoniy qadriyatlar, Oilaviy munosabatlar.

Kirish. Bugungi kunga kelib O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning ma’naviy-axloqiy negizlari yaratildi. Bu negizlar - umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik singari tamoyillar asosida rivojlantirildi.

Aytish lozimki, ma’naviyat, avvalo, tildan boshlanadi. Til madaniyat bilan bevosita bog‘langan, til madaniyatini esa muomala madaniyatidan ayricha tasavvur etish mumkin emas. Shu bois insonlararo muomala madaniyatini ma’naviy jarayonga daxldor hodisa desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki har qaysi inson muayyan kuch va qudratga ega bo‘ladi. Muomala ham ma’naviy kuch va ma’naviy qudrat mahsuli. Bundan anglanadiki, insonning tabiatida muomala qilishga moyillik azaldan mavjud bo‘lib, buni ro‘yobga chiqarish insonning o‘ziga bog‘liq bo‘lgan. Biroq ayrim hollarda inson nazarida juda kichik va elemintar bo‘lib ko‘ringan — shirinso‘zlik, xushmuomalalik, oliyjanoblik kabi fazilatlar kishilarning ma’naviy dunyosiga juda katta ijobiy ta’sir ko‘rsatishini his qilmaymiz. Ayni paytda, mahmadonalik, qo‘rslik, chaqimchilik. to‘poslik, yolg‘onchilik kabi illatlar inson borlig‘ini xunuklashtiruvchi qusurlar ekanligini chuqur anglamaymiz. Zero, insondan ma’naviyat chekinganda — tubanlashadi, tafakkurini mog‘or bosganda — yovuzlashadi, shaxsiy manfaatparastligi g‘olib kelganda - xoinlik qiladi.

14-модцаси. // www.lex.uz
[1] Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5 - 6-сон.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Bugungi kunda madaniyat nazariyasi va tarixiga doir ilmiy tadqiqotlarda eng avvalo madaniyatining predmeti, obektining, maqsad va vazifalariga mantiqiylik va tarixiylik asosida yangicha munosabat bilan yondoshilmoqda. Xususan, «Falsafa fani madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etar ekan, o‘z mushohada me'yorida madaniyatning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bog‘liq holda rivojlana borishi hamda ayni ana shu taraqqiyot jarayonida madaniyatning o‘rni va ahamiyatiga xos o‘zaro aloqadorlik mavjudligining dialektik qonunlarini tahlil etadi»[1].

Muomala jarayonini ilmiy tushunishga doir masalalar ko‘proq madaniyat tarixiga doir manbalarda o‘z aksini topgan. Ma'lumki, shaxslararo muomala o‘z-o‘zicha yuzaga kelmagan, insonlar hali mustaqil shaxs sifatida bir-birlaridan farqlanmas edi. Qadimgi davrda inson e'tibori tabiatga qaratilgan bo‘lib. ibtidoiy san'atning bosh qahramoni inson emas, balki hayvonlar hisoblangan.

«Muomala» tushunchasini shakllanish tarixi qadimgi Misr, qadimgi Hindiston va asosan antik davrlarga borib taqaladi. Antik davrlarda shaxslararo aloqalar um umfalsafiy tizim sifatida mutafakkirlaming qarashlari bilan qo‘shilib ketgan edi.

Shaxsning holati va xususiyati shaxslararo munosabatlar jarayonidagi «Men-Sen», «Men-Biz», «Biz-Ular» formulasi asosida yuzaga keladi [2].

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Shaxs — ijtimoiy munosabatlar maxsuli deyilishining eng asosiy sababi — uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o‘zaro ta'sir doirasida bo‘lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Shaxs ijtimoyillashuvi muammosini tahlil etish shuni ko‘rsatadiki bu jarayonning asosiy omillaridan biri muloqotdir. Muloqot asosida shaxs eng muhim ehtiyojlarini amalga oshiribgia qolmay balki, tajriba va ma'lumotlarga ham ega bo‘ladi. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o‘rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni — jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot - odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalar) o‘zaro munosabat va o‘zaro ta'sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo‘lib, unga odam hayoti mobaynida o‘rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko‘p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o‘zida quyidagilar kiradi:

a) individlarning o‘zaro ta'sir jarayoni;
b) individlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko‘rsatish jarayoni;
d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Bugungi kunda tobora murakkablashib borayotgan jarayon insoniyatning komillik sifatlarini saqlab qolishdan iborat. Shu bilan bir qatorda yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifat va madaniyat sari yetaklash ham dolzarb masala bo‘lib turibdi. Bu masalalarning yechimini, eng avvalo, jamiyatning muqaddas makoni hisoblangan – oiladan izlash kerak.

Aynan, oila instituti - axloqiy imperativlarning saqlanib qolishini ta'minlashi lozim.

Imperativ (lot. imperativus — buyu-ruvchi) — talab, buyruq, qonun. Nemis faylasufi Kant «Amaliy aklni tanqid» (1788) asarida Imperativni etika tushunchasiga kiritgan. Unga ko‘ra, shaxsiy

prinsipga qaramaqarshi o‘laroq, Imperativ hammaga majburiy bo‘lgan rasmiy axloq-odob talabidir. Imperativ shartli va qat’iy imperativga bo‘linadi. Shartli (taxminiy) imperativ ma’lum shart - sharoitlardagina amal qiladi, qat’iy imperativ — muqarrarlik (bo‘lishi keraklik)ni ifoda etadi. U yurish - turishda rioya etilishi kerak bo‘lgan shakl va qoidani belgilab beradi.

Demak, afsonaning geografik va etnik ma'lumotlariga ko‘ra, tukyu turkiylari (Iakinf bo‘yicha dulg‘alar uyi, ya'ni xon urug‘i) Oltoy shimolida yashagan so qabilasidan kelib chiqqan va Oltoyda ko‘payib, 4ta shoxga bo‘lingan: birinchisi “ku” nomi bilan Oltoyning shimoliy yonbag‘rida joylashdi (Kubani, Kumani), ikkinchi shoxi “qirg‘iz” nomi bilan Yenisey va Abakan bo‘ylarida joylashgan, uchinchisi Oltoy ichida Chu daryosi bo‘ylarida ko‘chmanchilik qilgan, esa “turk” nomini olib, katta qabilani tashkil etgan. Turk qabilasi VI asr ikkinchi choragida xitoyliklar bilan siyosiy aloqada bo‘lgan, 536 yilda gaoguylarni o‘zlariga bo‘ysundirib, jujanlar hukmronligini tugatgan va 556 yilga kelib butun Mo‘g‘ulistonni va O‘rta Osiyoni, Hindukushdan to Qora dengizgacha bo‘lgan hududlarni egallab olgan [1, c. 280-281].

Tomashek katta o‘g‘ilni Oqqushga aylanganidan mamnun bo‘lmay, uni Kuba-xatunga sajda qilayotgan yakutlar oldiga “uchirib” yuboradi. Ammo Kuba-xatunga (ya'ni Oqqush-malikaga) sajda qilish yakutlarni qadimiy turkiy afsonaga yaqinlashtirmaydi, chunki afsonada oqqushning uchib ketgani haqida hech narsa aytilmagan. Tchou-tche daryosi Chuya daryosi ekanligini anglab yetgan Tomashek «kenja» o‘g‘il No-tou-lou-che ismi turkcha ondurchi so‘zidan kelib chiqqan deb taxmin qiladi. Ammo afsonaga ko‘ra, o‘g‘illar 4ta bo‘lgan va Nadulu-she kenja emas, balki to‘ng‘ich o‘g‘il bo‘lgan [3, c.266-268; 13]. Afsona VI asrda tukyu turklarida saqlanib qolgan turkiy qabilalar haqidagi asotirlardagi ma'lumotlarni ifodalaydi.

Afsonada tarixiy sahnaga tukyulardan ko‘p asrlar oldin kelgan qadimgi va ko‘psonli xunlar, qanglilar, gaoguylar kabi turkiy qabilalar haqida ma'lumot yo‘q. Shuning uchun bu afsona barcha turkiy xalqlarning emas, balki faqat tukyu turklarining kelib chiqishi haqidagi afsona sifatida qaralishi to‘g‘ri bo‘ladi. Tukyu degan xonlar urug‘i yoki hukmron avlod Oltoyning janubiy yonbag‘irlarida yashovchi turkiy urug‘larni birlashtirgan va ularning ittifoqiga va qabilasiga “turk” nomini bergan bo‘lishi mumkin.

Ushbu afsonadan oldinroq, V asrda xitoyliklar gaoguylar haqidagi afsonani yozib olganlar. Unga muvofiq, tukyu turkiylar qabilasi bo‘ridan va xunlar hukmdorlaridan (shan-yuy) birining qizidan kelib chiqqan [3, c.248-249]. Bundan tashqari xitoylar saqlab qolgan yana bir asotirga ko‘ra, tukyu turklari dushmanlar tomonidan qirib tashlangan xunlar urug‘iga mansub bo‘lgan va qo‘l-oyoqlari kesilgan bo‘lsa ham, qirg‘indan omon qolgan, o‘n yoshli bola va uni boqib olgan ona-bo‘ridan kelib chiqqan. Bo‘ri har tomondan o‘tib bo‘lmas tog‘lar bilan o‘ralgan vodiyga (Oltoy) yo‘l oldi va u yerda 10ta o‘g‘il tug‘di, ulardan tukyu turklari kelib chiqqan [3, cc. 256, 267]. Boshqa bir afsonaga ko‘ra, mo‘g‘ullar “osmonda tug‘ilgan qo‘ng‘ir bo‘ri va bo‘z bug‘u”dan kelib chiqqan [6]. Bu afsona va boshqalar insoniyat jamiyatlari evolyutsiyasining o‘sha uzoq bosqichining aks-sadosini ifodalaydi, ibtidoiy qabilalar o‘zlarini o‘zlarining avlodlari deb hisoblagan turli hayvonlarga sig‘inishgan.

Turkiy qabilalarning kelib chiqishi haqidagi o‘rta asrlardagi yozma manbalarda keltirilgan afsonalar adabiy qayta ishlangan bo‘lib, ishonchli material bo‘la olmaydi. Ammo ayrim ma'lumotlar, asosan og‘zaki shajaraviy afsonalar urug‘lar va qabilalar o‘rtasidagi qarindoshlik aloqalari va munosabatlarini birmuncha ishonarli tarzda yoritib beradi. Tukyu turklarida VIII asrdayoq xitoyliklar tomonidan yozilgan afsona saqlanmagan. 732 yilgi Kultegin bitiklarida tarix Tuminxondan boshlanadi. “Yuqorida moviy osmon, pastda qorong‘u yer o‘rnatilgach, ular orasida inson o‘g‘illari paydo bo‘ldi. Inson o‘g‘illari orasida mashhur xon Chum-Pamlardan bo‘lgan buyuk xon - Bumin-hoqon ko‘tarildi. U turkiy xalqlarning urug‘larini va qonun-qoidalarini o‘rnatgan, hamma narsani boshqargan” [12, ss.17, 22].

Bu yerda Bumin xoqonning ko‘rsatgan jasoratlariga urug‘larni tashkil etish qo‘yildi. Tomsen tarjimasida: “Mening ajdodlarim Bumin va Istemi xoqonlar hukmronlik qilib, inson o‘g‘illaridan ustun bo‘lganlar. Ular hukmdorlar sifatida ko‘tarilib, turkiy xalqlarning mustaqil (davlat) boshqaruvi (ilin) va urf-odatlarini (qonunlarini) o‘rnatdilar va mustahkamladilar”. Yozuvlarning shu va boshqa joylarida, shuningdek, xitoyliklarning fikricha, Tumin tomonidan qabul qilingan “il-xon” unvonidagi “il” o‘zini o‘zi boshqaradigan qabila yoki qabilaviy hayot tarzida yashovchi ko‘chmanchilar davlati ma’nosini bildiradi. Bunday qabilalar, masalan, yozuvlarda “illig” deb ataladi, masalan, “illigig ilsiretmis, kaganlygyg kagansiratmis”, ya'ni, mustaqil hukumatga ega bo‘lganlar undan, xoqonlari bo‘lganlar esa ulardan mahrum qilindi [14].

Istemi hoqonga kelsak, “Tan-shu”ning turli joylarida Shidyanmi-xon [3, cc.354, 361] G‘arbiy turkiy xonlarning ajdodi sifatida tilga olinadi, shundan xulosa qilish mumkinki, bu Shidyanmi, Deginning fikricha, “he-tie-mi” [8, p.463], Tou-muen-khan’ning ukasi. Visdelouning yozishicha, Che-tie-mii yoki So-ti-mii [7] Tuminxonning ikkinchi o‘g‘li, turklar hokimiyati asoschisining ukasi va bu Shidyanmi, Setimi yoki Istemiga va uning avlodlariga tukyu turklari mulkining g‘arbiy yarmi meros qolgan, sharqiy qismi esa Tuminxon avlodlarining merosini tashkil qilgan.

Ko‘chmanchi turklarning patriarxal-qabilaviy hayoti sharoitida kuchli, ko‘p sonli urug‘ eng yaxshi yaylovlarni egallash, o‘z a'zolarini tashqi dushmanlardan haqiqiy va samarali himoya qilish,

urug‘ boshliqariga qabila ishlarida kuchli siyosiy ta'sir ko‘rsatish, qabila yoki davlat foydasiga olingan o‘lja va o‘lponning ko‘proq qismini ta’minlash uchun ko‘proq imkoniyatga ega edi. Har bir urug‘da, bir tomondan, urug‘lar birligini saqlashni talab qiladigan sharoitlar bo‘lsa, boshqa tomondan, bo‘linish uchun ozmi-ko‘pmi kuchli istaklar mavjud edi. Bu qarama-qarshi oqimlarning kurashi odatda urug‘ boshliqlari va taniqli shaxslari o‘rtasidagi raqobat tufayli murakkablashdi va kuchaydi. Ulardan ba'zilari o‘zlari boshida turgan urug‘ning butun kuchini saqlab qolishni istab, urug‘ning yaxlitligini himoya qilishdi, boshqalari esa, urug‘ning qulagan qismlarida ustunlikka ishonib, parchalanishga intilishdi. Ko‘pincha parchalanish istagi g‘alaba qozondi, ammo juda kichik va kuchsiz klan birliklarining aniqlangan kamchiliklari ba'zan turli urug‘lar va hatto qabilalarning qismlaridan tashkil topgan yirik urug‘lar ittifoqlarining shakllanishiga olib keldi.

Mo‘g‘ulistonda bir-birini almashtirgan turkiy ko‘chmanchilar davlatlarining tarixi shuni ko‘rsatadiki, ular mard, aqlli va baxtiyor ajdodlar boshchiligidagi qabilalardan birining kuchayishi natijasida vujudga kelgan va ular qabiladagi urug‘larni bo‘ysundirishga muvaffaq bo‘lgan va ularni o‘z ta'siriga olib, qolgan qabilalarni zabt etgan [5, c.72]. Ular urug‘ va qabilalarning boshiga o‘z qarindoshlarini yoki izdoshlarini qo‘yish orqali o‘z hokimiyatini mustahkamlashga erishdilar. Turkiy davlatlarning qulashi odatda hukmron xon uyidagi ichki nizolar davrida, lekin har doim urug‘ va qabilalarning mustaqillikka intilishlarining ustun ta’siri ostida sodir bo‘lgan. Hukmron qabila qulagandan so‘ng, qabila birlashmalarining ozmi-ko‘p uzoq davom etgan yakkalanish davri boshlandi, ya’ni qabilalardan biri kuchayib, qolganlarini o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirib, yangi davlatga asos solardi. Mo‘g‘ulistonda hunlar, tukyu turklar, uyg‘urlar davlatlari shunday vujudga kelgan va qulagan.

Shunday qilib, urug‘lar turkiy ko‘chmanchilarning kundalik hayotida nafaqat har tomonlama ahamiyatga ega bo‘lgan, balki ularning siyosiy tarixida ham juda muhim rol o‘ynagan. Tabiiyki, urug‘larning bunday ahamiyati bilan, ko‘chmanchining butun hayoti va taqdiri urug‘ga mansubligi bilan belgilansa, urug‘ nomlari favqulodda kuchga ega bo‘lishi kerak edi. Klanlar to‘liq yoki qisman turli xil ittifoqlarga kirishlari mumkin edi, lekin o‘z nomlarini qat'iy saqlab qolishlari kerak edi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bir vaqtlar V.V. Radlov turkiy shevalarni o‘rganar ekan, Sayan va Oltoy turkiy xalqlari, qora qirg‘izlar va Sibir, O‘rta Osiyo va Sharqiy Rossiyaning boshqa turkiy xalqlari orasida urug‘la va qabilalar haqida qimmatli ma’lumotlarni to‘plagan (Aus Sibirien, Leyptsig 1834, ikki jild); ammo bu ulkan va keng qamrovli etnografik va arxeologik tadqiqotlar yetarlicha batafsil o‘rganilmagan. Shunday qilib, turkiy xalqlarning etnik tarkibini ularning hozirgi qabila va urug‘ tarkibi va tarixiy ma’lumotlari yordamida yoritish kelajak uchun vazifa bo‘lib qolmoqda.

Adabiyotlar:

1.Аристов Н.А. Заметки об этническом составе тюркских племён и народностей и сведения об их численности // Живая старина. 1896. Год шестой, вып. III-IV. - С. 277-456.

2.Бетлингк О.Н. О языке якутов // Учёные записки Академии наук по 1 и 3 отделениям. Т. I, вып. 4, 1853. – С. 415, 433, 434.

3.Бичурин И. Собрание сведений о народах, обитавших в средней Азии в древние времена. - СПб., 1851, часть I.

4.Миддендорф А. Очерки ферганской долины. - Спб., 1882.- С.406.

5.Радлов В.В. К вопросу об уйгурах // Записки и. Академии наук, 1893 г., том 72, книжка I.

6.«Юань-чао-ми-ши» // Труды российской духовной миссии в Пекине, т. 4, Спб., 1866. - С. 23.

7.Bibliothèque orientale d’Herbelot, La Haye, 1779, t. IV, p. 109.

8.Deguignes M. Histoire générale des Huns, des Turcs, des Mogols et des autres Tartares occidentaux, Tome 1,Partie 2 - Paris, 1756-1758.

9.Documents historiques sur les Tou-kioue (Turcs), extraits du Pien-i-tien et traduits du chinois // Journal asiatique, t. III, 1861. p.p. 327-328.

10. Klaproth, Heinrich Julius. Mémoires relatifs à l’Asie, Paris, 1826, t. 2. - Pp. 382- 383.

11. Radloff W. Aus Sibirien. - Leipzig, 1884, B. I, ss. 211, 212.
12. Radloff W. Die alttükischen Inschriften der Mongolei, St. Petesbourg, 1894, ss. 17, 22.
13. Sitzungberichte der kaiserlichen Akademie der Wissenschaften, Philosophisch-historische Classe, CXVII Band, Wien, 1889, s.s. 64 und 65.
14. Thomsen V. Inscriptions de l'Orkhon déchiffrées, Helsingfors, 1896, p. 97, p. 102
15. Vambery A. Das Türkenvolk in seinen ethnologischen und ethnographischen Beziehungen. — Leipzig: Brockhaus, 1885. –S. 466.
16. Vambery A. The Turco-Tatars // The Journal of the Manchester Geographical Society, 1892, vol.8.

ДОЛЖНОСТНАЯ СТРУКТУРА ГОСУДАРСТВА БАБУРИДОВ

Б.А.Гафуров
Гулистанский государственный университет, Кафедра "Социальных наук", старший преподаватель

Аннотация. В статье приводятся сведения о должностных лицах, рангах, а также о их роли в государстве Бабуридов в Индии. Подчеркивается, что система должностных лиц была создана во время правления Акбара.

Ключевые слова: должность**,** должностные лица, система должностных лиц, зот, сувор, ранг, чиновник.

Одной из крупнейших стран мира в средние века была Индия с населением в 100 миллионов человек. Индия была феодальной страной, имевшей древнюю культуру, сельские общины, каждый крестьянин в которых владел земельным участком, а пастбища были общие; крестьяне совместно выполняли работы, нужные для поддержания орошения, и несли государственные повинности. В начале XVI века Индия была разделена на владения многочисленных мусульманских и индусских династий, и многие из них владели обширными землями, как Делийский султанат, Биджапур, Виджаянагар и другие [4, с.363].

Основатель империи Бабур уделял большое внимание системе взимания податей, то есть налогов. Как известно, на рубеже XV-XVI вв., особенно в первой четверти XVI века, в Северной Индии полностью дестабилизировалась государственная налоговая система, в результате чего ухудшилось положение народных масс. Отсутствие земельно-налогового законодательства и некоторые другие социально-экономические факторы натолкнули Бабура на идею написать сочинение, где были бы изложены основные нормы мусульманского закона. Так появился его труд «Мубайин» (1521 г.), написанный в стихах на тюркском языке. Третья глава этой книги, озаглавленная «Китаб ат-закат», полностью посвящена налоговым системам Средней Азии, Афганистана и Индии [1, с. 55]. Ж.З.Собиров в с воей статье [Собиров] приводит учрежденные Бабуром должности шубадор, девонбеги, фавждор, садр, амин, битикчи, хазиначи, вокеанавис и задачи этих должностных лиц. Шубадор или нозим считался хокимом области, ему подчинялись девон, бахиш, фавждор, кутвол, кози, садр, амин, битикчи, хазиначи, вокеанавис, конунгуй, натвори. Девонбеги был следующим по рангу должностным лицом и контролировал деятельность казны. Ему подчинялись фавждоры и амины, которые обеспечивали приход налогов и других поступлений в казну. Фавждор командовал войсками в порученной ему области, помогал шубадорам в обеспечении законности и наказании повинных, аминам - в сборе налогов, кази и мухтасибам - в обеспечении законопослушания и порядка [6]. Садр контролировал поступление доходов из освобожденных от податей и сюргалов земель, религиозных пожертвований, был ответственным за духовную работу. Амин отвечал за освоение и повышение плодородности земель, землеустройство и осуществлял контроль за работой каркуна, мукаддама и патвориса. Битикчи следил за деятельностью аминов по сбору налогов в кишлаках и так далее. То есть в государстве Бабура и Бабуридов все должностные лица имели свои

обязанности (как это было и в других государствах того времени).

Государство Мирзы Бабура было абсолютной, самодержавной монархией, основывалось на унитарном, авторитарном методе управления, что было вполне естественным, необходимым и законным методом управления для средневековых военно-феодальных государств. Социальный состав, социальные классы и ранги в огромном, многосоставном, полиэтническом и поликонфессиональном государстве Бабура и Бабуридов формировались путем объединения тюркских, монгольских классов и сословий с афганской пуштунской знатью, индийскими раджами, гуранами, пандитами и т.д. В государстве Бабура были возможности для мира и процветания, занятия наукой и творчеством, мирно работать [3, с.176].

Согласно разных источников в 1571 или в 1574 году Акбар-шах объявил систему чиновничества (мансабдар), и его указ оставался в силе до упадка династии Бабуров. Согласно этой системе, введенной Акбаром, должности в армии и государственные должности делились на разные названия и звания. Число чиновников колебалось от двадцати «зотли» до сорока тысяч «зотли», причем чем насколько больше «зотли» был чиновник, тем большее количество конницы (кавалерии) он должен был содержать, вооружать их оружием и отправлять в бой. Но была и такая сторона карьерного вопроса, что они не всегда содержали конницу, соответствующую уровню их «зот». Поэтому они старались максимально сократить численность кавалерии, тратя выдаваемое государством жалованье, а точнее, большую часть земельного налога (ренты), взимаемого с джагирских земель, отдаваемых в обмен на жалованье, на свои личные интересы. Постепенно, когда это положение стало официальным, когда чиновники были назначены на звание (мартаба), им указывали, сколько суворов они должны держать. Однако на практике использовался и такой опыт, что чиновник, хорошо выполнявший свои обязанности, награждался повышением «зот», т.е. ему давали лишнее - изофа, а конница оставалась прежней, или уменьшали количество конницы, с сохранением количества «зот». Например, согласно приказной системе Акбара, военно-феодальный чиновник имел под своим началом от 200 до 500 всадников, амир - от 500 до 2500 всадников, амири аъзам - 3000 и более всадников. Зот, у которого было более 5000 лошадей, передавался в основном особям, принадлежащим к семейству падишаха [5, б. 466-467].

Таким образом, можно сказать, что система мансабдари относится к системе оценок, которая использовалась правителями-бабуридами для определения ранга и заработной платы мансабдара (чиновника). Чины эти относятся к знати, занимавшей различные важные должности в администрации Империи Бабуридов. Их назначения и увольнения были в руках правителя. Военная администрация также была организована через **систему мансабдари. Мансаб - в переводе с арабского означает «ранг»** и офицеров со званиями называли **«мансабдар».** В период Империи Великих Моголов существовало 33 категории мансабов в диапазоне от 10 до 10 000 рангов. Более 5000 мансабдаров были зарезервированы для принцев и членов королевской семьи. Эта должность не передавалась по наследству, и мансабдарам платили наличными или предоставляли большие участки земли, называемые **джагирами**.

Их можно было повышать в звании, понижать в должности или переводить. От каждого мансабдара требовалось поддерживать дисциплину и обеспечивать обучение своих солдат. Они должны были содержать свои семьи, платить солдатам и содержать животных из доходов, полученных от джагиров. Мансабдары должны были содержать определенное количество лошадей в зависимости от их ранга, перевозить фиксированное количество слонов, верблюдов, мулов и повозок. Также соблюдалась система составления списков солдат и клеймения лошадей. Акбар попытался объединить три основные административные ветви власти - аристократию, армию и бюрократию в рамках этой системы. Во времена Акбара количество мансабдаров составляло примерно 1800 человек. Во времена Аврангзеба насчитывалось около 14 500 мансабдаров.

Мирбакши в основном давал предложения по набору мансабдаров: 1) всем расам и

религиям было разрешено претендовать на государственную работу; 2) любой желающий поступить на королевскую службу должен был подать прошение через дворянина, который представлял Таджвиза правителю; 3) мансабдары придерживались определенной иерархии:
- Амир-аль-Умаро **(Амир амиров)** - их ранг был выше 5000.
- **Амир-аль-Кабир (Великий амир) – их р**анг был выше 1000.
- **Амир** - они относятся к тому административному чиновнику, чей ранг был 1000 или ниже.
Двойное представление мансаба выглядит следующим образом: 1) зот - **в нем** указывался ранг в администрации, а также зарплата мансабдара; 2) сувор - он представлял звание кавалерии, а также количество лошадей и кавалеристов, которых содержит. Положение, которое занимает мансабдар, зависит от зот и на основе как зот, так и сувор. Мансабдары первого класса - это те, у кого равное количество сувор и зот. Мансабдары второго класса - это те, у кого количество сувор равно половине количества зот. Мансабдары третьего класса - это те, у кого количество сувор меньше количества зот.

Зарплата мансабдаров была бы соизмерима с их званиями. Мансабдары, получавшие плату землей, известны как джагирдары, которые имели право собирать доход с участка земли. Мансабдары, принимавшие оплату наличными, были известны как накди. Должность мансабдара не передавалась по наследству.

Новая система мансабдари, представленная Акбаром, оказалась очень успешной для его подданных, поскольку в ней работало много нуждающихся людей. Эта система была устойчивой системой, которую Акбар использовал для реорганизации армии. С помощью мансабдари он попытался установить связь между властью вождя и феодализмом. Некоторым мансабам в период Великих Моголов разрешалось набирать солдат из своего племени и вероисповедания, но от них требовалась беспрекословная верность центральному правительству. Тем не менее, у системы мансабдари были и недостатки. Большинство мансабов в период Империи Великих Моголов были иммигрантами, и не испытывали особой привязанности к Индии, и Акбар не смог организовать национальную армию с их помощью. Более того, поскольку бойцы отбирались мансабдарами и получали жалованье и продвижения по службе, они оставались верны им, а не императорам Великих Моголов. Центральное правительство не проводило систематической подготовки солдат перед началом войн, их пригодность всегда вызывала сомнения, а их вооружение и стандарты вызывали возражения. Провал Калинджарской экспедиции продемонстрировал военную слабость Бабуридов. Меры для укрепления вооруженных сил были предприняты во время правления Акбара. Ни один правитель после него не прилагал сколько-нибудь значительных усилий для развития и организации армии.

Таким образом, в Империи Великих Моголов система мансабдари использовалась для ранжирования гражданских и военных чиновников. Система мансабдари, созданная под руководством Акбара, укрепляла свой фундамент на протяжении всего короткого правления Акбара. Увеличение числа мансабдаров во времена Аврангзеба привело как к аграрному кризису, так и к кризису джагирдари; что привело к краху системы мансабдари. Во время правления Акбара доходы, собираемые мансабдарами со своих джагиров, шли на выплату назначенного им жалованья. Эти джагиры также были тщательно оценены, чтобы этот джагир был равен зарплате мансабдари. В более поздние времена джагиров стало не хватать, и их размер также стал уменьшаться. В период Аурангзеба доходов, которые собирали мансабдары, было недостаточно для выплаты назначенной им заработной платы, и со временем это привело к полному разрушению системы.

В заключение следует сказать, что система мансабдари функционировала как система оценок офицеров в соответствии с их зарплатой и званием. Она включала все аспекты управления всей империей, включая гражданские, военные и финансовые вопросы.

Список использованной литературы:

1.Алиев А. А. Завещание Тимура и Мухаммед Бабур. // Вестник КРСУ, 2015. Том. 15. № 6. С. 53-56.

2.Гафуров Б.А., Холназарова Д.М. Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании //Наука и образование сегодня. 2016. №4 (5). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/otrazhenie-sotsialnoy-i-religioznoy-politiki-babura-v-ego-zaveschanii

3.Гафуров Б.А. Вопросы социальной политики и защиты населения в Индийском государстве Мирзо Бабура. // Тамаддун нури. 2024. №8. - С.172-176.

4.Низомиддинов Н.Ғ. Буюк Бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). – Т.: Фан ва технология, 2012. – 516 б. https://library.tsdi.uz/storage/books/March2022/icmXDtg1pmSNwkaCWpmX.pdf

5.Собиров Ж.З. Бобурийлар давлатида сарой мансаблари // Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 5 | 2022| P.726-728.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI ILMIY MEROSIDAN TA'LIM-TARBIYADA FOYDALANISHNING ZARURIYATI

Jumaboyev Nabi Pardaboyevich
Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Annotattsiya: maqolada Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berishi, ularning yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashdagi o'rni xususida fikr-mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: madaniy-axloqiy meros, mutafakkir, ajdodlar, ta'lim-tarbiya, tarbiyaviy meros, ma'naviy ozuqa, umuminsoniy fazilat, komil inson, qadriyatlar.

Bugungi kunda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini ta'minlashda ajdodlarimiz o'gitlari, pand-nasihatlaridan foydalanish alohida pedagogik qiymatga ega. Shu bilan bir qatorda, so'nggi yillarda xalqning madaniy-axloqiy merosini o'rganish, mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimida qo'llash didaktik ahamiyatga ega bo'lmoqda [1:38]. Darhaqiqat, shunday ekan, yoshlar ajdodlarimizning ta'lim-tarbiyaga oid qadriyatlaridan bahra olishlari kerak. Qadimda Sharq mutafakkirlari tomonidan ilgari surilgan qarashlar hamda g'oyalar bugungi kunda ham muhim ta'lim-tarbiyaviy manba sifatida yoshlar ongi va qalbiga ma'naviy ozuqa berib kelmoqda. Chunki biz o'tmish tariximizni chuqur bilsak hozirgi davrimizning qadr-qimmatini samarali tushunamiz va kelajakka to'g'ri yo'nalish olamiz. O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.Karimov: Tarixni bilmagan, tarixdan saboq olmagan inson nafaqat olis va yaqin ajdodlarni qanday yashagani, o'zi mansub bo'lgan millat qanday shakllanganini, balki kelajagini ham tasavvur qilolmaydi. Shu zaminda etishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimizning merosi bilan tanish bo'lmasak, kelajagi buyuk davlat qurishimiz mumkinmi?... "Bizning kelajagimiz, ertangi kunimiz tarix bilan, kechagi hayot bilan uzviy bog'liq" [2:3], – deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, shu zaminda yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlarimizning merosi kelajagi buyuk davlat qurishimizda, haqiqatni doimo yodda tutishda va bugungi hayotimizda dasturil amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Farzand tarbiyasi, kelajagi va manfaatlari haqida so'z borganda "Bundan uch yarim ming yil ilgari yashab o'tgan fir'avnlardan birining qabrtoshi ustiga "Yoshlarimiz o'jar va qaysar, keksalarning aytganini nazar-pisandga olmaydi, ajdodlar qadriyatlarini inkor etadi degan so'zlarning bitib qo'yilgani yoshlar tarbiyasi bashariyat taraqqiyotining barcha davrlarida hozirgidek asosiy muammolardan biri bo'lib kelganini tasdiqlaydi [3:6]. Barkamol inson, uning tarbiyasi haqidagi yuksak g'oyalar bayon qilingan zardo'shtiylarning muqaddas kitobi "Avesto"ning tub ma'no-mohiyatini belgilab beradigan "Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" degan tamoyilni oladigan bo'lsak, unda hozirgi zamon uchun ham behad ibratli saboqlar borligini ko'rish mumkin.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida kishidagi ijobiy fazilatlar uni doimo kamolot sari yetaklashi, inson doimo o'z tarbiyasiga e'tiborli bo'lib yurishi zarurligi uqtiriladi. Shuningdek, unda uyat-andisha va or-nomus, vatanparvarlik, xushmuomalalik, shirinso'z, kattalarga hurmat, kichiklara izzat, o'z-o'zini hurmat qilish, ochiq yuzlilik hamda aqlli va dono, bilimli, xush xulq kabi jami 17 ta fazilatlar yoritilgan. Jumladan, uning:

Birisi shoshilmoq, biri-ko'zi och,
Biri jaholatdir, yaqinlashma, qoch.
To'rtinchi – yovuzlik, buzuq fe'llilik,
Oxirgisi – yolg'on, qo'pol tillilik.
Bulardan tubani yomon fe'l erur,
Yomon fe'l kishiga alamlar berur.
Ochiq yuz, shirin so'z, mayinlik kerak,

Fe'l-atvorda moslik, tayinlik kerak [3:9], degan misralari orqali xalqni g'iybat va yolg'on, tubanlik va qo'pollikdan uzoq bo'lib, shirinsuhan va chiroyli muomalada bo'lishlikka undaydi. Zero, bunday milliy fazilatlarga yondashgan insonning oilasi mustahkam, o'zi esa baxtli bo'ladi.

Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" [4:14] deb yozgan edi. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu bilan ma'naviy, axloqiy, estetik jihatdan yetuk, millatparvar, vatanparvar yosh avlodni voyaga yetkazish maqsadida ta'lim va tarbiyani kuchaytirishga jiddiy e'tibor qaratish kerakligini nazarda tutgan [5:303]. Zero go'zal xulq-atvor, insonparvarlik, sabr-qanoat, ilmu hunar o'rtasidagi ishtiyoq, mehnatsevarlik, donishmandlik, ozodlik, do'stlik, rostgo'ylik, mardlik, o'z burchiga sadoqat va Vatanga muhabbat kabi insoniy fazilatlar qadimdan xalqimiz orasida juda ulug'langan. Farzand tarbiyasi orqali aynan shu fazilatlar shakllanishiga alohida e'tibor berib kelishgan [6:108]. Shuning uchun ham ajdodlarimiz orasidan juda ko'p jasur sarkardalar, olimu fozil, donishmandu mutafakkirlar yetishib chiqqan.

Mustaqillik yillarida xalqimizning ma'naviy merosini o'rganishga alohida e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan Sharq madaniyatining tarixi, o'zbek ma'rifatining taraqqiyoti va XX asrdan bugungi kunga qadar ta'lim-tarbiya masalalari yo'nalishida bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. Sharq va G'arb xalqlari pedagogikasi, VII-VIII asrlarda Movarounnahrda madaniyat va pedagogik qarashlar, Sharq Uyg'onish davridagi ta'lim-tarbiya va madaniyat kabi masalalar ilmiy-tarixiy jihatdan chuqur o'rganildi. Bu sohada "O'zbek pedagogikasi antologiyasi", O.Hasanboyeva, J.Xasanboyev, H.Homidovlarning "Pedagogika tarixi" darsligi kabi asarlar yaratildi [2:5]. Shuningdek, pedagogika sohasida bir qancha doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. S.Nishonovaning "Pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi tarixi" deb nomlangan ilmiy tadqiqotida inson tarbiyasiga oid fikrlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni yoritilgan. Muallif islom ta'limotida inson mohiyati va komil insonni ma'naviy shakllantirish yo'llarini aniqlagan. Tadqiqotda Sharq Uyg'onish davridagi qomusiy olimlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari tahlil etilgan va komil insonni tarbiyalash g'oyalari aniqlangan. Taniqli pedagog olimlarimiz O'.Aleulov, S.Xasanov, Z.Axrorova va boshqalar pedagogika tarixiga doir doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. Jumladan, A.Axmetovaning "Yusuf Xos Xojibning pedagogik qarashlari", U.Seytjanovaning "Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu-lug'atit turk" asarida ma'naviy-axloqiy tarbiya", K.Qilichevaning "Bahouddin Naqshbandning ta'limiy-axloqiy qarashlari", M.Xajiyevaning "Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari" kabi nomzodlik dissertatsiyalarida o'tmish allomalarining ilm-ma'rifat, komil insonni tarbiyalash haqidagi g'oyalari ilmiy pedagogik jihatdan tadqiq etilgan. Asqar Zunnunovning oliy o'quv yurtlari uchun yozgan "Pedagogika tarixi" darsligida VIII asrdan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrdagi pedagogik fikrning rivoji izchil yoritilgan. Tarixiy, falsafiy, pedagogik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Sharq mutafakkirlarining axloqiy-huquqiy tarbiyaga doir qarashlari tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to‘xtalib: “Bolalarimizni birovlarning qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko‘proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko‘mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an’analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz”. Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o‘g‘il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug‘ ajdodimiz nima deb yozganlar: “Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi yoki zaif bo‘lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e’tibordan qolib, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi ularning o‘z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog‘liq” [7] deya ta’kidlab o‘tdi. Buning uchun albatta uzoq va boy tarixga ega ajdodlarimizning tarbiyaviy merosidan foydalanamiz. Bundan tashqari, avlodlarda insonparvarlik, kamtarlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, iymon-e’tiqod, mehr-oqibat, odoblilik kabi umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishning o‘ziga xos tajribasini to‘plagan. Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlari bu tajribaning shakllanishiga ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Boy pedagogik merosimizdan mustaqillik yillarigacha to‘liq foydalanilmadi. Endilikda ma’naviy tarbiya sohasida olib borilayotgan ishlarda bu durdonalardan to‘laroq foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Bu imkoniyatlar maktablar, maktabdan tashqari ta’lim muassasalari, mahallalarda o‘tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni o‘ziga xos ma’naviyat darslariga aylantirish uchun yaxshi sharoitlar yaratib berdi [8:7]. O‘tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma’naviyat, axloq va odob saboqlarini berganliklarini, Vatan va xalq istiqboli, farovon turmush va halol mehnat, fan taraqqiyoti va inson mehnati, atrof-muhit va tabiatga oqilona munosabat haqidagi o‘zlarining qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo‘lamiz. Mutafakkirlarimizning yuqorida ta’kidlangan masalalar haqidagi qarashlari bugungi kunda ham o‘quvchi yoshlar va talabalar uchun ma’naviy tarbiya manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlarining ijodiy faoliyatidagi ta’lim-tarbiyaga oid yondashuvlar, g‘oyalar, qarashlarni yosh avlodning ongiga singdirishda tarbiya usullari va vositalarini bilish, hayotda ulardan to‘g‘ri foydalanish – oliy pedagogik ta’lim jarayonida professor-o‘qituvchilarning pedagogik mahoratidagi muhim xususiyatlardan biri hisoblanadi [9:144]. Zero, ota-bobolarimizdan qolgan boy ma’naviy merosning yosh avlodni har tomonlama yuksalishi tizimidagi o‘rni va roli o‘ziga xos xususiyatga va ko‘rinishlarga ega. Ular o‘z asarlarida shaxs ma’naviyati, insonda odob-axloqning yuksak namunalarini tarkib toptirish, oila, nikoh, farzand tarbiyasi, halolu-pok mehnati bilan kun kechirish, atrof-muhit va tabiatga nisbatan oqilona munosabatda bo‘lishga oid qarashlarni bayon qilib kelganlar. Ma’naviy yuksak, zamonaviy ilm va fanni egallagan, ajdodlarimizning boy ma’naviy merosga sohib chiqqan avlodni hech qanday tashqi kuch, g‘oya yoki mafkura aslo o‘z ta’siriga tushira olmaydi. Bunday avlodni voyaga yetkazgan xalqning istiqboli porloq, kelajagi buyukdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Z.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o‘rganishning didaktik metodlari. T.: “Zamonaviy ta’lim” jurnali 5-son, 2007 y.
2. M.Shaxodjayev. Burhoniddin Marg‘inoniyning axloqiy-huquqiy qarashlari. Avtoreferat. T.:2006 y.
3. M.Farmonova. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy me’rosida farzand tarbiyasi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. T.: “Tasvir nashriyot uyi”, 2020 y.
4. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y.
5. Жумабоев, Наби. "THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 4.2 (2024).

6. K.Nosirov. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda ajdodlarimizning madaniy meroslarini ta'lim-tarbiya jarayonlarida qo'llash. Xalq ta'limi jurnali 5-son. -T.: 2017 y.
7. Sh.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. T.: 2016 y.
8. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.:2004 y.
9. J.Hasanboyev, X.To'raqulov, I.Alqarov. Pedagogika nazariyasi (Didaktika). Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: "Fan va texnologiyalar", 2011 y.

ЖАҲОНДА ТИНЧЛИК ВА ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШДА ХАЛҚАРО ТАШКИЛОТЛАРНИНГ ЎРНИ

Жоллыбекова Индира Бахытовна
Қорақалпоқ Давлат Университети "Миллий ғоя, маънавият асослари ва ҳуқуқ таълими" кафедраси ассистенти

Халқаро майдонда давлатларнинг ҳамкорликда аниқ бир муаммони ҳал этишда улар иштирокида тузилган халқаро ташкилотларнинг ўрни ва роли тобора ортиб бормоқда. Халқаро ташкилотлар – муайян мақсадларни амалга ошириш учун халқаро шартнома асосида тузилган, тегишли органларга эга бўлган, аъзо давлатларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятларига эга бўлган ҳамда халқаро ҳуқуққа биноан таъсис этилган давлатларнинг уюшмасидир. Халқаро ташкилотларни туркумлаш ташкилотларнинг ҳуқуқий табиати; ташкилот фаолиятининг кўлами; ташкилот фаолиятининг мавзуи; ташкилот аъзолари бўлган давлатларнинг ижтимоий-иқтисодий фаолияти сингари белгилар бўйича ўтказилади.

Халқаро ташкилотлар халқаро тизимнинг таркибий қисмидир. Табиийки, халқаро тизимнинг ривожланиши ҳал қилувчи таъсир кўрсатаётган ижтимоий тараққиёт қонунлари умумий тарзда уларнинг ижтимоий-ҳуқуқий табиатини ҳам белгилаб беради. Халқаро ташкилотлар давлатлар томонидан аниқ мақсадлар ва вазифаларни бажариш учун тузилиб, муайян ҳуқуқ доирасига эга бўлади, бу ҳуқуқ доиралари низомда қайд этилади. Халқаро ташкилотларнинг мақсад ва вазифалари тушунчаларини аниқлаб олиш зарурдир. Халқаро ташкилотларнинг мақсадлари хилма-хил. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти (БМТ) халқаро тинчлик ва хавфсизликни сақлаш учун тузилган. ИКАО халқаро авиация муаммоларини ўрганиш, фуқаро авиацияси учун халқаро нормалар ва қоидаларни ишлаб чиқиш ҳамда халқаро ҳаво йўлларида учишнинг хавфсизлигини таъминлаш мақсадларида таъсис этилган. Мазкур ҳаракатларнинг йиғиндиси Халқаро ташкилотларнинг вазифасини ташкил этади. Булар ахборот, норматив, назорат ва амалий вазифалардир. Халқаро ташкилотларнинг бюджети аъзо бўлган давлатлар бадаллари ҳисобига тўлдирилиб берилади. Ҳар бир ташкилот бадаллари бюджетга ажратиш тартибини ўзи белгилайди[1].

Биринчи халқаро бирлашмаларнинг яратилиши ва пайдо бўлиши эр.авв. VI асрнинг бошларига тўғри келади. Бундай бирлашмалар ўзида шаҳар ва уюшмаларнинг ҳарбий-сиёсий иттифоқни ўзида ифода этган (мисол учун, Лакедемон ва Делосс Симмахиялари).

Лакедемон симмахияси эр.авв. VI юз йиллигида Пелопоннеснинг уюшма ва шаҳарларининг иттифоқи сифатида яратилган. Иттифоқнинг бошида Спарта турган. Олий иттифоқ органи умумиттифоқ йиғини (силлогос) бўлган. Ушбу йиғин йилда бир марта Спарта томонидан ўтказилган. Иттифоққа аъзо бўлган барча шаҳарлар ўзининг қанчалик катта ёки аҳамиятлигидан қатъий назар бир овозга эга бўлганлар. Масаланинг ҳал этилиши кўпчилик овози билан амалга оширилган.

[1] Ўзбекистон юридик энциклопедияси. -Т.: Адолат, 2010. -505 бет.

Биринчи халқаро иқтисодий ва божхона бирлашмаларининг пайдо бўлиши халқаро ташкилотларнинг барпо этилишига муҳим тарихий босқич сифатида ўз таъсирини кўрсатди. Жумладан, XIII ва XVII асрлар мобайнидаги Ганзей савдо иттифоқи Болтик денгизида, қисман Шимолий денгиз ва Шимолий Европанинг катта қисмида савдо монополиясини ўрнатган савдогарлар бирлашмаси блоки бўлган.

XIX асрнинг бошларида эса Герман божхона иттифоқи тузилган бўлиб, ўзаро божхона тўсиқларни бартараф этиш мақсадида тузилган аксарият немис давлатлари иттифоқини ўзида акс эттирган. Иттифоқ чегараларида ундирилган солиқлар асосида умумий ғазна ташкил этилган бўлиб, унинг даромади иттифоқ иштирокчилари ўртасида аҳолига тенг пропорционал тақсимланган. Бироқ, ушбу бирлашмалар халқаро ташкилот бўлмаган[1].

Глобаллашув, интеграциялашув, ўз навбатида, бундай ташкилотларнинг мавқеини янада мустаҳкамлади. Глобаллашув, аввало, иқтисодий, технология, коммуникация, фан ва транспорт соҳасидаги трансчегаравий ўзаро алоқаларни (ҳамкорликни) янада кучайишига олиб келди. У, гарчи турли даражада бўлсада, ўзаро боғлиқликнинг жамулжам тизимида деярли барча давлатлар, жамиятлар, ташкилотлар, актёрлар, индивидлар гуруҳини ўз ичига олди. Буларнинг барчаси хавф-хатар ва таваккалчиликлар: иқтисодий, халқларнинг кўчиши (миграцион), оммавий қирғин қуролларининг тарқалиши, жиноятчилик, гиёҳванд моддалар савдоси ва бошқаларнинг дунёвий қўшилиб (чатишиб) кетиши билан бирга кечмоқда. Шу тариқа, глобаллашув кўп томонлама дипломатиянинг аҳамиятини ортишига, айни пайтда унинг мураккаблашишига имкон яратмоқда.

Халқаро муносабатларнинг аксарият жиддий муаммолари кўп сонли давлатлар, халқаро ҳукуматлараро ташкилотларни уларни ҳал қилиш учун жалб қилади. Ҳозирги халқаро ташкилотлар иккита асосий турга бўлинади: ҳукуматлараро ва ноҳукумат ташкилотлар. Унисининг ҳам, бунисининг ҳам ўрни муҳим, уларнинг барчаси давлатларнинг турли соҳалардаги мулоқотига ёрдам беради.

Халқаро ташкилотнинг юридик табиати учун асосий нарса шундаки, унинг мақсадлари, фаолияти тамойиллари, ваколатлари, тузилиши ва бошқалар келишилган шартномага асосланган бўлади.

Халқаро ташкилотларга шартномалар тузиш ҳуқуқи берилади, яъни улар ўз ваколатлари чегарасида турли битимлар тузадилар. Шартномалар тузиши ҳуқуқи икки хил йўл билан: ташкилот вазифа ва мақсадаларидан келиб чиққан ҳолда исталган шартномаларни тузиш ҳуқуқини берувчи умумий низомда ёки алоҳида ваколат орқали мустаҳкамланади. Ундан ташқари халқаро ташкилотлар дипломатик алоқаларга эркин ва мустақил киришиш, ўз ваколатхоналарини давлатларда очиш ҳуқуқига ҳам эгадирлар. Масалан 1993 йилда Ўзбекистон Республикаси ҳукумати ва БМТ ўртасида иқтисодий ўсишнинг муҳим муаммоларини ҳал этишга кўмаклашиш, ижтимоий соҳанинг илдамлашига ёрдам бериш, аҳоли турмуш тарзини яхшилаш мақсадларини кўзлаб БМТнинг органлари, фондлари ва дастурларини бирлаштирувчи қўшма ваколатхона тузиш ҳақида битим имзоланган эди.

Халқаро ҳуқуқнинг субъекти сифатида халқаро ташкилотлар ўз фаолиятлари натижасида келиб чиқувчи зарар учун жавобгардирлар ва даъво билан мурожаат қилишлари ҳам мумкин. Давлат ички ҳудудида халқаро ташкилотлар юридик шахс мақомида иш олиб борадилар. Бу борада Халқаро меҳнат ташкилоти (ХМТ) Уставининг 39-моддасида ХМТ юридик шахсга тегишли барча ҳуқуқлардан, жумладан, шартномалар тузиш, кўчмас ва кўчувчи мулкка эгалик қилиш ва судга мурожаат қилиш ҳуқуқларидан фойдаланади, дейилади. Халқаро ташкилот органлари унинг таркибий қисмлари ва бўлинмалари ҳисобланади[2].

БМТнинг фаолиятига асос солувчи ҳужжатлар сифатида БМТ Низоми, Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси (1948й.), Геноцид жиноятчилигида жазолаш ва уни олдини олиш бўйича Конвенция (1948й.), Фуқаро ва сиёсий ҳуқуқлари ҳақидаги халқаро пакт (1966й.), Ядро қуролининг тарқалмаслиги ҳақида Битим (1968й.), Бола ҳуқуқлари тўғрисидаги Конвенция (1989й.), Иқлим ўзгариши ҳақидаги БМТ конвенцияси (1992й.), Киото Баённомаси (1997й.) ва Мингйиллик Декларацияси (2000й.) эътироф этиш мумкин.

Халқаро тизимда БМТнинг ҳозирги роли ҳақида турли фикрлар мавжудлигини қайд этиш лозим:

[1] Вылегжанин А.Н. Международное право. –Москва: Юрайт, 2010. -348 б.
[2] Саидов А. Халқаро ҳуқуқ. -Т.: Адолат, 2001. –Б. 168.

-БМТ қуролли можароларни бартараф этиш ва халқаро келишмовчилик ва жанжалларни тинч йўл билан ҳал қилиш борасидаги ўз вазифаларини аллақачон бажаролмай қолди;

-БМТнинг ҳеч қандай муқобили ҳозирча мавжуд эмас, бошқача айтганда, минтақавий ташкилотлар алоҳида минтақалар манфаатларини ифода қиладилар, улар кўпинча тўғридан – тўғри бир – бирига зид бўлади, шу сабабли бутун жаҳон ташкилотисиз можароларни ҳал қилишнинг умумий меъёрлари ва йўлларини ишлаб чиқишнинг имкони йўқ.

Низомда белгиланган мажбуриятларни ўз зиммасига оладиган, Ташкилот фикрга кўра, уларни бажаришга қодир барча тинчликсевар давлатлар БМТнинг аъзоси бўлишлари мумкин. Ушбу мажбуриятлар, тинчлик пайтида бўлгани каби можаро шароитида ҳам, халқаро майдонда давлатлар ҳамкорлигининг ҳар қандай кўринишига алоқадор бўлган муайян вазиятларда давлатнинг атвори (ўзини тутиши) қоидаларига дахлдордир. БМТнинг келажаги ушбу ташкилот тизимининг янада самарали ишлашини таъминлаш, янги халқаро сиёсий маданиятни белгилаш учун қандай чоралар кўрилишига боғлиқ[1].

Ўзбекистон Республикаси Бирлашган Миллатлар Ташкилотига 1992 йил 2 март куни аъзо бўлди. БМТ билан асосий устувор ҳамкорлик масалалари хавфсизлик ва замонавий таҳдидларга қарши курашиш, оммавий қирғин қуролларининг тарқалмаслиги, Афғонистонда тинликни тиклаш ва унинг барқарорлигини таъминлаш, экологик муаммоларни ҳал этиш, жумладан, Орол денгизи муаммосини оқибатларини енгиллаштириш, ижтимоий-иқтисодий ривожланиш, инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилишдан иборат. Ўзбекистон Республикаси БМТнинг терроризмга қарши курашиш бўйича 13та конвенцияси иштирокчиси ҳисобланади ва бу йўналишда жаҳон ҳамжамиятини бирлаштириш йўлида ўзининг ташаббуси билан чиқган.

Ўзбекистон Республикаси халқаро терроризмга қарши курашиш соҳасида ҳуқуқий ҳужжатларни ишлаб чиқиш бўйича тараққиётни маъқуллайди. Бироқ, терроризмга қарши амалий курашиш фақатгина кўптомонлама глобал ҳамкорлик тизимини яратиш йўли билан эришиш мумкинлигини эътироф этади. Бу ўринда Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.Каримов "Бугунги кунда барча учун бир ҳақиқат намоён бўлиши зарур: табиийки, ҳеч бир инсон, ҳеч бир давлат барча одмазод учун хавф туғдирувчи ушбу ёвуз кучнинг илдизини йўқотиш йўлида курашишда четда қолиб кетиши мумкин эмас" - деб таъкидлайди. Шундан келиб чиқиб, БМТ Хавфсизлик Кенгашининг Контртеррористик қўмитасининг ишини маъқуллаб, БМТга аъзо-давлатлар салоҳиятининг мустаҳкамлаш бўйича ҳатти-ҳаракатларини ҳар томонлама қўллаб-қувватлайди.

Шуни таъкидлаб ўтиш зарурки, ушбу қўмитанинг яратилиши, Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти И.Каримовнинг илгари сурган 1999 йил Стамбулдаги ОБСЕ саммитида терроризмга қарши курашиш бўйича Халқаро марказни яратиш зарурлиги ташаббуси асосида амалга оширилган.

JADIDCHILIK G'OYALARI TARG'IBOTINING IQTISODIY MUOMMOLARGA NISBATAN IJTIMOIY- FALSAFIY TAHLILI

Patiyev Xoldor Ikromovich
Termiz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Abdurauf Fitrat, jadidchilik harakatining muhim siymosi, o'z asarlarida Buxoro amirligining iqtisodiy muammolarini to'xtalib, tanqid qilib, ularni isloh qilish shartligi haqida fikr bildiradi. U xalqni ilm-fan va madaniyatga yo'naltirish, iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishni zarur deb biladi. Fitrat "Hind sayyohi bayonati" asarida Buxoro amirligining tabiiy boyliklaridan samarali foydalanmaslik va qishloq xo'jaligining qoloqligini tanqid qiladi. U iqtisodiy taraqqiyot uchun zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va xalqni iqtisodiy manfaatdorlikka undash lozimligini ta'kidlaydi. Buxoro dehqonchiligining muammolarini tahlil qilib, amaldorlarning adolatsizligi, eskicha uskunalar va yetarli dori-darmonlar etishmasligini ko'rsatadi.

[1] Жўраев С., Ахмедов О., Раҳимова М. Ўзбекистон ва жаҳон ҳамжамияти. -Т.: Ғ.Ғулом, 2008. –Б. 40-41.

Fitrat va F.Xo'jaev va boshqa jadidlar qishloq xo'jaligini isloh qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish, davlat dasturlari orqali agrar islohotlarni amalga oshirishga harakat qilganlar. Ularning g'oyalari nafaqat Buxoro, balki butun Turkiston uchun muhim iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni nazarda tutgan.

Shuningdek, jadidlar tog'-kon sanoatini rivojlantirish, savdo va dehqonchilikni yaxshilash bo'yicha ko'plab islohotlar loyihalarini ishlab chiqdilar, lekin o'sha davr sharoitlari bu islohotlarni amalga oshirishga to'sqinlik qildi. Fitrat va uning zamondoshlari tomonidan ilgari surilgan g'oyalar, ularning iqtisodiy masalalardagi chuqur tahlillari hammavaqt foydali hisoblanadi.

Kalit so'z: agrar islohot, irrigatsiya, tog'-kon sanoati, Buxoro jadidchiligi, yer resurslari, hunarmandchilik, iqtisodiy tenglik, ilg'or texnologiyalar, qishloq xo'jaligi, mustaqil iqtisodiyot, xalq farovonligi, yevropa madaniyati

Asosiy qism: Buxoro jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat o'z asarlarida Buxoro amirligining iqtisodiy muammolarini keskin tanqid qilib, ularni isloh qilish zarurligini ko'rsatib bergan. Fitrat Buxoro amirligini mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif qiladi va bu g'oyani amalga oshirish uchun qattiq kurashadi.

Mustaqillikka erishishning birinchi yo'li – xalqni bilimli va ma'rifatli qilish, uning barcha qatlamlari o'rtasida ilm nurini tarqatish, aholiga tarixda hamisha erkin va mustaqil yashashga intilgan buyuk xalq ekanligini singdirish, jahon xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyat, shuningdek, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotdan bahramand bo'lish, odamlarda vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish, mamlakatni xomashyo yetkazib beruvchisi bo'lib qolmaslikka undash va ularda iqtisodiy tafakkur tuyg'usini rivojlantirish deb biladi.

Ikkinchi yo'l – Buxoro xalq xo'jaligini yaratish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini barpo etish, iqtisodiy tenglik va manfaatdorlik tamoyili asosida jahon xo'jaligi bilan hamkorlik va integratsiyaga kirishish ekanligini ta'kidlagan.

Abdurauf Fitrat o'z vatanini ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga, xalqni farovon turmush tarziga olib borishning asosiy yo'li – Yevropa ilm-fani, madaniyati, texnikasi, texnologiyasi, sarmoyasi va ilg'or tajribasini Turkistonga keng ko'lamda va tez fursatda joriy etishdir, deb ta'kidlaydi.

Bu yo'lda ikkilanmaslik, chet el ilm-fan va texnikasini joriy etishdan qo'rqmaslik, sarosimaga tushmaslik, or deb bilmaslik kerakligini aytgan. Chunki, deydi olim, Yevropa xalqlari nihoyatda qoloq va qashshoq bo'lgan bir davrda Sharq ilm-fani, madaniyati, tajribasi va amaliyotidan foydalangan holda yuksak taraqqiyotga erishdilar. Zero, bundan 1000 yil avval Yevropa xalqlari iqtisodiy va ma'naviy jihatdan qoloq bo'lgan davrda Sharq xalqlari insoniyat sivilizatsiyasining ancha yuqori pog'onasida bo'lganlar.

Abdurauf Fitratning bu boradagi xizmatlarini professorlar N.Hakimov, D.Amridinovalar shunday ta'riflaydi: "Jadidchilik harakatining falsafa fani doirasida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'rifiy, axloqiy, ma'naviy va estetik jihatlari Abdurauf Fitratning milliy uyg'onish va iqtisodiy yuksalish konsepsiyasi, ya'ni moddiylashuvining iqtisodiy, ma'rifiy, intellektual asoslarini "Hind sayyohi bayonati" asarida ochib bergan"[1].

Fitrat o'zining yuqorida nomi keltirilgan asarida iqtisodiy g'oyani ishlab chiqib, unda amirlikning tabiiy xom-ashyo manbalarga juda boy ekanligi, ular hozircha yashirinib yotganligi, bu yer osti boyliklarini o'zlashtirish, milliy hunarmandchilikni jahonning ilg'or mamlakatlaridan texnologiya keltirib zamonaviy asosda tubdan qayta qurish, xorijiy sarmoya, ilm-fan texnika yutuqlarini milliy iqtisodiyotni yaratishga dadil jalb etishga oid qarashlar ilgari surilgan[2].

Abdurauf Fitrat "Hind sayyohi bayonati" asarida Buxoro amirligida mang'itlar sulolasidan meros qolgan qoloqlik, bid'at, ajnabiy fabrikantlar-u mahalliy boylar, savodsiz muftilar-u bir-birini g'ajishga tushgan mahalliy tojirlar, qora kunini "taqdiri ilohiy" deb bilgan omi kosib-u dehqonlarni qattiq tanqid qiladi, ularni islohotga chorlaydi, millat g'ururi, boyligi, hunarmandchiligi-yu amaliy

[1] Hakimov N.H. , Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Falsafa-Siyosat. 2022/№2.-B.42
[2] Fitrat A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. - B.110-167

san'atini asrashga va yuksaltirishga chaqiradi. Shu qatori, u Buxoro amirligiga qarashli yerlardan unumli foydalanish haqida jon kuydirib, "agar shu Shahrisabz yerlari Yapon elida bo'lganida edi, zar ekib, zar undirar edilar", deb yozadi. Bu o'rinda "Hind sayyohi bayonati" asarida ilgari surilgan masalalar shunchaki Movarounnahr doirasida emas, jahon miqyosida hal etilganligini ko'ramiz. Bu albatta, Fitratning iqtisodiy mazmundagi dunyoqarashi, el uchun kuyinishi, o'z xalqi, iqtisodiy qoloqligi sabablarini chuqur idrok qila olganligidan dalolatdir.

Abdurauf Fitrat ham Buxoro qishloqlarida iqtisodiy-ijtimoiy ahvol g'oyat achinarli ekanligini ta'kidlab, buning boisi qishloq xo'jaligining zamonaviy talab va taraqqiyotidan juda orqada qolish deb bildi.

U yerdan samarali foydalanilmaslikning sababi quyidagicha deb yozadi: "Qarshi xalqlari yerlarning hosil berishi darajasida mehnat qilmaydilar, ya'ni yerlarning imkoniyaticha hosil ololmaydilar»[1]. Yuqoridagi jumlalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki yerdan samarali foydalanilmaslikning sababi yerga hosil berish darajasida mehnat qilinmasligi ya'ni yerlarning imkoniyaticha hosil olinmasligidadir deb ko'rsatadi.

A.Fitrat Turkiston qishloq xo'jaligida ehtiyojlarni qoplash darajasida unum olinmaslik sabablarini o'rganib chiqib, uning uchta asosiy sababi borligini aniqladi:

Birinchi sabab – amaldorlarning dehqonlarga nisbatan adolatsiz munosabatlarda bo'lishlaridir. Bu adolatsizlik raiyatdan soliq yig'ishda namoyon bo'ladi;

Ikkinchi sabab – qishloq xo'jaligida unumdorligi past asbob-uskunalardan (ishlab chiqarish vositalaridan) foydalanib kelinayotganligidir. Olingan daromad texnikadan foydalanish xarajatlarini ham qoplamasligida bu namoyon bo'ladi;

Uchinchi sabab – Yerga quvvat beradigan sanoat dori-darmonlarining yetarli ishlatilmayotganidir[2]. A.Fitratning yuqoridagi fikrlaridan shu narsa ayon bo'ladiki, Turkiston dehqonchiligida ishlab chiqarishning ehtiyojni qoplash darajasida yetishmasligining birinchi sababi buxorolik amaldorlarning maoshlari taxminan dehqonning hosiliga qarab olganligidir. Masalan, dehqonning bitta xirmoni bo'lsa, amaldor bu bug'doy miqdorini o'z xohishiga ko'ra hisoblab, podsho haqi talab qilardi. O'sha paytda (ya'ni, 20-asr boshlarida) amaldorlar davlatdan maosh olmagan va barcha xarajatlarini dehqon hisobidan undirgan. Birinchi sabab amaldorlarning adolatsizligi bo'lsa, ikkinchi va uchinchi sabablarning yuzaga kelishi ham dehqonlarning o'zlariga bog'liq edi.

Dehqonlar qo'llagan asbob-uskunalar va ekin yetishtirish usullari Hazrati Odam Ato dehqonchiligidan farq qilmas edi. Chunonchi, o'sha davrda Yevropa davlatlari o'zlarining yirik shaharlarida qishloq xo'jaligi maktablarini ochib, farzandlarini shu maktablarga qishloq xo'jaligi fanlaridan tahsil olishini ta'minlaganlar. Bizning dehqonlari esa "dehqonchilik maktabi" tushunchasini xayoliga ham keltirmagan. Yevropaliklar yerga quvvat baxsh etadigan hayratlanarli dorular ishlab chiqargan bo'lsalar, Buxoro dehqonlari esa hali ham eskicha uslubda edilar. Yevropa dehqonlari yerni shudgorlash uchun mashinalarga ega bo'lib, bu mashinalar bir kunda bir necha tanob yerni haydash qudratiga ega edilar. Buxoro dehqonlari esa ikkita ho'kizni qo'shib katta mashaqqatlar bilan bir tanob yerni kunlab shudgor qilar edilar.

Fransiya dehqonlari bug'doy yanchish uchun alohida mashina yasab olishgan bo'lsalar, Buxoro dehqonlari esa, bu ishni bajarish uchun bir necha xo'kiz, eshakka muhtoj edilar. Shuning uchun ham Turkistonliklar yerdan unumli foydalanisha olmas edilar.

F.Xo'jaev Buxoroda yerga ishlov berishni zamonaviy texnika asoslariga ko'chirish, bu esa dehqonchilikni intensivlashtirish, qishloq xo'jaligiga yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi, deb ko'rsatdi. Jumladan, bu Buxoro zaminida ham Misr, Amerika kabi mamlakatlardagi qishloq xo'jaligi tizimlari, mashinalar majmuasini qo'llashga olib keladi. U ilg'or texnologiyani qo'llashning tajriba dalalarini va mashina prokat punktlarini tashkil etish, ilg'or tajribani ommalashtirish, maktablar tashkil etib, ularga darslar uyushtirish, qishloq xo'jaligiga oid

[1] Fitrat A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. -B.205.
[2] Davlyatova.G.M. Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni. International journal of theoretical and practical research. Year: 2022 Issue: 4 Volume: 2.-B.19.

adabiyotlarni chop etib tarqatish, qishloq xo'jaligi rivojlangan mamlakatlarga ekskursiya va xizmat safarlariga yuborish yaxshi natijalar keltiradi, deb uqtiradi.

Abdulxamid Cho'lponning Vatan, ona yer haqidagi qarashlari g'oyat ibratli va ta'sirchandir: "...Vatan tuproqi shundog' onadurki, buni xor qilduk, o'zimizning ham xor bo'lmoqimiz ko'z oldidadur... Tuproqdan yaratilduk, demak tuproq tanimizdir, o'z tanimizni o'zimiz sotsak, beaqllik emasmu? Ajabo!!!.." Yer resurslaridan ratsional foydalanishga qaratilgan bunday da'vat, tabiiy resurslarning inson hayoti va iqtisodiy faoliyatidagi ahamiyati, milliy boylik yaratilishidagi asosiy manba, millat, yosh avlodning kelajagini ta'minlaydigan omil ekanligiga ishora qiladi.

Agrar sohada insonlarning bilimlarini va qotib qolgan tafakkur tarzini o'zgartirish lozimligini jadidlar juda yaxshi anglaganlar. Keyinchalik Buxoro Xalq Sovet Respublikasi rahbari bo'lgan, jadidchilarning yoshlar qanoti rahbari bo'lgan F.Xo'jayev o'zining agrar sohadag islohotlarini ham keskin qo'yganligi ahamiyatlidir. F.Xo'jaev Buxoro qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasidagi davlat dasturi ishlab chiqish lozimligiga e'tiborini qaratdi va ishlab chiqdi. Dasturdagi umumiqtisodiy tadbirlar quyidagi ishlarni amalga oshirishdan iborat edi: 1) irrigatsiyaga doir butun programmani to'la ravishda bajarish; 2) yerni ishlashning yangi usullarini, dehqonchilik ish qurollarini, urug'larni selektsiya qilishni joriy qilish yo'li bilan yerni ishlashni intensivlashtirish, agropunktlar, qishloq xo'jalik maktablari tashkil etish hamda aholi orasida nazariy bilimlarni tarqatish; 3) xo'jaligi xonavayron bo'lgan dehqonlarga ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli katta qishloq xo'jalik kreditlari berib turish; 4) paxta ekilayotgan maydonlarni kengaytirish va amerika paxtasi ekishni har tomonlama rag'batlantirish yo'li bilan paxtaning shu navlarini ekishga asta-sekin o'tish; 5) qorako'lchilarni soliqlardan ozod qilish bilan bir qatorda, ularga keng ravishda kreditlar berib turish; 6) aholi qurt urug'i tarqatish va qurt urug'i yetishtirib beradigan stantsiyalar tashkil etish yo'li bilan pillachilikni qayta tiklash choralarini ko'rish.

Yuqoridagi fikrlardan Iqtisod fanlari doktori Davlyatova.G.M shunday xulosaga keladi: "Xo'jaev Buxoro qishloq xo'jaligini rivojlantirish omillaridan bo'lgan irrigatsiya va melioratsiya ishlarini avj oldirish, qorako'lchilarni soliqlardan ozod qilish bilan bir qatorda, ularga keng ravishda kreditlar berib turish orqali qorako'lchilikni rivojlantirish haqida gapirib, uni Yevropa bozorlariga chiqarishni davlat yo'li bilan yengillashtirish, bu qimmatbaho xom-ashyoni kontrabanda yo'li bilan chetga chiqib ketishiga chek qo'yajagini uqtiradi. Shuningdek, u ipak qurti urug'i yetishtirishni yaxshilash yo'li bilan mamlakatda pillachilikni rivojlantirishga oid takliflarni ham ilgari surgan edi"[1]. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash orqali ularni faravon hayotini ta'minlash bo'lgan. Agrar soha masalasida A.Fitrat islohot loyihasini ishlab chiqgan. Bu loyihada yerlarning toifalarga bo'linishi, ularga egalik qilish tartibi, soliqlarning tartibga solinishi va ba'zi soliqlarning bekor bo'lishi nazarda tutilgan. Masalan, «kafsan» (mahalliy qishloq ma'muriyati (amin, oqsoqol va boshqalar) foydasiga dehqonlardan olinadigan soliq), «atayati» (sadaqa), «uskuna puli» (turli daraxtlar uchun to'lanidagan pul), «cho'p puli» (yaylovlardan foydalanganlik uchun olinadigan soliq), «ko'tara boqi» deb nomlangan «xashar» chiqimlari tugatilishi nazarda tutilgan.

Loyihaning yerga egalik va qishloq xo'jalik masalalariga doir qismidagi ikkinchi asosiy maqsad qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirish, ekin maydonlarini kengaytirish va dehqonchilikni intensivlashtirish to'g'risida g'amxo'rlik qilishdan iborat deb belgilangan. Loyihada juda ko'p iqtisodiy masalalar nazarda tutilga bo'lib, o'sha davr shart-sharoiti ularni amalga oshirishga imkon bermagan.

Jadidlar bundan tashqari tog' kon sanoatini ham rivojlamtirishni maqsad qilgan edilar. Turkistonda iqtisodiy taraqqiyotga, farovon va obod yashashga olib keluvchi boshqa yo'llar borligi haqida Abdurauf Fitrat ham o'zining "Hind sayyohi bayonati" asarida yozgan. Ana shulardan biri "ihroj sanoati", ya'ni yer osti boyliklarini qazib olish va "a'mol sanoati", ya'ni uskunalar (fabrika va zavodlar) yaratishdir. Turkiston o'lkasi bag'rida oltin, mis, temir, neft, gaz, toshko'mir va

[1] Davlyatova.G.M. Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni. International journal of theoretical and practical research. Year: 2022 Issue: 4 Volume: 2.-B.19.

boshqa tabiiy boyliklar mavjudligini, ularni ishga solish orqali xalq qashshoqlikdan, iqtisodiy qaramlikdan xalos bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Ishoqxon Ibratning “Tarixi madaniyat” risolasida mamlakatni tog‘-kon sanoatini yo‘lga qo‘yish kerakligi haqida o‘z qarashlarini bildirgan. Chunonchi, bu konlarni ishga tushirish orqali xorij talablariga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarish va bu mahsulotlarni sotish orqali mamlakat iqtisodiyotini ta’minlash hamda mamlakatni jahonga tanitish taklifi bilan chiqadi: “Mana tog‘larimizda bo‘lsa oltindan boshlab kumush, mis, temir, cho‘yan va qo‘rg‘oshimgacha bor, joy-rangvor bo‘ladurg‘on nimanarsalardan konlar ko‘p. Qorazakiy bir tog‘ butun ... achchiq toshlar va dahanfarang nimanarsalarni koni bor. ...Bu konlarni bag‘rimizga bosib yotub, tasarrufini qilolmasak bizga ancha nuqson bo‘lur edi”[1].

Jadidlar mamlakatda savo-tijorat ishlari, dehqonchilik va kon sanoati, umuman olganda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash uchun ko‘plab islohotlar loyihalarini ishlab chiqdi. Jadidlar vaziyatdan kelib chiqib, qishloq xo‘jaligida o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun davlat darajasida siyosiy va amaliy harakatlarni boshladilar. Skobelev, Qo‘qon va Toshkent shaharlarida yig‘ilishlar o‘tkazilib, unda paxta uchun belgilangan narxning maqsadga muvofiqligi masalasi ko‘rib chiqildi. Ishlab chiqaruvchilar, savdogarlar, dehqonlar, jadidchilik vakillari ishtirok etgan bu yig‘ilishlar qizg‘in bahs va tortishuvlarga sabab bo‘lib, ularda musulmonlarning qo‘li baland edi. Paxta narx belgilashda ham hudud sharoitidan kelib chiqish belgilab qo‘yilgan. Lekin bu islohot loyihalarini vaqtida o‘tkazish imkoni bo‘lmadi. Shunday bo‘lsa ham o‘sha davrdagi islohiy loyihalarning qadr-qimmati hech qachon o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi.

Xulosa. Jadidchilar o‘lka iqtisodiy muammolarini tanqid qilib, mustaqil taraqqiyot yo‘llarini taklif etadi. Shuningdek, Turkistonning tabiiy resurslardan samarali foydalanish, milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va xorijiy sarmoya jalb qilish zarurligini ta’kidlaydi. Jadidlar qishloq xo‘jaligi sohasida mavjud muammolarni aniqlab, amaldorlar va eski usullarni tanqid qiladi, dehqonlarni zamonaviy bilimlar va texnikalar bilan ta’minlash zarurligini o‘rgatadi.

Buxoro agrar islohotlari, masalan, F.Xo‘jaev tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar bilan davom etadi, bu dasturlar irrigatsiya, dehqonchilik usullarini takomillashtirish va qishloq xo‘jalik kreditlari berish orqali xalqning farovonligini oshirishni maqsad qiladi. Jadidlar, shuningdek, kon sanoatini rivojlantirish va savdo-sotiqni yaxshilash uchun ko‘plab islohotlar rejalashtirganlar.

Umuman olganda, Jadidlar Buxoroning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti uchun zaruriy islohotlarni amalga oshirishga intiladilar, bu esa ularning xalqni rivojlantirishga bo‘lgan kuchli e’tiboridan dalolatdir.

Foydalanilgan adaboyitlar:

1. Hakimov N.H. , Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Falsafa-Siyosat. 2022/№2.-B.42

2. Fitrat A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024.- B.110-167

3. Davlyatova.G.M. Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni. International journal of theoretical and practical research. Year: 2022 Issue: 4 Volume: 2.-B.19.

4. Ibrat I. Tarixi madaniyat. O‘z RFASHI.Q. inv № 11616, № 10117. -B 128.

5. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma’rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. Finland International Scientific Journal of Education. Social Science & Humanities, 11(3), 167-179.

6. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences, 3(11).

[1] Ibrat I. Tarixi madaniyat. O‘z RFASHI.Q. inv № 11616, № 10117. B 128.

АЖДОДЛАР ИЛМИЙ МЕРОСИ УЧИНЧИ РЕНЕССАНС ПОЙДЕВОРИ

Сувонқулов Ҳусан Тоирович
Гулистон давлат университети ўқитувчиси

Сўнгги йилларда аждодларимиз илмий-маънавий меросини ўрганиш масаласи бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш, юртимизда яшаб ижод этган алломаларимизнинг илмий-маънавий меросини ёш авлодга янада яқиндан таништириш борасида Юртбошимиз Шавкат Мирзиёев томонидан прагматик ишлар бошалб берилди. Айниқса уйғониш даври алломаларининг ахлоқий тарбиявий ғоялари бугунги ёш авлод тарбияси учун катта аҳамиятга эга. Бу каби тадқиқотларни олиб бориш буюк аждодларимизнинг илмий-маънавий меросини тадқиқ этиш олим ва тадқиқотчиларнинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Шу ўринда айтиш керакки, VII—XII асрларда Мовароуннаҳрдан мазкур илмлар бўйича кўплаб алломалар етишиб чиққан. Жумладан, манбаларда Мовароуннаҳрда уч мингдан ортиқ таниқли муҳаддислар фаолият олиб боришганлиги келтирилган. Улардан 2000 дан ортиғи - Самарқанд, Бухоро ва Насафда, қолганлари Шош, Фарғона, Кеш, Термиз ва Хоразмда, шунингдек Уструшона, Дабусия, Кушония ва бошқа минтақаларда фаолият кўрсатишган. XIX асрда яшаб самарали ижод қилган ҳиндистонлик аллома Абдулҳай Лакнавий ўзининг "ал-Фавоид ал-баҳиййа" асарида ўрта асрларда фаолият кўрсатган самарқандлик, фарғоналик, насафлик, бухоролик ва хоразмлик алломалар ҳаёти ва илмий фаолияти хусусида маълумотлар келтирган. XI-XII асрларда яшаб ижод қилган кешлик улуғ аллома Абу Муҳаммад Абд ибн Ҳумайд Кеший ўз асарлари, айниқса, "Муснади Абд", "Тафсири Абд" билан ҳадис, тафсир, фиқҳ илмларига ҳисса қўшди. XI асрда яшаган яна бир кешлик аллома Абу Шакур ас-Солимий ўзининг "ат-Тамҳид фи баён аттавҳид" асарида мотуридия таълимотининг эътиқодий масалаларини баён қилиш билан бир қаторда, ашъария таълимотига ўз муносабатини билдирган. X асрда яшаб ижод қилган бухоролик аллома Абу Али ал-Бухорий етук фиқҳ бўлгани ҳолда, турли мавзуларда ижод қилган. Унинг "Равзатул-уламо ва нузҳатул-фузало" асари диний-ахлоқий манба бўлиб, ҳанифиялик мазҳаби асосида ёзилган. Бу маълумотлар Ватанимиз илм тарихини ўрганишда муҳим манбалар сирасига кириши шубҳасиз. Маълумки, 1370 йили салтанат тепасига келган Амир Темур ўзининг ўттиз беш йиллик ҳукмронлиги даврида давлатнинг асосий таянчи Самарқандни ҳам сиёсий, ҳам маданий жиҳатдан жаҳоннинг энг гўзал ва обод шаҳрига айлантирди, у ерда илм-фанни тараққиё этишига замин яратди. Бу даврнинг ижодкорлик руҳи ва маҳобатли иморатлардаги етакчи ғоя Шаҳрисабзда қурилган Оқсарой пештоқига битилган "Агар бизнинг қудратимизга шубҳалансангиз, биз яратган иморатларга қаранг" хитоби мазмунига тўғри келади. Негаки, ҳар бир иморат бевосита юксак илм, теран билим натижасида бунёд этилганлиги бугунги кунда ҳам жаҳон ҳамжамиятида эътироф этилади.

XIV асрда Самарқандга ўша давр тасаввуфининг кубравия, яссавия ва нақшбандия тариқатини ўрганиш учун дунёнинг барча шаҳарларидан кишилар келар эди. XIV аср иккинчи ярмидаги Самарқанднинг сиёсий ва маданий ҳаёти устод Беҳзоднинг Шарафиддин Али Яздийнинг "Зафарнома" асарига ишлаган миниатюраларида ўзининг бадиий аксини топди. XV аср биринчи ярмини темурийлар давлати маданиятининг энг ёркин даври, дейиш мумкин. Мирзо Улуғбек раҳбарлигида Самарқанд янада обод этилиб, илм-фан, айниқса, махсус расадхона қурилгач, илми нужум-астрономия марказига айланиб, натижада, машҳур "Зижи жадиди Кўрагоний", яъни 1018 юлдузнинг астрономик жадвали тузилди. Расадхона ичлари буржлар тасвири билан безатилди. Мирзо Улубек "Тарихи арбаъи улуси Чингизий" номли тарихий асарни тарғиб қилишда шахсан иштирок этди. Бу даврда Самарқанд илм-фан ва маърифат ўчоғи бўлиб, бу шаҳарда таълим олишни ўша давр зиёлилари ўзлари учун зарур ва шарт, деб билишарди. Шунинг учун бўлса керак, ёш Абдураҳмон Жомий ҳам таълим олиш учун Ҳиротдан Самарқандга келган эди.

Янги Ўзбекистонда миллий маданиятимиз тарихини ўрганишга, унга холисона фикр билдиришга катта имкониятлар яратилди, осори-антика ёдгорликларимизни асраш, миллий қадриятларимизни тиклаш, қадимий бой тарихимизни бир ёқламали ёритиш, чегаралаш, маълум жараён ва илм фан арбобларининг фаолияти ва хизматини инкор этишдек нотўғри ғоялар ва усуллардан тозалашга, ҳур фикрлиликни инкор этишга қарши туради.

"Бой тарихимиз дурдонаси бўлган маданий меросимизни асраб-авайлаб, келажак авлодлар учун безавол етказишимиз зарур". "... биз ислоҳотларимиз кўлами ва самарасини янада оширишда ҳар томонлама етук, замонавий билим ва ҳунарларни пухта эгаллаган, азму шижоатли, ташаббускор ёшларимизга таянамиз".[1]

IX асрнинг иккинчи ярмидан равнақ топа бошлаган, X-XII асрларга келиб эса мислсиз натижалар берган, буюк маданий юксалиш ва тараққиётнинг шарт- шароитлари, асосий сабаблари, манбалари, ҳал қилувчи қатор омиллари бор эдики, уларни ўрганиш, илмий тадқиқ қилиш ва баҳолаш ривожланган ўрта асрларда миллий ва умуминсоний қадриятларга бўлган муносабатни кўрсатиб беришга ёрдам беради. Маданият ва илмий мероснинг жадал суратлар билан тараққий этиб боришини ҳаётий заруриятга айлантирган асосий сабаблардан бири - Марказий Осиё халқларининг эрк, адолат, ҳақиқат, мустақиллик учун араб ва мўғул босқинчиларига қарши олиб борган курашларидир.

Марказий Осиёда чет эл босқинчилари ҳукмронлигининг тугатилиши ва миллий мустақил давлатларнинг барпо этилиши натижасида феодал ишлаб чиқариш муносабатларининг, ички ва ташқи савдо алоқаларининг, ҳунармандчиликнинг ривожланиши, илм-фан ва маданиятнинг, фалсафанинг равнақ топиши миллий қадриятларнинг тикланиши ва такомиллашиб боришига кенг шароит яратилди. Бу даврда мамлакат ичидаги ўзаро урушлар камайди. Бухоро, Урганч, Марв, Шош, Самарқанд ва бошқа йирик шаҳарларда ҳунармандчилик, косибчилик анча тараққиётга эришди. Буларнинг ҳаммаси ўз ўрнида маданият ва фаннинг ривожланишига олиб келди. Жамият тараққиёти ўртага қўйган талаблар ҳамда мавжуд шарт-шароит туфайли IX-XVI асрларда Марказий Осиёда, шунигдек, Яқин ва Ўрта Шарқ мамлакатларида илм-фан ва маданият чинакамига гуркираб яшнади, бу давр "Ренессанс" - Уйғониш даври номини олганлиги ҳам бежиз эмас. Уйғониш даври мутафаккирлари ўзларининг қомусийлиги бир пайтнинг ўзида ҳам файласуф, ҳам мусиқашунос, ҳам математик, ҳам мантиқшунос, социолог, филолог, ҳам тарихчи ва табиатшунос, хуллас, фаннинг барча соҳаларида етуклиги билан ажралиб турадилар. Бу сиймоларнинг яна бир ўзига хос жиҳатлари бир пайтнинг ўзида деярли барча мутафаккирлар бир неча тилларни мукаммал билганликлари, бир неча тилдаги манбалардан фойдалана олганликлари, таржималар қила олганликларидир. Бу эса ўз ўрнида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг уйғунлаштириш жараёнларини жадаллаштиришга олиб келди. Буюк мутафаккирлар томонидан чуқур илмий асосланган илмий ғоя ва таълимотлар фақат улар яшаб ижод этган давр учунгина эмас, балки келажакни олдиндан башорат қилиш, табиий, ижтимоий воқеа ва жараёнларни олдиндан айтиб бера олиш нуқтаи назаридан ҳам бебаҳодир. Донишманд боболаримизнинг илмий-фалсафий таълимотлари қобиққа ўралиб қолган эмас. Улар ҳам миллий, ҳам умуминсоний аҳамиятга эга бўлган таълимотлардир. Яна шу нарса диққатга сазоворки, Шарқ мутафаккирларининг деярли ҳаммаси ўз даврининг қайноқ ҳаёти марказида бўлишган, амалий ишларда фаол иштирок этишган, элим, халқим, юртим дея ёниб яшашди. Бу уларнинг ҳақиқий комил инсон, баркамол шахс, оташин ватанпарвар, халқпарвар ва буюк аллома эканликларидан далолат беради.

Она заминимиздан минглаб олиму шоирлар, буюк мутафаккирлар етишиб чиққан. Уларнинг математика, физика, кимё, астрономия, этнография, тиббиёт, тарих, адабиёт, ахлоқ, фалсафа каби кўплаб соҳаларга оид асарлари, Самарқанд, Бухоро, Хива, Тошкент,

[1] Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йилга бағишланган Олий Мажлисга ва Халққа мурожаатномаси. - Т.: 29.12.2020 й.

Шаҳрисабз, Термиз ва бошқа шаҳарлардаги қадимий обидалар башариятнинг маънавий мулки ҳисобланади.[1]

Энг эзгу мақсадларимиз — мамлакатимизнинг буюк келажаги ҳам, эртанги кунимиз, эркин ва фаровон ҳаётимиз ҳам, Янги Ўзбекистоннинг XXI асрда жаҳон ҳамжамиятидан қандай ўрин эгаллаши ҳам — буларнинг барчаси, аввалambор, янги авлод, униб-ўсиб келаётган фарзандларимиз қандай инсонлар бўлиб вояга етишига боғлиқдир. Бунда эса аждодларимиз ўгити, улар томонидан яратиб берилган илмий-фалсафий мерос “учинчи ренессанс” пойдеворини қуришга, бу йўлда бизларга дастурул-амал бўлишга хизмат қилади десак муболаға эмас.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2021 йилга бағишланган Олий Мажлисга ва Халққа мурожаатномаси. - Т.: 29.12.2020 й.
2. Мамадиёр Зиёдинов, Мақсуд Жонихонов, “Жаҳон тамаддуни тарихида Марказий Осиё Ренессанси”. Халқ сўзи. 31.05.2021 й.
3. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси - Давлат илмий нашриёти”. 2011 й.

MEHNAT QONUNCHILIGIDA XODIMNING HUQUQIY HOLATI YUZASIDAN AYRIM MULOXAZALAR

U.V.Asadullayev
Namangan davlat universiteti yuridik fakulteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: maqolada O‘zbekiston Respublikasida Mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda duch kelinayotgan huquqiy ixtilof, mehnat qonunchiligini takomillashtirish va insonparvarlik tamoyiliga moslashtirish bo‘yicha taklif hamda ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasini o‘rganish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: huquqiy ixtilof, intizomiy jazo, huquqiy holatni yomonlashtirish, kamsitish, ichki lokal xujjatlar, jarima.

Bugun Yangilanayotgan O‘zbekistonda mehnat munosabatlarining huquqiy asoslari qonunchiligimizda aniq belgilab qo‘yilgan. Biroq, asosiy mavzuga o`tishdan avval huquqiy ixtilof haqida ozroq tushuncha hosil qilib olaylik. Zotan, bu maqolamizda bayon qilingan muammoni yetkazib bera olishimizda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor X.T.Odilqoriyevning fikricha huquqiy ixtilof deganda ayni bir yoki o`xshash ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar o`rtasidagi nomutanosiblik yoki qarama-qarshilik tushuniladi[1].

Endi e’tiboringizni O`zbekiston Respublikasining 2022-yil 28-oktabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi Mehnat kodeksidagi normaga qaratmoqchimiz.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 3-moddasida, Yakka tartibdagi mehnatga oid munosabatlarni va ular bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy prinsiplari qatorida, xodimning huquqiy holati yomonlashishiga yo‘l qo‘yilmaslik prinsipi sanab o‘tilgan.

Mehnat shartnomasini tuzishda taraflarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi va uning tarkibini shakllantiruvchi shartlarni quyidagicha bo‘lishimiz mumkin:

• mehnat to‘g‘risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlar (bu larga ham ish beruvchi, ham xodim tomonidan amal qilinishi majburiydir, chunki ular ish beruvchi uchun xodimlar mehnat huquqlari va kafolatlarining eng past darajasini tashkil etib, ular xodimlar ahvolini mehnat

[1] Мамадиёр Зиёдинов, Мақсуд Жонихонов, “Жаҳон тамаддуни тарихида Марказий Осиё Ренессанси”. Халқ сўзи. 31.05.2021 й.

to‘g‘risidagi qonunlarda nazarda tutilganiga qaraganda yomonlashtirsa, haqiqiy emas deb topiladi), jamoa kelishuvlari, jamoa shartnomalari, tashkilotning boshqa lokal hujjatlari bilan belgilangan umumiy majburiy shartlar;

• mehnat shartnomasida taraflar kelishuvi bilan belgilanadigan shartlar.

Ularning birinchisiga quyidagilar kiradi: Barcha xodimlar uchun ish vaqtining eng ko‘p muddati (haftasiga 40 soatdan oshmaydigan) hamda voyaga yetmaganlar, I va II guruh nogironlari, noqulay mehnat sharoitlaridagi ishlarda band bo‘lgan xodimlar uchun qisqartirilgan ish vaqtining muddati; yillik asosiy ta'tilning eng kam muddati (21 kalendar kundan kam bo‘lmagan), ayrim toifadagi xodimlar uchun uzaytirilgan va qo‘shimcha mehnat ta'tillari, ta'tillarni berish tartibi; mehnat haqi qonun hujjatlari bilan belgilangan engkam miqdordan oz bo‘lmasligi hamda ularning to‘lanish muddatlariga amal qilinishi; majburiy kafolatli to‘lovlar va kompensasiya to‘lovlari; intizomiy jazolar hamda ularni berish va qo‘llash tartibi, shaxsni to‘liq moddiy javobgarlikka tortish asoslari turlari va ro‘yxati; ayollar, voyaga yetmaganlar, nogironlarga beriladigan majburiy qo‘shimcha kafolat va imtiyozlar va boshqalar.

E’tiboringizni qo‘yidagi bir normaga qaratmoqchimiz. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qism 2-bandida, Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima. Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkinligi belgilangan.

Qolaversa, Mehnat kodeksining 270-moddasi 1-qismiga muvofiq, Har bir to‘lov chog‘ida ish haqidan ushlab qolingan mablag‘larning umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emasligi belgilangan.

Yuqorida keltirilgan Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qism 2-bandida hamda 270-modda 1-qismida, xodimni huquqiy holatini yomonlashtiruvchi normalar aks etgan va bu holat xodimni kamsitish hisoblanadi.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 23-moddasiga ko`ra, har bir inson hech bir kamsitishsiz teng mehnat uchun teng haq olish huquqiga ega hisoblanadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 42-moddasiga muvofiq, har kim munosib mehnat qilish, kasb va faoliyat turini erkin tanlash, xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun hech qanday kamsitishlarsiz hamda mehnatga haq to‘lashning belgilangan eng kam miqdoridan kam bo‘lmagan tarzda adolatli haq olish, shuningdek ishsizlikdan qonunda belgilangan tartibda himoyalanish huquqiga egaligi belgilangan.

E'tiborbersak, “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da ham, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida ham, xodimlarni mehnati uchun haq olishda hech qanday kamsitishlarga yo‘l qo‘yilmasligi belgilab qo‘yilgan.

Bu savolga O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 4-moddasi 2-qismida javob olamiz. Unga ko‘ra, mehnat va mashg‘ulotlar sohasida kamsitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqei, yashash joyi, dinga bo‘lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg‘ulotlar sohasida biror-bir, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kamsitishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 8-moddasiga muvofiq, Har qanday normativ-huquqiy hujjat xodimning huquqiy holatini yuqoriroq yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatga nisbatan yomonlashtirmasligi kerakligi. Hech bir ichki hujjat, ish beruvchining yakka tartibdagi huquqiy hujjati xodimning huquqiy holatini normativ-huquqiy hujjatlarga nisbatan yomonlashtirishi mumkin emasligi belgilangan.

Ushbu kodeksning 13-moddasida esa, mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlarga xodimning holatini mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka nisbatan yomonlashtiruvchi qoidalarni kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi deb ko‘rsatilgan.

Shuningdek Mehnat kodeksining 17-moddasiga ko‘ra, ushbu Kodeks 13-moddasining ikkinchi qismida, 14-moddasining birinchi, ikkinchi va to‘rtinchi qismlarida, 15-moddasining birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan talablarga rioya etmaslik xodimning holatini yomonlashtiradigan mehnat haqidagi boshqa huquqiy hujjatlar qoidalarining haqiqiy emasligiga sabab bo‘lishi belgilangan.

Mehnat kodeksining 68-moddasi talablariga ko‘ra, Jamoa shartnomasida xodimlarning holatini mazkur xodimlarga tatbiq etiladigan qonunchilikka yoki jamoa kelishuvlariga nisbatan yomonlashtiradigan shartlar bo‘lmasligi kerakligi belgilangan.

Bundan tashqari Mehnat kodeksining 244-moddasi 1-qismiga muvofiq, mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikda mehnatga haq to‘lash sohasida kamsitishni taqiqlash, teng qiymatli mehnat uchun erkaklar va ayollarga teng miqdorda haq to‘lanishini ta'minlash kabi kafolatlar nazarda tutilgan.

Yuqoridagilarga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qism 2-bandida ko‘rsatilgan "Ichki mehnat tartibi qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin" normasi, mehnat kodeksining 8, 13, 17, 68, 244-moddalari talablariga mutlog‘ zid keladi, uning oqibatida esa xodimning huquqiy holatini yomonlashishiga hamda mehnat sohasida kamsitilishiga olib keladi.

Mehnat huquqining rivojlanishining jahon tarixida va xorijiy mamlakatlarning hozirgi amaliyotida ko‘plab miqdorda va xilma-xil intizomiy jazo choralari keltirilgan. Xususan, ish haqining kamaytirilgan yoki saqlangan holda boshqa ishga o‘tkazish, lavozimini pasaytirish yoki lavozimga ko‘tarishni rad etish, mehnat sharoitidagi boshqa o‘zgarishlar.

Ayrim davlatlarda, xodimning familiyasi va u sodir etgan intizomiy qilmish ko‘rsatilgan intizomiy jazo to‘g‘risidagi bildirishnomalarni tashkilotning e'lonlar taxtasiga osib qo‘yish amaliyoti ham ko‘zatiladi (Shveytsariya).

G‘arbning aksariyat mamlakatlarida, rivojlanayotgan mamlakatlarning bir qismida va ba'zi postsovet respublikalarida (Ozarbayjon, Estoniya) intizomiy javobgarlik choralariga jarima ham kiritilgan.

Biroq, ulardan foydalanishga ikkita shart mavjud bo‘lganda ruxsat beriladi:
birinchidan, uning hajmi cheklangan, masalan, Italiyada to‘rt soatlik daromad; ikkinchidan, undirilgan jarima mehnat jamoasi fondiga yoki xayriya maqsadlariga tushadi.

Buyuk Britaniya va Fransiyada esa intizomiy jarimaga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ushbu holat ko‘plab xorijiy davlatlarning mehnat to‘g‘risidagi qonunchiligida ko‘zatiladi.

Misol tariqsida, Rossiya Federasiyasining mehnat kodeksining 192-moddasida, Ukraina Respublikasining mehnat kodeksining 147-moddasida, Qozog‘iston Respublikasining mehnat kodeksining 64-moddasida ham intozomiy jazo chorasi sifatida "jarima" belgilanmagan.

Jarimalarni qo‘llash amaliyoti Rossiya mehnat qonunchiligining rivojlanish tarixida ham mavjud edi. 1886 yil 3 iyunda qabul qilingan qonun zavod va fabrika boshqarmalariga tegishli tartibni saqlash uchun ichki tartib qoidalarini tuzishni aniq belgilab qo‘ydi.

Ishchilar tomonidan ushbu qoidalarni buzganliklari (intizomiy huquqbuzarliklar) uchun muassasa rahbarlariga har bir holat uchun 1 rubl miqdorida jarima solish yoki ularni ishdan bo‘shatish huquqi berildi. Bundan tashqari, shaxsiy mehnat shartnomasi muddati tugagunga qadar ishni ruxsatsiz tark etish taqiqlangan va barcha ishlamagan vaqt uchun ish haqining ikki baravari miqdorida jarima solish bilan jazolangan. Mehnat intizomini buzganlik uchun eng yuqori jarima ish haqining uchdan bir qismidan oshmasligi kerak bo‘lgan. Jarimalar ustidan shikoyat qilish mumkin emas edi, lekin jarima pullari har bir zavodda maxsus fondga tushishi va zavod inspektsiyasi ruxsati bilan faqat ishchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun sarflanishi kerak edi.

Yuqoridagi tahlil va o‘rganishlar natijasiga ko`ra, Mehnat qonunchiligini takomillashtirish va insonparvarlik tamoyiliga moslashtirish maqsadida, biz quyidagilarni taklif qilamiz:

a) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qism 2-bandida intozomiy jazo chorasi sifatida belgilangan jarima jazo turini mehnat qonunchilikdan chiqarib tashlashni;

b) O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 312-moddasi 1-qism 2-bandidan Mehnat intizomini buzganligi uchun ish beruvchi xodimga o‘rtacha oylik ish haqining o‘ttiz foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima jumlalarini qoldirib, davomida keltirilgan "Ichki mehnat tartibi

qoidalarida xodimga o‘rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ko‘p bo‘lmagan miqdorda jarima solinishi hollari nazarda tutilishi mumkin" degan jumlalarni umuman chiqarib tashlash kerak.

Shuningdek Mehnat kodeksining 270-moddasi 1-qismiga o‘zgartirish kiritib "Har bir to‘lov chog‘ida ish haqidan ushlab qolingan mablag‘larning umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining ellik foizidan oshishi mumkin emas" jumlalarini, "Har bir to‘lov chog‘ida ish haqidan ushlab qolingan mablag‘larning umumiy summasi xodimga haqiqatda hisoblangan ish haqining o‘ttiz foizidan oshishi mumkin emas" degan jumlalarga o‘zgartirishni taklif etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Deklaratsiya 1948-yil, 10-dekabrda qabul qilingan. [Elektron resurs]/ https://constitution.uz/oz/pages/humanrights

2. “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi”. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan.

3. X.T.Odilqoriyev “Davlat va huquq nazariyasi” T. Adolat.2021 y. 374-bet.

4. X.Yodgorov, G.Ziganshina, Sh.Axatova: "Mehnat huquqiy munosabatlaridan kelib chiqadigan nizolar" T., 2017 y. 19-bet.

5. Lushnikov A.M., Lushnikova M.V. Kurs trudovogo prava: Uchebnik: V 2 t. T. 2. Kollektivnoe trudovoe pravo. Individualnoe trudovoe pravo. Prosessualnoe trudovoe pravo. M.: Statut, 2009. 758-759 betlar.

O‘ZBEKISTONDA AYOL VA QIZLARGA NISBATAN ZO‘ROVONLIKNI OLDINI OLISHNING IJTIMOIY-QONUNIY ASOSLARI

M. R. Almamatova
Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekistonda ayol va qizlarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olishning ijtimoiy-qonuniy asoslari haqida so‘z boradi. Bugungi kunda yurtimizada ayollar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida qonunlar, qarorlar, farmonlar qabul qilingan. Yurtimizda ayol va qizlar hayotda o‘z o‘rinlarini topishi, o‘qish va ishlashlari uchun barcha shart-sharoitlar yartilgan. Ayol va qizlar huquqlarini himoya qilish borasida ko‘plab amaliy ishlar bajarilmoqda.

Kalit so‘zlar: zo‘ravonlik, huquq, deklaratsiya, kamsitish, qonun, xalqaro konvensiya, xotin-qizlar.

Kirish. Ayol – jamiyat ko‘zgusidir. Ayol – baxtli bo‘lsa, oila baxtli bo‘ladi. Shuning uchun ham yurtimizda hamisha ayollar haq-huquqlarini himoya qilishga e’tibor berilib kelingan. Ayollar huquqlari - bu ayollarning ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik va siyosiy mavqeini mustahkamlovchi huquqlardir. Ular ayollarni jinsi bo‘yicha kamsitishdan himoya qilish uchun mo‘ljallangan. Ayollar huquqlari inson huquqlari sohasidagi ko‘plab xalqaro shartnomalar, rezolyutsiyalar, deklaratsiyalar va harakat dasturlari bilan kafolatlangan asosiy inson huquqlaridan biridir. Ayollar huquqlari bo‘yicha asosiy xalqaro shartnoma - Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya (CEDAW) va uning Fakultativ protokoli hisoblanadi. Bundan tashqari, ayollar huquqlari BMTning boshqa shartnomalarining muhim elementlari, jumladan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt, Irqiy kamsitishlarga barham berish to‘g‘risidagi konvensiya, va Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya shular qatoriga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasida har doim xotin-qizlar huquqlarini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilib kelingan. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib 1995-yil 6-mayda BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi

konvensiyasiga qo‘shildi. Shuningdek, onalikni himoya qilish, mehnat va kasbiy diskriminatsiya to‘g‘risidagi konvensiyalar va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. O‘zbekiston BMTning Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shilganidan buyon BMTning ayollarga nisbatan kamsitishlarga barham berish bo‘yicha qo‘mitasiga olti davriy hisobot taqdim etildi.

Xotin-qizlarning huquq, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan izchil qonunchilik va boshqa chora-tadbirlar tufayli ular tadbirkorlik, ta’lim, sog‘liqni saqlash, fan, ijtimoiy-siyosiy sohalarda o‘z huquq va erkinliklarini, bilim va ko‘nikmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida ayollar va erkaklar tengligi mustahkamlangan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi “Oila” deb nomlanib, oila, onalik va bolalikni muhofaza qilishga bag‘ishlangan. Erta nikohlarning oldini olish maqsadida Kodeksning 15-moddasida nikoh yoshi erkaklar va ayollar uchun o‘n sakkiz yoshdan belgilangan. Milliy qonunchilikda ayollar huquqlarini himoya qilishning ishonchli kafolatlari belgilangan. Mehnat kodeksining 78-moddasida homilador ayollar va uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollar homilador yoki farzandli bo‘lganligi sababli tegishli ravishda ishga qabul qilishni qonunga xilof ravishda rad etish taqiqlanadi; 84-modda homilador ayollarni, uch yoshga to‘lmagan bolasi bor ayollarni, korxona uchun belgilangan eng kam ish o‘rinlari soniga (bolali ayollar) ishga yuborilgan shaxslarni ishga qabul qilish uchun dastlabki sinovni belgilamaydi.

Oila kodeksiga bola voyaga yetgunga qadar, shu jumladan, ko‘chmas yoki ko‘char mol-mulk yoki boshqa boyliklarni berish orqali alimentni muddatidan oldin to‘lash imkoniyati to‘g‘risidagi nizom to‘ldirildi. Ajrashgan taqdirda er-xotinning huquqlarini kafolatlovchi mol-mulkni taqsimlash tartibi belgilanadi. Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslarda nikoh yoshi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo choralari belgilangan.

2017-2021-yillarda ayollar huquqlarini ta’minlash va himoya qilishga qaratilgan qator me’yoriy hujjatlar qabul qilindi. Ayollarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotidagi rolini oshirish sohasida qonunlar, qarorlar va farmonlar chiqarildi. 2019-yil 2-sentabrda O‘zbekiston Respublikasining “Ayollar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Qonunda “jinsi bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri kamsitish” va “jinsi bo‘yicha bilvosita kamsitish” tushunchalari belgilab berildi, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini majburiy huquqiy ekspertizadan o‘tkazish, gender statistikasini olib borish joriy etildi. Oliy Majlis Senati Raisi boshchiligida Gender tengligi bo‘yicha komissiya tuzildi. Parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tengligi masalalari qo‘mitasi, quyi palatada esa Oila va ayollar masalalari bo‘yicha komissiya tuzildi.

2030-yilgacha Barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalari amalga oshirilishini monitoring qilish bo‘yicha Parlament komissiyasining tizimli faoliyati yo‘lga qo‘yildi, SDGning beshinchi maqsadi gender tengligiga erishishdan iborat.

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oila va ayollar masalalari bo‘yicha davlat qo‘mitasi va uning hududiy bo‘linmalari tashkil etilib, uning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, gender tengligini ta’minlash belgilangan. Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning oilaviy va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni tashkil etishda faol ishtirok etishi, talab qilinadigan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashini ta’minlash maqsadida Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi tashkil etildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonning patriarxal jamiyatida ayollarga nisbatan zo‘ravonlik, ayniqsa, oilada kamsitilish holatini ko‘rishimiz mumkin. Otalar qizlarini to‘g‘ri tarbiyalash va oila sha’nini himoya qilish uchun qiladigan “sa’y-harakatlari” uchun, erlar va ularning qarindoshlari esa o‘z oilasining turmush tarziga yangi xotinni moslashtirishga mas’ul hisoblanadi. Ayollar shaxs sifatida emas, barcha ishlarni bajaruvchi ishchi sifatida qaraladi. Yangi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ba’zi sudyalar ham ayolni shaxs sifatida emas, balki ozor bergan erni jazolashga undashdan ko‘ra kechirishni afzal ko‘rishi kerak bo‘lgan “xotin” sifatida ko‘radilar. O‘zbekistonda har yili huquq-tartibot organlariga 40 mingga yaqin gender zo‘ravonlik holatlari xabar qilinadi va jabrlanganlarning deyarli barchasi ayollardir. Ayollarga nisbatan zo‘ravonlikning 85 foizi uyda

sodir bo‘ladi, bu oiladagi zo‘ravonlikni gender asosidagi zo‘ravonlikning eng keng tarqalgan turiga aylantiradi. Masalan, 2023-yilning birinchi yetti oyida 21 871 nafar ayol himoya ordenlarini olish uchun murojaat qilgan; 84,7 foizi asosan yaqin oila a’zolari, er va qaynona himoyasiga muhtoj edi. Xuddi shunday nisbat haqida avvalroq Senat raisi Tanzila Nazarboeva ham xabar bergan edi. Uning ta’kidlashicha, 2021-2022 yillar davomida ayollar va qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha 72 mingdan ortiq murojaat huquqni muhofaza qilish organlariga tushgan. Ularning
61 000 dan ortig‘i yoki taxminan 85 foizi uyda sodir bo‘lgan. Ammo bu faqat xabar qilingan holatlar. Erkaklarga ijtimoiy-iqtisodiy qaramlik, jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmaslik, stigma va bosim tufayli ko‘plab ayollar, politsiyadan yordam so‘ramaydi.

2022-yilning aprel-sentyabr oylari davomida Oila va ayollar masalalari bo‘yicha davlat qo‘mitasi huzuridagi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan O‘zbekistonning besh geografik birligi – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand viloyatlari va Toshkent shahrida 420 nafar xotin-qizlar o‘rtasida tadqiqot o‘tkazildi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, ayollarning bor-yo‘g‘i 38,8 foizi haqorat va tazyiqlar haqida mahalla vakillariga murojaat qilgan, 30,4 foizi esa do‘stlari va qarindoshlariga murojaat qilgan. Og‘ir holatlarda atigi 22,4 foizi huquq-tartibot idoralariga, 6,3 foizi ijtimoiy soha xodimlari va psixologlarga yordam so‘rab murojaat qilgan, 5,5 foizi ishonch telefonlariga, 4,6 foizi shifoxonalarga murojaat qilgan.

Toshkent davlat yuridik universitetidan O‘tkirbek Xolmirzayev va Zayniddin Shamsidinov o‘zlarining yangi tadqiqotida 2023-yilning may oyidan dekabrigacha bo‘lgan oiladagi zo‘ravonlik holatlari bo‘yicha ma’muriy va jinoiy ishlar bo‘yicha 10 462 ta sud qarorlarini o‘rganib chiqib, eski muammoning yangi qirralariga oydinlik kiritdi. Tadqiqotdan olingan qiziqarli xulosalardan biri shundan iboratki, sudga yetib kelgan oilaviy zo‘ravonlik holatlarining aksariyati jismoniy zo‘ravonlik bilan bog‘liq. O‘rganilgan 10 091 ta ma’muriy oiladagi zo‘ravonlik holatlarining 53 foizi “tanga yengil shikast yetkazilgan jismoniy zo‘ravonlik bilan bog‘liq”. Ikki tadqiqotchining ta’kidlashicha, bu ayollar ko‘pincha og‘zaki yoki psixologik zo‘ravonlikni zo‘ravonlik sifatida qabul qilmasliklari yoki “bu ularning erlari bilan munosabatlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin” ligi uchun sudga berishga arzigulik ish deb hisoblamaydilar.

Shuningdek, oiladagi zo‘ravonlik og‘irligiga qaramay, jinoyatchilarning aksariyati qamoq jazosiga tortilmasligini aniqladilar. Aksincha, sud tizimi “oilaviy munosabatlarni saqlashga ustuvor ahamiyat beradi” va yarashuvga intiladi. Tadqiqotlar oiladagi zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyat ishlarining 61 foizi yarashuv tufayli yopilganini qayd etdi. Jinoyat kodeksining 66.1-moddasida nazarda tutilgan yarashuv bandi ayollarga ishni tugatishga imkon beradi, bundan og‘irlashtiruvchi holatlar bundan mustasno. Huquqni muhofaza qilish organlari ayolning bosim ostida bunday qilmasligiga ishonch hosil qilishlari shart.
Ma’muriy ishlar biroz boshqacha, chunki “maishiy zo‘ravonlik holatlari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksda yarashuv vakolatiga kirmaydi”. Shunday qilib, sudyalar Ma’muriy Kodeksning 21-moddasi yordamida vaziyatni “aylanib o‘tadilar”, bu esa aybdorlarni huquqbuzarlikning ahamiyatsizligi sababli javobgarlikdan ozod qiladi. Oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq o‘rganilgan ma’muriy ishlarning 27,9 foizi “ahamiyatsiz” deb topilganligi sababli tugatilgan. “Ular o‘z qarorlarini “tomonlarni yarashtirish”, “bir-biriga da’vo qilmaslik”, “aybdorlikni tan olish va pushaymonlik” kabi tiklovchi mexanizmlar, shuningdek, oilaviy munosabatlarni saqlab qolishga qaratilgan sa’y-harakatlar orqali asoslashadi”. Sudlarni yarashtirishga undayotganini tushuntirishdan biri butun mamlakat bo‘ylab ajralishlar sonining ko‘payishi bo‘ishi mumkin. “Hukumat oilalarni saqlab qolish va ajralishlar darajasini pasaytirish borasidagi sa’y-harakatlari davomida er-xotinlarni yarashtirish orqali ajrashish jarayonini osonlashtirish, sudning bunday xatti-harakatlari uchun qulay shart-sharoit yaratishni qo‘llab-quvvatlamoqda”. Eslatib o‘tamiz, aholi sonining barqaror o‘sishiga qaramay, ajralishlar soni 2010-yildagi 17794 tadan 2023-yilda qariyb 50 mingtaga yetdi. Shu bilan birga, ro‘yxatga olingan nikohlar soni o‘zgarmasligicha qolib, har yili 300 mingga yaqin nikohni tashkil etmoqda.

O‘zbekistonda ayollar va qizlarga nisbatan zo‘ravonlik, ayniqsa, oilada zo‘ravonlikka keyingi paytlarda keng e’tibor qaratilmoqda. 2018-2019 yillarga qadar jamoatchilik oiladagi

zo‘ravonlikni “oilaviy” muammo sifatida keng ko‘lamda tilga oladi. Himoya farmoyishlari, gender asosidagi zo‘ravonlik qurbonlari uchun reabilitatsiya boshpanalari, oiladagi zo‘ravonlikni jinoiylashtirish kabi yangi chora-tadbirlar majmuini joriy etish ayollar xavfsizligini kafolatlashning dastlabki qadamidir.

Xulosa. Ayol — jamiyat gultoji, borliq ko‘zgusi, millat tarbiyachisi. Uning mehr-muhabbati navnihollarni, ertamiz egalarining unib-o‘sishiga, kamol topishiga sabab bo‘ladi. Ayol baxtli bo‘lsa, jamiyat baxtli bo‘ladi. Shunday ekan oilalarda, jamiyatda ayollarimiz haq-huquqlarini himoya qilishimiz, ularning hayotda o‘z o‘rinlarini topishlarida ko‘mak berishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respulikasi Konstitutsiyasi. (30.04.2023)
2. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. (30.04.1998)
3. “Xotin qizlar va erkaklar teng huquq hamda imkoniyatlari kafolatlari to‘g‘risida”gi qaror (02.09.2019.).
4. Икрамов, Р. А., & Хожиев, Р. Б. У. (2020). Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики. Вестник науки и образования, (14-1 (92)).
5. Ikramov, R., & Bekmirzayev, N. (2020). Yurist nutqi madaniyati. Toshkent: Akademnashr.

DAVLAT BOSHQARUVIDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHGA DOIR XALQARO TAJRIBALAR STATISTIKASI

Rixsiboyev Behzod Alisherovich
Guliston davlat Pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo‘lgan sun’iy intellektning yutuqlari, uning muhimligi, sun’iy intellektdan foydalanishdagi muvaffaqiyatli misollar hamda odmalarning unga bo‘lgan munosabati ko‘rsatilgan. Sun’iy intellektdan foydalangan holda davlat boshqaruv tizimidan foydalanishdagi loyihalar va uning natijadorlik statistikasi ko‘rsatkichlar keltirilgan va tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Davlat boshqaruv, davlat xizmatlari, sun’iy intellekt, AI, innovatsion texnologiyalar, MAI-2030

Davlat boshqaruvida sun’iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash va AI asosida amalga oshirilgan muvaffaqiyatli loyihalar borasida xalqaro tajribalar keng ko‘lamli tadqiqotlarga va ma’lumotlarga asoslanadi. Oksford tadqiqoti Lloyds Register Foundation tomonidan chop etilgan World Risk Poll 2019 ma'lumotlari tahliliga asoslangan 2019-yilning mayidan 2020-yilning yanvarigacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida o‘tkazilgan intervyular asosida 142 mamlakatda yashovchi 154 195 ishtirokchining so‘rov ma’lumotlariga ko‘ra quyida davlat boshqaruvida AI texnologiyalarini joriy etish va jamiyatda bu texnologiyalar haqidagi fikrlarni ifodalovchi statistik ma’lumotlar bilan tanishamiz:

Xalqaro tajribalar: Estoniya: Estoniya elektron davlat boshqaruvi bo‘yicha dunyo yetakchilaridan biri hisoblanadi. U yerda AI texnologiyalari davlat xizmatlarini avtomatlashtirish va davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonlarini optimallashtirishda keng qo‘llanilmoqda. AI texnologiyalari sud jarayonlarida foydalanilmoqda. Masalan, huquqiy masalalarni avtomatik tarzda hal qilish tizimlari ishlab chiqilgan.

Samaradorlik natijalari: Davlat xizmatlarini ko‘rsatish tezligi sezilarli darajada oshdi. Fuqarolar tomonidan davlat xizmatlariga murojaat qilish uchun sarflanadigan vaqt 80% ga qisqardi. Davlat xarajatlari sezilarli darajada kamaydi.

2. Adabiy asarlarning mazmuni asosida kompozitsiya ishlash.

Kompozitsiyada asosiy talablardan biri yaxlitlik, simmetriya va ritm hisoblanadi. Asarning yaxlitligiga erishishda ortiqcha qismlarni olib tashlash, kontrastni yumshatish, yaratilayotgan g‘oyani bo‘rttirish hisoblanadi. Natyurmort kompozitsiyasida bir mavzu turli xil mazmunda yoritilishi mumkin. Kompozitsiya chizishda asarning mazmuni darrovgina topilmaydi, balki o‘ylangan mavzu bo‘yicha va to‘liq ochib berish imkonini beruvchi kompozitsion yechim izlanadi. Rassomning ko‘nglidagidek aniq, tushunarli ifoda topilmaguncha juda ko‘plab etyud va qoralamalar qilinishiga to‘g‘ri keladi. Mazmun topilgach, rassom kompozitsiya eskizi ustida tinimsiz, zahmatli ish boshlaydi. Eskiz kartina loyihasi hisoblanib, kartinaning ustida ishlashning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Albatta yaratilayotgan asarda kompozitsiyaning hamma qonuniyatlari muhim va ikkinchi darajada turuvchi qismlar asosiy markazga bo‘ysunadi. Kompozitsiyaning markazi esa asosiy harakat bilan unda qatnashuvchi muhum mavzularni o‘ziga bog‘laydi. Asardagi kompozitsion markaz o‘ziga diqqatni jalb etishi lozim. Markaz rang, yorug‘lik, tasvirni yiriklashtirish, kontrast va boshqa vositalari bilan ajaratiladi. Kompozitsiya markazi faqat natyurmort asarlaridagina emas, balki grafika, haykaltaroshlik, amaliy va dekorativ san’at, me’morchilikda ham ajratiladi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqgan holda, ijodkor asarni yaratish jarayonida tasviriy san’atning qaysi janrini yaratilishidan qat’iy nazar, kompozitsiya muhum o‘rin tutadi. Yaratilayorgan asar tomoshabin diqqatini jalb etishida kompozitsiya qonuniyatlari o‘z vazifalarini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Abdirasilov N. Tolipov Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi Toshkent Aloqachi, 2007. [1.310]

2. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N.Oripova - Rangtasvir. Toshkent –“O‘zbekiston”-2006. [2;191]

3. Turdaliyev A. Kompozitsiya. O‘quv qo‘llanma. T:, 2003. [3.47]

4. B.N.Oripov – Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi “Ilm ziyo” Toshkent – 2012

5. Юсупова, Ш. А., & Жумабоев, Н. П. (2021). ТАСВИРИЙ САНЪАТ ДАРСЛАРИ ОРҚАЛИ ЎҚУВЧИЛАРНИ ИЖОДКОРЛИККА ЎРГАТИШ. Science and Education, 2(2), 460-464.

6. Shoxista Y. TASVIRIY SAN’AT MASHG‘ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH USULLARI //Uz-Conferences. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 768-772.

7. Юсупова Ш. TASVIRIY SAN’AT TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARIDA QO‘YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.

8. Юсупова Ш. TO‘GARAK MASHG‘ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN’AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O‘QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI

RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 12/2.

AXLOQIY FAZILATLARNI RIVOJLANTIRISH VA MALOMATIYLIKDA NAFS MASALASI

Yazdonov Z.Sh.
SamDU o'qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqola inson ruhiy olamini poklashda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda malomatiylik va nafs masalasi juda muhim o'rin tutishi. Malomatiylik g'oyalaridagi nafs masalasi, insonning axloqiy qarorlarini to'g'ri qabul qilishida muhim rol o'ynaydi. O'z bilimlari orqali inson nafsini tarbiyalash, o'zini nazorat qilish va to'g'ri yo'lni tanlashda kabi jihatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: nafs,poklik axloq, odob, odat, urf, zikr, vajd, ilhom.

Malomatiylikning nafsga qarshi kurashlari uni mahv qilishga qaratilgan harakatlari tasavvuf ta'limotlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Mutasavvuflar asarlarida "Nafs va ruh doimo o'zaro qarama-qarshilikda kurashda bo'lishini uqtiradilar. Ruh nafsni o'z olamiga tortishini, nafs o'zo'rnida ruhni o'ziga tobe' qilishga harakat qiladi. Ular ba'zan g'olib, ba'zan mag'lub bo'ladilar. Qalb esa, o'sha g'olibga tobe bo'ladi, baxt va baxtsizlik shu qarama-qarshilikning natijasi bo'ladi"[1]. Demak, inson borlig'idagi barqarorliklarni inson zohiri va botinini chuqurroq o'rganish talab etiladi. Tasavvuf allomalari shuning uchun ham inson mohiyatini bilishda unga sirtdan emas, ichdan nazar solishga harakat qilganlar. Naqshbandiylikning ijtimoiy hayotga yaqin bo'lgan mo'tadil g'oyalari insonni botinini isloh qilishga yo'naltirilgan tamoyillarida ham buning namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Uning umumislomiy va umumtasavvuf nufuzi ham shu jihatdan yuqoridir. Haq bilan botinan va xalq bilan zohiran tamoyilli ham shunga tayanadi. Chunki insonni ijtimoiy begonalashtirgan, xilvatnishin qilib qo'yadigan tariqatlar ham bo'lgan. Aynan insonni ham botinan, ham zohiran mutanosibligini ta'minlashga uringan tariqatlardan biri naqshbandiylik hisoblanadi. Tariqat odobida ko'zda tutilgan tamoyil uning zohiriy hamda botiniy olami barobar mutanosib bo'lishini talab qiladi. Chunki insonni zohirga berilib botinni unutsa, o'z his-tuyg'ulari ichki, ma'naviy-axloqiy, ruhiy intizom buzilsa, kamol o'rnini zavol egallashi ehtimoli ko'payishiga ishonganlar. Zikrning asosi sifatidagi xilvat mohiyati yo'qoladi. Shuning uchun u xalq bilan zohiriy va Haq bilan botiniy aloqada bo'lishi muhim sanalgan. Bu so'fiylarning inson tabiatini yaxshi bilganliklari, inson tabiatining muvozanati to'g'risidagi g'oya desak, bo'ladi. Jamiyatning rivoji, inson ma'naviyatining kamolotida bu muhimdir. Albatta, tariqatlar tarixidan ma'lumki, sof e'tiqodagi axloqiy g'oyalari bilan inson va jamiyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan tariqat shayxlarining qarashlari, ularning amaliyoti bilan bog'liq solih amallari xalqni har qanday holatlarda tayanchiga aylana olgan. Ularni ikki olam saodatiga erishish yo'liga zohir va botinni poklash, nafsni jilovlash, riyokorlik, kibrlanishdan saqlanish orqali yetishga ruhlantirganlar.

"Ularning moddiy va ma'naviy olamlarini mutanosib bo'lishiga undaganlar, ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi xususidagi g'oyalarini hayotiy orzu intilishlarini ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirish uchun zarur deb bilganlar. Moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'rinli bo'ladi,"[2]- degan fikr ham ushbu birlikni ifodalovchi g'oyadir. Haqiqatdan ham mana shu uyg'unlik insonni u yashab turgan zaminni ulug'lashini, yuksaltirishini nazarda tutadi. Bizning bobokalonlarimiz ham ushbu falsafaga rioya qilganliklari ayni haqiqat. Shu ma'noda inson o'z maqsadlariga ana shu ikki asosga suyanishi orqali

[1] Хожа Мухаммад Порсо.Таҳқиқот. Бухоро. Марказий АКМ Шарқ қўлёзмалари бўлими. INV /137 рақамли қўлёзма.
[2] Каримов.И. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият,2008.-Б.45.

erishadi. Aks holda maqsad hosil bo‘lmasdan, inson yashash va kelajakka intilishda bir yoqlamalik goh u yon, goh bu yonga og‘ishga majbur bo‘laveradi. Zero inson eng oliy qadriyat, u buni anglashi har qanday og‘ib ketishlardan tiyilishi uchun naqshbandiylik ilgari surgan g‘oyalardan xulosa chiqarish foydadan xoli bo‘lmaydi. Undan tashqari, yana bir prinsip borki, bu insonning xalq orasidagi xilvatidan hosil bo‘ladigan ahvolini hech kim bilmasligi lozim. Ikkinchidan, uning yurish turishi shunday sifatga ega bo‘lishi kerakki, unda na riyo, na kibrga joy qolmasin. Oddiy odamlar bilan oddiy suhbatlar, munosabatlar bo‘lishi boshqacharoq, fikrlaydigan yoki yashaydigan odamlar bilan o‘sha tonda munosabatlarga kirishishi kerak bo‘ladi. Barchasi ogohlikka, hushyorlikka asoslangan bo‘lishi kerakki, inson zikrdan g‘ofil bo‘lmasin. Uning yodi, xayol va fikr olamida Haq hikmati ufurib turishi lozim. Zohiriy ko‘rinishi hech ham xalqdan ajralib turmasligi, e’tibor tortuvchi narsalar bo‘lmasligi joizdir. Tiriklikning mazmun mohiyatini anglash, o‘z hayotining mazmunini mushohada etishga o‘rgatadi. Inson olayotgan nafasi butun borlig‘ini harakatga keltirayotganini botiniy va zohiriy olamini yangilab turganini biladi. O‘zida kechayotgan o‘zgarishlar tufayli islohga kelayotgan xulq atvori ich-ichdan huzur topayotganini payqaydi. Natijada inson ham botiniy ham zohiriy tomondan o‘zini shunga munosib tutishga harakat qiladi.

Ha, shuning uchun ham olimlarimiz: “axloqning ildizi inson borlig‘ining ichida, uni ichdan tuzatilmasa maqsad vosil bo‘lmaydi”, - deb aytishadi. Uning ijtimoiy hodisaga aylanishi ham ichdan sayqallanib, kamol topishiga bog‘liqdir. Tasavvuf ta’limoti ham ana shu g‘oyani ilgari surib, insonni o‘z botiniga nazar qilishga da’vat etadi. Zero, jamiyat, muhit, zamon va makon, davr kulfatlari, axloq noqisligi, ma’naviy yemirilishlar tufayli paydo bo‘lib, insoniyatni tubanlikka mahkum etadi. Axloqan zaif va kuchsizlangan har qanday millat ojizlik va qo‘rqoqlik girdobida o‘zligini yo‘qotadi. Ma’naviy-axloqiy barqarorligini himoya eta olmaydigan xalq esa, kelajagi va avlodlar tarbiyasi, qadriyatlar vorisiyligidan mahrum bo‘ladi. Chunonchi adolat, insonparvarlik, shijoat, o‘zaro hamjihatlik boringki, xalq hayoti uchun muhim bo‘lgan qanday xislat fazilatlar bo‘lsa hamma-hammasining asosi axloqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Хожа Муҳаммад Порсо.Таҳқиқот. Бухоро. Марказий АКМ Шарқ қўлёзмалари бўлими. INV /137 рақамли қўлёзма.
2. Каримов.И. Юксак маънавият-енгилмас куч.-Тошкент: Маънавият,2008.-Б.45.
3. Караматов Х.С. Аскетические и суфийские течения в Хорасане.Из истории суфизма.Сборник статей.-Тошкент: фан, 1991.-С.28-30.
4. Книш А.Мусулманский мистицизм.-М: Диля, 2001.- С. 106-111.
5. Муҳаммад Содиқ М.Ю. Тасаввуф ҳақида тасаввур. – Т.: Мовароуннаҳр, 2004. – Б. 36.
6. Комилов Н. Ёқубов А. Марказий Осиё халқлари тафаккури ривожида тасаввуфнинг ўрни. – Б. 15-28.
7. Кныш.А.Д. Мусульманский мистицизм. – Б.113.
8. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. – Б. 56.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDAGI TASVIRIY SAN’ATNI O‘QITILISH MUAMMOLARI

Yusupova Shoxista Alimjanovna
Guliston davlat pedagogika instituti, “Tarix va san’atshunoslik” kafedrasi katta o‘qituvchisi
Yodgorova Anora Abduvali qizi
7-24 Tasviriy san’at mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda ta’lim sohasidagi talablar, oliy ta’lim muassasalarida tasviriy san’at yo‘nalishlaridagi mashg‘ulotlarining o‘qitislish jarayonida yuzaga keladigan asosiy

qiyinchiliklar hamda, muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot berilgan. Tasviriy san'at inson hayotigadi muhum o'rni. Talabalarning tasviriy san'at sohasidagi qiziqishi, pedagogik nazariya va amaliyotda kuzatilgan kamchiliklar, shuningdek, o'qituvchilarning ushbu fanlar bo'yicha malakasini oshirish yo'llari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, pedagogika, maktab, ta'lim, pedagogik texnologiya, professional, integratsiyalash, didaktika, metodika, ijodkor, estetik, multimedia, raqobotbardosh, qobiliyat.

Ta'lim sohasida katta islohatlar olib borilishi natijasida Oliy o'quv yurtlarida o'qitish tizimi tubdan o'zgardi, bularning natijasida moddiy texnik bazalari mustahkamlanib borilmoqda. Demak, raqobotbardosh kadrlarni tayyorlash bugungi kunda ustozlar oldida turgan muhum vazifalardan biri bo'lib hisoblanib kelmoqda. Jamiyatning yuksalib rivojlanishi, bilimli insonlarning ilmiy salohiyatiga bog'liqligi hech birimizga sir emas. Shu sababli, eng avvalo ijodkor qobiliyatli talabalarni aniqlab olish va bor qobiliyatini yanada rivojlantirish zarur bo'ladi.

Yurtimizda salohiyatli kadrlar tayyorlash va uni ishlab chiqilish ta'lim va tarbiya jarayonida muhim hisoblanadi, chunki o'qituvchi tayyorlash hamda ularni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib rivojlantirish yuqori malakaga ega pedagoglarni tayyorlash bilan birga kelajak avlodga ham yuqori darajada ta'lim- tarbiya berish uchun asosiy vazifa bo'lib hizmat qiladi. Davlatimiz kelajagi mana shunday yetishib kelayotgan yosh avlodga, yosh pedagog kadrlarga bog'liqdir. Bugungi kunda berayotgan ta'lim –tarbiyamiz ertaga o'z natijasini ko'rsatmog'i zarur. Shu sababdan, oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri bu sifatli ta'limni tashkil etish va ta'lim tizimini tubdan isloh qilishdan iboratdir.

Ma'lumki, san'at, madaniyat sohalarini rivojlantirish uchun Prezidentimiz va hukumatimiz tomonidan bir qator qarorlar qabul qilinib kelinmoqda, bulardan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2020 yildagi "Tasviriy va amaliy san'at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-4688-son, 02.02.2022 yildagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son hamda 27.06.2023 yildagi "Ma'muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlarini misol keltirib o'tishimiz mumkin.

Yuqoridagi qarorlar ijrosini ta'minlashda albatta soha vakillari bilan bir qatorda Maktabgacha va maktab ta'limi tizimidan tortib to, oliy ta'lim tizimida san'at ta'limi sohasi bo'yicha faoliyat yuritayotgan o'qituvchi-pedagoglarga muhum va ishonchli mas'uliyatni yuklaydi. Chunki, bu faoliyatda barcha ta'lim tizimlari bir-birlari bilan uzviy bog'liqdir. Misol uchun umumta'lim maktablari professional ta'lim, oliy ta'lim va boshlang'ich bilim beruvchilar uchun ham asosiy tayanch ta'lim maskani bo'lib hisoblanadi. Bugungi kunda esa san'at ta'limi oliy o'quv yurtlaridagi tasviriy san'at yo'nalishlari o'qitish tizimida, yuzaga kelayotgan muammolarning dolzarbligi, tayyorlanilayotgan bo'lajak mutaxassislarning ijodiy salohiyati va malakasini shakllantirishga bevosita ta'sir qilmoqda. Xususan, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning tasviriy san'at sohasidagi qiziqishi va bilimlarining tobora pasayib borayotganligi dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rishimiz mumkin. Bunga sabab esa umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu fanga bo'lgan e'tibor etarli darajada berilmaganligidandir.

Bu fanga kelsak, o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish, tassavurlarini kengaytirish, estetik hissiyotlarini rivojlantirish va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda muhum ahamiyatga egadir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti tarbiyaning tarkibiy qismlaridan bo'lgan mehnat tarbiyasini amalga oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. Chunki, bu mashg'ulotlarida o'quvchilar amaliy ishlar ijodkorlik bilan shug'ullanadilar, turli o'quv materiallaridan, turli hil asbob-uskunalardan foydalanishni o'rganadilar. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kelajakdagi kamolotiga yordam beradigan tarbiyachi ham sanaladi.

Ammo, kelajak avlodga yuqoridagi hislatlarni shakllantirish uchun imkoniyatlar ko'pchilik o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida tasviriy san'at bilan shug'ullanishlari uchun ta'lim

muassasalarida yetarlicha imkoniyat yo‘qligi bizning og‘riqli nuqtalarimiz hisoblanadi. Bundan tashqari, ko‘pchilik o‘qituvchilarning tasviriy san’at sohasida yetarli malakaga ega emasligi asosiy muammolardan biridir. Bu esa o‘quvchilarning ushbu sohada yetarli darajada ta’lim olmasliklariga olib keladi. Ko‘pchilik o‘quvchilar tasviriy san’atni o‘rganishning amaliy foydasini ko‘rmaydilar. Ular bu o‘rgatilayotgan mavzularning kelajakdagi kasbiga hech qanday aloqasi yoki foydasi yo‘q deb hisoblashadi. Natijada o‘quvchilarning bu fanga bo‘lgan talablar o‘rganishga yetarlicha vaqt va e’tibor qaratmasligiga olib keladi.

Bugungi kunda tasviriy san’atni o‘qitish bo‘yicha qilinayotgan islohotlar va yangiliklar muhim bo‘lsa-da, biroq ayrim jarayonlarda turli muammolar ham mavjud. Bu muammolardan ba’zilari quyidagilardan iboratdir:

1. Pedagogik texnologiyalar- Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy
etishda resurslar va malaka yetishmasligi;

2. Didaktika va metodika- O‘qitish metodlarini yangilash jarayonida, an’anaviy yondashuvlardan zamonaviy metodlarga o‘tilishi;

3. O‘quv dasturlari va darsliklar- Ishlab chiqilgan barcha yangilangan o‘quv dastur va darsliklarni o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida keng tarqatishda muammolar yuzaga kelishi;

4. O‘qituvchi malakasi: Yangi pedagogik texnologiya va metodikalarni qo‘llashga tayyorligi va o‘qituvchilarning malakasini oshirishda muammolar.

Bu muammolarni hal etish uchun tegishli strategiyalar va resurslarni ishlab
chiqish, o‘qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, shuningdek, moliyaviy va moddiy-texnik bazani mustahkamlash zarur bo‘ladi. Bu muammolarni hal qilish uchun esa maktablarda san’at darslarini qisqartirish emas, balki yanada yaxshilash va tasviriy san’at yo‘nalishi bo‘yicha o‘qituvchilarning saviyasi hamda malakasini oshirish kerak.

Oliy ta’limdagi talabalar tanlagan yo‘nalishining afzalliklarini ko‘rishlari uchun mutaxassislik fanlariga chuqurroq e’tibor berish va ko‘proq noan’anaviy amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazishlari kerak bo‘ladi. Yangi texnologiyalar taraqqiyoti turli sohalar qatori san’at sohasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmaydi, tasviriy san’atda ham yangi vositalar va texnikalar paydo bo‘ldi. Talabalarga zamonaviy texnologiyalar va o‘qitish usullaridan foydalanish imkoniyatini berish orqali yuzaga kelayotgan o‘zgarishlarga moslashishi kerak bo‘lib qoldi. Ta’lim jarayoniga texnologik integratsiyalash orqali turli xil ta’lim dasturlarini kiritish mumkin, bu esa mashg‘ulotlarda multimedia va fanlararo yondashuvni ta’minlashga yordam beradi. Bunday jarayon ta’lim oluvchilarning ijodiy, tahliliy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishiga yordam beradi. [1.136] Tasviriy san’at jamiyatning madaniy ongini va estetik idrokini shakllantirishda muhim o‘rin tutishi bois ushbu sohani rivojlantirish natijasida milliy madaniy merosni saqlash va uni boyitish, jahon iqtisodiyoti va madaniy almashinuvlar sharoitida oliy ta’lim bitiruvchilari jahon miqyosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun bu sohasida raqobatbardosh mustaxkam ko‘nikma va bilimlarga ega bo‘lishlari muhumdir. Ushbu muammolarni hal qilish uchun oliy o‘quv yurtlari o‘quv dasturlarini takomillashtirish, professor-o‘qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, zarur resurslar va infratuzilma bilan ta’minlash, tizim bilan bog‘liq tashkilotlar va ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirishga e’tibor qaratish zarur.

San’atda madaniyat sohasi muhum o‘rin tutib kelmoqda. Aynan, madaniyat shaxs va jamiyat o‘rasida bo‘lib, insonning shaxsiyati bilan ijtimoiy tamoyillar o‘rtasidagi ziddiyatlarni yumshatadi. Madaniyat orqali bolalar ijtimoiy hayot bosqichiga moslashish jarayonlari tabiiy ravishda o‘tiladi. Shu sababdan, san’atga mehrli tarbiyalash uchun vaqt, sabr-toqat, iroda, matonat, mehnat, g‘ayrat har bir o‘quvchining shaxsiy ehtiyojlari va qiziqishlariga doimiy e’tibor qaratish talab etiladi. Shuningdek, “Tasviriy san’at” fani o‘quvchilarning ma’naviy dunyoqarashini, fikrlash tafakkurini va estetik hissiyotlarini o‘stirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu fan, maktabda o‘qitiladigan boshqa fanlar bilan integratsiyalashgan holda, o‘quvchilarning umumiy bilim darajasini oshirishga yordam beradi.

Xulosada esa, bugungi kun o‘zgaruvchan jahon mehnat bozori talablariga moslashish uchun ta’lim dasturlarini, jumladan raqamli texnologiyalar ko‘nikmalarini, multimedia dizayni, vizual

marketing san'ati (va boshqalar) kabi zamonaviy mehnat bozori talablariga muvofiq qayta ko'rib chiqilishini taqozo etilmoqda.

Ta'lim muassasalari talabalar tajribasini boyitish va ijodkorlikning yangi darajalarini yaratish uchun qo'shimcha yangi va virtual texnologiyalarni o'qitishga

integratsiyalashlari mumkin. Ushbu soha bo'yicha jahondagi taniqli yoki tajribali oliy ta'lim muassasasalari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarni mustahkamlashi, amaliyot va stajirovkalarni ko'paytirishi, professional seminarlar orqali talabalarga haqiqiy tajriba uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim etilishi ta'lim sifatini yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi. Mashg'ulotlar jarayonida esa talabalarda tanqidiy fikrlash va mustaqillikni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishi, o'quvchilarda badiiy asarni tahlil qilish va sharhlash, mustaqil ishlash va izlanish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatni kasb etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida bu kabi o'zgarishlar tasviriy san'at bo'yicha ta'lim sifatini oshirish, shuningdek, talabalarni sohadagi zamonaviy talablarga va imkoniyatlarga yanada yaxshiroq tayyorlash imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.N. Oripov. Tasviriy san'atni o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyasi, didaktikasi va metodikasi. O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent – "ILM ZIYO" – 2013y[1.136]

2. N.N.Azizxo'jaeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. T.:-2006y.

3. S.F. Abdurasulov Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi. T.: "Ili-ziyo" 2011y.

4. N.Yu.Yusupova, M.U.Xamidova, N.K.Abidova, M.Yu.Pardayeva Tasviriy san'at va qo'l mehnatga o'qitish maxsus metodikasi. T.: 2018y.

5. Pardaboyevich, Jumaboyev Nabi. "O'QUVCHILAR IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNALOGIYALARNING O'RNI". WORLD OF SCIENCE 6.11 (2023): 87-90.

6. Yakubova, Nafisa Odiljanovna. "THE ROLE AND IMPORTANCE OF GRAPHIC MODES IN STUDENTS-INCREASING THE IMAGINATION OF CUTTING." Актуальные научные исследования в современном мире 4-2 (2021): 268-272.

7. Muratov, X. X., & Yusupova, S. A. (2020). Umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars mashg'ulotlarini autoplay media studio dasturi orqali integratsiyalash. Academic research in educational sciences, (3), 202-208.

8. Юсупова Ш. TASVIRIY SAN'AT TO'GARAK MASHG'ULOTLARIDA QO'YILADIGAN ZAMONAVIY PEDAGOGIK TALABLAR //Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 267-273.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIYNING IJTIMOIY-AXLOQIY QARASHLARI

To'rabayev Orif Abdumajid o'g'li
Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Sharqning mashhur allomalaridan biri, mutafakkir-ilohiyotchi olim va adib, buyuk axloq muallimi Husayn Voiz Koshifiyning suhbat qurish odobiga oid qarashlari yoritilgan. Shu bilan birga bugungi kunda insonlar o'rtasidagi munosabatlarda ijtimoiy axloqiy masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlari. Individ, Suhbat odobi, insonparvarlik, "Axloqi Muhsiniy", Sharq, G'arb, adolat

Jamiyatdagi xar bir inson yakka holda yasholmaydi, yolg‘izlik odam uchun jazo ko‘rinishiga ega holat hisoblanadi. Har bir individ odamlar orasida o‘sadi, ulg‘ayadi, hayot kechiradi, butun hayoti davomida xar xil toifadagi ko‘plab insonlar bilan ijtimoiy munosabatga kirishadi. Bu insonning kundalik hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan kelib chiqadi. Jamoa bo‘lib yashashda har bir shaxs turli xarakterga, dunyoqarashga ega o‘zi kabi insonlar bilan muloqotga kirishadi. Ana shu jarayonda inson va jamiyat o‘rtasida ijtimoiy munosabatlar vujudga keladi. Har bir inson muloqot jarayonida ma’lum bir axloqiy normalarga rioya etgan holda bir biri bilan nutqiy aloqaga kirishadi. Natijada o‘ziga nisbatan o‘zgalarda ijobiy yoki salbiy ta’sirot qoldiradi va bu ta’sirotlar zamirida muayyan natijaga erishib, qadr-qimmati belgilanadi.

Demak bizning nutqimiz va xulqimiz jamiyatda ma’naviyatli inson sifatida qadr topishimizda asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu o‘rinda Sharq mutafakkiri, buyuk axloq muallimi Husayn Voiz Koshifiyning (1440 -1505) “Axloqi muhsini” asarida “Suhbat odobi” haqidagi qarashlariga to‘xtalib o‘tishni joiz deb bildik.

Husayn Voiz Koshifiy suhbat odobi haqidagi fikrlari bugungi kun uchun ham naqadar muhim ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Voiz Koshifiyning fikricha;

“Bilginki, odamzodning sharafi nutqi bilan va nutq odobiga rioya qilmagan odam bu sharafdan bebahradir”[1].

Bugun jamiyatimizda nutqning inson sharafini ulug‘lash, ko‘kka ko‘tarish yoki bo‘lmasam uni yerga urish, hattoki ommaning oldida sharmanda qilish darajasiga yetdi desak adashmagan bo‘lamiz. Bir gina noo‘rin ishlatilgan so‘z hattoki davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy siyosiy aloqalarni buzilishiga ham olib kelishi mumkin. OAV hamda ijtimoiy tarmoqlar hattoki qurol darajasida foydalanilmoqda.

Shu o‘rinda Voiz Koshifiy muayyan martabaga erishganlar va erishmoqchi bo‘lganlar uchun ham rioya qilinishi zarur bo‘lgan qoidalarni taklif qiladi. Bular;

Birinchidan: har kimning ahvoliga qarab, munosib so‘z aytsin.

Ikkinchidan: dag‘allik qilmasin, lutf va muloyimlik bilan gapirsin.

Uchinchidan: gapirayotganda tabassum qilib, ochilib gapirsin.

To‘rtinchidan: ovozni baland ko‘tarmasin, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirsin.

Beshinchidan; odamlarga nafi tegadigan ma’noli gaplarni gapirsin.

Oltinchidan: agar so‘zning qadr-qimmati bo‘lmasa, uni tilga olmasin, chunki ulug‘larning so‘zi bamisoli urug‘dir, agar urug‘ puch yoki chirigan bo‘lsa, uni qayerga ekmang unib chiqmaydi.[2]

Har kimning ahvoliga qarab, munosib so‘z aytish, kimgadir so‘z bilan ozor yetkazib qo‘ymaslik zarur. Imkon qadar suhbat jarayonida muhtoj insonga muhtojidan (qarzi bor odamga qarz haqida, bemorga, o‘zining sog‘ligi haqida, ishsizga ishingiz haqida) gapirishdan saqlanish bizning fikrimizcha yaxshi axloq belgisi hisoblanadi.

Dag‘allik qilmasin, lutf va muloyimlik bilan gapirish, gapirayotganda tabassum qilib, ochilib va ovozni baland ko‘tarmasdan, eshituvchilarga malol kelmaydigan qilib gapirish ham har qanday suhbatdoshning ko‘nglini ko‘tarishga sizning e’tiborli ekanligingizni bildiradi. Umuman olganda qo‘pollik har qanday insonning yodidan o‘chmaydigan qo‘pol xato hisoblanadi. Muloyim insonlar doimo o‘z suhbatdoshlari bilan yaxshi muloqotni o‘rnata olishadi.

Odamlarga nafi tegadigan ma’noli gaplarni gapirish befoyda gaplardan tiyilishga sabab bo‘luvchi dastlabki omil sifatida qarasak adashmagan bo‘lamiz. “Er kishining Islomi behuda narsalarni tark qilish bilan go‘zal bo‘ladi” (Termiziy rivoyati)[3]

---

[1] Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy; “Ahloqi muhsiniy” nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov. T.: “O‘zbekiston milliy ensklapediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.-yil.70-b

[2] Koshifiy Husayn Voiz. Futuvvatnomai Sultoniy; “Ahloqi muhsiniy” nashrga tayyorlovchilar: M.Aminov, F.Hasanov. T.: “O‘zbekiston milliy ensklapediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011.-yil.72-b

[3] Gazzoliy Abu Homid. Til ofatlari kitobi.-T.: “Sharq”,2018-y 18-b

Agar so‘zning qadr-qimmati bo‘lmasa, uni tilga olmaslik yoki bo‘lmasam o‘rinsiz joydagi foydali gap ham o‘z mavqeyini yo‘qotadi, garchi u haqiqat yoki adolat bo‘lgan taqdirida ham.

Husayn Voiz Koshifiy martabaga yetmaganlar suhbat odobi haqida ham quyidagi tavsiyalarni beradi:

Birinchidan: so‘ramagunlaricha gapirmasin.

Ikkinchidan: gapirayotganda ovozini baland ko‘tarmasin.

Uchinchidan: gapirayotganda o‘ng-u so‘liga qaramasin.

To‘rtinchidan: qattiq gapirmasin va betga choparlik qilmasin.

Beshinchidan; pushaymon bo‘lmaslik uchun o‘ylab gapirsin.

Oltinchidan: odamlar gapini bo‘lib so‘z qotmasin.

Yettinchidan: ko‘p gapirmasin. Chunki ko‘p gapirish aqli noqislik belgisidir. Oz bo‘lsa ham, ammo soz gapirishni shior etsin.

Har bir inson biror kasbga, yoki yangi jamoa bilan ish faoliyatini boshlar ekan bir muncha qiyinchiliklarga duch keladi. Dastlab so‘ralmaguncha gapirmaslik hush fe’l insonning belgisi hisoblanadi. Husayn Voiz Koshifiy suhbat jarayonida har bir holatiga alohida e’tibor bergan holda, noqulayliklarning oldini olish uchun berilgan tavsiyalari bugungi kun uchun ham o‘z ta’sirini yo‘qotmagan. Gapirayotganda ovozini baland ko‘tarish va o‘ng-u so‘liga qarayverishlik yoningizdagi suhbatdoshingizga hurmatsizlik belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Husayn Voiz Koshifiy inson yaxshi xulq, go‘zal (axloq) muomala yo‘lidan yurmay turib izzat va sharaf manzilini egallab olmasligi, hayvonot biyobonidan insoniyat dorulmulkiga yetib bo‘lmasligini ta’kidlaydi. Koshifiyning axloqiy qarashlari markazida insonparvarlikka da’vat turadi va uni juda keng ma’noda tushunadi. Uning fikricha kishilarning insonparvarlik fazilatiga bo‘lgan ehtiyoji suv va olovga bo‘lgan ehtiyojdan ham muhimroq hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadiganda, Husayn Voiz Koshifiy XV asr Xuroson va Movarounnahr madaniyatining ijtimoiy-axloqiy rivojiga katta hissa qo‘shgan, hamda o‘z asarlari bilan keyingi avlodlarga axloqiy masalalarda insonning ma’naviy dunyoqarashlarini shakllantirishda sezilarli ta’sir ko‘rsatdi desak adashmagan bo‘lamiz. Koshifiyning “Axloqi Muhsiniy”, “Risolai Xotamiya:”, “Anvori Suxayliy”, “Futuvvatnomai Sultoniy”, “Tavsiri Husayniy”, “Javohirnoma” kabi asarlarida yaxshilik va yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari haqida ham teran fikrlar bildirilgan. Bugungi kunda insonlar o‘rtasidagi munosabatlar globallashuv sharoitida g‘arb madaniyatiga taqlid qilish kuchayib bormoqda. Go‘yoki asl madaniyat faqat g‘arbga xosdek. Shuni yodda tutishimiz kerakki Sharq allomalaring inson kamoloti uchun yozib qoldirgan ilmiy asarlarini bugun biz o‘rganib hayotga tatbiq etish choralarini ko‘rmas ekanmiz jamiyatdagi axloqiy qarashlar g‘arb madaniyatini o‘zlashtirishda davom etaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Choriyev A. Inson falsafasi. Mustaqil shaxs. - T.: Chinor ERK, 2002.
2. Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T:. Sharq, 2004.
3. Sharq donishm andlari hikmatlari. / Tuzuvchi Ahad Tursun.- T.: Sharq, 2006.
4. Yusupov E. Inson kam olotining m a’naviy asoslari.-T:.Universitet, 1998.

YANGI O‘ZBEKISTONDA AYOLLAR HUQUQLARI KAFOLATLANISHINING HUQUQIY ASOSLARI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

Mamasoliyeva Gulnoza Abdurahmon qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Annotasiya. Maqolada milliy qonunchiligimizda ayollar huquqlarning erkaklar bilan huquqiy jihatdan tengligi tadqiq etilgan. O‘zbekiston Respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilishning

huquqiy asoslari o‘rganilgan hamda ayollar huquqlarini himoya qilish strategiyasining mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: ayollar huquqi, gender tenglik, ayollar daftari, tadbirkorlik, zo‘ravonlik.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni taminlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlarini yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim tamoyildir. Ayollar va qizlarga qarshi barcha turdagi kamsitishlarni yo`q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta’sir etuvchi kuchli omillardan biridir. Dunyo rivojining hozirgi davrida inson taraqqiyoti, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy adolat va inson xavfsizligini ta`minlash borasidagi jarayonlar uchun ayollar va erkaklarning jamiyat hayotining barcha jabhalaridagi tengligini amalda ta`minlash masalalari ustuvor vazifalarning biriga aylanmoqda.

Ammo bugungi kunda ayollar huquqlarini ta’minlashda bir qator muammolar mavjud. Muammolarni aks ettiruvchi asosiy jihatlar quyidagilar:

1. Gender tengsizlik: Erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tengsizlik asosiy muammo bo‘lib qolmoqda. Bu ish haqi, ta'lim olish imkoniyati, biznes va siyosiy faoliyat bilan shug‘ullanish imkoniyatlariga taalluqlidir.

2. Zo‘ravonlik: Ayollarga nisbatan zo‘ravonlik millionlab ayollar hayotiga ta'sir qiluvchi global muammodir. Bu oiladagi zo‘ravonlik, jinsiy zo‘ravonlik, odam savdosi va huquqlarning buzilishining boshqa shakllarini o‘z ichiga olishi mumkin.

3. Ta'lim olish imkoniyati: Dunyoning ayrim hududlarida ayollar hali ham sifatli ta'lim olishda qiynalmoqda. Bu ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga to‘siqlar yaratadi.

4. Sog‘liqni saqlash: Bir qator mamlakatlarda ayollar sifatli tibbiy xizmatdan, jumladan, reproduktiv salomatlik xizmatidan foydalanish imkoniyati cheklangan. Bu ularning farovonligi uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

5. Siyosat va yetakchilikdagi ishtiroki: Taraqqiyotga qaramay, ko‘plab mamlakatlarda ayollarning siyosat va yuqori rahbarlik lavozimlarida ishtirok etish darajasi hali ham yetarli emas. Mazkur mavzu ayollar huquqlarini himoya qilishni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini hal etishga qaratilgan.

Ayollar huquqlarini himoya qilishga doir masalalarni tahlil etishda ilmiy bilishning tizimli, mantiqiy, huquqiy, statistik, huquqni qo‘llash amaliyoti usullaridan foydalanildi. Shuningdek, jamiyatda ayollar huquqlarini himoya qilishga doir masalalar tahlilida statistik metodidan kengroq foydalanib, bu borada statistika natijalari tahlil etildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni taminlashga oid xalqaro - huquqiy hujjatlarni milliy qonunchilikka uyg‘unlashtirish orqali mustahkam huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lishining, onalik va bolalik bilan bog‘liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin- qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog‘liq olib borilayotgan ishlar alohida e’tiborga loyiq.

O‘zbekiston Respublikasi ayollar huquqlarini har doim ta’minlashga alohida e’tibor beradi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib, 1995-yil 6-mayda BMTning Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi konvensiyasiga qo‘shildi. Shuningdek, Onalikni himoya qilish to‘g‘risida, Mehnat va kasb sohasidagi kamsitish to‘g‘risidagi konvensiyalari va boshqa xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida Xotin qizlar va erkaklar teng huquqliligi, Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlashi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yildagi “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat: xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish sohasidagi gender siyosatini, davlat dasturlarini hamda strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish; jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish; xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilinishini ta’minlash.

“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunida davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog‘ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog‘liqni saqlash, ta’lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta’minlanishini kafolatlashi belgilangan. Ayollar huquqlarining kafolatlanishi gender tengligini ta'minlaydi. Bu nafaqat ayollarning o‘z huquqlarini bilishlari va ulardan foydalanishlariga, balki jamiyatda adolatli munosabatlar o‘rnatilishiga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalariga qo‘shimcha davlat granti asosidagi qabul ko‘rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o‘qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 402-sonli qarori qabul qilindi. Ayollar huquqlari himoya qilingan jamiyatlarda ta'lim olish imkoniyatlari kengayadi. Ta'lim olgan ayollar esa o‘z farzandlariga yaxshi tarbiya berish va ularning kelajagini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydilar.

Darhaqiqat, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydigan normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi buning yorqin misolidir. Jumladan, yurtboshimiz tomonidan 2018-yil 2-fevralda imzolangan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. Mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o‘z qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratish, huquq va qonuniy manfaatlariga so‘zsiz rioya qilinishini ta’minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarni manzilli qo‘llab-quvvatlash tizimi mavjud emas, ishsiz va ijtimoiy faol bo‘lmagan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yilmagan, xotin-qizlar o‘rtasida bandlikka ko‘maklashish va tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha faoliyat samarasiz tashkil etilgan; yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, zamonaviy namunali oilani shakllantirish, uning ma’naviy-axloqiy negizlari va an’anaviy oilaviy qadriyatlarini mustahkamlash bo‘yicha maqsadli ishlar olib borilmayapti, erta nikohlarning, oilalardagi nizoli holatlar va ajrashishlarning oldini olish bo‘yicha choralarning samaradorligi past darajada qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4235-on qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra, ayollarning pensiya yoshiga to‘lganligi yoki qonun hujjatlariga muvofiq yoshga doir davlat pensiyasini olish huquqi vujudga kelganligi sababli ular bilan tuzilgan nomuayyan muddatli mehnat shartnomasini 60 yoshga to‘lgunga qadar yoki muddatli mehnat shartnomasini muddati tugagunga qadar ish beruvchining tashabbusiga ko‘ra bekor qilish taqiqlanadi; erkak va ayollar huquqlari tengligining buzilishi bilan bog‘liq ishlarning sudlarda ko‘rib chiqilishida ayollarga advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik xizmat uchun haq ularning xohishiga ko‘ra davlat hisobidan qoplanadi hamda tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagini bildirgan ayollarni markazlarga jalb etish va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga ko‘maklashiladi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 42- moddasida xomiladorligi yoki bolasi borligi sababli ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo‘shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanadi. Ayollar

huquqlari kafolatlanganda, ayollar mehnat bozorida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa iqtisodiy o‘sishga, oilaviy daromadlarning oshishiga va umumiy farovonlikka olib keladi.

Prezidentimizning 2021-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish; hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko‘rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini ta’minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish; turar joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta’minlash, turmush va mehnat sharoitlarini yaxshilash, daromadlarini ko‘paytirish borasida tizimli chora-tadbirlarni belgilash ishlari amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston - 2030” strategiyasining 25-maqsadida Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish; jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosaasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash; «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish nazarda tutilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni ayollar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan muhim huquqiy asos hisoblanadi. Bundan tashqari, jabrlangan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilish, ularga psixologik, ijtimoiy, huquqiy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish, shu holatdan chiqishi uchun kasb-hunar o‘rgatish, mehnatga jalb qilish maqsadida barcha hududlarda Ayollarni reabilitatsiya qilish va moslashtirish markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Xotin-qizlarni himoya qilishda ichki ishlar organlari ayollar masalalari bo‘yicha inspektorlari lavozimi joriy etildi. Shuningdek, xotin-qizlarga nisbatan huquqbuzarliklarning oldini olishda ularning muammolari haqida o‘z vaqtida xabar topish va tegishli idoralar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

Natija

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 23-sentabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasidagi nutqida "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko‘paydi".

Ta’kidlash joizki, bugungi kunda turli darajadagi davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1500 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda, mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida xotin-qizlar rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. Davlat boshqaruvida xotin-qizlar ishtirokini oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zaxirasi shakllantirildi. Hozirgi kunda ularni turli rahbarlik lavozimlariga tayyorlash bo‘yicha tizimli o‘quvlar tashkil etilmoqda Ichki ishlar vazirligi tizimida 16 nafar ayol rahbarlik, 6 nafar ayol hokimlik lavozimini egalladi. Turli darajadagi davlat mukofoti sovrindorlari bo‘lgan xotin-qizlar soni 2 ming 224 nafarga yetdi. Bugungi kunga qadar 577 nafar ayol “Mo‘tabar ayol” ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi.

So‘nggi to‘rt yilda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish, jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta’minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjati qabul qilindi. Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tashkil etildi. O‘zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o‘ringa ko‘tarildi. Boshqaruv

lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi. Open Data Watch tashkilotining "Gender Data Compass" reytingida 2023-yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston 37 bal to'plagan holda 185 ta mamlakat orasidan 56- o'rinni, Markaziy Osiyo mintaqasida 3- o'rinni egalladi. Gender Data Compass mamlakatning gender ma'lumotlari tizimini yaxlit baholashni taminlaydi. U 53ta gender ko'rsatkichlarining 5 jihati: mavjudlik, ochiqlik, asoslar, imkoniyatlar va moliyalashtirish manbalariga taxlil qilinadi.Gender strategiyasini amalga oshirishdan salmoqli natijalarga erishish kutilmoqda. Xususan, yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengayadi. Gender nomutanosiblik mavjud bo'lgan davlat organlarida vaqtinchalik kvotalash tizimini joriy qilish orqali xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi mutanosiblik ta'minlanadi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta'minlangan, ayniqsa qishloq joylaridagi oilalardagi xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, shuningdek o'zini o'zi band qilishga erishiladi. Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo'ravonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2023-yil 21-dekabrdagi "Oila va xotin qizlar faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-208 sonli Farmoni qabul qilindi. Xotin-qizlarning rahbar lavozimlardagi ulushi 35 foizga yetdi, birgina 2022-2023-yillarda 398 ming nafarining bandligi ta'minlandi, 100 ming nafari imtiyozli asoslarda oliygohlarga qabul qilindi, 170 ming nafariga tahsil olayotgan oliygohlarining shartnoma to'lovlari uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratildi, 14 ming nafari magistraturada bepul o'qitilmoqda, 198 ming nafari kasbga o'qitildi. Bundan tashqari, ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida joriy yilning o'tgan davrida 225 mingdan ziyod loyihalarga 4,4 trillion so'mga yaqin kredit, 40 mingga yaqin xotin-qizlarga jami 179,1 milliard so'm subsidiya ajratildi.

Mamlakatimizda gender tenglikni taminlashga oid xalqaro - huquqiy hujjatlarni milliy qonunchilikka uyg'unlashtirish orqali mustahkam huquqiy asoslar yaratilmoqda. Xotin-qizlarning erkaklar bilan bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lishining, onalik va bolalik bilan bog'liq davlat siyosati yuritilayotgani, xotin- qizlarning ijtimoiy hayotdagi mavqeini kuchaytirish, siyosiy faolligini oshirish, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq olib borilayotgan ishlar alohida e'tiborga loyiq.

O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi — ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi yuksak bosqichga olib chiqish, xotin qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, "Ayollarga ilm berish jamiyatni ilmli, ma'rifatli va salohiyatli qilish" degan qoidani hayotga izchil tatbiq etishni taqozo etadi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa xotin qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil.

2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.17.09.2023- yil

3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. 3.09.2019-yil.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha davlat granti asosidagi qabul ko'rsatkichlari doirasida xotin-qizlarga tanlovda ishtirok etish uchun tavsiyanoma berish va ularni o'qishga qabul qilishni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 402-sonli qarori. 23.06.2020-yil.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018-yil 2-fevralda imzolangan “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. 7.03.2019- yil.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida. 11-sentyabr 2023-yildagi PF-158-son.

Bugungi kunda yer yuzidagi eng katta Ayvanpa quyosh elektrostantsiyasi Kaliforniya shtatining Moxave cho‘lida joylashgan. 2010 yilda rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘mak berish maqsadida BMT shafeligida “Yashil iqlim jamg‘armasi” tashkil etilgan edi. Jamg‘arma mablag‘i 2020 yilga borib, 100 milliard dollarga yetadi. Ayni damda jamg‘arma xazinasida 10 milliard dollar bor.

Iqlim o‘zgarishlariga bag‘ishlangan xalqaro anjumanda ishtirok etgan BMT Bosh kotibi Antonio Gutterish iqlim o‘zgarishi ham boy, ham kambag‘al davlatlarga ta'sir ko‘rsatishini

ta'kidladi. “Agar o‘z vaqtida zudlik bilan chora-tadbirlarni ko‘rmaydigan bo‘lsak, u holda xavfsizlik va global farovonlikka qaratilgan rejalarimizni hayotga tatbiq eta olmaymiz” dedi BMT Bosh kotibi A.Gutterish.

Bosh kotib hisobotda suv taqchilligi, dengizlar sathining ko‘tarilishi, muzliklarning erishi, xavfli meteorologik ko‘rinishlar barcha mamlakatlarni qamrab olayotgani va sayyoramiz ekotizimiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi ta'kidlanadi. “Hatto iqlim o‘zgarishi Arktikada ham kuzatilmoqda. Kunlarning isib ketishi odamlar sog‘lig‘iga ta'sir ko‘rsatmoqda, oq ayiqlar qirilib ketish xavfi bilan to‘qnash keldi” deyiladi hisobotda. Amazoniya o‘rmonlarining saqlanib qolishi ham savol ostida qolmoqda. Butun dunyo bo‘yicha kuzatish ishlarini olib borayotgan tahlilchilar fikriga ko‘ra, bu jarayonni to‘xtatish borasida jiddiy chora-tadbirlar ko‘rilishi lozimligini aytishmoqda [4].

Tahlillar va soha mutaxassislarining fikricha, quyoshdan kelayotgan nurlar, atmosfera qatlamidan o‘tar ekan, havo tarkibidagi gazlarni isitish uchun to‘rtdan bir energiyasini sarflaydi. Bunda, asosan, uzun to‘lqinli nurlar yutilib qoladi. Yer yuzasiga yetib kelgan bir qism Quyosh nuri akslanib, yana koinotga qaytadi. Qolgan qismi yer yuzasini isitishga sarflanadi. Ma'lum darajada qizigan yer ham o‘zidan issiqlikni nurlata boshlaydi.

Global iqlim o‘zgarishi inson faoliyati oqibatida kelib chiqqanligi aniq dalillar bilan isbotlandi. Vaziyatning jiddiy ekani xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olinmoqda. Ayni damda hukumatlar talafotlarni imkon qadar kamaytirishga urinmoqda. 22 asrga borib bahor va kuz tarixdan o‘rin olishi mumkin, degan qo‘rquvlar ham bor. Biroq eng dahshatli muammo oziq-ovqat yetishmovchiligidir. Iqlim o‘zgarishi davlatlar o‘rtasida qurolli mojarolarga sabab bo‘lishi mumkin. Bu kabi mojarolarda, asosan, kambag‘al davlatlar ziyon ko‘radi. Biroq qurg‘oqchilik va suv toshqinlari rivojlangan davlatlar iqtisodiyotiga katta zarar yetkazadi. Bularning barchasi tabiatni asrash borasida zudlik bilan zaruriy chora-tadbirlar ko‘rishni, bu borada barcha hukumatlar yakdillikni namoyon etishini taqozo qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tursunov X. "Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish". Toshkent. "O‘qituvchi", 1997. 56-b.
2. Yormatova D. “Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi” Toshkent. 2008. 64-b.
3. Dr. Y.K.Singh. Eviromental science. New Dehli-2006.
4. www.ziyonet.uz

UZUMCHILIKDA MAHSULOT YETISHTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)

Zarekeyev Ajiniyaz Abatovich
Qoraqalpoq davlat universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasi tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada uzumchilik tarmog‘ini rivojlantirish, sohada yaratilayotgan qo‘shimcha chora-tadbirlar, uzumchilik sohasida bugungi kundagi islohotlar va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyati bayon qilingan. Uzumchilik sohasini jadal rivojlantirish, eksportbob mahsulotlar yetishtirish hamda sohada olib borilishi lozim bo‘lgan maqsad va vazifalar o‘z aksini topgan.

Kalit so‘zlar: Uzumchilik, samaradorlik, hosildorlik, eksport, yetishtirish, salohiyat, navlar, ekin maydoni.

Kirish. Uzumchilik qishloq xo‘jaligining muhim tarmoqlaridan bo‘lib, aholining oziq-ovqatga hamda sanoatning esa xom-ashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. O‘zbekistonning tuproq va iqlim sharoiti bu ekin uchun nisbatan qulay bo‘lgani uchun u mamlakatimizning barcha tuproq va iqlim sharoitlarida o‘stiriladi.

O‘zbekiston uzum yetishtirish bo‘yicha dunyodagi eng yirik davlatlardan biri bo‘lib, statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 12-o‘rinni egalladi. Uzum yetishtirishning umumiy hajmi 1978 mln.t., hosildorligi 16 t/ga. Respublikada umumiy uzumzorlar maydoni 148,9 ming gektar bo‘lsa, keyingi to‘rt yilda 52 ming gektar maydonda yangi tokzorlar barpo etilib, sohaga 210 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Natijada meva-sabzavot eksportida uzumning ulushi ikki barobar oshdi. Keyingi ikki yilda O‘zbekistonning 44 ta tumani uzumchilikka yo‘naltirildi va bu hududlarda uzumning ayniqsa texnik navlarini ko‘paytirish rejalashtirilgan.

Xalq xo’jaligini modernizatsiya qilish sharoiti da uzumchilik mahsulotlarini yetishtirish qishloq xo’jaligining asosiy yo’nalishlaridan biri hisoblanadi. Uzumchilik tarmog‘ining rivojlanishi aholining oziq-ovqat bilan ta’minlanishi, qishloq oilalari daromadining oshishi, qishloqda bandlik darajasi oshishi, qayta ishlash sanoatining rivojlanishi va eksport salohiyatining oshishiga bevosita ta’sir ko’rsatmoqda.

Mahalliy ishlab chiqarishning rivojlanishi tufayli ichki bozorlarda xorijiy qayta ishlangan uzumchilik mahsulotlari ulushining keskin kamayishiga erishildi. Ta’kidlash joizki, hozirgi vaqtda kichik biznes jahon iste’mol bozorida tovar va xizmatlarga bo’lgan talabni qondirish, bandlik masalasini hal qilish, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy salohiyatini oshirishda juda muhim rol o’ynaydi.

Tadqiqot natijalari. Uzumchilikni rivojlantirishga bugungi kunda davlatimiz tomonidan katta e’tibor qaratilmoqda. Qabul qilingan dasturlar uzumzorlar maydonini kengaytirish, hosildorlikni oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali resurs xarajatlarini kamaytirishga qaratilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.08.2023-yildagi “2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-260 sonli qarorida mahalliy uzum navlarining milliy brendlarini yaratish va yangi bozorlarga olib chiqish orqali eksportni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni tasdiqlash hamda ilmiy asoslangan holda uzum yetishtirish, uning yangi hosildor, danaksiz navlarini yaratish maqsadida uzumchilik ilmiy maktabini rivojlantirish hamda ilm-fan va ishlab chiqarishning uzviy integratsiyasini yo‘lga qo‘yish kabi vazifalar belgilab berilgan [1].


Shu bilan birga, sohani yanada samarali rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim muammolar ham mavjud. Ular orasida quyidagilarni ta’kidlash joyiz. Uzumchilik mahsulotlari xomashyo bazasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, birinchi navbatda texnik uzum navlarini ishlab chiqarishning xilma-xilligi va kichik hajmi. O‘rim-yig‘im va yetkazib berish texnologiyalariga rioya qilmaslik muammosi ham dolzarb bo‘lib, bu uzum sifatining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi. Uzumzorlarni kimyoviy himoya qilish bo‘yicha ixtisoslashtirilgan xizmatning y’oqligi kasallik va zararkunandalarning tarqalishiga yordam beradi [2].

Mamlakatimizning uzum yetishtirish bo‘yicha jahon mamlakatlari orasidan joy olishi uzumchilikka bo‘lgan e’tiborning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Ushbu maqolamizda Qoraqalpog‘iston Respublikasida uzum ishlab chiqarish ko‘rsatkichlarini respublika kesimida statistik kuzatuvlar asosida tahlil qildik.

MATERIALLAR VA USULLAR

Ushbu maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasi Statistika boshqarmasining 2017-2023 yillardagi uzum ishlab chiqarish bo‘yicha statistic ma’lumotlaridan foydalanildi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda grafik tahlil usulidan foydalanildi. Tayyorlangan grafalar Microsoft Excel 2019 dasturi yordamida tayyorlandi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR



1-grafik. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2017-2023 yillarda jami ishlab chiqarilgan uzum (tonna) miqdori.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2023-yilda uzum ishlab chiqarish salmog‘i boshqa yillardagiga qaraganda yuqori bo‘lgan. Undan oldingi ko‘rsatkichlar bo‘yicha o‘zgarish kam bo‘lganligini kuzatish mumkin. Bunday o‘zgarishlardan shu narsani aytish mumkinki uzum ishlab chiqarish sanoatidagi bu o‘zgarish boshqa meva ekinlari maydonlari ko‘payganligi yoki bo‘lmasa ba’zi tok maydonlari qaytadan rekonstruksiya qilinayotganligi bilan baholash mumkin.

2017-2023 yillarda uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati yillik o‘rtacha 8,1 foizni tashkil etdi. Eng yuqori o‘sish ko‘rsatkichi 2019-yilga to‘g‘ri kelgan va 10 166,0 tonnani tashkil etgan. Eng kam o‘sish ko‘rsatkichi esa 2022 va 2023-yillarga to‘g‘ri kelgan hamda 11 361,5 tonna va 11 614,0 tonnani tashkil qilgan. Albatta, yillar kesimida uzum mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi har yili ijobiy tarzda o‘zgarib bormoqda, lekin hozirgi vaqtdagi dunyo iqtisodiyoti uchun ushbu ko‘rsatkichlarning o‘sishi yetarli emas hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi uzumlari, hususan Qoraqalpog‘iston Respublikasi uzumlari va uni qayta ishlash mahsulotlarining asosiy tashqi bozorlari qo‘shni davlatlardir. Eng yirik import qiluvchi davlatlar Qozog‘iston va Rossiya bo‘lib, eksport qilinadigan uzumning yarmidan ko‘pi ularning hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu holat eksportning past diversifikatsiyasidan dalolat beradi, bu esa import qiluvchi mamlakatlarga o‘z shartlari va narxlarida turib olish imkonini beradi [3].

Shuningdek, uzumni qayta ishlash, saqlash va eksport qilish bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmoqda, deb bo‘lmaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda yetishtirilayotgan meva-sabzavot va uzumning atigi 15 foizi qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda uzum yetishtirishning o‘sishi uzumni saqlash va qayta ishlashda qator muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, zamonaviy innovatsion, resurs tejaydigan raqamli texnologiyalarni keng qo‘llagan holda sohani isloh qilishda ayrim o‘zgarishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda [4].

Bizning fikrimizcha, quyidagi muammolar uzumchilikni yanada rivojlantirish, sanoat mahsulotlarini keng miqyosda eksport qilish imkoniyatlarini cheklaydi:

- respublikada uzumchilik tarmog‘ini chuqur modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash masalalari hali to‘liq hal etilmagan;

- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qadoqlash va dizaynini takomillashtirish imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanilmayotganligi;

- meva va uzum mahsulotlarini uzoq masofalarga tashishning logistika tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan;

- respublikada konsalting va servis xizmatlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishga ko‘maklashish infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan [5].

Mazkur muammolarni ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish, yechimini topish bugungi kunda tarmoqni rivojlantirishning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xulosa va tavsiyalar. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda uzumchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Uzumchilik sohasida agrotexnik tadbirlarni mexanizatsiyalash darajasini oshirish. Uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, qishloq xo‘jaligi texnikalari uchun mavjud maxsus texnika sotib olish uchun past foizli va uzoq muddatli kreditlar ajratish, texnika lizingi tizimini yanada takomillashtirish.

2. Uzum yetishtiruvchilarning qiziqishini oshirish, ular yetishtirgan uzum mahsulotlarini xarid qilish, ichki va tashqi bozorga olib chiqish, shuningdek, qayta ishlash va eksport qilishni tashkil etish maqsadida klaster tizimini yanada rivojlantirish.

3. Turli mulkchilik shaklidagi uzumni qayta ishlash korxonalarini ko‘paytirish, uzumni qayta ishlash sohasida monopoliyaga barham berish va raqobatni kuchaytirish.

4. To‘g‘ridan-to‘g‘ri uzumchilar uchun uzumni saqlash uchun sharoit yaratish. Ayni paytda hududlarda meva-sabzavot va uzumni saqlash uchun muzlatgichlar bilan ta’minlanish darajasi 3,7 foizni tashkil etmoqda.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi uzumchilik tarmog‘ini rivojlantirish, uzumchilik hajmini oshirish, eksport geografiyasini kengaytirish va natijada soha samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.08.2023-yildagi “2023-2026-yillarda uzumchilik va vinochilik sohasini yanada rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-260 sonli qarori.

2. A.A.Abdug‘aniyev “QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI” (darslik), O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti Toshkent – 2006 yil, 288 bet. (TDIU kutubxonasi 6391) Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

3. Сауханов Ж.К. Аграр тармоқда ташқи самараларни оптимал тартиблаштириш ва трансакция харажатларини пасайтириш: муаммолар, усуллар ва моделлар. (Монография) Т.: “Lesson Press” МЧЖ нашриёти, 2022. - 235 б. ISBN 978-9943-8475-4-5.

4. Qalmuratov B.S., “Ekonomika tiykarları”. Oqıw metodikalıq qollanba. Toshkent-«METODIST NASHRIYOTI»– 2023. 88 b.

5. Шаульская А.И. ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВОСПРОИЗВОДСТВА ВИНОГРАДАРСТВА // Вестник Алтайской академии экономики и права. – 2019. – № 12-3. – С. 153-157.

6. Экономическое обозрение №8 (236). https://review.uz/post/eksportniyy-potentsial-uzbekskix-vinogradnikov.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARIDA HUQUQIY TA’LIM MASALALARI

Ermatova Sevara Alimovna
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimizdan sharq mutafakkiri-Burhoniddin Marg‘inoniy, qomusiy alloma-Forobiy, mard va jasur sarkarda Amir Temurning huquqiy masalalardagi manbalari qisqacha bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hidoya, huquqiy manba, Fozil odamlar shahri, 12 hislat, 12 toifa, Temur tuzuklari, qonun-qoidalar.

O‘tmishdagi buyuk mutafakkirlarimiz Imom al-Buxoriy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, qomusiy allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, mard jasur sarkardalar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Zahriddin Muhammad Boburlar bularning hammasi hozirgi va kelajak avlodlarga huquqiy ta’lim masalalarida juda ko‘p bebaho huquqiy meros qoldirgan. Eng avvalo buyuk qomusiy olimlarimizdan Burhoniddin Marg‘iloniyning fiqh ya'ni, huquqiy masalalarga bag‘ishlangan "Hidoya" nomli asarini keltirishimiz mumkin. Bu asar butun musulmon olamida mashhur bo‘lgan asar hisoblanadi. Bu asarning mashhur bo‘lishiga sabab: fiqh ya'ni huquq ilmi bo‘yicha eng aniq, mukammal asar sifatida tan olinganligidir. Ushu asarda qonunning ifodasi emas, balki uning mukammal sharhi ham keltirilgan. "Hidoya"-so‘zining ma'nosi "To‘g‘ri yo‘l"-degan ma'noni anglatadi. Asar to‘g‘rilikka va haqiqatga asoslangan.

"Hidoya"-asari 4 ta jilddan iborat bo‘lib, har bir juzdagi masalalar aniq va ravshan yoritilgan. Masalan ularda namoz, ro‘za, zakot, xaj, bedarak yo‘qolganlar, topib olingan narsa, oldi-sotdi, homiylik, qarz berish, meros, yerlarni o‘zlashtirish, qozilarning vazifalari, guvohlik, iqror bo‘lish, bosqinchilik va boshqa masalalarga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Abu Nasr Forobiy ham o‘z davrining mutafakkiri, qomusiy olimi hamda faylasuf bo‘lgan. U o‘zining "Fozil odamlar shahri" asarida, Fozil shahar hokimining o‘n ikkita fazilati haqida bayon qiladi. Bunday shaharga hokim bo‘ladigan odam o‘ziga yuklangan vazifalarni bajaradigan bo‘lishi, tez ilg‘ab oladigan, idrok etgan narsalarni xotirasida to‘la-to‘kis saqlab qoladigan, zehni o‘tkir, fikrini ravshan tushuntiradigan, o‘qish va o‘rganish jarayonida charchamaydigan, haqiqatni sevadigan, yolg‘onni yomon ko‘radigan, o‘z qadrini biluvchi va nomus-oriyatli odam bo‘lishi, mol-dunyoga qiziqmaydigan, tabiatan adolatparvar bo‘lishi, o‘zi zarur deb hisoblagan chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli bo‘lishi, qo‘rqoq bo‘lmaslik kabi zarur fazilatlar haqida aytib o‘tgan. Rahbar insonlar bunday hislatlarni o‘zida mujassamlashtirishi lozimligini ta’kidlagan.

Umumiy qilib aytganda adolatli jamiyat yo‘llarini quyidagicha ta’riflagan.

✓Fozil, yani 12 xislatni o‘zida aks ettirgan davlat rahbari va davlat a'zolarining bo‘lishi;

✓Qonun-qoidalarning mavjudligi va ularga davlat rahbarlarining va barcha aholining bo‘ysunishi;

✓Ilm-fanning taraqqiy etishi;

✓Insonlarda yaxshi ahloq va xulqning shakllanganligi;

✓Davlat urush va bosqinchiliklarga qarshi bo‘lmog‘i, mamlakatda tinchlik, barqarorlikning o‘rnatilishi-haqida aytib o‘tilgan.

Huquqiy masalalar asrlar osha shakllanib kelmoqda. Davlat bilan huquq doimo bir-biriga uzviy bog‘liq. O‘zbek huquqiy madaniyatining tarixiy ildizlari Markaziy Osiyo mintaqasida shakllangan amaliy davlatchilik an’analariga, xususan Sohibqiron Amir Temur zamonasiga borib taqaladi. U o‘z «Tuzuk»larida qayd etganidek, davlatni dini islom, to‘ra va tuzuk asosida mustahkamladi. Sohibqironning o‘zi qonunlarga qat’iy rioya qilgan holda ahli musulmonlarni gunoh ishlardan qaytarib, yaxshi va savob ishlarga undagan. Musulmonlarga tavsif, hadis, fiqhdan dars bersinlar, deb shaharlarga fiqh olimlarini va mudarrislarni muntazam yuborib turgan. Milliy davlatchiligimizda oqil podshohlarimiz davlatni adolatli, qonun-qoidalar chegarasida boshqarganlar. Bu xususda jahongir Amir Temur yozadi: «... Saltanatim martabasini qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi». Huquqni davlatsiz, davlatni esa huquqsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Amir Temur "Saltanatimni 12 toifaga bo‘lib, ularga tayangan holda ish yurgazdim. Saltanatim qonun-qoidalarini shu 12 toifaga bo‘g‘lab tuzdim", - deya ta'kidlagan. Bular quyidagilardan iborat:

Birinchi toifa-sayyidlar, ulamo, shayxlar, fozillarni o‘zimga yaqinlashtirdim. Ular mening saroyimga doimo kelib-ketib, majlisimni bezab turishdi. Diniy, huquqiy, aqliy masalalarni o‘rtaga tashlab, qimmatli fikrlar bildirishardi. Halol va haromga oid masalalarni men ulardan o‘rgandim.

Ikkinchi toifa-aqlli kishilar va kengash sohiblari, ehtiyotkor arboblar, sergak va keyinini o‘ylab, olisni ko‘rib ish yurituvchi, keksa va tajribali kishilarni xos majlisimga kiritib, suhbatlaridan, ishlaridan naf olib, tajriba hosil qilardim.

Uchinchi toifa-duogo‘y kishilarni qadrlardim. Ular bilan hilvatda suhbat qurib, ko‘nglimdagi maqsadimni aytib, duo tilardim. Majlislarda, bazmlarda, jang maydonlarida ulardan ko‘p xarakatlar topdim.

To‘rtinchi toifa-amirlar, sarhanglar, sipohsolorlarga majlisdan o‘rin berib, martabalarini yuqori ko‘tardim. Ular bilan suhbatlashib, maslahatlar oldim. Jang maydonlarida mardona qilichlashgan shijoat ahlini do‘st tutardim. Jang maydonlarida ot choptirib kirib-chiqish usullarini, g‘anim lashkari to‘pini buzib, saflarini sindirishni, nayza sanchib, qilich chopqilashni, butun urush-talash ishlarini ulardan so‘rar edim. Sipohgarlik ishlarida ularga tayanib, ulardan kengash tilar edim.[1]

Beshinchi toifa-sipoh va raiyat bo‘lib, har ikkisiga bir ko‘z bilan qaradim.

Oltinchi toifa-aqlli, tajribali, eng ishonchli kishilarni, saltanat ishlarini, sirlarini ularga ochib, kengash qilishimga loyiq kishilar edi. Bular bilan sirdoshlik qilib, yashirin ishlar, mahfiy isharni shularga topshirdim.

Yettinchi toifa-vazirlar, bosh kotiblar, devon munshiylar-ki, saltanatim saroyini shular bilan bezatdim.

Sakkizinchi toifa-hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislar-ki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir.

To‘qqizinchi toifa-muhaddislar, payg‘ambar, uning avlodlari va sahobalari haqida rivoyatlar naql qiluvchilar (tarixchilar) hamda qissaxonlar bo‘ib, ularni ham o‘zimga yaqinlashtirdim.

O‘ninchi toifa-mashoyixlar, so‘filar, xudoni tanigan oriflardir.

O‘n birinchi toifa-kasbu hunar egalaridir; bularning har toifa va sinfidan bo‘lganlarini davlatga olib kelib, o‘z o‘rdamdan o‘rin belgiladim-ki, safarda va hazarda sipohimga kerak yaroqlar va narsalarni hozirladilar.

O‘n ikkinchi toifa-har mamlakat va diyor sayohatchilari-yu musofirlarning boshini siladimki, turli mamlakatlardan menga xabar keltirib turdilar[2],-deya ta'kidlaganlar.

Insoniyat yaralibdiki, o‘z haq-huquqi ustida kurashadi. Bu kurash o‘tmishda ham, hozir ham, kelajakda ham davom etadi va bu albatta tabiiy holdir.

Taklif o‘rnida shuni aytmoqchimanki deyarli har bir ajdodlarimiz huquqqa oid meroslar qoldirgan. Masalan: Burhoniddin Marg‘iloniy, Amir Temur, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibni Sino, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Rumiy va boshqalar. Ular huquqiy bilimlarni mukammal egallaganlar. Ular qoldirgan huquqiy manbalarni o‘rganishimiz va anglab yetishimiz kerak.

Xulosa shuki, har bir davrning qonun qoidalari mavjud. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 50-moddasida: "Har kim ta'lim olish huquqiga ega",-deyilgan. Hozirgi kunda ta'lim sohasida juda ko‘p yangiliklar bo‘layapti. Konstitutsiyamizning 64-moddasiga ko‘ra "O‘zbekistonni himoya qilish O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qonunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil hizmatni o‘tashga majburdirlar"',-deb ta'kidlangan. Mening xulosam esa, huddi shunday shakldagi armiyadan sal farqliroq ya'ni ixtiyoriy bo‘lgan xotin-qizlar uchun, "Xotin qizlar tashabbusi" joriy etilishi lozimligidir. Bu dargohda xotin-qizlar bilishi kerak bo‘lgan hamma pishiriqlar, salatlar, taomlar va tikish-bichishlar o‘rgatilsa maqsadga muvofiqdir. Bu hamma xotin-qizlar uchun joriy etilsa, huddi hozirgi armiyamiz kabi bir yil yoki davlat tashkilotida ishlayotgan bo‘lsa, shu ishlayotgan tashkilotidan bir oyga "Xotin-qizlar tashabbusi"ga yuborilsa, faqat farqi ixtiyoriyligidir. Bu gender tenglikka qarshi narsa emas, balki unda xotin-qizlar bilishi kerak bo‘lgan narsalarini o‘rganadilar.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-"O‘zbekiston" Toshkent -2023 yil.
2. Fozil odamlar shahri. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi "Davlat ilmiy nashriyoti 2016 yil.
3. https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/492-temur-tuzuklari.html.

[1] https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/492-temur-tuzuklari.html.
[2] https://e-tarix.uz/milliyat-insholari/492-temur-tuzuklari.html.

4. https://hikmatlar.uz.
5. Xolnazarova, D. M. (2022). METHODS OF DEVELOPING LEGAL CULTURE IN STUDENTS. Conferencea, 126-134.
6. Xolnazarova, D. M., & Tangirberdiyev, S. H. (2024). YOSHLARDA HUQUQIY MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. TADQIQOTLAR. UZ, 37(1), 120-123.
7. Xolnazarova, D., & Tangirberdiyev, S. (2021). TALABALAR HUQUQIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA HUQUQIY TA'LIM-TARBIYANING ROLI. Academic research in educational sciences, 2(3), 1313-1317.

NOGIRONLAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNI RETROSPEKTIF TAHLILI

Axmedova Shaxnoza Asatullayevna
Guliston davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan – nogiron bolalarni himoya qilishning O‘zbekiston Respublikasi retrospektif qonunchiligida ko‘zda tutilgan jihatlarini tahlil qilishga harakat qilindi. O‘zbekistonda nogiron bolalarning davlat himoyasiga olinishi masalalari ushbu masalada qabul qilingan xalqaro hujjatlar asosida qanday amal qilayotgani masalasi, shuningdek, qonunlarning tarixiy taraqqiyoti yoritib berildi.

Kalit so‘zlar: Nogiron, ijtimoiy yordam, demokratiya tamoyillari, “O‘zbek modeli”, “nou-xau”, kuchli ijtimoiy siyosat.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvarda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunining 3-modda – “Asosiy tushunchalar”da belgilanishicha, nogiron bola deb, – jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) va (yoki) ruhiy nuqsonlari bo‘lganligi tufayli turmush faoliyaticheklanganligi munosabati bilan ijtimoiy yordamga, himoyaga muhtoj hamda qonunda belgilangan tartibda nogiron deb topilgan bolaga aytiladi. Nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish jamiyatdagi ijtimoiy ishning muhim va dolzarb masalalardan biridir. Nogironlar jamiyatda ijtimoiy jihatdan eng zaif qatlam hisoblanib, ularning davlat tomonidan himoyaga olinishi va qo‘llab-quvvatlanishi, bunday davlatning barqaror rivojlanishini ta’minlab beradi. “Lashkarning harakatlanish sur’ati yaradorlarni ortgan karvonning tezligidan baland bo‘lishi mumkin emas. Aks holda, bu lashkarning, qanday maqsadga intilmasin, qanchalar chiranib kuchanmasin, baribir ishi o‘ngidan kelmaydi”.[3.55.]

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Qolaversa, xalqaro tan olingan demokratiyaning tamoyillaridan biri, shu bilan birga davlatimizning birinchi prezidenti I.A. Karimov tomonidan 1993-yilda ishlab chiqilgan va xalqaro hamjamiyat tomonidan “O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning “o‘zbekona yo‘li”, yoxud, Islom Karimovning kashfiyoti.

– “nou-xau”si deb e’tirof etilgan “O‘zbek modeli”dagi besh tamoyilning biri ham – nogironlarni, qariyalarni, aholining kam ta’minlangan qatlamini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash – kuchli ijtimoiy siyosat masalasidir.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra bugungi kunda yer sharida bir milliard nogiron yashaydi, shu jumladan, O‘zbekistonda ularning soni 700 ming kishini tashkil qiladi. 16 yoshgacha nogiron bolalar taxminan 13%. Ular jamiyatningkundalik – siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etishda turli xil qiyinchiliklariga duch keladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida, “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning 23-moddasida va maxsus qonunlarda jismoniy yoki ruhiyrivojlanishida nuqsoni bo‘lgan

hamda uzoq vaqt davolanishga muhtoj bolalarni o‘qitish, tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarini tashkil etish ta’kidlab o‘tiladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng, O‘zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lib nogironlik muammosiga e’tibor qaratdi va 1991 yildayoq “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi va bu qonun boshqa respublikalar uchun shunday qonunlarning qabul qilinishida namuna vazifasini o‘tadi. Atrof-muhitni nogironlar imkoniyatlari va ehtiyojlariga moslash haqidagi ushbu Qonun bandlarining amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida “Atrof- muhitni nogironlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda loyihalashtirish to‘g‘risida”gi hujjat qabul qilindiki, bu borada ham respublikamiz MDH davlatlari orasida peshqadamlik qildi. Respublikamizda nogironlar reabilitasiyasi bo‘yicha Davlat dasturi ishlab chiqildi. O‘zbekistonda nogironlarning ijtimoiy muhofazasi sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari bu sohada butun jahonda qabul qilinib, amalda bo‘lgan hujjatlarga asoslanadi. Avvalambor, bu BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan 1989 yilning 20 noyabrida qabul qilingan hamda 1990 yilning 2 oktabridan boshlab kuchga kirgan «Bolalar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya»dir. Ma’lumki bu jahon miqyosidagi hujjat O‘zbekiston tomonidan birinchilar qatorida ratifikasiya qilingan.

Nogironlikka ega shaxslarning ijtimoiy muhofazasini belgilab bergan yana bir muhim hujjat O‘zbekiston Respublikasining 1996 yilning 29 avgustida qabul qilingan “Fuqarolar sog‘lig‘ini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunidir. Hayot talablaridan kelib chiqqan holda bu Qonunning 1999 yil 15 aprelda va 2001 yil 12 mayda o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritilgan yangi variantlarining qabul qilinishi bu masalaga respublika hukumatining naqadar katta ahamiyat berayotganining yorqin dalilidir. Qonunning 6-moddasiga muvofiq joylardagi davlat xokimiyati organlarining fuqarolar sog‘ligini saqlash sohasidagi vazifalaridan biri nogironlarning reabilitasiyasini amalga oshirish bilan shug‘ullanadigan muassasalarni tashkil qilish hamda ularning faoliyatini ta’minlashdan iborat. Qonunning “Nogironlarning huquqlari” deb nomlangan 22-moddasida nogironlar, shu jumladan, nogiron bolalar qanday huquqlarga ega ekanlari aniq ko‘rsatib berilgan. Ular tibbiy-ijtimoiy yordam olishga, reabilitasiyaning hamma turlariga, dori-darmon, protez-ortopedik buyumlar, harakatlanish vositalariga imtiyozli shartlarda ega bo‘lishga, shuningdek kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikni o‘tashga haqlidirlar. Nogironlar sog‘likni saqlash, mehnat, aholining ijtimoiy muhofazasi bo‘yicha davlat tizimlariga qarashli muassasalarda bepul tibbiy-sanitariya yordamini olish, uy sharoitida parvarish olish huquqiga egalar.

Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish sohasida O‘zbekstonda olib boriladigan davlat siyosati nogironlikka ega bo‘lmagan shaxslar o‘z huquqlarini qanday amalga oshirsalar, nogironlar ham xuddi shunday huquqqa ega bo‘lib, to‘laqonli, munosib hayot kechirishlariga qaratilgan.

Nogironlikka ega bolalarning ta’lim olishlari uchun ham butun imkoniyatlar yaratilmoqda. Respublikamizda bu masalaning normativ-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Bu borada ham O‘zbekistonda nogironlikka ega bolalarning ta’lim olishga bo‘lgan huquqiga tegishli xalqaro hujjat – 2000 yil 26-28 aprelda Dakarda (Senegal) Ta’lim bo‘yicha Butunjahon forumda qabul qilingan “Ta’lim hamma uchun” harakati birinchilardan bo‘lib ratifikasiya qilindi. Bu hujjatga ko‘ra, ta’lim sohasida jahondagi hamma bolalarga, shu jumladan, kam ta’minlangan oilalardan bo‘lgan, nogironlikka ega bolalarga ham yuqori sifatli boshlang‘ich ta’lim olish imkoniyatini yaratish lozimligi ta’kidlangan. Buning uchun ta’lim sohasida xavfsiz, sog‘lom, inklyuziv va resurslar bilan oqilona ta’minlangan shartsharoitlarning yaratilishi bosh o‘ringa qo‘yiladi.

“Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2006 yil 13 dekabrdagi 61/106-rezolyusiyasi bilan qabul qilingan “Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya” hamda “Nogironlarning huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaga Fakultativ protokol” xalqaro hujjatlarning asosiylari hisoblanadi.

“Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2008 yil) hamda Xalq ta’limi vazirligi tomonidan 2015 yilning 17 iyunida qabul qilingan (Adliya vazirligidan 2685-son bilan ro‘yxatdan o‘tgan) “Aqliy va jismoniy nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni maxsus ta’lim muassasasidan boshqasiga yoki inklyuziv sharoitlarida ta’lim olishi uchun umumta’lim muassasasiga o‘tkazish to‘g‘risida”gi

Nizom O‘zbekiston Respublikasida har bir bolaning yashash, rivojlanish, ishtirok etish, himoyalanishida teng huquqligini kafolatlaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, nogiron bolalarning ta'lim olishga bo‘lgan huquqlari qonun hujjatlarida aks ettirilishi borasida davlatimiz tomonidan ancha ishlar amalga oshirilgan hamda bu yo‘ldagi ishlar uzluksiz davom ettirilmoqda. Va, hozircha hal qilinmagan muammolarga qaramay, Respublikamiz nogiron bolalarning ta'lim olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish borasida jahon stanlartlari tomon ishonch bilan qadam qo‘ymoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya – Toshkent.: Baktria press, 2013. – B. 56.
2. “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarning ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun. Vedomosti Verxovnogo Soveta RUz. 1992, № 2. – B. 78.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 01 avgustdagi F-5006- son “Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimni yanadatakomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
4. Levitin Leonid., Karlayl Donald S. Islom Karimov – yangi O‘zbekiston Prezidenti. – Toshkent., 1996. – B. 55.
5. Inoyatov U. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimida ijtimoiy inklyuziyaning asosiy jihatlari va istiqbollari. Mavzu bo‘yicha xalqaro konferentsiya: Ijtimoiy inklyuziya: bolalarni ijtimoiylashtirish bo‘yicha yangi ko‘rsatmalar. – Toshkent, 2017-yil.

HOZIRGI AVLODDA EKOLOGIK VA ESTETIK DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Sharifova Adiba Farxod qizi.
Guliston davlat pedagogika instituti 3-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Saidkulov Nuriddin Akramkulovich

Annotatsiya. “Yoshlarni ekologik va estetik dunyoqarashini shakllantirishning dolzarb masalalari” nomli ushbu maqolada ekologik muammolar, ularni keltirib chiqaruvchi omillar va ekologiyani asrab-avaylash uchun eng zarur chora-tadbirlar, xususan, tarbiya, estetik did kabilar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Estetik did, estetik faoliyat, ekologiya, ekologik tanglik, tarbiya, madaniyat.

Inson zoti dunyoga kelganidan boshlab, tabiat va jamiyat deb atalgan tashqi muhit bilan munosabatga kirishadi. Dastlab bu munosabat anglanmagan, intuitiv, biologik-genetik tarzda, keyinroq anglab yetilgan. Yuksak darajadagi ijtimoiy hodisa sifatida ro‘y beradi. Estetik munosabat boshqa (aqliy, axloqiy, diniy va b) munosabatlarga qaraganda miqyosli va keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Negaki boshqa munosabatlar inson aqlini tanigandan so‘ng boshlanadigan bo‘lsa, estetik munosabatlar inson go‘daklik paytidan uning turli rang-barang narsalarni ilg‘ashi va o‘ziga xos tarzda zavq olishligi bilan belgilanadi. Mustaqillik yillarida har bir insonning ongi va tafakkurida eng avvalo, tabiat va jamiyatga estetik munosabat va bu munosabatning ongli darajada amalga oshirilishi, qolaversa buning negizida insonlarda ekologik ong tushunchasini shakllantirish masalalari jamiyatimiz oldida turgan asosiy masalardan biri ekanligi O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning asarlarida har tomonlama asoslab berilgan.

Insonning voqelikka estetik munosabati, aslida voqelikka baho berishning alohida turi, voqea-hodisalarni nafosatli qadrlash usulidir. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning tabiiy harakati inson hayoti, dunyoqarashini o‘zgartiradi, erkin va mustaqil fikrlashga undaydi. Mustaqilligimizni yigirma besh yili mobaynida mamlakatimiz hayotidagi o‘zgarishlar boshqa davrlardan tubdan farq

qiladi. Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, hayotidagi o‘zgarishlar, milliy, ma’naviy qadriyatlarimizning tiklanishi bilan bir qatorda tabiatga estetik munosabatda bo‘lish va bu jarayonda kishilarimizning ekologik ongini oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanib kelinmoqda. Bugungi kunda kishilar ongini, tafakkurini o‘stirishda, dunyoqarashini shakllantirishda ma’naviy va axloqiy fazilatlarni singdirish bilan bir birgalikda tabiiy muhitni asrab-avaylash, unga oqilona va odilona yondashuvni talab etadi. Ma’lumki, hozirda yurtimizda ekologik siyosat yurgizilmoqda. Shuni hisobga olgan xolda hozirgi davrda ekologiya sohasiga daxldor bo‘lgan quyidagi taxdidlarni ko‘rishimiz mumkin:

Birinchidan:

- Ishlab chiqarishni rivojlantirishga oid qarorlar qabul qilishda ekologik omillarning yetarlicha inobatga olinmasligi hamda aholining jismoniy sog‘ligi, atrof-muhit uchun zararli bo`lgan ishlab chiqarish faoliyatining rag‘batlantirilishi va kengaytirilishi;

Ikkinchidan:

- Ekologik jihatdan zararli bo‘lgan texnologiya, modda va materiyalardan aholi uchun kiyim-kechak, va uy-ro‘zg‘orlarini ishlab chiqarililishi, iste’mol uchun kimyoviy tarzda yaratilgan oziq-ovqat mahsulotlarining ko‘payib borishi;

Uchinchidan:

- Hali-xanuz Orol dengizi bilan bog‘liq ekologik tanglik hamda uning jamiyat, atrof-muhit, o‘simlik va hayvonot olamiga ta’siri;

Demak, shu xalq farzandiman degan har bir shaxsning hozirgi globallashuv jarayonida doimo tabiat va jamiyatga estetik munosabatda bo‘lishi va ushbu jabhada olib borilayotgan ishlarga mustaqil dunyoqarash bilan munosabat bildira olishi davr talabidir. Bu esa har bir jamiyatimiz a’zosini ijtimoiy-siyosiy hayotda bo‘layotgan jarayonlarga befarq bo‘lmaslikni, ekologik muhitning sofligini ta’minlash uchun mas’ul ekanligini his qilib yashashni anglatib turadi.

Bu muammoni keng ko‘lamli yoritib berish va tatqiq etishda nafaqat hozirgi davrning yetuk mutaxassislarining fikr-mulohazalaridan, balki ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan “Yuksak g‘oyalar, yangi fikriy kashfiyotlar” ning hali to‘la o‘rganilmagan jihatlarini tadqiq etib, xalqqa taqdim etish falsafiy fanlar oldidagi dolzarb vazifalardandir. “Ota bobolarimizning asrlar davomida to‘plagan ilmiy-hayotiy tajribalari, diniy axloqiy, ilmiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan nodir qo‘lyozmalarni jiddiy o‘rganish vaqti keldi”. Bunda Avesto, Islom ta’limoti va tasavvuf, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, A.Temur, M.Ulug‘bek, A.Navoiy, Z.Bobur kabi mutafakkirlarimizning bu borada olib borgan ijtimoiy-falsafiy g‘oyalarini o‘rganish bu sohada olib borilayotgan ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki, bugungi kundagi ekologik muammolar inson umrini ham ancha qisqarishiga sabab bo‘lmoqda. Abu Ali ibn Sinoning:”Agarda chang, g‘ubor bo‘lmaganda edi, insoniyat ming yil yashagan bo‘lar edi”,- degan fikri bejizga emas albatta.

Avvalambor yoshlarda ekologiyani asrab-avaylash, atrof-muhit, hayvonot olamiga ehtiyotkorona munosabatda bo‘ladigan etib tarbiyalashda madaniyat, ma’naviy tarbiyaga bog‘liqdir. Insonlar turli xil chiqindilar bilan nafaqat tabiatga balki, o‘ziga ham naqadar katta zarar keltirayotganini anglaganida edi, hattoki, bitta ham chiqitni yerga tashlamagan bo‘lar edi.

Yoshlarimizdagi estetik did, estetik faoliyat har tomonlama uyg‘un shakllana borgandagina ekologik qadriyatlar vujudga keladi. Insonlarning tabiat quchog‘ida bo‘lishi ularni ruhan tetiklashtirib, mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini yanada oshirib boradi. Vatanni sevish-tabiatni sevishdan boshlanadi, binobarin, yoshlarda go‘zallikka nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg‘usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, insoniyatning har bir a’zosi o‘zi yashab turgan ona tabiatni o‘zidan keyingi avlodga go‘zal va obod, shuningdek o‘simlik va hayvonot dunyosining rang-barang turlarini to‘la saqlagan holda etkazib berish, ekologik va estetik madaniyatni yoshlar oniga singdirish va ona tabiat zahiralaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanish har bir shaxsning o‘z oldidagi burchidir, chunki ona tabiatda hamma narsa chambarchas bir biri bilan bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. T. 7 -T.: O‘zbekiston, 1999.

2. Karimov I. A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. –T: 3 -T: O‘zbekiston, 1996 .

GLOBALLASHUV JARAYONIDA IJTIMOIY TARMOQLARNING JAMIYAT HAYOTIGA SALBIY TA’SIRI

O‘rinboyeva Elnora Furqat qizi
Guliston davlat pedogogika instituti talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ular orqali insonlar o‘z fikrlarini, g‘oyalarini va hissiyotlarini keng auditoriyaga yetkazish imkoniyatiga ega. Biroq, bu jarayonning salbiy oqibatlari ham ko‘rinadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan noto‘g‘ri ma’lumotlar, g‘oyaviy ekstremizm, kiberbullying va boshqa salbiy hodisalar jamiyatda ijtimoiy va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Globalizatsiya, Ijtimoiy tarmoqlar, Salbiy ta’sir, Jamiyat Axborot, Noto‘g‘ri ma’lumot, Ekstremizm, Kiberbullying, Psixologik muammolar, An’anaviy aloqalar, Yoshlar, Ijtimoiy o‘zgarishlar, Media savodxonligi, Innovatsiya, Ommaviy kommunikatsiya, Ijtimoiy barqarorlik.

KIRISH

Hozirgi kunda globalizatsiya jarayoni dunyo bo‘ylab ijtimoiy va iqtisodiy hayotning barcha jabhalarini o‘zgartirib yubormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, ayniqsa, bu jarayonda muhim rol o‘ynaydi, chunki ular insonlar o‘rtasida tezkor aloqa o‘rnatish, axborot almashish va fikrlarni ifodalash imkoniyatini yaratadi. Biroq, ijtimoiy tarmoqlar faqat ijobiy ta’sir ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. Ularning tez tarqalishi va keng qamrovli foydalanilishi ko‘plab salbiy oqibatlarga ham olib keladi.

Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan noto‘g‘ri ma’lumotlar, g‘oyaviy ekstremizm va kiberbullying kabi muammolar jamiyatda ijtimoiy tartibsizlik va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Yoshlar orasida internetga bog‘lanish va ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritishning o‘sishi, o‘z navbatida, ularning shaxsiy hayoti va an’anaviy aloqalariga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga salbiy ta’siri keng ko‘lamda tahlil qilinadi, ularning kelib chiqishi, sabab va oqibatlari, shuningdek, bunday salbiy ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonni chuqur tushunish orqali, biz jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni yanada mas’uliyatli va foydali qilish yo‘llarini izlashimiz mumkin. Globallashuv paytida ijtimoiy tarmoqlar jamiyatga balki insonlar ga ham salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda ,shuni aytishimiz keraki,ijtimoiy tarmoqlar insonlarni o‘ziga tortib olayaptiki, u yerdan hech kim chiqolmayapti. Glaballashuv-bu xalqaro taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibi o‘zgartirish jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlar dan biridir. Demak, galaballashuv jarayonida har bir bo‘layotgan o‘zgarishlar shuni ko‘rsatadiki, insonlar qaysi narsa ko‘zlariga yaxshi ko‘rinsa shuni qilishga urinadigan bo‘lib qolishadi. Global ijtimoiy-madaniy jarayoar xalqlar va madaniyatlar integratsiyasini ta’minlashi kerak bo‘lsa, global boshqaruv usuli qo‘llanishi bilan insoniyat tarixida yangi ma’navit paedigmasiya asos solmoqda. Endilikda global madaniy qadriyatlar zamoni va boshqaruv shakllari hukmron bo‘lgan davr keladi. Milliy-madaniy tuzilish silvizatsiyalarga singib boradi. Keyingi paytda an’anaviy madaniyatlarning global ijtimoiy madaniy jarayonlar bilan ziddiyati kuzatilib an’anaga nisbatan zo‘ravonlik holatlari uchramoqda. Global makonda bunda tajovuzkorlik ham virtual ham real voqelikda amalga oshirilmoqda. Shu ma’noda xalqlar, millatlar va madaniyatlarning o‘ziga xosligi, o‘ziga mos ijtimoiy amaliyot qo‘llashga qaratilgan faoliyatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki “milliy – madaniy mentaliet va badiiy-estetik faoliyat o‘z mohiyatini saqlab qoladi. Demak, biz glaballashuv sharoitda intimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri

yo‘lda foydalanishimizda yo‘lida katta ahamiyati bor ekan. Jamiyat bu kishilarning bir maqasad yo‘lida birlashgan munosa batlar tizimi. Jamiyatni barqarorligida salbiy hodisalar va salbiy ta’sirlar juda ko‘p bo‘ladi. Ayniqsa, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali bo‘layotgan turli xil yod g‘oylar tarqayotganlar juda ko‘p. Bu bir misol qilib aytishimiz mumkin. Terorizm, ekstarmizim va mentalitetga to‘g‘ri kelmaydigan g‘oyalarni bizning jamiyatga kirib kelishi eng katta salbiy ta’sirlardan biri. Ijtimoiy tarmoqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ijtimoiy media platformalari bizning bir-birmizga bo‘lgan dunyomizning yurak urishga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimizga ta’siri chuqur va ko‘p qirrali. Misol uchun aytamizki, tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlar yolg‘izlik hissi va muloqaot yetishmaslik xalos bo‘lishga yordam bermasligi, aksincha ularni kuchaytirishni aniqlashdi. Bunga qadar esa olimlar izolyatsiya hissini yoshlar orasidagi yuqori ko‘rsatkichlari bilan bog‘lashgan edi. Media, texnologiya va ulardan keng omma foydalanishi bugungi kunda kengaymoqda.[1] Deamak, bizning jamiyatga ijtimoit tarmoqlarni ta’siri ko‘p ekanligini ko‘rishimiz mumkin ekan. Tadqiqot mualliflarining ta’kidlashicha, ijtimoiy tarmoqlarning ziyoni haqida uzoq muddatli xulosalar qilishga hali erta. Zero ular dastlab nima paydo bo‘lgani yolg‘izlik hissini yoki ijtimoiy tarmoqqa qiziqish bilishmaydi.

Elizabet Miller, tibbiyot fanlar doktori shunday degan ekan:

“Ehtimol, dastlab o‘zlarini yolg‘iz his qilgan yoshlar yoki ijtimoiy tarmoqlarga qiziqish bildirgan yoki ijtimoiy tarmoqlardan ko‘p foydalanish haqiqiy hayotdan ajralib qolishfa olib kelgan. Bu ikki omil uyg‘unligi ham bo‘lishi mumkin”.

Shunday ekan jamiyatni asosini yoshlar tashkil etadi, ularni hayoti kelajakdagi rivojlanishda asosiy rol o‘ynaydi. Glaballashuv jaryonda ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri maqsadda foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo‘ladi. Olimlarni fikricha, ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarning bo‘sh vaqt davomida real insonlar bilan muloqot qishlari mumkin. Bundan tashqari ijtimoiy tarmoqlar hamkasblar va do‘stlar hayotini kuzatish imkonini beradi, buning natijasida odamlarda hasad yoki o‘z hayotidan qoniqmaslik hissi paydo bo‘lishi mumkin. Bu juda ham katta salbiy oqibatlarga olib keladi. Jamiyatda odamlar qachonki ijtimoiy tarmoqdagi yod g‘oyalarga ishonadigan bo‘lib qolsa, ularda ma’naviy tarbiyaning yetishmaganidan va yetarlicha bilim olmaganidan deb yashayotgan insonlar juda ko‘p. Ijtimoiy tarmoqlarni jamiyat rivojlanishiga katta xavf keltirayotgan kuch desak ham bo‘ladi. Sog‘liqni saqlash sohasida mutaxassislar o‘tirish-bu yangi chekish ekanligini ta’kidlanmoqda uzoq vaqt davomida o‘tirish odati keltirib chiqaradigan xastaliklar ular oqibatida har yili qancha odam vafot etishi hisobga olsa o‘tirish sog‘lig‘imiz uchun jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Biroq hozirgi kunda ko‘p odamlarni zombiga aylantilgan ijtimoiy tarmoqlardan uzoqlasha olmaslik ruhiy xastalik kasaligini keltirib chiqarishi katta zarar ekanligini bilishimiz kerak. Shuning uchun jamiyatni barqarorligiga g‘ov bo‘layotgan tarmoqlarni oldini olishimiz kerak[2].

Dunyo bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlardan foydalanayotgan insonlarni ko‘pchligini yoshlar tashkil etadi. Shulardan misol qilamizki, telegram, youtube, facebook, twitter va boshqa internet bilan ishlaydigan dasturlar kiradi. Bulardan hozirda jamiyat hayotiga katta ta’sir qilayotgan instagram ijtimoiy tarmog‘i bu hozir omma orasida eng mashhur dastur. Bu dasturda jamiyatdagi insonlarni tarbiyasini buzadigan ko‘plab videolar bor va insonlarni o‘ziga jalb qiladigan turli xil mavzudagi videolar jamiyatni buzilishga olib kelmoqda. Shu sababli ijtimoiy tarmoqlarni jamiyat rivojlanishiga salbiy ta’siri shu dastur katta ahamiyatga egadir.

Ushbu maqolada globalizatsiya jarayonida ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga salbiy ta’sirini o‘rganish uchun bir nechta adabiyotlar va tadqiqotlar tahlil qilinadi. Tahlil qilingan manbalar orasida ilmiy maqolalar, statistik hisobotlar, ijtimoiy tarmoqlarga oid tadqiqotlar va psixologik tahlillar mavjud.

Adabiyotlar tahlili quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- Ijtimoiy tarmoqlar va globalizatsiya: Ushbu bo‘limda ijtimoiy tarmoqlarning globalizatsiya jarayonidagi o‘rni va roli tahlil qilinadi. Avvalgi tadqiqotlarda ijtimoiy tarmoqlar

[1] boyd, d. (2010). Social Network Sites as Networked Publics: Affordances, Dynamics, and Implications. In A Networked Self: Identity, Community, and Culture on Social Network Sites. Routledge.

[2] Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. Basic Books.

orqali tarqatilgan axborotning tezligi va uning ijtimoiy munosabatlarga ta'siri o'rganilgan.

❖ Salbiy oqibatlar: Ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'sirlarini o'rganish uchun psixologiya, sotsiologiya va kommunikatsiya sohalaridagi ilmiy adabiyotlar tahlil qilinadi. Kiberbullying, axborot manipulyatsiyasi va g'oyaviy ekstremizm kabi masalalar chuqur o'rganiladi.

❖ Jamiyatdagi o'zgarishlar: Jamiyatda ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirini o'rganish uchun statistik ma'lumotlar va ijtimoiy so'rovlar natijalari keltiriladi. Bunda, yoshlar va kattalar orasidagi ijtimoiy aloqalar va axborot iste'moli tahlil qilinadi.

Metodlar:

Maqolani yozish jarayonida quyidagi metodlar qo'llaniladi:

❖ Literatura tahlili: Ilmiy maqolalar, kitoblar va boshqa manbalarni o'rganish orqali ijtimoiy tarmoqlarning salbiy ta'siri haqida mavjud bilimlarni umumlashtirish.[1]

❖ Empirik tadqiqot: Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar orasida so'rovnoma o'tkazish orqali ularning tajribalari va fikrlarini yig'ish. Bu metod yordamida ijtimoiy tarmoqlarning hayotga ta'sirini bevosita o'lchash imkoniyati yaratiladi.

❖ Kasosional tahlil: Ijtimoiy tarmoqlarda sodir bo'layotgan muammolarni misollar bilan ko'rsatish, kiberbullying yoki noto'g'ri ma'lumotlar tarqatish kabi holatlarni tahlil qilish.

